

GOLDEN BRAIN

Scientific Journal

ISSN: 2181-4120



Volume 1, Issue 13



CiteFactor
Academic Scientific Journals



Google
Scholar



® digital object
identifier

zenodo

2023/13

May

ISSN 2181-4120
VOLUME 1, ISSUE 13
MAY 2023



<https://researchedu.org/index.php/goldenbrain>

“GOLDEN BRAIN” SCIENTIFIC JOURNAL
VOLUME 1, ISSUE 13, MAY, 2023

EDITORIAL BOARD

G. Kholmurodova

Professor, Doctor of Agricultural Sciences, Tashkent State Agrarian University

A. Madaliev

Professor, Doctor of Economics, Tashkent State Agrarian University

G. Sotiboldieva

Associate Professor, Doctor of Philosophy (Phd) in Biological Sciences, Fergana State University

U. Rashidova

Associate Professor, Doctor of Philosophy (Phd) in Philological Sciences, Samarkand State University

D. Darmonov

Associate Professor, Doctor of Philosophy (Phd) in Biological Sciences, Fergana State University

X. Abduxakimova

Associate Professor, Doctor of Philosophy (Phd) in Biological Sciences, Fergana State University

U. Ruzmetov

Associate Professor, Doctor of Philosophy (Phd) in Chemical Sciences, National University of Uzbekistan

M. Yusupova

Associate Professor, Doctor of Philosophy (Phd) in Biological Sciences, Fergana State University

M. Kambarov

Associate Professor, Doctor of Philosophy (Phd) in Pedagogical Sciences, Namangan State University

S. Sadaddinova

Associate Professor, Doctor of Philosophy (Phd) in Physics and Mathematics Sciences, Tashkent University of Information Technologies

M. Fayzullaev

Associate Professor, Doctor of Philosophy (Phd) Geographical Sciences, Karshi State University

Z. Muminova

Doctor of Philosophy (Phd) in Agricultural Sciences, Samarkand Institute of Veterinary Medicine

B. Kuldashov

Doctor of Philosophy (Phd) in Agricultural Sciences, Samarkand Institute of Veterinary Medicine

Kh. Askarov

Doctor of Philosophy (Phd) in Agricultural Sciences, Fergana Polytechnic Institute

S. Nazarova

Associate Professor, Doctor of Philosophy (Phd) in Agricultural Sciences, Bukhara State University

O. Rahmonov

Doctor of Philosophy (Phd) in Technical Sciences, Fergana Polytechnic Institute

G. Tangirova

Associate Professor, Doctor of Philosophy (Phd) in Agricultural Sciences, Tashkent State Agrarian University

Z. Koryogdiev

Doctor of Philosophy (Phd) in Historical Sciences, Bukhara State University

S. Ubaydullaev

Doctor of Philosophy (Phd) in Agricultural Sciences, Andijan Institute of Agriculture and Agrotechnology

R. Yuldasheva

Associate Professor, Doctor of Agricultural Sciences, Tashkent State Agrarian University

M. Yuldashova

Doctor of Philosophy (Phd) in Biological Sciences, Namangan State University

EDITORIAL SECRETARY: J.Eshonkulov

UDK:619:636.2:617.3:616

ZOTLI SIGIRLARDA ASEPTIK PODODERMATIT JARAYONLARINI UCHRASH DARAJASI

Pardaeva Sh.A

Samarqand davlat veterinariya meditsinasi,
chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti tayanch-doktaranti

Mirzaev S.M

Samarqand davlat veterinariya meditsinasi,
chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti magistri

Ilmiy rahbar: vet.f.d., professor **Niyozov H.B.**

Annotatsiya

Qoramolchilikga ixtisoslashgan xo‘jaliklarda zotli sigirlar o‘rtasida aseptik pododermatitlar natijalarini fasllar bo‘yicha tahlil qilganimizda qish oylarida xo‘jaliklardagi jami tekshirilgan 1160 bosh hayvonlarning 199 boshida (17,1%), bahor faslida 219 boshida (18,8%), yoz faslida 49 boshida (4,2%), kuz faslida esa 132 boshida (11,3%) va o‘rtacha 149 bosh (12,8%) hayvonda aseptik pododermatit jarayonlari kechayotganligi aniqlandi.

***Kalit so‘zlar:** aseptik pododermatitlar, tuyoqchalar oralig‘ida dermatitlar tuyoq va yumaloq bo‘g‘in artriti, tuyoq kafti, teri asosida shikastlanishlar, jarohatlar, yallig‘lanish, etiologiya.*

Oxirgi yillarda mamlakatimizga Yevropa mamlakatlaridan ko‘plab mahsuldorligi yuqori bo‘lgan zotli hayvonlar keltirilib, chorvachilikga ixtisoslashtirilgan fermer xo‘jaliklarga tarqatildi. Shuni alohida ta‘kidlash lozimki, xorijdan keltirilgan naslli chorva mollarini sog‘lom parvarish qilish, ulardan sifatli va ekologik toza sut va go‘sh

mahsulotlari olish uchun hayvonlar saqlanadigan otxona va molxonalar zoogigienik me'yorlarga mos hamda ularda yayrash maydonchalari bo'lishi va kirish joylari esa veterinariya sanitariya talablariga javob berishi kerak. [4; 5; 6; 7;8;9; 13].

Xorij mamlakatlaridan olib kelingan mahsuldorligi yuqori bo'lgan g'unojinlarning katta sonini golshtin-friz zoti tashkil etadi. Mamlakatimizning deyarli barcha hududlarida ular uchun maxsus bog'lovsiz boqish uchun komplekslar qurilgan. Bu sigirlar yuqori sut mahsuldorligiga ega bo'lib, sut mahsulotini ko'paytiradi. Ko'pchilik fermer va mas'uliyati cheklangan xo'jaliklarda oyoqlarning distal qismi ya'ni tuyoq kasalliklari jiddiy muammo bo'lib kelmoqda. Shuning uchun ham ushbu patologiyani uchrash darajasi va ularni keltirib chiqaruvchi etiologik omillarni o'rganish dolzarb muammolardan biridir.

V.V.Gimranov va S.I.Timofeevlar fikrlari bo'yicha yirik shoxli mollar barmoq sohasidagi kasalliklar tasnifining amaliy ahamiyati shundan iboratki, ortopedik dispanserlash natijasida olingan ma'lumotlarga tayangan holda tashxislash, kasallik kechishining prognozi o'tkaziladi, iqtisodiy zararni kamaytirishga yo'naltirilgan davolash-profilaktik va tashkiliy-xo'jalik tadbirlari belgilanadi va umuman olganda, chorvachilikda har qanday tasniflashning ustuvor tamoyili o'z vaqtida tashxis qo'yish, kasallik kechishini prognozlash, davolash va profilaktikaning samaradorligini aniqlashdan iborat [1].

Chorvachilik komplekslari va fermalarida ortopedik dispanserlash o'tkazish texnologik jarayonlarning ajralmas qismi bo'lishi zarurligi tadqiqotchilar tomonidan alohida ta'kidlanadi. Ularning fikrlariga ko'ra, chorvachilik komplekslarining sut va bo'rdoqi yo'nalishidagi hayvonlarini muntazam ortopedik dispanserlash sut va go'sht qoramolchiligiga veterinariya xizmati texnologiyasida samarali tadbir hisoblanadi [3].

Uzoq muddatli davolashni taqozo etadigan surunkali kasalliklar yoki patologiyalarni davolashda, tashqi klinik belgilari bo'lmaganda, aynan qonni tekshirish organizm holati haqida yetarlicha to'liq tasavvur hosil qilib, organizmda metabolik o'zgarishlarni kuzatib borish imkonini beradi, davolashni o'z vaqtida muvofiqlashtirishga yordam beradi va umuman chorvachilikning muhim iqtisodiy

ko'rsatkichi hisoblangan hayvonlarning ko'payish funksiyalarining tiklanishini tezlashtiradi hamda sarf-xarajatni sezilarli pasaytiradi [2].

Hayvonlarda barmoq sohasidagi patologik jarayonlarini rivojlanishiga motsionning yetishmasligi, molxona va yayratish maydonlaridagi sanitariya holatining me'yor darajasiga javob bermasligi va asosiy omillardan biri shikastlanishlar natijasida organizmning reaktivligini pasayishi va shikastlangan joyga mikroorganizmning rivojlanishi sabab bo'lgan [10; 11; 12].

O'zbekiston chorvachilik soxasida uchraydigan yuqumsiz kasallik-larning salmog'i yuqori ekanligi bir qancha olimlar tomonidan takidlanib kelinmoqda. Bu kasalliklarning aksariyat ko'pchiligining kelib chiqish sabablari noaniqligi, veterinariya mutaxasislari oldida juda katta muammolarni keltirib chiqarmoqda.

Maqsad va vazifalar

Xo'jaliklarda chetdan keltirilgan sigirlar orasida aseptik pododermatit jarayonlarini uchrash darajasini o'rganish tekshirishning asosiy maqsadi bo'lib hisoblandi.

Tadqiqot obyekti va uslublari

Sigirlar orasida aseptik pododermatit jarayonlarini uchrash darajasi, ularni keltirib chiqaruvchi etiologik omillari va klinik belgilariga oid ilmiy tekshirish ishlari va tajribalarimiz Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorva chilik va biotexnologiyalar universiteti, veterinariya profilaktikasi va davolash fakultetining «Hayvonlar anatomiyasi, gistologiyasi va patomorfologiyasi» kafedrasida, Samarqand viloyati Narpay tumani "AgroGold Spring" chorvachilik fermer xo'jaligida, Samarqand tumani "Talobot" chorvachilik fermer xo'jaligida, Samarqand tumani "Agro Bravo" chorvachilik fermer xo'jaligida, Qashqadaryo viloyati Kitob tumani "Do'stboy" chorvachilik xo'jaligida 2022-yilda o'tkazildi.

Tadqiqot natijalari

Samarqand viloyati Narpay tumani "AgroGold Spring" chorvachilik fermer xo'jaligida 2022 yilda 440 bosh qoramollar klinik tekshirilganda ularning qish oylarida 75 bosh (17,4%), bahor oylarida 78 bosh (17,7%) yoz oylarida 18 bosh (4,1%) kuz

oylarida 48 bosh (10,9%) aseptik pododermatit bilan kasallanganligi va bu o'rtacha 55 boshni (12,5%) tashkil qildi. Shunga o'xshash "Talobot" chorvachilik fermer xo'jaligida 2022 yilda 180 bosh qoramollar klinik tekshirilganda ularning ularning qish oylarida 27 bosh (15%) , bahor oylarida 36 bosh (20%) yoz oylarida 6 bosh (3,3%) kuz oylarida 24 bosh (13,3 %) .va o'rtacha 23 bosh (12,7%) hayvon aseptik pododermatit bilan kasallanganligi ma'lum bo'ldi. (1-jadval)

Samarqand tumani "Agro Bravo" chorvachilik xo'jaligida 2022-yilda 290 bosh qoramollar klinik tekshirilganda ularning ularning qish oylarida 52 bosh (17,9%) , bahor oylarida 54 bosh (18,6%) yoz oylarida 14 bosh (4,8%) kuz oylarida 25 bosh (8,6 %) .va o'rtacha 36 bosh (12,4%) hayvonda pododermatit kasalligi borligi aniqlandi.

Qashqadaryo viloyati Kitob tumani "Do'stboy" chorvachilik fermer xo'jaligida 2022-yilda 250 bosh qoramollar klinik tekshirilganda ularning qish oylarida 45 bosh (18%), bahor oylarida 51 bosh (20,4%) yoz oylarida 11 bosh (4,4%) kuz oylarida 35 bosh (14%) .va o'rtacha 35 boshni (14%) tashkil etdi.

Olingan natijalarni fasllar bo'yicha taxlil qilganimizda qish oylarida xo'jaliklardagi jami tekshirilgan 1160 bosh xayvonlarning 199 boshida (17,1%), bahor faslida 219 boshida (18,8%), yoz faslida 49 boshida (4,2%), kuz faslida esa 132 boshida (11,3%) va o'rtacha 149 bosh (12,8%) hayvonda aseptik pododermatit jarayonlari kechayotganligi aniqlandi.

Tekshirishlar natijasida xo'jaliklardagi barcha oqsayotgan hayvonlarning 78% da orqa oyoqlarning ko'proq tashqi tuyoqchalarida va 22% da esa oldingi oyoqlarning ko'proq ichki tuyoqchalarida shikastlanganligi aniqlandi. Kasal hayvonlarda bitta orqa oyoqning shikastlanishi 93% hayvonda kuzatilgan bo'lsa, ikki orqa oyoqning shikastlanishi esa 7% hayvonda aniqlandi.

Xulosa

Tekshirishlar natijasida qoramolchilikga ixtisoslashgan xo'jaliklardagi zotli sigirlarda fasllar bo'yicha taxlil qilganimizda qish oylarida xo'jaliklardagi jami tekshirilgan 1160 bosh xayvonlarning 199 boshida (17,1%), bahor faslida 219 boshida (18,8%), yoz faslida 49 boshida (4,2%), kuz faslida esa 132 boshida (11,3%) va o'rtacha

149 bosh (12,8%) hayvonda aseptik pododermatit jarayonlari tashkil etishi qayd etilib, kasallangan sigirlarda asosan ko‘proq 78% da orqa oyoqlarning ko‘proq tashqi tuyuqchalari va 22% da esa oldingi oyoqlarning ko‘proq ichki tuyuqchalari shikastlanganligi aniqlandi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. В.В.Гимранов, С.В. Тимофаев Классификация болезней в области пальцев у крупного рогатого скота // Ветеринария. М., 2006. -№ 2. –С. 48-49.
2. Н.А.Дидковский., Л.И.Дворецкий Новые методы лечения ран на промышленных комплексах // Ветеринария. М., 1996. -№ 7. –С. 11-12.
3. С.В.Тимофеев, Ю.И.Филиппов., В.В.Гимранов Болезни копытец и технология ортопедической диспансеризации / Ветеринарная медицина. М., 2009. -№ 1-2. –С. 78-80.
4. Х.Б.Ниязов, & Х.Х.Эшкuvatov, (2019). БИОЛОГИЧЕСКОЕ ДЕЙСТВИЕ НА ОРГАНИЗМ КОРОВ АУТОКРОВИ, ОБЛУЧЕННОЙ НЕОН-ГЕЛИЕВЫМИ ЛАЗЕРНЫМИ ЛУЧАМИ. In *СОВРЕМЕННОЕ СОСТОЯНИЕ, ТРАДИЦИИ И ИННОВАЦИОННЫЕ ТЕХНОЛОГИИ В РАЗВИТИИ АПК* (pp. 100-105).
5. Х.Б.Ниязов, (2016). БИОЛОГИЧЕСКОЕ ДЕЙСТВИЕ НА ОРГАНИЗМ ЛОШАДЕЙ АУТОКРОВИ, ОБЛУЧЕННОЙ НЕОН-ГЕЛИЕВЫМИ ЛАЗЕРНЫМИ ЛУЧАМИ. *Путь науки*, (10), 44-46.
6. Х.Умаров, & Х.Б.Ниязов, (2021). Распространение и этиология острых асептических миозитов у спортивных лошадей.
7. Hakim, N, Numon, D, & Nasriddin, D. (2021). TREATMENT OF ASEPTIC DISEASES OF LIMB DISTAL PART JOINTS IN UZBEK SPORT HORSES. *Journal of Microbiology, Biotechnology and Food Sciences*, 2021, 478-481.
8. Kh, D. M. (2021). ETIOLOGY, FREQUENCY AND CLINICAL MANIFESTATIONS OF PURULENT INFLAMMATION OF THE FINGER JOINT IN SPORT HORSES. *AcademiaGlobe: Inderscience Research*, 2(6), 367-372.

9. A.K. Roziboev., H.B.Niyazov, & H.K.Bazarov. (2022). Microbes And Their Sensitivity To Antibiotics In Samples From The Joints Of Horses With Purulous Inflammation Processes. *JournalofPositiveSchoolPsychology*, 6(9), 2740-2745.
10. B.Y.Nuriddinov., &H.B.Niyazov. (2022). MORPHOLOGICAL INDICATORS OF BLOOD IN THE TREATMENT OF PURULOUS-NECROTIC PROCESSES IN THE TOES OF COWS WITH DIFFERENT METHODS. *Conferencea*, 150-155.
11. B.Y.Nuriddinov., & H.B.Niyazov, (2022). INFLUENCE OF ETIOLOGICAL FACTORS AND SEASONS ON THE OCCURRENCE OF PURULOUS-NECROTIC PROCESSES IN THE TOES OF BREEDDED COWS. *Conferencea*, 116-122.
12. H.B.Niyozov, N.N.Ergashev. *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary*, 2019
13. H.B.Niyazov, A.K.Ruzibayev, X.Fottayev- *Asian Journal of Multidimensional Research (AJMR)*, 2019

KIYIM ISHLAB CHIQRISHDA “AQLLI” MATOLARNI QO‘LLASH VA ULARNING TAHLILI

Xolliev Sunnatbek

Toshkent to‘qimachilik va yengil sanoat instituti

Rasulova Mastura

Termiz muhandislik-texnologiya instituti

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada tikuvchilik sohasiga kirib kelayotgan “aqlli” matolar, ularning turlari, qo‘llanish sohasi va xususiyatlari o‘rganilgan va tahlil qilingan. Chet el olimlari va mutaxassisleri tomonidan yaratilgan “aqlli” matolarning tikuv buyumlarini ishlab chiqarishda qo‘llanilishi va ularning afzalliklari haqida ma’lumotlar keltirilgan.

Olib borilgan tahlil natijalari shuni ko‘rsatadiki, kiyimning funksiyasidan kelib chiqib, ilmiy-asoslangan holda materialni to‘g‘ri tanlash uning sifatini va qulayligini ta’minlaydi.

Kalit so‘zlar: “aqlli” mato, antibakterial, intellektual, tola, sensor, datchik.

ABSTRACT

This article explores and analyzes the “smart” fabrics that are entering the field of sewing, their types, area of application and properties. Information is provided about the use of “smart” fabrics created by foreign scientists and specialists in the manufacture of sewing items and their advantages. The results of the analysis carried out show that the correct selection of the material based on the background of the outfit, scientifically-based, ensures its quality and comfort.

Keywords: “smart” fabric, antibacterial, intellectual, fiber, sensor, sensor.

Insonlarning zamonaviy va sifatli kiyimga bo'lgan ehtiyojining doimiy o'sib borishi korxonalar tomonidan ularning assortimentini ko'paytirish va yaxshilash hamda sifatini oshirishni talab etadi. Bugungi kunda tikuvchilik korxonalari ish faoliyatining samaradorligi, ularni bozor hamda iste'molchilarning talablariga moslashuvchanligi ko'p jihatdan assortiment siyosatini shakllantirishga bog'liq. Iste'molchi o'z navbatida shaxsiy didi, tashqi ko'rinishi, qaddi-qomati va moda yo'nalishiga mos keladigan turli xil assortimentdagi kiyimlarga talab qo'yimoqda.

Hozirgi kunda nafaqat ob-havo ta'sirlaridan, balki jarohatlar va boshqa kutilmagan vaziyatlardan ham himoya qilish uchun atrof-muhit o'zgarishlarini taniy oladigan va funksional o'zgarishlar orqali ularga moslasha oladigan, masalan, rangni o'zgartirish, suvga chidamlilik, antibakterial va boshqa zarur xususiyatlarga moslashuvchan maxsus "aqlli" matolar ishlab chiqilmoqda [1].

Texnika va texnologiya jadallik bilan rivojlanayotgan vaqtda, "aqlli" matolarni qo'llagan holda har tomonlama qulay va sifatli kiyim yaratish dolzarb masala hisoblanadi. Buning uchun chet el olimlari va mutaxassislari tomonidan yaratilgan "aqlli" matolar, ularning turlari, qo'llanish sohasi va xususiyatlari haqida ma'lumotlarni o'rganish va tahlil qilishni maqsad qilib olindi.

Gazlamalarning "intellektual" xususiyatlarining rivojlanish darajasiga qarab, ular quyidagilar bo'lishi mumkin: passiv (ular faqat atrof-muhitdagi o'zgarishlarni sezadilar), faol (javob berishga qodir) va "juda aqlli" (ushbu o'zgarishlarga ular moslasha oladilar). Ularni qo'llash doirasi harbiy sanoatdan (har xil turdagi qo'shinlarni jihozlash uchun moslashtirilgan xususiyatlarga ega matolar) tibbiyotgacha (soo'liqni kuzatish imkonini beruvchi o'rnatilgan sensorlar va datchiklarga ega matolar) ega. Aqlli matolar asosan rangini o'zgartiradigan aqlli mato, suv o'tkazmaydigan va nafas oladigan mato, elektron ma'lumotli aqlli mato, shakl xotirali aqlli mato va haroratni nazorat qiluvchi mato turlariga bo'linadi. Har bir tur bo'yicha aqlli matolar ishlab chiqilgan va ularning kiyim namunalari yaratilgan. Bular: kuchli nurlanish natijasida kiyim rangining o'zgarishi (1-rasm), issiq haroratda tanani sovutish (2-rasm), kuyishdan saqlovchi gidrogel tarkibli kiyim (3-rasm), maxsus va xarbiy kiyimlar uchun qo'llanadigan suv o'tkazmaydigan va

nafas oluvchi mato (4-rasm), kichik mikrosensorli tibbiyot sohasida qo'llanadigan kiyimlar (5-rasm) xalq xo'jaligi sohasida katta ahamiyatga ega va insonlarning hayot tarzini yaxshilash uchun keng imkoniyatlarni ochib beradi [1].



1-rasm. Fotoxromli futbolka



2-rasm. Sovituvchi jilet



3-rasm. Shakl xotirali aqlli kiyim



4-rasm. Suv o'tkazmaydigan va nafas oladigan mato



5-rasm. Tibbiy kiyim

Amerika va xitoy olimlari tomonidan inson tanasi haroratining o'zgarishiga javob beradigan "aqlli" matolar ishlab chiqildi. Harorat qancha yuqoti bo'lsa, mato tolalari siqiladi va termal nurlanish uchun matoning shaffofligini oshiradi. Aksincha, harorat qancha past bo'lsa, mato shunchalik momiq ko'rinishda bo'ladi.

Merilend universiteti mutaxassislari tomonidan maxsus moslashuvchan gazlama ishlab chiqildi. Bu gazlama termal nurlanish va suv bug'ini o'tkazish qobiliyatini o'zgartiradi. Olimlar tomonidan ishlab chiqilgan "aqlli" mato ko'p sonli tolalardan iborat. Ularning har biri kompozit bo'lib, tolaning 50% - sellyuloza, 50% - triasetatdir [3].

Sellyuloza gidrofil, triasetat gidrofob. Namlik qanchalik yuqori bo'lsa, tolalar shunchalik yaqinroq bo'ladi. Bundan tashqari, uchinchi komponent - uglerod nanotrupalari mavjud. Ular yordamida tolalar yaqinlashganda, rezonansli elektromagnit bog'lanish jarayonini faollashtiradi. Bundan tashqari tolalarning nurlanishini oshiradi, nurlanish spektri bu holda 5-15 mikrometr oralig'ida siljiydi. Bu inson tanasining termal nurlanish diapazoni. Alohida tolalar bir-biriga qanchalik yaqin bo'lsa, konveksiya jarayoni shunchalik kuchliroq bo'ladi.

"Aqlli" mato bir vaqtning o'zida bir nechta foydali xususiyatlarga ega: u namlikni chiqarib tashlaydi va tashqi muhit haroratida tanani tez sovutish imkonini beradi. Harorat pasayganda, issiqlik va namlikni saqlaydi. Matoda namlikning taxminan 90% gacha ko'tarilishi bilan uning issiqlik o'tkazuvchanligi 35,4% ga oshadi [1].

Turli xil surunkali kasalliklarning o'sishi ulardan azob chekayotgan insonlar uchun qulay hayotni ta'minlash muammosini yanada kuchaytiradi. Insonning sog'lig'i to'g'risida ma'lumot to'playdigan va keyingi tahlil uchun uzatadigan sensorlar bilan

jihozlangan maxsus kiyimni kiyish, bunday bemorlarning dori-darmonlarga va shifokor tashrifiga boʻliqligini kamaytirishga yordam beradi. Agar kerak boʻlsa, bunday kiyim avtomatik ravishda buyurilgan dori-darmonlarni kiritishi mumkin. “Aqlli” kiyimlardan foydalanish turli kasalliklarga chalingan kishilarning sooʻlioʻiga qoʻshimcha xavf tugʻdirmagan holda harakatchanligini oshiradi [2].

“Aqlli” matoga toʻqilgan datchiklar yurak urish tezligi, nafas olish, yurak urish tezligi, “shaker” darajasi va b.q.larni koʻrsatadi va keyin ularni (masalan, simsiz aloqa kanallari orqali) foydalanuvchining mobil telefoniga yoki bevosita shifokorga uzatadi. Datchiklarning qalinligi koʻpincha bir necha millimetrdan oshmaydi (koʻylakda oʻrnatilgan EKG sensori qalinligi 2,3 mm).

Italiyalik dizayner Mayro Taliani namlik va haroratning koʻrsatkichiga qarab konstruksiyasi oʻzgaradigan erkaklar sorochkasini ishlab chiqdi. Gazlama tarkibiga nikel, titan, neylon tolalari kirib, atrof muhit harorati koʻtarilsa sorochka yengil bir necha daqiqa ichida bilakdan tirsakka koʻtarilishi mumkin. Harorat pasaysa, yengil uzunligi oʻz holiga qaytariladi. Bu kiyim nafaqat atrof muhit, balki tana haroratiga ham javob qaytaradi, yaʼni inson terlaganda kiyimning tashqi koʻrinishida rangi oʻzgaradi. Bu sorochka oʻijim boʻlmaydi, har qanday vaziyatda ham 30 sekund oraligʻida oʻz shakliga qaytadi [2].

Havoni sovutib beradigan kichik tizimga ega boʻlgan jilet ishlab chiqilgan boʻlib, unga 50 metrli suyuqligi bor plastmassa trubka tikiladi. Bu model uchun harorat 70⁰ C gacha koʻtariladigan atom stansiyasidagi ishchilarning maxsus kiyimi konstruksiyasidan foydalanilgan.

Yana bir model, bu jaket-tashqi muhitning sovuqligiga qaramasdan inson tanasini isitib beradi. Bu modelda noyob modda aerogel qoʻllaniladi. Corpo Nove kompaniyasining vakillarining maʼlumotiga koʻra bu material 99,8 % havodan tashkil topgan boʻlib, dunyoda eng yengil material hisoblanadi. Bu kiyim inson tanasini -80⁰ C da ham isitishi mumkin. Ishlash prinsipi oddiy boʻlib, undagi havo qatlami optimal izolyator vazifasini bajaradi. Bu xususiyat avvalgi asrda Oʻrta Osiyo kiyimlarida, Shimoliy Sibir shoʻbalarida, tuki roʻmollarda qoʻllanilgan [1].

Corpo Nove kompaniyasining yana bir qiziqarli modeli-mototsiklchi yoki velosipedchilarning isituvchi jaketi bo‘lib, uskuna simi orqali ishlab chiqarilgan energiya kiyimga yuboriladi. Maksimal isitish darajasi $+43^{\circ}\text{C}$.

Hozirda kiyimlar uchun optik tolalar, sut oqsili, polimerlar qo‘llanilmoqda, sun‘iy yoki tabiiy charmga rasmlar raqamli usul orqali kiyimda bajariladi. Shunday eksklyuziv modellar ishlab chiqarilganki, ular yelka taglik ostiga telefon, MP3 pleyer, naushniklarni joylashtirish orqali jihozlangan.

Olib borilgan tahlil natijalari shuni ko‘rsatadiki, hozirgi vaqtda materiallarni tanlash va kiyimlarni ishlab chiqarish mintaqalarning iqlim sharoitlarini, tibbiy va gigiyenik talablarni, aholi guruhlarining yoshi va ijtimoiy xususiyatlarini hisobga olishni talab etadi. Kiyimning asosiy talabi inson salomatligi va hayoti uchun xavfsizlikni ta‘minlashdir. Ishlab chiqarilgan kiyimlar yuqori gigiyenik xususiyatlarga ega bo‘lishi, qulay holatni ta‘minlashi, elektrostatik neytral, yengil, ekspluatasiya uchun qulay, kiyish davomida o‘lchamlari barqaror, yetarlicha bardoshli va moda yo‘nalishiga mos, shuningdek, arzon narxlarda bo‘lishi kerak. Kiyim - bu murakkab ko‘p qatlamli mahsulot bo‘lib, uning tashqi ko‘rinishi va ekspluatasiya xususiyatlari paketda ishlatiladigan asosiy va yordamchi materiallarga bo‘liq. Materiallarni ilmiy asoslangan holda to‘g‘ri tanlash ko‘p jihatdan kiyimning sifatini, tashqi ko‘rinishini, ishlab chiqarish samaradorligini belgilaydi.

Yuqoridagilarni inobatga olib, O‘zbekiston iqlim sharoitini hisobga olgan holda xalq xo‘jaligining turli soha vakillariga “aqlli” matolardan kiyim yaratish va unung afzallik hamda kamchiliklarini o‘rganish masalasi maqsad qilib olindi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. M. K. Rasulova, Sh. L. Mamasolieva. Development of Fabrics for Special Clothing for Workers of the Automotive Industry taking into Account the Climatic Conditions of Uzbekistan. Solid State Technology Volume: 64 Issue: 2 Publication Year: 2021. -p.p.2393-2399.
2. З. Абдукаюмова., М. Расулова. Анализ просесса проектирования одежды по индивидуальным заказам. ТТЕСИ октябрь 2021 г. 254-256 стр.
3. Sun, D.; Iqbal, K. Synthesis of functional nanocapsules and their application to cotton fabric for thermal management. Cellulose 2017, 24, 3525-3543.
4. <http://www.lookatme.ru/mag/live/future-research/193733-materials>

QURILISH JARAYONLARINI TEXNOLOGIK LOYIHALASH

A.M. Abdurahmanov., S.A. Ostanaqulov.,

U. Axmadaliyev., Y. Ergasheva

Andijon iqtisodiyot va qurilish instituti talabalari

akhmadjon00@mail.ru

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada bino va inshootlarni barpo etish texnologiyalari fanidan qurilish jarayonlarini texnologik loyihalash yo‘llari ko‘rsatib o‘tilgan.

Kalit so‘zlar: qurilish, loyihalash, qurilish jarayonlari, texnologik usullar, bino, inshoot.

АННОТАЦИЯ

В данной статье показаны способы технологического планирования строительных процессов из науки о технологиях строительства зданий.

Ключевые слова: строительство, проектирование, строительные процессы, технологические приемы, здание, сооружение.

ANNOTATION

This article shows the methods of technological planning of building processes from the science of building construction technologies.

Key words: construction, design, construction processes, technological methods, building, structure.

Kirish

«Qurilish jarayonlari, bino va inshootlarni barpo etish texnologiyasi» fani- Bino va inshootlar qurilishi yo‘nalishi bo‘yicha bakalavrlar tayyorlashda yetakchi maxsus fan sifatida bilim beradi.

Bu fanni o'qitishdan maqsad qurilish, montaj va maxsus ishlarning ketma- ketligini bino va inshootlarning yuk ko'taruvchi, to'suvchi, pardoqlash va boshqa konstruktiv elementlarini barpo etishni va kerakli xujjatlar va loyihalar bo'yicha ishlay olishini o'rgatishdir.

Qurilish jarayonlarini texnologik loyihalash

QTEL (*Qurilishni tashkil etish loyihasida*) va **IBL** (*Ishlarni bajarish loyihasi*)ni tayyorlashning o'ziga xos xususiyatlari Texnologik loyihalashning vazifasi, qurilish jarayonlarini, ishlarni, umuman bino va inshootlarni barpo etishda ma'qul texnologik yechimlarini va yetarli tashkiliy sharoitlarini aniqlashga qaratilgandir. Ishlarni loyihalashning maqsadi, qurilayotgan ob'ektning sifatini ta'minlagan holda muljallangan muddatda bajarilishini ta'minlovchi ishlarni bajarish texnologiyasini va tashkil etishini tanlashdir. Bunda namunaviy loyihalar bazasidan foydalanish, bino karkasini barpo etishda va barcha pardoz ishlari siklini bajarganda industrlashtirish usullarini qo'llash, majmuaviy mexanizatsiyalashtirish va ilg'or elektr, qo'l asboblardan foydalanish hisobiga ma'qul yechimga erishish mumkin.

Qurilishni texnologik loyihalash quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- qurilishni tashkil etish loyihasi (QTEL);
- ishlarni bajarish loyihasi (IBL);
- murakkab qurilish jarayonlari uchun texnologik xaritalar;
- mehnat jarayonlarining xaritalari;
- operatsiyalarni bajarishning texnologik sxemalari.

Qurilishni tashkil etish loyihasi (QTEL) inshoot loyihasining yoki texno-ishchi loyihasining asosiy tarkibiy qismidir. Ikki bosqichli loyihalashda ketma-ket, ya'ni "loyiha" va "ishchi hujjatlar" bosqichi bajariladi; ayrim alohida barpo etiladigan ob'ektlar uchun loyihalash "texno-ishchiloyiha" sifatida bir bosqichda ishlab chiqilishi mumkin. QTEL ob'ekt qurilishi davomiyligini, uning tannarxi, material va kerakli uskunalarga bo'lgan talablarini aniqlaydi.

QTELni bosh loyiha tashkiloti yoki uning buyurtmasi asosida loyihaning qurilish qismini loyihalovchi tashkilot bajaradi. Yirik va murakkab yangi konstruksiyali ob'ektlar uchun QTELning ayrim bo'limlarini ixtisoslashgan tashkilotlar ishlab chiqishi mumkin. QTEL ob'ektdagi barcha inshootlar majmuasini qamrashi kerak va majmua qurilishining to'liq davriga mos ravishda ishlab chiqilishi kerak. Agar yirik ob'ektni barpo etilishi qismlar yoki navbat bilan amalga oshirish nazarda tutilgan bo'lsa, u holatda QTEL butun ob'ekt uchun yoki majmuani ayrim navbatlari uchun mustaqil yanada aniqroq holda ishlab chiqilishi nazarda tutiladi.

Ishlarni bajarish loyihasi (IBL) binoning to'liq qismiga, binoni barpo etishning ayrim sikllariga va murakkab qurilish ishlariga ishlab chiqiladi. IBL ishlar bajarilishini boshlanguniga qadar bosqichda yaratilishi kerak.

Har bir ob'ektni qurilishi faqat QTEL yoki IBLda qabul qilingan yechimlar asosida amalga oshirilishi kerak. Texnologik xaritalar murakkab qurilish jarayonlari va oddiy qurilish ishlari uchun ishlab chiqiladi. Mehnat jarayonlari xaritalari oddiy texnologik jarayonlarni bajarish uchun tayyorlanadi. Texnologik sxemalar ishchilarga ayrim operatsiyalar bajarilishini ma'qul yo'llarini tushuntirish uchun loyihalanadi

Qurilishni tashkil etish loyihasi tarkibiga kiradi:

- kapital mablag' va qurilish-montaj ishlari hajmlarining alohida ob'ektlar bo'yicha taqsimlanishini e'tiborga olgan holda, majmuani tashkil etuvchi barcha bino va inshootlarni barpo etish muddatlari va navbatlarini aks ettiruvchi kalendar(taqvimiy) rejasi. Majmua qurilishida ishlarni tayyorlov davri uchun alohida kalendar reja ishlab chiqiladi;

- qurilishni tayyorlov va asosiy davri uchun qurilishni bosh rejalari. Ularda barcha mavjud va quriladigan binolar, kiruvchi yo'llar, konstruksiyalarni yiriklashtirib yig'ish maydoniga tegishli ombor yoki beton tayyorlovchi inshoot, ishchi-xodimlarga xizmat qiluvchi maishiy inventar shaharcha, vaqtinchalik va doimiy injener tarmoqlari bilan birgalikda elektr ta'minoti, montaj va boshqa mexanizmlarni turlari, ularni joylashishi va harakat yo'llari ko'rsatilishi kerak. Qurilish maydonidan chetda joylashgan omborlar va

maishiy shaharchalar uchun joylashuv rejasi ishlab chiqiladi va unda barpo etiladigan ob'ektga tegishli barcha maydonlar ko'rsatiladi;

- ob'ektlar(barpo etiladigan majmua tarkibiga kiruvchi), montaj, umumqurilish va maxsus ishlarning ro'yxati;
- barcha majmuaga yoki asosiy inshootlarga kerakli konstruksiyalar, materiallar, buyumlar, jihozlarning talab qilinadigan ro'yxati;
- butun qurilish davri uchun asosiy qurilish mashinalari va transport vositalariga bo'lgan talab grafigi;
- asosiy mutaxassis ishchilarga talab grafigi;
- tushuntirish xati.

U erda qurilish sharoiti tavsifi, qabul qilingan ish usullarini asoslangani va turli ishlarni birgalikda bajarish imkonlari, material, asosiy mexanizmlar, transport vositalari, energetik resurslar, vaqtinchalik bino va inshootlar, omborlar maydoniga bo'lgan talablar keltiriladi. Tushuntirish xatida, shuningdek, inshootlar majmuasini asoslangan barpo etish muddati, o'zlashtiriladigan vositalarni yil va kvartallar bo'yicha taqsimlanishi, ishni bajarish muddatlari bilan bog'liq bo'lgan ishchi kadrlar, qurilish materiallari va boshqa narsalarga bo'lgan ehtiyojlar talabi beriladi.

Qurilishni tashkil etish loyihasida quyidagilar ishlab chiqiladi, loyihalani va o'zaro bog'lanadi:

- ob'ekt qurilishi ishtirokchilarini kelishilgan tarzda ishlashi va ularni bosh pudratchi tomonidan muvofiqlashtirilishi;
- ishlarni bajarish kalendar rejasi asosida bino, qavat yoki qamrovga hisob qilingan material resurslarni komplekt ta'minoti;
- qurilish, montaj va maxsus ishlarni oqim usulida bajarish;
- ishlarni yuqori madaniyat saviyasida olib borish va xavfsizlik texnikasi qoidalariga qat'iy amal qilish;
- atrof muhitni asrash talablariga rioya qilish.

Qurilishni tashkil etish loyihasi buyurtmachi, pudrat tashkiloti, hamda mablag' va moddiy-texnik ta'minotni amalga oshiruvchi tashkilotlarga majburiy hujjatdir.

Ishlarni bajarish loyihasi (IBL). Ob'ektni jami ishlar majmuasiga va tayyorlov davridagi ishlariga ishlarni bajarish loyihasini QTEL asosida bosh pudratchi tashkilot

ishlab chiqadi. Alohida murakkab yoki birinchi marta tadbqiq etilayotgan ishlarga IBLni maxsus montaj yoki loyiha tashkilotlari ishlab chiqadi.

Ishlarni bajarish loyihasi ob'ekt qurilishini rejalashtirilgan muddati, hajmi va ayrim ishlar murakkabligiga qarab qurilish tashkilotining qarori asosida ishlab chiqilishi mumkin:

- butun bino va inshoot qurilishiga;
- binoni ayrim qismini barpo etishga, ya'ni yer osti yoki yer usti qismi, seksiya, oraliq, qavat, yarus;
- texnik jihatdan murakkab ayrim qurilish ishlarini bajarish uchun;
- tayyorlov davri ishlari uchun.

Zamonaviy konstruksiyalar, montajning yoki bino va inshootlarning monolit konstruksiyalarini barpo etishdagi o'ziga xosligi, barpo etishda qo'llaniladigan nooddiy usullar, qurilishni tashkil etish, mexanizatsiyalashtirish va texnologiyasida maxsus muhandislik yechimlarini qabul qilinishini taqazo qiladi. Montaj ishlarini bajarish uchun kerakli asosiy tashkiliy- texnologik yechimlar IBL tarkibida bo'lib, u qo'yidagilar uchun ishlab chiqiladi.

- qurilish-montaj ishlarining eng samarali bajarish usulini aniqlash uchun;
- barcha xarajat turlarini kamaytirish uchun;
- qurilish muddatini qisqartirish uchun;
- mexanizatsiya vositalaridan to'liq foydalanish uchun;
- ishlarni bajarish xavfsizligini ta'minlash uchun.

Bino va inshoot qurilishi uchun ishlab chiqiladigan ishlarni bajarish loyihasi ishlarni bajaruvchi buyurtmachi sifatidagi qurilish yoki montaj tashkilotining topshirig'i asosida ishlab chiqiladi.

IBLni ishlab chiqish uchun boshlang'ich ma'lumotlar quyidagilardir:

- buyurtmachidan IBLni ishlab chiqish uchun topshiriq;
- ob'ekt qurilishi uchun oldin ishlab chiqilgan QTEL;

- kerakli zaruriy loyiha hujjatlari—ishchi chizmalar, hisoblar;
- qurilishni o‘ziga xosligini e‘tiborga oluvchi omillar – konstruksiya, material va detallarni yetkazib berish shart-sharoitlari, qurilish mashinalari va transport vositalarining mavjudligi, ishchi kadrlar bilan ta‘minlanganligi;
- o‘xshash bino va inshootlarning qurilishiga doir hujjatlar va hisoblar. Topshiriqda hujjatlarni tayyorlash muddati ko‘rsatilgan bo‘lishi kerak, shuningdek, IBLni ma‘qul loyihalash uchun ishlarni bajarish grafigi va smetasi, metall konstruksiyalar to‘plamining ishchi chizmalari, yig‘ma-temirbeton chizmalari, montaj tugunlarining chizmalari va ro‘yxati, montaj konstruksiyalarining kelishilgan yetkazish muddatlari.

Alohida bino qurilishida IBLning tarkibi va mazmuni

1. Ob‘ekt bo‘yicha ishlarni bajarish kalendar rejasi yoki majmualiy to‘rli grafikda barcha ishlarni bajarish ketma-ketligi va ularni bajarish muddatlari imkon qadar ishlarni birgalikda bajarilishini e‘tiborga olgan holda, qurilish mashinalarini me‘yoriy ishlash vaqti, mehnat resurslari va mexanizatsiya vositalariga bo‘lgan talab, alohida brigada yoki jamoalar zimmasiga yuklatiladigan ishlar, ularning miqdoriy va kasbiy tarkibi o‘rnatiladi.

2. Qurilish bosh rejasi (QBP), u o‘z ichiga oladi:

- qurilish maydonining chegarasi va uni to‘rish devorining turlari;
- doimiy va vaqtinchalik tarmoqlar va kommunikatsiyalar;
- doimiy va vaqtinchalik yo‘llar;
- transport vositalarini va qurilish mexanizmlarini harakat sxemalari;
- qurilish mashinalari va yuk ko‘tarish mexanizmlarining ularning harakat yo‘llari va ta‘sir xududini ko‘rsatish bilan o‘rnatilish joylari;
- quriladigan hamda vaqtinchalik bino va inshootlar;
- avtotransportni yuvish xududi;
- maishiy xonalar joylashuvi;
- ishchilarni harakat yo‘li, bino va inshootga kirish yo‘llari;
- qurilish maydonining elektr ta‘minoti va yoritish manbaalari;
- material va konstruksiyalarni joylashtirish maydonlari va asrash binolari;

- yongʻinga qarshi joylashtirilgan suv quvurlari va gidrantlar;
- konstruksiyalarni yiriklashtirib yigʻish maydonlari;
- qoʻriqchilarni nazorat-oʻtkazish punktlari.

3. Alohida ish va jarayonlarni bajarish texnologik xaritalari va sxemalari.

4. Konstruksiyalar, buyumlar va materiallarni obʻektga keltirish grafigi.

5. Obʻektdagi ishchilarga boʻlgan talab grafigi.

6. Asosiy qurilish mashinalarining ishlash grafigi.

7. Geodezik ishlarni bajarish boʻyicha yechimlar.

8. Xavfsizlik texnikasi boʻyicha qarorlar.

9. Qurilish ishlarini bajarish uchun kerakli texnologik inventar va uskunalarning roʻyxati, yuklar va konstruksiyalarni ildirish sxemalari.

10. Texnik-iqtisodiy koʻrsatkichlari bayon etilgan tushuntirish xati.

Juda murakkab konstruksiyali yoki ishlarni bajarish usuli murakkab inshootlar qurilishi uchun IBLga qoʻshimcha ravishda maxsus yordamchi inshootlar uchun, moslamalar, konstruksiyalar va texnologik yechimlarga mos ishchi chizmalar ishlab chiqiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Yusupov X.I., Narov R.A., Salimova I.N., Ilyasov A.T., Tashxodjayeva K.U. “Qurilish jarayonlari, bino va inshootlarni barpo etish texnologiyasi” darslik, 3-qism. Toshkent: TAQI, 2019. 296 b.
2. M.K.Tohirov, R.A.Norov. Qurilish jarayonlari texnologiyasi – 176 bet, Fan va texnologiya nashriyoti, 2007. Oquv qullanma.
3. X.I.Yusupov, V.Rasulov, A.T.Ilyasov va b. “Qurilish texnologiyasi”. Oquv qullanma, “Arxitektura qurilish integratsiya va innovatsiya markazi” TAQI, 2015 yil.170 b.
4. Bozorboev N., Umurzoqov E. “Qurilish ishlab chiqarishi texnologiyasi” fanidan “Amaliy mashgʻulotlar”, oʻquv qoʻllanma, Toshkent, 2005. -89 bet.

TO‘SINLI FERMALARNI HISOBLASH

A.M.Abdurahmanov,

S.A Abdug‘afurov

Andijon iqtisodiyot va qurilish instituti talabalari

akhmadjon00@mail.ru

ANNOTATSIYA

Ushbu maqola to‘sinli fermalar haqida, ularni hisoblash bo‘yicha aniq masalalarda yechimlari keltirilgan.

***Kalit so‘zlar:** ferma, masala, yuklama, balandligi, ta’sir etadigan kuchlar, o‘lchamlar.*

АННОТАЦИЯ

В данной статье показаны способы расчета ферм. Здесь в конкретных примерах показаны расчеты ферм.

***Ключевые слова:** ферма, пример, действующие силы, размеры, высота.*

KIRISH

Bugungi kunda qurilish industriyasida ko‘plab metall konstruksiyalaridan, jumladan, metall dan yasalgan fermalardan keng foydalanilmoqda. Shu bois ularni loyihalashda asosiy o‘rnini hisoblash islariga katta ahamiyat berilishi zarur. Ushbu maqolada metall fermai hisoblash masalasi ko‘rsatib o‘tiladi

Fermani loyixalash va xisoblash to‘g‘risida umumiy ma’lumotlar

Hozirgi davrda uchburchak shaklli, trapesiyasimon, parallel kamarli va ko‘pburchakli poligonal fermalar qo‘llaniladi. Uchburchak shaklli fermalar tom yopmasiga keskin qiyalik 250–450 talab etadigan materiallar bilan yopilishda qo‘llaniladi. (to‘lqinli asbest-sement shiferlar, cherepitsalar va b.)

Tayanch qismi murakkab ustun bilan faqat sharnir orqali biriktiriladi. Aksariyat hollarda fermaning o'lchamlari undan foydalanishdagi, me'morchilik va texnologik talablarga ko'ra belgilanadi. Trapetsiyasimon fermalar tomi keskin qiya bo'lmagan binolarda ish-latiladi. Konstruktiv tomonidan bir necha afzalliklarga ega, eguvchi moment epyurasiga to'laroq javob beradi, ustun bilan ham mustahkam, ham sharnir orqali biriktirilishi mumkin.

Parallel kamarli fermalar sanoat ishlab chiqarishi talablarini to'laroq qondirishi va oddiy ko'rinishga ega bo'lgani sababli qurilishda ko'proq qo'llaniladi.

Ko'pburchakli poligonal fermalarning tashqi ko'rinishi egivchi moment epyurasining shakliga yaqin bo'lganligi tufayli ular materialning sarflanishi nuqtai nazaridan eng tejamli deb hisoblanadi. Shuning uchun bunday fermalar, asosan katta oraliqli bo'lgan binolarni qoplashda va yuklar nisbatan katta bo'lganda qo'llaniladi.

Elementlarda hosil bo'ladigan hisobiy kuchlarni qurilish mexanikasi usullaridan foydalanib topiladi va elementlarning kesim yuzalari aniqlanadi:

Masala. To'sinli fermalarni hisoblash.


Xisoblash uchun berilganlar: hisob chizmasi (1- rasm);

Fermaning uzunligi $L=12m$ (ferma ustunlari orasidagi masofa $\ell=3 m$);


Fermaning balandligi $h = 3 m$;

Fermaning ustunlariga $F_{13} = F_{24} = F_{65} = 5 kN$ kuchlar qo'yilgan.


Yechish. a) Fermaning qo'zg'almas yuklamasi ta'sirida uning belgilangan tayoqchalariga tushadigan kuchni aniqlaymiz:



1- rasm



1- qirqim




7,5 kN 5 kN

$$\Sigma M_4 = 0 \quad F_{12} \cdot 5 + 7,5 \cdot 6 - 3 \cdot 3 = 0 \Rightarrow$$

$$F_{12} = -7,2 \text{ kH}$$

2- qirqim




7,5 kN 5 kN 5 kN

$$\Sigma Y = 0 \quad F_{24} + 7,5 - 5 - 5 = 0 \Rightarrow$$

$$F_{24} = 2,5 \text{ kH}$$

3- qirqim




F_{13}

$$\Sigma Y = 0 \quad F_{14} \cdot \cos \alpha - F_{13} = 0 \Rightarrow$$

$$F_{14} = -F_{13} / \cos \alpha$$

4- qirqim




$$\Sigma Y = 0 \quad F_{13} - 5 = 0 \Rightarrow F_{13} = 5 \text{ kN}$$

$$F_{14} = -F_{13} / \cos \alpha = -5 / (3/5) = -8,3 \text{ kN}$$

b) Belgilangan tayoqchalarga tushadigan kuchning ta'sirini aniqlaymiz:

1- qirqim




R_A

$$\Sigma M_4 = 0$$

$$F_{12} \cdot 3 + R_A \cdot 8 = 0 \Rightarrow$$

$$R_A = -2,7 \text{ kN}$$

2- qirqim




$$\Sigma Y = 0 \quad F_{24} + R_A = 0 \Rightarrow$$

$$R_A = -F_{24}$$

(o'ng tarmoq tenglamasi)

3
qirqim



$$F_{13}$$


$$\Sigma Y = 0$$

$$F_{13} + F_{14} \cdot \cos \alpha = 0 \Rightarrow$$

$$F_{13} = -F_{14} \cdot 3/5$$


$$F_{13} = 4.98 \approx 5 \quad F_{13} = 5$$

4- qirqim



$$\Sigma Y = 0 \quad F_{13} + F_{14} \cdot 3/5 = 0 \Rightarrow$$

c) Aniqlangan kuch va momentlar bo'yicha ularning epyuralarini quring.



FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. N.A. Samig‘ov “Qurilish materiallari va buyumlari” darslik. Toshkent.:
Cho‘lpon 2013-yil.
2. Arxitektura ashyoshunosligi kitobi. E.Qosimov.
3. Беленя Е.И. Металлические конструкции. Москва, Стройиздат, 1985г.
4. Мельников Н.П. Металлические конструкции. Москва, Стройиздат, 1983.

FICTION AND SOCIAL SITUATION

Odilova Hamida

Teacher of Andijan state Pedagogical Institute

ANNOTATION

Socialist Labor was even a means of protecting the social position of people and the achievements of the revolution, strengthening the economic foundation of the young Soviet republic, organizing a socialist competition. In particular, "who will beat whom?" the basis of the slogan was socialist labor. During the Great Patriotic War, labor and patriotism became an integral concept.

***Keywords:** party, social Society, Heritage, person of the era, person, communist idea.*

The example of a boiler in which life boils is in constant motion and change. The total processes taking place in it are considered the main topic of literature. The difference between the creator and ordinary people is that he sees, analyzes the surrounding reality through the eyes of artistry. Whether it's the novelty that is happening in society, the rise or the shortcomings that are happening creative writer is influenced by it and it's impossible to stop working again. He artistically presents the horrors that are going on in his dreams to the public. It is known that in the literature of all peoples, many works have been written about the past and famous historical martyrs. In particular, there are also works on this topic in Uzbek literature of the 20th century. In these works, The Breath of a certain period left its seal to one degree or another. As it turns out, we directly get acquainted with the atmosphere, circumstances of the era in which the work was created through the work. If you want to get acquainted with the original way and environment of society, then of course it is necessary to observe the common population and its way of life. How the environment

is reflected in the fact that they are in their ordinary life. That is why the main subject and hero of almost the entire sample of fiction is considered either an ordinary laborer or a villager. Even in fact, the original state of the boiling pot is known from its bottom. Even in all types of examples of long-period fiction, the hero who shows courage will be from an ordinary laborer.

It is known that the 60s and 70s were a period when confidence in socialist ideas was “revived” in society. That is, all the problems in the life of society were caused by the consequences of cult of personality, and now in many people there was a belief that “the policy of our party government is on the right track, a communist society will be built in the near future.” Given that Pirmkul Kadyrov, who created in the 60s and 70s, entered literature at the end of the 50s, this belief forms the basis of his social views. Therefore, the heroes of the works created by this generation are men of struggle, the leader of external behavior in their interpretation. After all, these heroes live with that idea, that purpose, fight. In the works of this period lies the struggle between those who live for that purpose and give halal to reach it.

Thanks to Labor, a person not only changes things in nature, but also matures himself, his mental and physical abilities grow. In the process of Labor, man subordinates the forces of nature to his goal. We can see this in the image of the heroine of the story” Heritage " Yolqin. When choosing him as an ordinary country man, a child of a kamharj family, the writer also refers to the state of the era. Yolqin made great strides, although he was not a suitor who would lean on him. So, in the conquest of any peak, only a person must rely on his labor. Such an idea was a desirable theme for the politics of the period. On the basis of communist ideas, literature was used to attract a person only to work. Works of this type and idea became the need for the era. And we will not be mistaken if we say that the story” heritage " is a perfect work created in response.

Each national literature is distinguished from the literature of other peoples, first of all by its national traditions, the nationality of its heroes, the uniqueness of the described life. In this sense, the works of Uzbek writers should also be emboldened by

the Uzbek spirit, the Uzbek way of life, the Uzbek character and the themes and ideas that are important to Uzbekistan.

There is an evolutionary history of the artistic reflection of the theme of labor in Uzbek Soviet literature. In the 20s and 30s, reading and working constituted the most important ideals of the people of socialism. Socialist Labor was even a means of protecting the social position of people and the achievements of the revolution, strengthening the economic foundation of the young Soviet republic, organizing a socialist competition. In particular, "who will beat whom?" the basis of the slogan was socialist labor. During the Great Patriotic War, labor and patriotism became an integral concept. Labor and its productive derivative became the focus of German fascism. The post-war years became the main topic of our literature—a man of Labor and labor. The spiritual image of a Soviet person is revealed in the process of Labor and its active attitude to Labor. Now the concept of Labor and the Soviet person has become an integral unit. Labor—material of people of a developed socialist society not only makes up the Soviet lifestyle. The Communist attitude towards Labor, becoming a Communist labor forger, increasing labor productivity and searching for new resources have become factors that determine the lifestyle of a Soviet person. Soviet literature in its daily activities covers these problems from the point of view of principal partiality and high volatility, standing close to the spirituality of every Soviet person who is becoming a person of active activity in society, decorating his marriage and making his work enjoyable.

LITERATURE USED:

1. Daniel H., S.Mirzayev. Word art –T.: Uzadabiynashr, 1962.
2. Satellite Q., Comrade M. Fundamentals of artistic analysis. - T.: Rainbow, 2016
3. Izzat Sultan. Theory of literature-t.,” Teacher " publishing, 1980.
4. Karimov N. et al. History of Uzbek literature of the XX century. - T.: O’kiter, 1999.
5. Kadyrov P. Three roots. Don’t say 1cild. - T.: G.Publishing house of literature and art named after Ghulam, 1987.

YO‘L-TRANSPORT HODISALARINI OLDINI OLISHDA AYRIM XORIJIY DAVLATLAR TAJRIBASI

Ibodillayev Doston Abduvayt o‘g‘li

Huquqni muhofaza qilish akademiyasi magistranti

dostonibodillayev@gmail.com

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada yo‘l-transport hodisalarini oldini olishdagi ayrim xorijiy davlatlar tajribasi bayon etilgan. Shuningdek, muallif maqolada yo‘l-transport hodisalarini oldini olishda xalqaro standartlar ayrim talablariga to‘xtalib o‘tgan.

***Kalit so‘zlar:** yo‘l-transport hodisasini oldini olish, shaharlarda tezlik chegaralarini belgilash, qonda alkohol kontsentratsiyasining qonuniy chegaralarini o‘zgartirish, transport vositalari xavfsizligi bo‘yicha ustuvor standartlar.*

THE EXPERIENCE OF SOME FOREIGN COUNTRIES IN THE PREVENTION OF ROAD ACCIDENTS

ABSTRACT

This article describes the experience of some foreign countries in the prevention of road accidents. Also in the article, the author dwells on some of the requirements of international standards for the prevention of road accidents.

***Keywords:** prevention of traffic accidents, setting speed limits in cities, changing the legally established limits of alcohol concentration in the blood, priority vehicle safety standards.*

Yo'l-transport hodisalari natijasida o'limlar soni o'sishda davom etmoqda va 2016 yilda 1,35 millionga yetdi. Biroq, so'nggi yillarda dunyo aholisiga nisbatan o'lim darajasi barqarorlashdi. Jahon Sog'liqni Saqlash Tashkiloti hisobotida keltirilgan ma'lumotlar shuni ko'rsatadiki, Qonunchilik, transport vositalari standartlari va baxtsiz hodisadan keyin tibbiy yordam olish imkoniyatini yaxshilash kabi muhim sohalarda yutuqlarga erishildi. Biroq, bu taraqqiyot dunyoning ko'p joylarida sodir bo'layotgan aholi sonining ko'payishi va transportning tez harakatlanishini qoplash uchun yetarlicha tez suratlarda amalga oshirilmadi.

Yo'l-transport jarohatlari hozirda 5-29 yoshdagi bolalar va yoshlar o'limining asosiy sababidir, bu esa yo'l harakati xavfsizligini deyarli e'tiborsiz qoldiradigan bolalar salomatligi dasturini o'zgartirish zarurligini ko'rsatadi. Bu OITS, sil va diareya kasalliklari barcha yosh guruhlari orasida o'limning sakkizinchi sababidir. Yo'l-transport jarohatlari va o'lim yuki nomutanosib ravishda zaif yo'l foydalanuvchilari va o'limlar soni ortib borayotgan motorli transport tufayli yuzaga keladigan past va o'rta daromadli mamlakatlarda yashovchilarga to'g'ri keladi. 2013 va 2016 yillar oralig'ida past va o'rta daromadli mamlakatlarning hech birida yo'l-transport hodisalari natijasida o'lim holatlari kamaymagan, 48 ta o'rta va yuqori daromadli mamlakatlarda biroz pasayish kuzatildi. Umuman olganda, ushbu davrda 104 mamlakatda o'lim holatlari ko'paygan.

Yo'l-transport hodisalari natijasida o'lim va jarohatlar butun dunyoda katta muammo bo'lib qolmoqda va hozirgi tendentsiyalar yaqin kelajakda ham shunday davom etishini ko'rsatmoqda. Shu bilan birga, taraqqiyotni jadallashtirishga yo'l va transport vositalari xavfsizligi standartlari, tezlikni oshirish kabi yuqori xavfli xatti-harakatlarning oqibatlarini yumshatishga qaratilgan Qonunchilik kabi samarali choralarni ko'rish va amalga oshirishni o'z ichiga olgan keng qamrovli yondashuv orqali erishish mumkin.

Yo‘l harakati xavfsizligi va shahar harakatchanligi strategiyalarini birlashtirish, Bogota, Kolumbiya

1996 yildan 2006 yilgacha Bogota yo‘l harakati xavfsizligi va shahar harakatchanligini ta‘minlashga kompleks yondashuvni joriy etish orqali yo‘l-transport hodisalari natijasida o‘lim sonini 50 foizga kamaytirdi:

1. Merning kuchli rahbariyati keng qamrovli institutsional, moliyaviy va tartibga soluvchi islohotlarni amalga oshirishga imkon berdi.

2. Shahar infratuzilmasiga 1997 va 2006 yillar o‘rtasida 2 milliard AQSh dollari miqdorida deyarli 300 km velosiped yo‘llari va 60,000 m² piyodalar infratuzilmasi bo‘yicha yangi investitsiyalar kiritildi. Investitsiyalar institutsional va soliq islohoti, shuningdek, ishga qatnov imkoniyatlarini yaxshilash uchun jamoatchilik talabiga asosan yo‘naltirilgan mablag‘lar tufayli amalga oshirildi.

3. Yo‘l harakati xavfsizligini yaxshilashga jamoat transporti xavfsizligini yaxshilash, piyodalar yo‘laklari va velosiped yo‘laklarini yaxshilash, xavfsizlik kamarlarini taqish va mast holda haydash uchun jarimalar bo‘yicha qat‘iy qoidalar va ularni qo‘llash, politsiya tizimini isloh qilish, jamoat transportini yaxshilash orqali erishildi.

4. 2017-yil dekabr oyida Bogotada yangi “Vision Zero” rejasi qabul qilindi, u “Safe” tizimli yondashuviga asoslangan bo‘lib, o‘lim va jiddiy jarohatlarni proaktiv ravishda kamaytirish bo‘yicha muvofiqlashtirilgan kompleks harakatlarni o‘z ichiga oladi.

Maktab zonalari xavfsizligini oshirish, Koreya Respublikasi

Koreya Respublikasi 1972 yildan beri Iqtisodiy Hamkorlik va Taraqqiyot Tashkiloti mamlakatlari o‘rtasida yo‘l-transport hodisalarida o‘limning uchinchi eng past ko‘rsatkichini boshdan kechirdi.

Transport infratuzilmasiga investitsiyalar va iqtisodiy rivojlanishga tarixiy e‘tibor yo‘l harakati xavfsizligiga, xususan, kengroq va tezkor yo‘llar hisobiga halok bo‘lgan va jarohat olgan piyodalar xavfsizligiga kamroq e‘tibor qaratilishiga olib keldi. Ushbu muammoni hal qilish va yo‘llarda o‘limning yuqori darajasini pasaytirish

maqsadida Koreya hukumati yo‘l-transport jarohatlari va tarmoqdagi eng xavfli joylar to‘g‘risidagi ma‘lumotlarni tahlil qildi.

Maktab zonalari dasturlariga sarmoya kiritish, maktab avtobuslarini tartibga solishni yaxshilash, maktab zonalaridagi qoidabuzarliklar uchun jarimalarni ko‘paytirish va yo‘l harakati xavfsizligi to‘g‘risidagi qonunchilikni takomillashtirish orqali yo‘l harakati xavfsizligini yaxshilash bo‘yicha yangi milliy strategiya qabul qilindi. Xabar qilinishicha, bu sa‘y-harakatlar 1993 yildan 2012 yilgacha 14 yoshgacha bo‘lgan bolalar o‘rtasida yo‘l-transport hodisalari natijasida o‘limning 95 foizga kamayishiga yordam bergan.

Maqsadlar bo‘yicha boshqaruv, Shvetsiya

Shvetsiya yo‘l harakati xavfsizligi bo‘yicha jahon yetakchisi bo‘lib, har 100 000 aholiga 2,8 o‘lim ko‘rsatkichi to‘g‘ri keladi.

1990 yildan 2015 yilgacha yo‘l-transport hodisalari natijasida o‘limlar soni 66 foizga kamaydi. Shvetsiya tajribasi kuchli institutsional chora-tadbirlar, jumladan, hukumat, biznes va fuqarolik jamiyati tomonidan yo‘l harakati xavfsizligi bo‘yicha ulkan maqsadlarga erishishga e‘tibor qaratish orqali qo‘llab-quvvatlanadigan tizimli, dalillarga asoslangan yondashuvlarini uzoq muddatli rejalashtirish orqali qanday qilib yaxshiroq natijalarga erishish mumkinligini ko‘rsatadi. 1997 yil oktyabr oyida Shvetsiya parlamenti “Zero” kontseptsiyasini qabul qildi. Bu yangi uzoq muddatli maqsad bo‘lib, hozirda ko‘plab mamlakatlar tomonidan qabul qilinadigan yo‘l harakati xavfsizligini ta‘minlashning yangi strategik asoslari hisoblanadi. Strategiya ma‘lum bo‘lgan keng tarqalgan xatolar va odamlarning zaifliklarini bartaraf etish va shu bilan baxtsiz hodisalarning jiddiy oqibatlarini oldini olish uchun yo‘l harakati tizimining barcha bo‘g‘inlarini yanada samarali boshqarish uchun birgalikda javobgarlikni yaratishdir. Shvetsiya maqsadlari 2020 yilgacha taraqqiyotga erishishga qaratilgan. Bularga milliy va munitsipal darajadagi xavfsiz transport infratuzilmasi, 80 km/soat tezlik chegarasi va o‘rta to‘siqlar bilan bo‘linmagan yo‘llar ulushini oshirish, piyodalar va velosiped yo‘llari bo‘lgan ko‘proq shahar yo‘llari, tezlik cheklovlariga yaxshiroq

rioya qilish, hushyor haydash, xavfsizlik kamarlaridan va dubulg'alardan foydalanish kiradi.

Shaharlarda tezlik chegaralarini belgilash, Tailand

Yo'llarning funktsiyalari, joylashuvi va dizayniga mos keladigan va barchaning xavfsizlik ehtiyojlarini hisobga oladigan tezlik chegaralarini belgilash yo'llardan xavfsiz foydalanish uchun zamin yaratadi. Qoidaga ko'ra, avtomobil yo'llari va transport idoralari tashabbusi bilan tarmoq bo'ylab maksimal tezlik chegaralari milliy darajada o'rnatiladi. Tailandning amaldagi shahar tezligi to'g'risidagi qonuni 1979 yilda qabul qilingan va shahar joylari uchun maksimal tezlikni soatiga 80 km tashkil etadi. Shahar yo'llarida 80 km/soat tezlik chegarasi zamonaviy amaliyotlardan uzoqdi, zamonaviy amaliyotlar shaharlarda maksimal tezlik chegarasini 50 km/soat va piyodalar ko'p bo'lgan joylarda, masalan, turar-joy binolari yoki shahar ko'chalarida pastroq chegaralarni belgilashni tavsiya qiladi.

2015 yildan boshlab milliy tezlik qonunchiligiga o'zgartirish kiritishga urinishlar bo'ldi, ammo muvaffaqiyatsiz bo'ldi. 2015 yilda asosiy e'tibor milliy qonunchilikni o'zgartirishdan viloyatlarning imkoniyatlarini kengaytirishga va ularni o'zlarining tezlik chegaralarini belgilash uchun qonun qoidalaridan foydalanishga undashga o'tdi. Bundan tashqari, mahalliy hukumatlarga tegishli tezlik chegaralarini belgilash bo'yicha tavsiyalar berildi. 2017 yilda, munitsipalitetlarda tezlik chegaralarini belgilash bo'yicha ko'rsatmalar qabul qilingandan so'ng, viloyatlar yanada mos tezlik chegaralarini o'rnatishni boshladilar va 2018 yil sentyabr oyiga qadar 76 viloyatning yarmi 50 km/soat dan oshmaydigan shahar tezlik chegaralarini o'rnatdi. Ushbu misol milliy tezlik chegaralari xalqaro amaliyotga mos kelmaganida mahalliy tashabbuslarning tegishli shahar tezlik chegaralariga o'tishda muhimligini ko'rsatadi.

Qonda alkogol kontsentratsiyasining qonuniy chegaralarini o'zgartirish samaradorligi, Braziliya

Braziliyaning BAC (Blood Alcohol Concentration) cheklovlarga asoslangan mast holda haydash to'g'risidagi birinchi qonuni 1998 yilda qabul qilingan bo'lib, BAC tarkibi 0,06 g/dl dan yuqori bo'lgan haydashni jinoyatga aylantiradi.

Braziliyaning San-Paulu shahridagi yo'llarda o'lim bo'yicha o'tkazilgan tadqiqot shuni ko'rsatdiki, yo'l-transport hodisalarida halok bo'lganlarning 39 foizida BAC darajasi 0,01 g/dl dan oshgan va taqdim etilgan haydovchilarning 42 foizida BAC darajasi 0,06 g/dl dan oshgan. Ushbu sog'liqni saqlash tahdidiga qarshi kurashish uchun Braziliya hukumati 2008 yil iyun oyida BAC ruxsat etilgan stavkasini 0,06 g/dl dan 0,02 g/dl gacha pasaytirgan yangi "taqiq" ni qabul qildi.

2001 yildan 2010 yilgacha San-Paulu poytaxti va shtatida o'tkazilgan monitoring shuni ko'rsatdiki, yangi qonun jarohatlar va o'limlar sonining sezilarli darajada kamayishiga olib keldi. Ta'sir o'limga nisbatan kuchliroq edi (San-Paulu shtati va poytaxtidagi o'rtacha oylik ko'rsatkichning mos ravishda -7,2% va -16,0% ga pasayishi) jarohatlarga nisbatan (-1,8% va -2,3%).

Garchi yangi qonun baxtsiz hodisalar sonining kamayishiga olib kelgan bo'lsa-da, uni qo'llash uchun to'siqlar saqlanib qoldi. Shunisi e'tiborga loyiqki, haydovchilar BAC testini topshirishdan voz kechish huquqiga ega edilar, bu esa BAC testi darajasi bilan bog'liq jinoiy jazo choralari qo'llashni qiyinlashtirdi. Keyinchalik, 2012 yil dekabr oyida Braziliya hukumati politsiya xodimlariga mast holda haydash faktini tasdiqlash uchun muqobil dalillardan (masalan, klinik belgilar yoki video yozuvlar) foydalanishga ruxsat berish orqali "taqiq" ga o'zgartirish kiritdi. Tuzatish, shuningdek, o'lchash mumkin bo'lgan qon tarkibidagi spirtli ichimliklarni noqonuniy qildi va 1998 yildagi dastlabki jarimalarni ikki baravar oshirdi.

O'quvchilari uchun 5 yulduzli maktab sayohati, Lusaka

Afrika mamlakatlarida yo'l-transport jarohatlarining dunyodagi eng yuqori darajasi mavjud. Zambiyaning Lusaka shahridagi Justin Kabve boshlang'ich maktab o'quvchilari uchun ularning maktabga safari endi ancha xavfsizroq bo'ldi, chunki

kirish yo'llari Irapning "maktablar uchun yulduzlar reytingi" ilovasi yordamida baholangan besh yulduzli xavfsizlik darajasiga qadar bir va ikki yulduzli "xavfli" reytingga ega edi. Maktab modernizatsiya qilinishidan oldin maktab atrofidagi yo'llarda to'rt bola jarohat olgan. Kirish joyidan 4700 ta transport vositasi o'tadi, 200 kishi yo'lni kesib o'tadi va 900 dan ortiq kishi tirbantlik payti maktab yonidan o'tadi. Ilgari maktabga borish juda xavfli edi.

2017-yil noyabr oyida "Amend" notijorat tashkiloti tomonidan yakunlangan va "FedEx" tomonidan qo'llab-quvvatlangan loyiha bilan infratuzilmani takomillashtirish "iRap Star Rating" piyodalar reytingiga asoslangan "Star Rating for Schools" (SR4S) ilovasi yordamida baholangan xavfsizlikni oshirdi. Yaxshilanishlarga baland platformali piyodalar o'tish joyi, piyodalar yo'laklari, to'siqlar va maktab zonasi haqida ogohlantirishlar qo'shilishi, ko'rinishni to'sib qo'ygan transport vositalarining to'xtash joyini yo'q qilish va o'tayotgan transport vositalarining tezligini pasaytirish kiradi.

Infratuzilmani yaxshilashdan oldin va keyin SR4S ilovasi yordamida piyodalar harakati yuqori bo'lgan to'rtta joy xavfsizlik nuqtai nazaridan baholandi. SR4S tomonidan olingan "oldin" va "keyin" baholash natijalari xavfsizlikning sezilarli yaxshilanishini aks ettiradi. Maktabning asosiy kirish qismidagi chorraha va yaqin atrofdagi burchak yulduzlar reytingini mos ravishda birdan besh yulduzgacha va ikkitadan besh yulduzgacha oshirdi.

Transport vositalari xavfsizligi bo'yicha ustuvor standartlar, BMT

1-2: old va yon ta'sirlardan himoya qilish (R94 va R95): avtomobillar ma'lum tezlikda sinovdan o'tkazilganda old va yon to'qnashuv zarbalariga bardosh bera olishiga ishonch hosil qiling. Ushbu xavfsizlik qoidalari yo'lovchilarni frontal va lateral to'qnashuvlar ta'siridan himoya qilishga yordam beradi.

3: elektron barqarorlikni boshqarish (R140): keskin burilish yoki past burilish holatlarida sirpanish va boshqaruvni yo'qotishning oldini oladi va baxtsiz hodisalar sonini samarali ravishda kamaytiradi va hayotni saqlab qoladi. Bu bitta mashina bilan

to‘qnashuvni va ag‘darishni samarali ravishda oldini oladi, o‘limga olib keladigan va jiddiy jarohatlar sonini kamaytiradi.

4: piyodalarning old himoyasi (R127): yumshoqroq bamperlarni ta‘minlaydi va old uchlarini o‘zgartiradi; og‘irlikni kamaytirishi mumkin bo‘lgan transport vositalarining (masalan, keraksiz qattiq tuzilmalarni olib tashlaydi); piyodaning mashina bilan to‘qnashuvi.

5-6: xavfsizlik kamarlari va xavfsizlik kamarlarining birlashtiriladigan joylari (R14 va R16): xavfsizlik kamarlari ishlab chiqarish va yig‘ish paytida transport vositalariga o‘rnatilganligiga ishonch hosil qiling va xavfsizlik kamarlarining mahkamlash joylari to‘qnashuvda yuzaga keladigan zarbalarga bardosh bera olishi kerak. Bu xavfsizlik kamarining sirpanish xavfini kamaytiradi.

7: bolalarni ushlab turish moslamalari (R129): bolalar o‘rindig‘i kattalar uchun xavfsizlik kamariga bog‘langanligiga va uni o‘rnatish uchun “ISOFIX” bolalar uchun ushlab turish joylari o‘rnatilganligiga ishonch hosil qiling.

8: mototsiklning qulflashga qarshi tormoz tizimi (R78): haydovchiga favqulodda tormozlash paytida nazoratni saqlab qolishga yordam beradi va yo‘l-transport hodisasi va undan keyingi jarohatlar ehtimolini kamaytiradi.

Elektron velosipedlar uchun yangi standartlarni o‘rnatish, Xitoy

Xitoyda, boshqa ko‘plab mamlakatlarda bo‘lgani kabi, elektron velosipedlardan foydalanishning keskin o‘sishi kuzatilmoqda - ba‘zi hisob-kitoblarga ko‘ra, mamlakatda 200 millionta bunday transport vositalaridan foydalaniladi, ularning uch millionini Pekinda topish mumkin. Elektron velosipedlarning tabiati o‘zgarganligi sababli, 1999 yilda o‘rnatilgan mavjud standartlar endi ahamiyatli emas va natijada Xitoyda sotiladigan va ishlatiladigan elektron velosipedlar standartlashtirilmagan.

Tegishli standart bo‘lmasa, ko‘plab transport vositalari "elektron velosipedlar" sifatida ishlab chiqariladi va sotiladi, garchi ular asosan 40 km/soat yoki undan tezroq tezlikka erisha oladigan mototsikllardir. Biroq, ularning barchasi velosiped sifatida qaraladi va shuning uchun dubulg‘a talablari va tezlik chegaralari yo‘q. Shunday qilib, ular motorsiz foydalanuvchilar uchun mo‘ljallangan va foydalanadigan velosiped yo‘llari va yurish yo‘llaridan foydalanadilar.

2018-yil may oyida elektron velosipedlarni tartibga solishni yaxshilashga qaratilgan yangi standart chiqarildi va mototsikllarni elektron velosiped sifatida berish amaliyotini tugatdi. Ushbu standart bosqichma-bosqich amalga oshiriladi (2019-yil aprel oyidan boshlab). Yangi standartga javob beradigan har qanday transport vositasi (tezligi 25 km/soat bo'lgan xalqaro amaliyotga mos keladi) velosiped hisoblanadi va ro'yxatdan o'tish, litsenziyalash yoki dubulg'a talablariga javob bermaydi. Ushbu standartga javob bermaydigan elektron velosipedlar mototsikl sifatida ko'rib chiqiladi va dubulg'a qonunlari va litsenziyalash talablariga bo'ysunadi. Muomalada bo'lgan elektron velosipedlarning aksariyati nostandart bo'lishi mumkinligi sababli, ushbu standart millionlab mototsiklchilarga dubulg'a qiymaslikka imkon beradigan bo'shliqni yopadi.

Transport vositalarining xavfsizligi standartlari, Hindiston

Hindiston dunyodagi to'rtinchi yirik avtomobil ishlab chiqaruvchisi bo'lib, hozirda avtomobillar va mototsikllarga yangi avtomobil xavfsizligi standartlarini qo'llamoqda. 2014-yilda "NCAP"ning "Hindiston uchun xavfsiz avtomobillar" global tashabbusi tomonidan o'tkazilgan mustaqil avariya sinovlari shuni ko'rsatdiki, Hindistonning eng ko'p sotilgan modellari BMTning to'qnashuv uchun avariya sinovidan o'ta olmaydi.

2015-yilda Hindiston hukumati BMTning frontal va lateral zarbalar va piyodalarni himoya qilish bo'yicha standartlariga javob beradigan yangi qoidalarni e'lon qildi. Yangi avtomobil modellari uchun old va yon halokat testlaridan foydalanish 2017-yil oktabr oyidan kuchga kirdi va 2019-yil oktabr oyidan boshlab barcha yangi avtomobillarga taalluqlidir. Yangi modellar uchun piyodalarni himoya qilish qoidalari 2018-yil oktyabridan kuchga kirdi va 2020-yil oktyabridan boshlab barcha yangi avtomobillarga nisbatan qo'llaniladi. Bundan tashqari, yangi avtomobillar standart ravishda xavfsizlik yostiqchalari va 80 km/soatdan ortiq tezlikni oshirish haqida ogohlantirish moslamasi bilan jihozlangan bo'lishi kerak.

Yangi qoidalar va "Hindiston uchun xavfsiz avtomobillar" loyihasining kombinatsiyasi iste'molchilarning xavfsizlik yostiqchalari kabi asosiy funktsiyalarga

bo‘lgan talabini oshiradi va avtomobilsozlik sanoatida xavfsizlik dizaynini takomillashtirish uchun kuchli katalizator bo‘lib xizmat qiladi. Hozirgi vaqtda bozorda nafaqat yangi standartlarga javob beradigan, balki yaxshi baholarga ega bo‘lgan yangi modellar, shu jumladan “NCAP” global sinovlarida to‘rt yulduzli model mavjud. 2014-yilda global “NCAP” testlarining birinchi bosqichida nol yulduzlarni qo‘lga kiritgan Tata Nano kabi yangi halokat sinovlaridan o‘ta olmaydigan eski modeldagi avtomobillarni ishlab chiqarish qisqarmoqda. Hindiston uchun navbatdagi muammo-hozirda butun dunyo bo‘ylab yangi yengil avtomobillarning 70% dan ortig‘iga, lekin Hindistonda yangi avtomobillarning 10% dan kamiga o‘rnatilgan elektron barqarorlikni nazorat qilishni joriy etishni tezlashtirish.

REFERENCES

1. Global status report on road safety 2018. Geneva: World Health Organization; 2018. Licence: CC BYNC-SA 3.0 IGO.
2. WHO Global health estimates 2014 summary tables: Deaths by cause, age and sex, by WHO region, 2000–2012 (http://www.who.int/healthinfo/global_burden_disease/en/, accessed 01 October 2015).
3. High-level group on road safety consultation on the development of the injuries strategy: next steps in the development of the injuries strategy. Brussels: European Commission; 2012 (http://ec.europa.eu/transport/road_safety/pdf/injury_next_steps.pdf, accessed 03 November 2015).
4. A cohesive strategy for alcohol, narcotic drugs, doping and tobacco (ANDT) policy. Ministry of Health and Social Affairs, Sweden; 2011 [S.2011.02] (<http://www.government.se/information-material/2011/05/a-cohesive-strategy-for-alcohol-narcotic-drugs-doping-and-tobacco-andt-policy/> accessed 01 October 2015).
5. Global status report on road safety 2015. Geneva: World Health Organization; 2015(http://www.who.int/violence_injury_prevention/road_safety_status/2015/en/ , accessed 03 November 2015). Имеется резюме на русском языке (http://www.who.int/violence_injury_prevention/road_safety_status/2015/Summary_GSRRS2015_RUS.pdf?ua=1, по состоянию на 4 декабря 2015 г.).

TRANSPORT VOSITALARI HARA KATI YOKI ULARDAN FOYDALANISH XAVFSIZLIGI QOIDALARINI BUZISH JINOYATINING HUQUQIY TAVSIFI

Ibodillayev Doston Abduvayt og‘li

Huquqni muhofaza qilish akademiyasi magistranti

dostonibodillayev@gmail.com

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada transport vositalari harakati yoki ulardan foydalanish xavfsizligi qoidalarini buzish jinoyatining jinoiy-huquqiy tavsifi bayon etilgan. Shuningdek, muallif maqolada transport vositalari harakati yoki ulardan foydalanish xavfsizligi qoidalarini buzish jinoyatini tavsiflashda uchraydigan ayrim muammoli masalalarga to‘xtalib o‘tgan.

Kalit so‘zlar: *yo‘l-transport hodisasi, transport vositalari harakati qoidalarini buzish, transport vositalari foydalanish xavfsizligi qoidalarini buzish.*

LEGAL CHARACTERISTICS OF THE CRIME OF VIOLATION OF TRAFFIC SAFETY RULES OR OPERATION OF VEHICLES

ABSTRACT

This article describes the criminal-legal characteristics of the crime of violation of traffic safety rules or operation of vehicles. The author also touched upon some problematic issues in the article that occur when describing the crime of violating traffic safety rules or operating vehicles.

Keywords: *traffic accident, violation of vehicle traffic rules, violation of vehicle operation safety rules.*

O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksida “Transport harakati va undan foydalanish xavfsizligiga qarshi jinoyatlar” alohida bobga ajratilgan bo‘lib, aynan transport vositalari harakati yoki ulardan foydalanish xavfsizligi qoidalarini buzish jinoyati JKning 266-moddasida alohida qayd etilgan. Mazkur jinoyat kodeksda quyidagicha bayon etilgan. Transport vositasini boshqaruvchi shaxs tomonidan transport vositalari harakati yoki ulardan foydalanish xavfsizligi qoidalarini buzish badanga o‘rtacha og‘ir yoki og‘ir shikast yetkazilishiga sabab bo‘lsa, jinoyat hisoblanadi. Agar bunday qilmish oqibatida odam (yoki bir necha odam) halok bo‘lsa, halokat yoki boshqa og‘ir oqibatlar yuz bersa shaxsga jiddiy jazo choralari belgilangan. Mazkur moddani to‘g‘ri kvalifikatsiya qilish uchun moddada ishlatilgan terminlar mohiyatiga ham e‘tibor berishimiz kerak bo‘ladi.

Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 12-apreldagi 172-son qaroriga 1-ilova “Yo‘l harakati qoidalarini” ga ko‘ra, **transport vositasi** — odamlarni, yuklarni tashishga yoki maxsus ishlarni bajarishga mo‘ljallangan qurilma.

Yo‘l harakati — odam va yuklarni transport vositalari yordamida yoki bunday vositalarsiz yo‘llar doirasida tashish yoxud yo‘l harakati qatnashchilarining yo‘llarda harakatlanishi jarayonida yuzaga keluvchi munosabatlar majmui [5]. Shuningdek, yo‘l harakati deganda, muayyan qoidalarga bo‘ysinuvchi piyodalar, haydovchilar, yo‘lovchilar, transport vositalari harakatini qamrab oluvchi ijtimoiy texnik tizimni tushunish lozim. Harakat, asosan, yo‘llar bo‘yicha, ayrim vaqtlarda yo‘l bo‘lmagan sharoitda (qurilish maydonchalari, ko‘chada, temir yo‘ldan o‘tish joylarida, tashkilotlarning ishlab chiqarish hududlarida, dalalarda va h.k.) amalga oshiriladi [2, 789-b.].

Shuni nazarda tutish lozimki, **yo‘l harakati qoidalarini buzish** transport vositasini boshqarish tartibiga doir belgilangan ko‘rsatmalarga rioya etmaslikda (masalan, belgilangan harakatlanish tezligini oshirish, yo‘l belgilariga rioya qilmaslik, harakatlanishning qarama-qarshi tomoniga chiqib ketish va shu kabilarda) ifodalanadi. **Transport vositalaridan foydalanish qoidalarini buzish** esa, transport vositalaridan foydalanish tartibiga doir belgilangan ko‘rsatmalarga rioya etmaslikda (masalan,

nogabarit yuklarni yoki yo'lovchilarni bunga mo'ljallanmagan transport vositasida tashish, transport vositasi boshqaruvini shu vositani boshqarish huquqiga ega bo'lmagan shaxsga topshirish va shu kabilarda) ifodalanadi [3].

Yo'l harakati xavfsizligi deyilganda yo'l harakati qatnashchilarining yo'l-transport hodisalari va ularning oqibatlaridan himoyalanganlik darajasini aks ettiruvchi yo'l harakati holati [2] tushuniladi.

Foydalanish xavfsizligi deyilganda tegishli ravishda, transport vositalaridan yo'l harakati ishtirokchilarining yol'-transport hodisalari va ularning oqibatlaridan muhofazlanganligini ta'minlaydigan tarzda foydalanish [2, 789-b.] hisoblanadi.

Halokat deganda, temir yo'l, dengiz, daryo, havo, jamoat transportidagi (avtobus, trolleybus, tramvay, yo'nalishli taksi va shu kabilar) o'nlab odamlar nobud bo'lishi bilan bir qatorda atrof-muhitga hamda odamlar sog'lig'i yoki hayoti uchun tuzatib bo'lmaz darajada ziyon yetkazgan hodisa tushunilishi lozim [5].

“Boshqa og'ir oqibatlar” deganda, odamlar o'limi bilan bir qatorda poyezdlar, kemalar yoki samolyotlar qatnovi uzoq muddatga izdan chiqishi, tevarak-atrofdagi uylar va boshqa inshootlar vayron qilinishi (portlashi, yonib ketishi, qulab tushishi) va h.k.lar tushunilishi lozim. Shuni nazarda tutish lozimki, harakatlanish yoki transport vositalaridan foydalanish qoidalari buzilishi natijasida ikki yoki undan ortiq odamga o'rtacha og'ir va/yoki og'ir shikast yetkazilganligi faktining o'zi qilmishni “boshqa og'ir oqibatlar” belgisi bo'yicha kvalifikatsiya qilish uchun asos bo'lmaydi [5].

Jinoyatning **obyekti** transport vositalari harakati yoki ulardan foydalanish xavfsizligi, odamlar hayoti va sog'lig'i hisoblanadi.

Jinoyatning **predmeti** har qanday transport vositalari – har qanday avtomobillar (yuk, yo'lovchi tashiydigan, yengil avtomobillar, sport avtomobillari va hokazolar), tramvaylar, trolleybuslar, traktorlar, va boshqa mexanik transport vositalari bo'lishi mumkin.

Mexanik transport vositalari o'zi yurar bo'lishi, ya'ni mustaqil dvigateliga ega bo'lishi shart. Agar mashina dvigateli ishdan chiqqan holda va u qo'l yordamida siljitsa, u holda mazkur jinoyatning predmeti mavjud emas, amalda sodir etilgan

qilmish muayyan shart-sharoitda transportning xavfsiz ishlashi qoidalarining buzilishi deb baholanishi mumkin (JKning 268-moddasi). Biroq, ana shunday mashina boshqa transport vositasi tomonidan tortib ketilayotgan bo'lsa, tortib ketilayotgan transport vositasi haydovchisining belgilangan qoidalarni buzishi JKning 266-moddasida ko'zda tutilgan jinoyat tarkibi belgilariga mos tushadi [2, 789-b.].

Aybdorning harakatlarini kvalifikatsiya qilish uchun transport vositasi foydalanishdagi yoki o'quv mashinasi ekanligi ahamiyatga ega emas, chunki har qanday holatda ham u yuqori xavf manbai bo'lib qolaveradi.

JKning 266-moddasida ko'zda tutilgan transport vositalari deganda, yengil va yuk avtomashinalarning barcha turi, avtobuslar, maxsus mashinalar, traktorlar, trolleybuslar, tramvaylar, dvigateling ish hajmi 50 sm³ dan kam bo'lmagan mototsikl va motorollerlar, yo'l qurilishi, qishloq xo'jaligi uchun mo'ljallangan o'ziyurar mashinalar (ekskavator, buldozer, avtopogruzchik, greyder, avtokran va boshqalar) tushuniladi [4].

Obyektiv tomonidan JK 266-moddasida nazarda tutilgan jinoyat transport vositasini boshqaruvchi shaxs tomonidan, transport vositalari harakati yoki ulardan foydalanish qoidalarini buzishi natijasida badanga o'rtacha yoki og'ir shikast yetkazilishida ifodalanadi [2, 789-b.].

Oliy sud Plenumi qarorlaridagi tushuntirishga muvofiq, "Sudlar yo'l harakati yoki transport vositalaridan foydalanish qoidalarini buzish bilan bog'liq jinoyatlarni texnika xavfsizligi yoki transportda mehnatni muhofaza qilish qoidalarini buzish bilan bog'liq jinoyatlardan farqlay olishi shart".

Yo'l harakati yoki transport vositalaridan foydalanish qoidalarini buzish (JK 266-moddasi) deganda, bunday harakatlarning transport vositasi yo'llarda harakatlanishi jarayonida sodir etilishi tushuniladi. Agar transport vositasidan foydalanish jarayonida, jumladan transportga yuk ortish-tushirish, transport vositasini ta'mirlash, qurilish, qishloq xo'jaligi ishlari va boshqa turdagi ishlarni bajarishda texnika xavfsizligi yoki mehnatni muhofaza qilish qoidalarini buzish natijasida badanga o'rtacha og'ir yoki og'ir shikast yetkazilgan, odam o'limi yoki boshqa og'ir oqibatlar kelib chiqqan bo'lsa,

mazkur qoidalarga rioya etilishi uchun mas'ul shaxsning harakatlari JK 257-moddasi bo'yicha kvalifikatsiya qilinishi lozim [3].

Yo'l harakati va transport vositalaridan foydalanish qoidalari buzilishini harbiy mashinani boshqarish va ulardan foydalanish qoidalarini buzishdan farqlash lozim. Harbiy xizmatchi tomonidan jangovor, maxsus yoki transport mashinalarini boshqarish va ulardan foydalanish qoidalari buzilgan taqdirda, qilmish JK 298-moddasi bilan kvalifikatsiya qolinadi. Agar yo'l-transport hodisasi harbiylashtirilmagan mashinani boshqargan harbiy xizmatchining aybi bilan yoki harbiy mashinani boshqargan harbiy bo'lmagan shaxsning aybi bilan sodir etilsa, qilmish JK 266-moddasi bilan kvalifikatsiya qilinishi lozim [3].

Foydalanish qoidalarining buzilishi, masalan, qo'pol yuklarni tashish, avtomashinani nomaqbul joyda tashlab ketish, boshqarishni nomuvofiq shaxsga ishonib topshirish, mashinani zaif trosda tortib yurish, moslashtirilmagan transport vositasida odam tashish kabilarda ifodalanishi mumkin.

Umumiy ehtiyot choralarining buzilishi natijasida yuzaga kelgan, zararli oqibatlar keltirib chiqargan haydovchining noto'g'ri harakatlari foydalanish qoidalarining buzilishi deb e'tirof etilmaydi. Bu hollarda aybdorning harakatlari muayyan ishlarni amalga oshirish, xavfsizlik texnikasi, mehnatni muhofaza qilish qoidalarining buzilishi sifatida yoki hayot va sog'liqqa qarshi qaratilgan jinoyat deb kvalifikatsiya qilinadi. Masalan, mashinaga benzin quyishda haydovchi ehtiyotsizligi tufayli benzin dvigatel ustiga to'kildi va boshqaruv vaqtida elektr o't oldirish tizimi buzuqligi natijasida uchqundan avtomashina alanga ichida qoldi va yo'lovchi halok bo'ldi. Bu holda qilmish ehtiyotsizlik oqibatida o'limga olib kelgan deb JK 102-moddasi bo'yicha kvalifikatsiya qilinishi mumkin [2, 789-b.]

Agar shaxs ixtisoslashgan transport vositasida (avtokran, ekskavator, skreper va hokazolar) ishlay turib, mashinadan o'zga, transportga hos bo'lmagan maqsadda foydalanganida zarar yetkazgan, masalan, avtokranda elektr liniyasi ostida yuk tushirish ishlarini belgilanganidan yaqinroq masofada amalga oshirib, natijada ishchilardan biri elektr tokidan halok bo'lgan holda mazkur jinoyat tarkibi mavjud

emas. Bu kabi xavfsizlik texnikasiga rioya qilmaslik hollari mashina yurib ketayotganida ham ro'y berishi mumkin, masalan, avtokran haydovchisi ilgakka ilingan yukni joydan joyga ko'chirishda uni silkitib yuboradi va ishchi badaniga og'ir shikast yetkazadi. Mazkur holatlarda harakat xavfsizligi va foydalanish xavfsizligi qoidalaribuzilmaganligi sababli JK 266-moddasi bo'yicha javobgarlik istisno etiladi.

Transport vositalarini boshqarish va ulardan foydalanish qoidalari buzilgan bo'lmasada, lekin qonunda ko'rsatilgan oqibatlar kelib chiqsa, buni bahtsiz hodisa natijasida aybsiz holda zarar yetkazish deb toppish kerak.

JKning 266-moddasi 1-qismida nazarda tutilgan jinoyat qonunda badanga o'rtacha og'ir yoki og'ir shikast yetkazilishi sifatida ko'rsatilgan oqibatlar kelib chiqqan paytdan tugallangan hisoblanadi.

Harakat havfsizligi va transport vositalaridan foydalanish xavfsizligi qoidalarini buzgan shaxs yetkazilgan zararli oqibatlar uchun qoidabuzarlik bilan oqibatlar o'rtasida sababiy bog'lanish mavjud bo'lgan holdagina javob beradi. Qoida buzilmagan holda bunday aloqa istisno etiladi (masalan, piyoda o'z ehtiyotsizligi tufayli mashina orqa g'ildiragi ostiga tushib qoladi yoki o' joniga qasd qilib o'zini mashina ostiga otadi). Harakatlanayotgan transport hamda jabrlangan shaxs o'rtasida jismoniy bog'liqlik mavjudligi hali sababiy bog'lanish mavjudligidan dalolat bermaydi, chunki bunday toifaga oid jinoyatlarda u normativ hususiyatga ega.

Normativlik tufayli sababiy bog'lanish jismoniy bog'liqlik umuman ro'y bermagan hollarda ham mavjud bo'lishi mumkin. Haydovchi o'z noto'g'ri harakatlari bilan to'g'ri harakatlanishga halaqit halaqit berishi natijasida harakatning boshqa ishtirokchilari uchinchi shaxslarga zarar yetkazishga majbur bo'lgan holatlarda ham, yetkazilgan zarar uchun ham javobgar bo'ladi. Masalan, qarama-qarshi yo'nalish qatoriga chiqib olgan haydovchi ro'paradan kelayotgan transport haydovchisi uchun to'siq paydo qiladi, u to'qnashishning oldini olish yoki to'xtash imkoniga ega bo'lmay, trotuardagi piyodani urib yuboradi. Bunda birinchi haydovchi oqibatlar uchun javob berishi lozim. Bu holatda ikkinchi haydovchi harakatlari oxirgi zarurat qoidalariga ko'ra yoki aybsiz holda zarar yetkazish sifatida kvalifikatsiya qilinadi [2, 790-b.].

Haydovchining zararli oqibatlar bilan bevosita bog'liq harakatlari, harakatning boshqa ishtirokchilarining qoidabuzarligi tufayli shartlangan bo'lishiga qaramay, ushbu oqibatlarning sababi sifatida ishtirok etadi. Yo'l harakati qoidalarida, hususan, qoidabuzarliklarning oldini oladigan talablar mavjud. Masalan, ularda haydovchi boshqa shaxslar tomonidan yo'l qo'yilgan o'zga qoidabuzarliklarga nisbatan qanday ish tutishi kerakligi ko'rsatilgan. Bu qoidalar buzilgan ekan, demak, aybdor yetkazilgan zarar uchun javob berishi shart. Xususan, qarama-qarshi transport vositasi chirog'idan ko'zi qamashgan haydovchi mashinani to'xtatmasdan, shu holat bilan bog'liq tarzda piyodani urib yuborsa, JKning 266-moddasi bo'yicha javobgarlikka tortiladi [2, 790-b.].

Sababiy bog'lanish masalasini hal etishda haydovchida zararli oqibatning oldini olishning texnik imkoni mavjudligi hisobga olinadi. Bunday imkoniyat bo'lmay, xavfli vaziyat u emas, harakatning boshqa ishtirokchilari tomonidan keltirib chiqarilganligi ma'lum bo'lsa, u holda JKning 266-moddasi bo'yicha javobgarlik istisno etiladi. Haydovchi ko'zi ko'rmasdan piyodani urib yuborgan holda uning harakatlari, agar u mashinani to'xtatish yoki chetga burib yuborish imkoniga ega bo'lmagan bo'lsa, kelib chiqqan oqibatlarining sababi emas. Xavfli holatni uning o'zi keltirib chiqargan bo'lsa, zararli oqibatlarining oldini olishga texnik imkon yo'qligi yuridik ahamiyatga ega emas [2, 790-b.].

JK [260](#), [261- 263](#), [266](#), [268](#), [269-moddalarida](#) nazarda tutilgan jinoyatlarning zaruriy belgisi sodir etilgan harakatlanish yoki transport vositalaridan foydalanish yoxud jinoyat qonunida ko'rsatilgan boshqa qoidalarining buzilishi bilan kelib chiqqan oqibatlar o'rtasida **sababiy bog'lanish** borligi hisoblanadi. Harakatlanish yoki transport vositalaridan foydalanish qoidalarining buzilishi ham harakat, ham harakatsizlikda ifodalanishi mumkin [3].

Transport vositasi haydovchisining yo'l harakati yoki transport vositalaridan foydalanish qoidalarini buzish natijasida emas, balki yukni ortish yoki tushirishda, transport vositalarini ta'mirlashda, qurilish, yo'l, qishloq xo'jaligi va boshqa ishlarni amalga oshirishi natijasida JK [266-moddasida](#) nazarda tutilgan oqibatlarga sabab

bo'lgan harakatlari, yuzaga kelgan oqibatlar va ayb shaklidan kelib chiqqan holda, shaxsga qarshi jinoyatlar yoki ishlarni amalga oshirish qoidalarini buzish uchun javobgarlikni nazarda tutuvchi [JK](#) tegishli moddalari bo'yicha kvalifikatsiya qilinishi lozim.

Yo'l harakati yoki transport vositalaridan foydalanish qoidalarini buzish, agar u kelib chiqqan oqibatlar bilan bog'liq bo'lmasa, ayblovdan chiqarilishi lozim. Bunday hollarda qonun hujjatlariga muvofiq boshqa huquqiy ta'sir choralari qo'llaniladi.

Sudlarning e'tibori shunga qaratilsinki, yo'l-transport hodisasi sabablarini tekshirishda yo'l harakati yoki transport vositalaridan foydalanish qoidalarining qaysi bandlari buzilganligini va ulardan qaysilari [JK 266-moddasida](#) nazarda tutilgan oqibatlar bilan sababiy bog'lanishda bo'lganligini aniqlash zarur.

Yo'l harakati qoidalari ikki yoki undan ortiq yo'l harakati ishtirokchisi tomonidan buzilgan hollarda, [JK 266-moddasi](#) bo'yicha jinoiy javobgarlik faqat transport vositasini boshqarish borasidagi harakatlari mazkur moddada ko'rsatib o'tilgan oqibatlar bilan sababiy bog'lanishda bo'lgan haydovchidagina kelib chiqadi. Transport vositasini boshqarish borasidagi harakatlari kelib chiqqan oqibatlar bilan sababiy bog'lanishda bo'lmagan boshqa haydovchi esa, yo'l harakati qoidalarini buzganligi uchun ma'muriy javobgarlikka tortiladi [3].

Jinoyatning **subyektiv tomoni** kelib chiqqan oqibatlarga nisbatan **ehtiyotsiz munosabat** bilan tavsiflanadi. Shaxs harakat xavfsizligi yoki transport vositasidan foydalanish xavfsizligi qoidalarini buza turib, bu inson sog'lig'iga og'ir yoki o'rtacha og'ir shikast yetkazishi mumkinligini anglaydi, biroq asossiz ravishda ularning oldini olishiga ishonadi yoki transport vositasini boshqaroyotgan shaxs harakat xavfsizligi yoki transport vositasidan foydalanish xavfsizligi qoidalarini buzib, zararli oqibatlar kelib chiqishini ko'ra bilmaydi.

Qasddan zarar yetkazish (o'ch olish maqsadida piyodani urib yuborish) shaxsga qarshi jinoyatni tashkil etadi. Aybdor transport vositasi yordamida jamoatchilik tartibini buzar ekan, qilmish qo'shimcha ravishda bezorilik sifatida kvalifikatsiya qilinishi mumkin [2, 790-b.].

JK [260](#), [261](#), [262](#), [266](#), [268](#), [269-moddalarida](#) nazarda tutilgan jinoyatlar, harakatlanish yoki transport vositalaridan foydalanish yoki boshqa qoidalar buzilishi xususiyatidan qat'ii nazar, **ehtiyotsizlik oqibatida** sodir etilgan, deb e'tirof etiladi, chunki, bunda aybdor barcha hollarda o'z-o'ziga ishonish yoki beparvolik bilan harakat qiladi. Agar aybdor harakatlanish yoki transport vositalaridan foydalanish qoidalarini qasddan buzsa, uning qilmishi Jinoyat [kodeksining](#) qasddan sodir etilgan jinoyatlar uchun javobgarlikni nazarda tutuvchi tegishli moddalari bo'yicha kvalifikatsiya qilinishi lozim.

Aybdor tomonidan bir necha mustaqil jinoyatlar sodir etilgan bo'lib, masalan, bu jinoyatlardan biri harakatlanish yoki transport vositasidan foydalanish xavfsizligiga qarshi, boshqasi esa, hayotga yoki sog'liqqa qarshi jinoyat bo'lsa, uning harakatlari mazkur jinoyatlar majmuini tashkil etadi [3].

Jinoyat kodeksi [263](#), [267-moddalarida](#) nazarda tutilgan jinoyatlarning subyektini o'n to'rt yoshga to'lgan, JK [260-262](#), [263¹](#), [264-266](#), [268](#), [269-moddalarida](#) nazarda tutilgan jinoyatlarning **subyektini** esa, o'n olti yoshga to'lgan shaxs hisoblanadi.

Tushuntirilsinki, JK [266-moddasida](#) nazarda tutilgan jinoyat subyektini sifatida transport vositasini boshqargan, ya'ni:

haydovchilik guvohnomasiga ega;

yo'l harakati qoidalarini buzganligi uchun haydovchilik guvohnomasi olib qo'yilgan;

tegishli turdagi transport vositasini boshqarish huquqidan mahrum qilingan;

umuman transport vositasini boshqarish huquqiga ega bo'lmagan;

qo'sh boshqaruvli o'quv (mashq) transport vositasida transportni boshqarishni o'rgatayotgan shaxs topilishi mumkin.

Yo'l harakati qoidalarining [I bo'limiga](#) ko'ra, ish hajmi 50 kub santimetr gacha bo'lgan va yurgizgich (dvigatel) bilan harakatga keltiriladigan hamda eng yuqori harakatlanish tezligi soatiga 50 kilometrdan oshmaydigan transport vositasini, moped (osma yurgizgichli (dvigatelli) velosiped) va o'xshash tavsifga ega bo'lgan boshqa transport vositasini boshqarib borayotgan shaxs JK [266-moddasida](#) nazarda tutilgan

jinoyat **subyekt**i bo'lishi mumkin emas. Mazkur transport vositalarini yoki ot-ulov transportini boshqarib borayotgan, shuningdek, velosipedchilar, aravacha, chana, bolalar hamda nogironlar aravachalarini tortib (yurgizib) borayotgan va yo'l harakati yoki transport vositalaridan foydalanish qoidalarini buzishga yo'l qo'ygan shaxs, agar bunda ehtiyotsizlik orqasida badanga o'rtacha og'ir yoki og'ir shikast yetkazilgan yoxud odam o'lgan bo'lsa, buning uchun asoslar mavjud bo'lgan taqdirda, JK [268-moddasi](#) bo'yicha javobgar bo'ladi [3].

Sud-tergov amaliyotida harakat xavfsizligi yoki transport vositasidan foydalanish xavfsizligi qoidalarining haydovchi-instruktor hamda shogird tomonidan yo'l qo'yilgani va zararli oqibatlarni keltirib chiqargan buzishni kvalifikatsiya qilishda muayyan muammolar paydo bo'ladi. Umumiy qoidaga binoan, shogird tomonidan ikki tomonlama boshqariladigan amaliyot vaqtida yo'l qo'yilgan avariya uchun instructor javob beradi. Ammo, qoidabuzarlik shogird tomonidan instruktor ko'rsatmalarini ongli tarzda bajarmaslik va maxsus qoidalarni qo'pol buzish oqibati ekanligi aniqlansa, JKning 266-moddasi bo'yicha shogird javobgarlikka tortiladi.

Jabrlanuvchiga yo'l-transport hodisasi oqibatida hayoti uchun xavfli bo'lmagan yengil tan jarohati yetkazilganligi yoki u bevosita yo'l-transport hodisasi vaqtida halok bo'lganligi aniqlansa yoki aybdor unga yordam berishi shart bo'lgani holda, uning o'zining hayoti yoki sog'ligi uchun xavf tug'ilganida, JKning 117-moddasi bo'yicha javobgarlik leikb chiqmaydi.

JK 266-moddasi turli qismlarida ko'zda tutilgan, harakat xavfsizligi yoki transport vositasidan foydalanish qoidalarining buzilishi natijasida sodir etilgan jinoyat belgilari mavjud bo'lgan holda, aybdor tomonidan sodir etilgan qilmish JK 33-moddasi talablariga muvofiq, nisbatan og'irroq jazo belgilangan qismi bo'yicha kvalifikatsiya qilinishi lozim.

Harakat xavfsizligi yoki transport vositasidan foydalanish qoidalarini buzgan va hayoti xavf ostida qolgan jabrlanuvchiga yordam ko'rsatmagan shaxsning harakatlari jinoyatlar jami bo'yicha JK 117 va 266-moddalarining tegishli qismlariga binoan kvalifikatsiya qilinadi. Shaxs harakat xavfsizligi yoki transport vositasidan foydalanish

qoidalarini buzmagani, ammo o'z haydovchilik burchini ado etmay, hodisa joyidan jabrlanuvchiga yordam ko'rsatmay ketib qolgan taqdirda, ushbu shart-sharoit uning JK 117-moddasida ko'zda tutilgan javobgarlikdan ozod etilishi uchun asos bo'la olmaydi [2, 793-b.].

Yo'l-transport hodisasini sodir etishda aybdor va jabrlanuvchini, uning hayoti yoki sog'lig'i xavf ostida qolganligini bila turib, yordamsiz qoldirgan haydovchi JK [266](#) va [117-moddalarining](#) tegishli qismlarida nazarda tutilgan jinoyatlar majmui bo'yicha javobgarlikka tortilishi lozim. Agar haydovchi yo'l-transport hodisasini sodir etishda aybdor bo'lmasa, biroq, jabrlanuvchining hayoti yoki sog'lig'i uning ishtirokida sodir etilgan yo'l-transport hodisasi oqibatida xavf ostida qoldirilgan bo'lsa, haydovchi tomonidan jabrlanuvchiga yordam ko'rsatishga doir "Yo'l harakati qoidalarini"ning [13-bandida](#) belgilangan majburiyatlarni bajarilmaganligi JK [117-moddasining](#) tegishli qismi bo'yicha javobgarlikka sabab bo'ladi. Hayoti yoki sog'lig'i xavf ostida qolgan shaxsga bila turib yordam ko'rsatmaslik deganda, transport vositasi haydovchisi jabrlanuvchi yoshligi, keksaligi, kasalligi yoki ojiz ahvolda bo'lganligi sababli mustaqil ravishda tibbiy yordam so'rash imkoniyatiga ega emasligini, uning hayoti yoki sog'lig'i uchun xavf mavjudligini anglagan, biroq unga zarur yordam ko'rsatmagan (masalan, haydovchi hodisa joyidan yashiringan, birinchi tibbiy yordam ko'rsatmagan, tez tibbiy yordam chaqirmagan, jabrlanuvchini yaqin oradagi davolash muassasasiga olib bormagan va shu kabi) hollar tushunilishi lozim. Hayoti yoki sog'lig'i xavf ostida qolgan jabrlanuvchiga bila turib yordam ko'rsatmaslik motivlari, shuningdek, haydovchining boshqa shaxslar tomonidan yordam ko'rsatilishi mumkinligi haqidagi vajlari aybdorning harakatlarini kvalifikatsiya qilishga ta'sir etmaydi [3].

Sudlarga tushuntirilsinki, JK [260](#), [260¹](#), [262](#), [263](#), [263¹](#), [266](#), [268](#), [269-moddalari](#) dispozitsiyalarida nazarda tutilgan "odamlar o'limi" deganda, harakatlanish yoki transport vositalaridan foydalanish yoxud jinoyat qonunida ko'rsatilgan boshqa qoidalar buzilishi natijasida ikki yoki undan ortiq odam o'lishini tushunish lozim [3].

Haydovchining yo‘l-transport hodisasi sodir etilishida, jumladan, harakatlanish tezligini oshirganligi natijasida, aybdorligi yoki aybsizligi masalasini hal etishda “Yo‘l harakati qoidalari”ning [XI bo‘limi](#) talablaridan kelib chiqish lozim bo‘lib, unga ko‘ra, haydovchi transport vositasini belgilangan cheklangan tezlikdan oshirmasdan harakatning serqatnovligini, transport vositasi va yukning xususiyati hamda holatini, yo‘l va ob-havo sharoitini, xususan, harakatlanish yo‘nalishidagi ko‘rinishni hisobga olgan holda boshqarishi kerak. Shu talabdan kelib chiqib, harakatlanish uchun xavf paydo bo‘lganda, agar haydovchida buni payqashi imkoniyati bo‘lsa, u transport vositasini to‘xtatish darajasigacha tezlikni kamaytirish choralarini ko‘rishi kerak. JK [266-moddasi](#) bo‘yicha jinoiy javobgarlik, faqat, haydovchida yo‘l-transport hodisasining oldini olish uchun texnik imkoniyat mavjud bo‘lganda va uning huquqqa xilof xatti-harakatlari bilan kelib chiqqan oqibatlar o‘rtasida sababiy bog‘lanish mavjudligi aniqlangan taqdirda kelib chiqadi [3].

Haydovchida yo‘l-transport hodisasining oldini olish uchun texnik imkoniyat bor-yo‘qligi masalasini hal etishda, harakatlanish uchun xavf paydo bo‘lgan payt, har bir muayyan holda, yo‘l-transport hodisasi sodir bo‘lgunga qadar yo‘lda mavjud bo‘lgan vaziyatni inobatga olgan holda aniqlanishidan kelib chiqish lozim. Harakatlanish uchun xavf paydo bo‘lgan vaqt, haydovchi uni payqay olishi uchun obyektiv imkoniyatga ega bo‘lgan paytdan boshlab hisoblanadi [3].

Jinoyat kodeksi [266-moddasida](#) nazarda tutilgan jinoyatlarga oid ishlarni ko‘rishda sudlar, yo‘l harakati yoki transport vositalaridan foydalanish qoidalarining aynan qaysi bandlari buzilganligi mazkur moddada ko‘rsatilgan oqibatlar kelib chiqishiga sabab bo‘lganligini va bu qoidabuzarlik aynan nimada ifodalanganligini (masalan, texnik nosoz transport vositasini boshqarganlik, transportni mast holda boshqarganlik, harakatlanish tezligini oshirib yuborganlik va shu kabilarni) hukmda ko‘rsatishlari lozim [3].

Sudlar shuni nazarda tutishlari zarurki, transport vositalarini boshqarishga ruxsat etilgan mast holatdagi yoki giyohvandlik vositalari, ularning analoglari, psixotrop yoxud odamning aql-idrokiga ta‘sir ko‘rsatuvchi boshqa moddalar ta‘siri ostidagi

shaxs tomonidan harakatlanish yoki transport vositalaridan foydalanish qoidalarini buzilganda, uning harakatlari kelib chiqqan oqibatlarga qarab, JK [260](#) yoki [266-moddasining](#) tegishli qismlari bo'yicha kvalifikatsiya qilinishi mumkin [3].

Sudlar yo'1 harakati yoki transport vositalaridan foydalanish qoidalarini buzish bilan bog'liq jinoyatlarni texnika xavfsizligi yoki transportda mehnatni muhofaza qilish qoidalarini buzish bilan bog'liq jinoyatlardan farqlay olishlari shart. Yo'1 harakati yoki transport vositalaridan foydalanish qoidalarini buzish (JK [266-moddasi](#)) deganda, bunday harakatlarning transport vositasi yo'llarda harakatlanishi jarayonida sodir etilishi tushuniladi. Agar transport vositasidan foydalanish jarayonida, jumladan transportga yuk ortish-tushirish, transport vositasini ta'mirlash, qurilish, qishloq xo'jaligi ishlari va boshqa turdagi ishlarni bajarishda texnika xavfsizligi yoki mehnatni muhofaza qilish qoidalarini buzish natijasida badanga o'rtacha og'ir yoki og'ir shikast yetkazilgan, odam o'limi yoki boshqa og'ir oqibatlar kelib chiqqan bo'lsa, mazkur qoidalarga rioya etilishi uchun mas'ul shaxsning harakatlari JK [257-moddasi](#) bo'yicha kvalifikatsiya qilinishi lozim [3].

Sudlar yo'1-transport hodisasida aybdor deb topilgan shaxsga nisbatan jazo turi va muddatini belgilashda insonparvarlik, odillik tamoyillaridan kelib chiqib, har bir ish bo'yicha alohida yondashuv to'g'risidagi qonun talabiga qat'iy rioya qilishlari, sodir etilgan jinoyatning ijtimoiy xavflilik darajasiga, hodisa sodir bo'lgandan keyin shaxsning xatti-harakatiga (uning jabrlanuvchiga tibbiy yordam ko'rsatish uchun qilgan harakatlari, jabrlanuvchi va uning oilasiga moddiy va boshqa tarzda yordam berganligi, jinoyat natijasida yetkazilgan moddiy va ma'naviy zararni qoplaganligi va h.k.) va jazoni yengillashtiruvchi yoki og'irlashtiruvchi boshqa holatlarga alohida e'tibor berishlari shart [3].

Jinoyat kodeksining [261-moddasi](#), [266-moddasining ikkinchi](#) va [uchinchi qismlari](#) sanksiyasida muayyan huquqdan mahrum qilish tariqasidagi qushimcha jazo qo'llanilishi majburiylik belgilanganligi sababli, sud, JK [57-moddasida](#) belgilangan alohida hollar (masalan, sudlanuvchining asosiy kasbi haydovchilik bo'lib, boshqa

mutaxassislikka ega emasligi) mavjud bo'lganda, hukmning tavsif qismida o'z qarorini asoslab bergan holda, qo'shimcha jazo chorasini qo'llamasligi mumkin [3].

Sudlarning e'tibori shunga qaratilsinki, transport vositalari harakati va ulardan foydalanish xavfsizligiga qarshi jinoyatlarga oid ishlarni ko'rishda mazkur jinoyatlar oqibatida yetkazilgan moddiy zararni undirish muhim ahamiyatga ega. Ushbu masalalarni hal etishda, sudlar O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining "Jinoyat natijasida yetkazilgan mulkiy ziyonni qoplashga oid qonunchilikni qo'llash bo'yicha sud amaliyoti to'g'risida" 2016-yil 27-dekabrda [26-sonli](#), shuningdek, "Ma'naviy zararni qoplash haqidagi qonunlarni qo'llashning ayrim masalalari to'g'risida" 2000-yil 28-aprelda [7-sonli](#) qarorlarida bayon etilgan tushuntirishlarga amal qilishlari lozim [3].

Tashkilot, korxonalar, muassasalarda xizmat vazifalarini bajarishga vijdotsiz munosabatda bo'lish, transport vositalarining qoniqsiz ahvoli, mehnat va ijro intizomini buzish, avtomobil yo'llari, ko'chalar, temir yo'ldan o'tish joylari va boshqa yo'l inshootlarini saqlash qoidalarini buzish kabi jinoyat sodir etilishiga imkon yaratib bergan hollar aniqlanganda, sudlar xususiy ajrim (qaror) chiqarish yo'li bilan tegishli davlat organlari va mansabdor shaxslari e'tiborini shu holatlarga qaratishlari lozim.

Ish bo'yicha avtomobil yo'llari, ko'chalar, temir yo'ldan o'tish joylari va boshqa yo'l inshootlarini saqlash qoidalari qo'pol buzilishi (yo'llarning cho'kishi, yer osti inshootlari lyuklarining ochiq qoldirilishi, ogohlantiruvchi belgilar qo'yilmaganligi va h.k.) hollari aniqlanib, u JK [266-moddasida](#) nazarda tutilgan oqibatlarni keltirib chiqargan yo'l-transport hodisasi uchun sharoit tug'dirgan bo'lsa, sudlar mazkur qoidalarga rioya etilishiga mas'ul shaxslar (ta'mirlash-qurilish yoki foydalanish tashkilotlari xodimlari, ichki ishlar organlarining yo'l harakati xavfsizligi xizmati xodimlari va h.k.) harakatiga huquqiy baho berish uchun tegishli materiallarni prokurorga yuborishlari lozim.

REFERENCES

1. O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksi, Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 03/23/826/0172-son
2. O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksiga sharh. Maxsus qism, Rustambayev, 2016 yil, Toshkent, 793 bet
3. O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2015-yil 26-iyundagi 10-sonli “Transport harakati va undan foydalanish xavfsizligiga qarshi jinoyatlar bilan bog‘liq ishlar yuzasidan sud amaliyotining ayrim masalalari to‘g‘risida”gi qarori
4. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Sudi Plenumining 20.12.1996 yildagi 37-son “Transport vositalarini olib qochish ishlari bo‘yicha sud amaliyoti haqida” gi qarori
5. Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 12-apreldagi 172-son qaroriga 1-ilova - “Yo‘l harakati qoidalari”

UDK: 616.24-002-053.2.

CLINICAL AND IMMUNOLOGICAL FEATURES OF BRONCHOSTRUCTIVE SYNDROME IN CHILDREN OF EARLY AND PRESCHOOL AGE

Allanazarov Alisher Baymuradovich

Assistant of the Department of Pediatrics № 1
Samarkand State Medical Institute

ANNOTATION

At present, all over the world, the study of the phenotypes of bronchial obstruction in children of early and preschool age remains a subject of great scientific interest. The identification of phenotypes is necessary for a better understanding of the etiopathophysiological, including epigenetic, mechanisms of the disease, the determination of predictors and the prediction of the risk of BA. In this regard, the aim of the study was to study the clinical and immunological features of broncho-obstructive syndrome in children of early and preschool age. On the basis of the SF of RSCEMA, 111 patients aged from 1 to 6 years were examined. The results of the study showed that under conditions of prolonged antigenic load, humoral immunity is activated; children with RSMS have hyperimmunoglobulinemia G and M, which is the cause of incomplete immunity.

Key words: *Bronchial obstructive syndrome, bronchial asthma, immunoglobulin, interleukin.*

ЭРТА ВА МАКТАБГАЧА ЁШДАГИ БОЛАЛАРДА БРОНХООБСТРУКТИВ СИНДРОМНИНГ КЛИНИК ВА ИММУНОЛОГИК ХУСУСИЯТЛАРИ

Allanazarov Alisher Baymurodovich

1-son pediatriya kafedrası assistenti
Samarqand davlat tibbiyot instituti

ANNOTATSIYA

Ҳозирги кунда бутун дунёда эрта ва мактабгача ёшдаги болаларда бронхиал обструксиянинг фенотипларини ўрганиш катта илмий қизиқиш

мавзуси бўлиб қолмоқда. Фенотипларни аниқлаш этиопатофизиологик, шу жумладан касалликнинг эпигенетик механизмларини, предикторларни аниқлаш ва БА хавфини башорат қилишни яхшироқ тушуниш учун керак. Шу муносабат билан, тадқиқотнинг мақсади эрта ва мактабгача ёшдаги болаларда бронхо-обструктив синдромнинг клиник ва иммунологик хусусиятларини ўрганиш бо'лди. РШТЎИМ СФ асосида 1 ёшдан 6 ёшгача бўлган 111 бемор болалар текширилди. Тадқиқот натижалари шуни кўрсатдики, болаларда узоқ давом этадиган антиген та'сири шароитида гуморал иммунитет фаоллашади; РСли болаларда Г ва М гипериммуноглобулинемия кузатилади, бу эса тўлиқ бўлмаган иммунитетнинг шаклланишига сабаб бо'лади.

Калит сўзлар: Бронхиал обструктив синдром, бронхиал астма, иммуноглобулин, интерлейкин.

КЛИНИКО-ИММУНОЛОГИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ БРОНХООБСТРУКТИВНОГО СИНДРОМА У ДЕТЕЙ РАННЕГО И ДОШКОЛЬНОГО ВОЗРАСТА

Алланазаров Алишер Баймурадович

Ассистент кафедры Педиатрии №1

Самаркандский государственный медицинский институт

АННОТАЦИЯ

В настоящее время во всем мире изучение фенотипов бронхиальной обструкции у детей раннего и дошкольного возраста остается предметом большого научного интереса. Идентификация фенотипов необходима для лучшего понимания этиопатофизиологических, в том числе эпигенетических, механизмов заболевания, определения предикторов и прогнозирования риска развития БА. В связи с этим целью исследования явилось изучить клинко-иммунологическую особенность бронхообструктивного синдрома у детей раннего и дошкольного возраста. На базе СФ РНЦЭМП обследовано 111 пациентов в возрасте от 1 года до 6 лет. Результаты исследования показали, что в условиях длительной антигенной нагрузки активизируется гуморальный иммунитет, у детей с РСРС отмечается гипериммуноглобулинемия G и M, являющаяся причиной неполного иммунитета. Иницирование активности через IL-6 макрофагального звена иммунной системы как неспецифического защитного фактора приводит к увеличению кислородзависимых механизмов.

Ключевые слова: Бронхиальный обструктивный синдром, бронхиальная астма, иммуноглобулин, интерлейкин.


RELEVANCE

One of the leading places in the structure of chronic childhood diseases is bronchial asthma (BA). Over the past three decades, there has been an increase in the incidence of this disease, which, according to the World Health Organization (WHO), affects at least 235 million people in all countries of the world, regardless of their level of development, regardless of age, race, national restrictions [14,16]. Despite the progress achieved in the diagnosis and treatment of this nosology, which has led to a decrease in the number of hospitalizations and related deaths, BA remains an urgent medical, social and economic problem in pediatrics. Globally, about 50% of all young children have at least one episode of bronchial obstruction syndrome (BO) [1], and more than half of them (57.5%) have episodes of recurrent obstruction, despite this, only 30-40% of them will develop bronchial asthma (BA) at an older age [6,8]. The remaining episodes of bronchial obstruction after 6 years of age will not recur [11]. The issues of phenotyping of broncho-obstructive syndrome in young and preschool children are outlined in the Global Strategy for the Treatment and Prevention of AD (GINA), revised in 2019 and in subsequent years [3,7]. At present, all over the world, the study of the phenotypes of bronchial obstruction in children of early and preschool age remains a subject of great scientific interest. The identification of phenotypes is necessary for a better understanding of the etiopathophysiological, including epigenetic, mechanisms of the disease, the determination of predictors and the prediction of the risk of AD development.


PURPOSE OF THE STUDY: to study the clinical and immunological features of broncho-obstructive syndrome in children of early and preschool age.

MATERIALS AND METHODS OF RESEARCH: The research was carried out on the basis of our own observations and data from medical records. Informed consent was obtained from all patients to participate in the study. At the first stage, BO was identified. To solve the tasks at admission, a survey of parents was carried out, followed by the study of anthropometric data, the characteristics of the course of the neonatal period. Allergic and hereditary history, medical history: frequency of

bronchial obstruction syndrome, relationship of BOS with respiratory diseases and other triggers, clinical response to ongoing therapy and reversibility of symptoms after drug withdrawal were evaluated. Asthma susceptibility index analyzed (API - Asthma Predictive Index, modified in 2008 [2,9]). All observed children were examined by conventional clinical, laboratory and instrumental methods. blood test, CRP, streptolysin O, thymol test), chest xray, electrocardiography, bacteriological examination of the throat and nasal swabs, pulse oximetry, bronchophonography. Immunological examination included: determination of the level of absolute and relative amount of T- and B-lymphocytes of peripheral blood; study of the phagocytic link of immunity with the calculation of the percentage and index of phagocytosis, the level of IgA, IgM, IgG, total IgE, detection of circulating immune complexes. Levels of cytokines (IL-1 β , IL-4, IL-6, IL-8) in the first tenth day of inpatient treatment.



Picture 1. Adverse risk factors for mothers during pregnancy



Picture 2. Comorbid diseases in children with BOS.

RESEARCH RESULTS: On base of SB of RSCEMA 111 patients were examined at the age from 1 to 6 years. The following unfavorable pregnancy factors were revealed in mothers of children with recurrent BOS: the threat of termination of pregnancy 27 (24.3%), gestosis 48 (43.2%), anemia during pregnancy 30 (27%), the presence of chronic diseases in the mother 23 (20 , 7%) who had acute respiratory infections during pregnancy 6 (5.4%).

Recently, there are more and more scientific works reflecting the relationship between recurrence of BOS and low birth weight, for the first time this risk factor was described in the Global Initiative on Asthma (GINA) 2002 [5,15,16]. Noteworthy is the high incidence of allergic reactions in children with RBOS 40 (36.1%), such as: a history of food allergy, the frequency of occurrence was 17 (15.3%); drug allergy, frequency of occurrence - 19 (17.1%); sensitization to household allergens was detected in 4 (3.6%). All of the above factors were classified as minor criteria, and in

the absence of their combinations, the asthma susceptibility index - API in the analyzed children was assessed as negative.

Analysis of hereditary predisposition to allergic reactions showed that food allergy and allergic rhinitis are found in 9 (8.1%) mothers of children with PCP; manifestations of allergic diseases in the father were noted in 7 (6.3%) of the study group; in the anamnesis of some children there were indications of the presence of allergic diseases in secondline relatives. Sex and age characteristics were also assessed. Despite the fact that boys predominated in the analyzed group, no statistical significance was found. On the part of the child, the presence of comorbid diseases was assessed: 19 (17.1%) children were diagnosed with sinusitis, 21 (18.9%) - adenoiditis, 6 (5.4%) - chronic tonsillitis (pic. 2).

Analysis of hemograms, immunological status, cytokine levels did not reveal significant differences between the comparison groups, with the exception of the IgE value; therefore, the IgE level in the RB children group (n = 111) was 38.4.

$M \pm 2.5$ IU / ml, in the control group (n = 30) -28.2 ± 2.3 IU / ml, $p = 0.001$. Comparative analysis of the level of cytokines IL-1 β , IL-4, IL-6, IL-8 did not reveal significant differences in the analyzed groups. Studying the cytokine profile, we identified the most significant risk factor for RBOS, which is characterized by different from the reference values in the direction of increasing IL-6, with a value of $\chi^2 = 7.657$, $p = 0.005$. The scientific literature contains data on the possible participation of IL-6 in the pathogenesis of RBOS [10, 13]. In his work, D. Hirani showed that in response to damage (barotrauma, oxygen poisoning, infection, hypoxia), inflammation is formed in the airways due to the activation of macrophages and the synthesis of IL-6 [12]. Thus, such significant risk factors as hyperimmunoglobulinemia G and M, increased levels of IL-6 characterize the immune system of children with RSRS and an initially low asthma susceptibility index - API, a feature of which is the intensity of the immune response, contributing to the persistence and recurrence of bacterial infection [11,14].

CONCLUSIONS: Thus, it is possible that under conditions of prolonged antigenic load, humoral immunity is activated; children with RSMS have

hyperimmunoglobulinemia G and M, which is the cause of incomplete immunity. The initiation of activity through IL-6 of the macrophage link of the immune system as a nonspecific protective factor leads to an increase in oxygen-dependent killing mechanisms and reserve capacities of phagocytes in the early stages of the disease, followed by a decrease in the reserve capacities of phagocytes as a result of impaired adaptive capabilities.

LITERATURE

1. Алланазаров А.Б., Мамаризаев М.К., Абдукодирова Ш.Б. Факторы риска развития острого бронхообструктивного у часто болеющих детей по данным РНЦЭМП Самарканд филиала. ЖУРНАЛ ГЕПАТО-ГАСТРОЭНТЕРОЛОГИЧЕСКИХ ИССЛЕДОВАНИЙ. СПЕЦИАЛЬНЫЙ ВЫПУСК. ТОМ -I. ТОШКЕНТ – 2023. Стр. 47-48
2. Шавази Н.М., Алланазарова А.Б., Атаева М.С., Гайбуллаев Ж.Ш. Современные взгляды возникновения обструктивной болезни легких у детей. Journal of cardiorespiratory research. №1 2021. Стр. 40-43
3. Алланазаров А.Б., Карджавова Г.А., Лим М.В., Шавази Н.М. Мониторинг этиологических аспектов внебольничной пневмонии у детей. Журнал Проблемы биологии и медицины. 128 (3), 2021г. Стр 144-148
4. Алланазаров Алишер Боймуратович, Гайбуллаев Жавлон Шавкатович. ПОЛИОКСИДОНИЙ ПРИ ЛЕЧЕНИИ ОБСТРУКТИВНОГО БРОНХИТА У ДЕТЕЙ. ЖУРНАЛ ГЕПАТО–ГАСТРОЭНТЕРОЛОГИЧЕСКИХ ИССЛЕДОВАНИЙ. ТОМ 4, НОМЕР 1. Стр. 5-7
5. Алланазаров А.Б. Клиническая характеристика острого обструктивного бронхита у детей. НАУКА ЧЕРЕЗ ПРИЗМУ ВРЕМЕНИ №64 (июль) 2022. ст. 53-54

6. Алланазаров А.Б. Опыт использования небулайзерной терапии у детей с острым обструктивным бронхитом. НАУКА ЧЕРЕЗ ПРИЗМУ ВРЕМЕНИ №64 (июль) 2022. стр.51-52
7. Алланазаров А.Б., Мамаризаев И.К, Мардонов А, Жалилова С. Факторы риска развития острого бронхообструктивного у часто болеющих детей по данным РНЦЭМП Самарканд филиала. Journal of cardiorespiratory research. № SI-4.11 2022. Стр. 31-33
8. Шавази Н.М., Алланазаров А.Б. Особенности рецидивирующей респираторной инфекции у детей. Journal of cardiorespiratory research. № SI-4.11 2022. Стр. 21-25
9. Teo, S. M. The infant nasopharyngeal microbiome impacts severity of lower respiratory infection and risk of asthma development / S. M. Teo, D. Mok, K. Pham, M. Kusel, M. Serralha, N. Troy, B. J. Holt, B. J. Hales, M. L Walker, E. Hollams, Y. A. Bochkov, K. Grindle, S. L. Johnston, J. E. Gern, P. D. Sly, P. G. Holt, K. E. Holt, M. Inouye // Cell Host Microbe. – 2015. – V. – 17. № 5. – P. 704-715.
10. Tse, S. M. Sex-specific risk factors for childhood wheeze and longitudinal phenotypes of wheeze / S. M. Tse, S. L. Rifas-Shiman, B. A. Coull, A. A. Litonjua, E. Oken, D. R. Gold / Allergy Clin Immunol. – 2016. – V. – 138, № 6. – P. 1561–1568.
11. Uphoff, E. P. Variations in the prevalence of childhood asthma and wheeze in MeDALL cohorts in Europe / E. P. Uphoff, P. K. Bird, J. M. Antó, M. Basterrechea, A. Berg, A. Bergström, J. Bousquet, L. Chatzi, M. P. Fantini, A. Ferrero, U. Gehring, D. Gori, J. Heinrich, T. Keil, I. Kull, S. Lau, D. Maier, I. Momas, S. Narduzzi, D. Porta, F. Ranciere, T. Roumeliotaki, T. Schikowski, H. A. Smit, M. Standl, J. Sunyer, J. Wright et al // European Respiratory Journal. Open Research. – 2017. – V. 3, № 3. – P.00150.
12. Usemann J. Dynamics of respiratory symptoms during infancy and associations with wheezing at school age / J. Usemann, B. Xu, E. Delgado-Eckert, I. Korten,

- P. Anagnostopoulou, O. Gorlanova, C. Kuehni, M. Rössli, P. Latzin, U. Frey, et al. // ERJ Open Research 2018. – V. 4. – P. 00037
13. Van de Kant, K. D. G. Early diagnosis of asthma in young children by using non-invasive biomarkers of airway inflammation and early lung function measurements: study protocol of a case-control study / K. D. G. van de Kant, E. Klaassen, Q. Jöbsis, A. J. Nijhuis, S. Onno, E. Dompeling // BMC Public Health. – 2009. – P. 210.
14. Van de Kant, K. D. Wheezing in preschool children is associated with increased levels of cytokines/chemokines in exhaled breath condensate / K. D.G. van de Kant, E. M. M. Klaassen, Q. Jöbsis, K. Koers, G. T. Rijkers, C. P. van der Grinten, O. C. P. van Schayck, V. Lima Passos, E. Dompeling // Allergy Clin Immunol. – 2010. – V.126, № 3. – P. 669-671.
15. Varella, A. M. Low-level laser therapy increases interleukin in gingival crevicular fluid and 145 enhances the rate of orthodontic tooth movement / A. M. Varella, A. V. Revankar, A. K. Patil // Am J Orthod Dentofacial Orthop. – 2018. – V. 154, № 4. – P. 535-544. doi: 10.1016/j.ajodo.2018.01.012.

UMUMTA'LIM MAKTABLARIDA GEOGRAFIYANI O'QITISHNING ZAMONAVIY TA'LIM VOSITALARIDAN FOYDALANISH

Raximov Ixtiyor Baxtiyor o'g'li

Namangan davlat pedagogika instituti

Amaliy va tabiiy fanlarni o'qitish metodikasi kafedrası stajor o'qituvchisi

ixtiyorraximov5656841@gmail.com

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada umumta'lim maktablarida geografiyani o'qitishda zamonaviy ta'lim vositalaridan foydalanishning afzalliklari ko'rib chiqilgan. Zamonaviy ta'lim vositalaridan foydalanish mumkin bo'lgan turli xil usullarni, ushbu vositalardan foydalanish natijalarini tahlil qilindi va geografiya ta'limiga texnologiyani kiritishning afzalliklari va kelajakdagi yo'nalishlarini muhokama qilingan.

Kalit so'zlar: zamonaviy ta'lim vositalari, geografiya ta'limi, umumta'lim maktablari, texnologiyalar, o'qitish usullari, natijalar, natijalar, kelajak yo'nalishlari.

АННОТАЦИЯ

В этой статье рассматриваются преимущества использования современных образовательных инструментов при преподавании географии в государственных школах. Были проанализированы различные методы, с помощью которых можно использовать современные образовательные инструменты, результаты использования этих инструментов, а также обсуждены преимущества и будущие направления внедрения технологий в географическое образование.

Ключевые слова: современные образовательные инструменты, географическое образование, общеобразовательные школы, технологии, методы обучения, результаты, результаты, будущие направления.

ANNOTATION

This article examines the benefits of using modern educational tools in teaching geography in secondary schools. It studies the various methods that can be used, the results of the use of these tools, and discusses the consequences and future directions of introducing technology into geography education.

Key words: *modern educational tools, geography education, general education schools, technologies, teaching methods, results, results, future directions.*

KIRISH

Mamlakatimizda ilg'or xorijiy tajribalar asosida uzluksiz ta'lim tizimini yaratish va maktab ta'limini rivolantirish jarayonida zamonaviy metodlar va zamonaviy ta'lim vositalaridan foydalanishni ta'minlashga qaratilgan islohotlar natijasida o'quvchilarga bilim berishning zamonaviy ta'lim mazmunini oshirish, o'quvchilarni qobiliyatlarini ochish imkon beruvchi zarur shartsharoitlar yaratishga yo'naltirilgan zamonaviy ta'lim muhitini yaratish bo'yicha tadqiqotlar olib borilmoqda. Shu bilan birga maktab ta'lim tizimida ham zamon talabiga javob beradigan yosh avlodni tayyorlash zaruriyati oshib bormoqda.

METODLAR BO'LIMI

Globalashuv va halqaro iqtisodiy integratsiya kuchayib borayotgan bugungi kunda ishlab chiqarishni ilm-fan yutuqlarisiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Chunki, ishlab chiqarishga intellektual salohiyat zamonaviy bilimlar va raqamli texnologiyalar yuqori samarali ishlata olish, ilg'or innovatsion texnologiyalarni tadbiq etish orqali, mehnat bozorida bilimli va salohiyatli kadrlarni tayorlash juda muhim va dolzarb masaladir. Bu esa bo'lajak yosh kadrlarni mukammal bilim egallashga ko'makdosh bo'lgan xorij tajribalari va o'qitishning zamonaviy ta'lim vositalaridan foydalanish zarur.

NATIJALAR

Umumta'lim maktablarda geografiya ta'limi o'quvchilarning dunyo haqidagi tushunchalarini rivojlantirishda hal qiluvchi rol o'ynaydi. Bugungi raqamli asrda zamonaviy ta'lim vositalaridan foydalanish o'quv tajribasini oshirishda tobora muhim

ahamiyat kasb etmoqda. Ushbu vositalarga interaktiv xaritalar, onlayn simulyatsiyalar, virtual sayohatlar va geografik axborot tizimlari (GIS) kiradi. Ushbu maqolada umumta'lim maktablarda geografiyani o'qitishda zamonaviy ta'lim vositalaridan foydalanishning afzalliklari, ulardan foydalanish usullari, ushbu vositalardan foydalanish natijalari va geografiya ta'limiga texnologiyani kiritishning oqibatlarini va kelajakdagi yo'nalishlari muhokama qilinadi.

Geografiyani o'qitishda zamonaviy ta'lim vositalaridan foydalanish usullari mavjud vositalarga va darsning o'quv maqsadlariga qarab juda xilma-xildir. Interfaol xaritalar va onlayn simulyatsiyalar talabalarga relyef shakllari, iqlim naqshlari va aholining tarqalishi kabi geografik tushunchalarni vizual ravishda namoyish etish uchun ishlatilishi mumkin. Virtual ekskursiyalar yordamida talabalarni dunyoning turli burchaklariga sayohatga olib borish, ularga mahalliy madaniyat, atrof-muhit va geografiya haqida ma'lumot berish mumkin. Geografik axborot tizimlari (GIS) ma'lumotlarni tahlil qilish va talqin qilish uchun ishlatilishi mumkin, bu talabalarga geografik ma'lumotlardagi naqsh va munosabatlarni aniqlashga imkon beradi.

Tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, geografiyani o'qitishda zamonaviy ta'lim vositalaridan foydalanish bir qancha afzalliklarga ega. Interfaol xaritalar va onlayn simulyatsiyalar talabalarga fazoviy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirishga va murakkab geografik tushunchalar haqidagi tushunchalarini yaxshilashga yordam beradi. Virtual ekskursiyalar talabalarga yanada chuqurroq o'rganish tajribasini taqdim etadi va ularni mavzuga jalb qilishga yordam beradi. GIS ma'lumotlarni tahlil qilish va talqin qilish uchun ishlatilishi mumkin, bu talabalarga tanqidiy fikrlash va muammolarni hal qilish ko'nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi. Bundan tashqari, zamonaviy ta'lim vositalaridan foydalanish talabalarning motivatsiyasi va geografiyaga qiziqishini oshirishga yordam beradi.

Zamonaviy ta'lim vositalaridan ta'lim jarayonlarida qo'llash o'quv tarbiyaviy jarayonlarning yanada takomillashuviga, ta'lim sifatini jahon andozalariga yetkazishga, o'quvchilarni yagona davlat ta'lim standartlari talablariga mos ravishda tayyorlashga olib keladi.

Dars mashg'ulotlarini loyihalashtirish muammosini pedagogik texnologiya asosida olib borish va hal etish davr talabidir. Yangi pedagogik texnologiyada oliy maktablarda an'anaviy ravishda joriy etilayotgan o'qitish tizimini ilmiy asoslangan ravishda amalga oshirish talab etiladi. Tajriba jarayonida talabalarda shakllanadigan bilim, ko'nikma, ijodiy faoliyat obyektiv borliqqa munosabatlar pedagogik jarayon mahsuli hisoblanadi.

Umumta'lim maktablarida geografiyani o'qitishda zamonaviy ta'lim vositalaridan foydalanishning turli uslublari mavjud bo'lib, ulardan ba'zilari quyida keltirilgan:

1. Interaktiv xaritalar: Interaktiv xaritalar relyef shakllari, iqlim naqshlari va aholi taqsimoti kabi geografik tushunchalarni vizual tarzda ifodalash uchun ishlatilishi mumkin. Talabalar turli xil stsenariylarni o'rganish va turli xil xususiyatlar o'rtasidagi fazoviy munosabatlarni yaxshiroq tushunish uchun ushbu xaritalarni boshqarishi mumkin.

2. Onlayn simulyatsiyalar: onlayn simulyatsiyalar talabalarga yanada chuqurroq o'rganish tajribasini taqdim etish uchun ishlatilishi mumkin. Masalan, talabalar simulyatsiyalardan foydalanib, turli xil ob-havo sharoitlarini, okean oqimlarini yoki inson faoliyatining atrof-muhitga ta'sirini o'rganishlari mumkin.

3. Virtual sayohatlar: Virtual sayohatlar talabalarni dunyoning turli burchaklariga sayohatga olib borishi mumkin, bu ularga turli madaniyatlar, muhit va geografiyalarni boshdan kechirish imkonini beradi. Ushbu tajribalar talabalarni mavzuga jalb qilishga va geografik tushunchalarni chuqurroq tushunishga yordam beradi.

4. Geografik axborot tizimlari (GIS): GIS geografiya bilan bog'liq ma'lumotlarni tahlil qilish va talqin qilish uchun ishlatilishi mumkin. Masalan, talabalar GISdan aholining tarqalish xaritalarini yaratish, erdan foydalanishdagi o'zgarishlarni kuzatish yoki tabiiy ofatlar ta'sirini tahlil qilish uchun foydalanishlari mumkin.

5. Mobil ilovalar: mobil ilovalar sinfda ham, undan tashqarida ham o'quv tajribasini oshirish uchun ishlatilishi mumkin. Masalan, talabalar turli xil geografik xususiyatlarni o'rganish, xaritalash ko'nikmalarini mashq qilish yoki turli madaniyat va urf-odatlarini o'rganish uchun ilovalardan foydalanishlari mumkin.

Umuman olganda, oʻrta maktablarda geografiyani oʻqitishda zamonaviy taʼlim vositalaridan foydalanishning koʻplab usullari mavjud. Ushbu vositalarning kombinatsiyasidan foydalangan holda oʻqituvchilar oʻquvchilarga atrofdagi dunyoni tushunish va qadrlashni kuchaytiradigan dinamik va qiziqarli oʻquv tajribasini taqdim etishlari mumkin.

MUNOZARA

Geografiyani oʻqitishda zamonaviy taʼlim vositalaridan foydalanishning afzalliklariga qaramay, baʼzi muammolarni hal qilish kerak. Asosiy muammolardan biri bu baʼzi maktablarda, xususan rivojlanayotgan mamlakatlarda texnologiyalardan foydalanishning etishmasligi. Bundan tashqari, baʼzi oʻqituvchilar oʻzlarining oʻqitish amaliyotiga texnologiyani samarali kiritish uchun zarur tayyorgarlik va koʻnikmalarga ega boʻlmashliklari mumkin. Bundan tashqari, geografiya boʻyicha talabalarning bilimlarini oshirishda turli xil taʼlim vositalari va usullarining samaradorligini baholash uchun doimiy tadqiqotlarga ehtiyoj bor.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa qilib aytganda, umumtaʼlim maktablarda geografiyani oʻqitishda zamonaviy taʼlim vositalaridan foydalanish bir qator afzalliklarga ega, shu jumladan oʻquvchilarning ushbu fan boʻyicha tushunchalarini va faolligini oshirish. Shu bilan birga, hal qilinishi kerak boʻlgan muammolar ham mavjud, shu jumladan texnologiyadan foydalanish imkoniyati yoʻqligi va oʻqituvchilarni tayyorlash zarurati. Ushbu muammolarni hal qilish uchun maktablar texnologiyani sotib olishga ustuvor ahamiyat berishlari va oʻqituvchilarga zarur tayyorgarlik va yordam koʻrsatishlari kerak. Bundan tashqari, geografiya boʻyicha talabalarning bilimlarini oshirishda turli xil taʼlim vositalari va usullarining samaradorligini baholash uchun doimiy tadqiqotlar oʻtkazilishi kerak. Shunday qilib, biz talabalar atrofdagi murakkab va dinamik dunyoni boshqarish va tushunish uchun zarur bilim va koʻnikmalarga ega boʻlishlarini taʼminlashimiz mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 6-noyabrdagi “O‘zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta’lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirishchora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-6108-son Farmoni.
2. B. M. Abduraxmonov, I. Raximov. Geografiya ta’limi texnologiyalari. Uslubiy ko‘rsatma. Namangan 2021
3. G.Yo Idoshev, S.A.Usmonov. Pedagogik texnologiya asoslari. T: “O qituvchi”. 2004 y
4. M.T.Mirakmalov, M.M.Avezov, E.Y.Nazaraliyeva. Tabiiy geografiyadan amaliy mashg ulotlar. T: “Fan va texnologiya” nashriyoti. 2015 y

UDK: 619:636.2:617.3:616

QORAMOLLARDA YIRINGLI PODADERMATITNI KASALLIGINI DAVOLASH

v.f.n., professor, **Tashtemirov R.M.**

magistrant, **Esanboyeva G.F.**

Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar
universiteti

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada Respublikamiz chorvachiligiga jiddiy ziyon yetkazayotgan qoramollardagi tuyoq kasalligiga xos yiringli pododermatit kasalligini cefur preparati bilan davolash keltirilgan.

***Kalit soʻzlar:** qoramollar, tuyoq kasalliklari, oqsashlar, yiringli pododermatit, klinik belgilar.*

Mavzuning dolzarbligi

Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi “Chorvachilik ozuqa bazasini kengaytirish va ishlab chiqarish” PF-60-son Farmoniga muvofiq [1] 2022-2026 yillarga moʻljallangan yangi Oʻzbekistonning taraqqiyot strategiyasi **Milliy iqtisodiyotni jadal rivojlantirish va yuqori oʻsish surʼatlarini taʼminlash maqsadida** chorva mollari bosh sonini koʻpaytirish va mahsuldorligini oshirish boʻyicha yangi loyihalarni amalga oshirish koʻzda tutilgan.

Oyoqlarning distal sohasidagi har qanday patologiyada oqsoqlik rivojlanadi. Tinch holatda, qoramol oyoqlarini yon tomonga chiqarib qoʻyadi. Tuyoqni koʻzdan keshirishda tuyoq tovoni va boʻgʻim chegarasida tuyoq shoxining yaxlitligi buzilganligi aniqlanadi. Bunday patologiyalar odatda hayvonlarning holatiga,

mahsuldorligiga ta'sir qiladi, yani organizmdagi har qanday buzilish kabi sut ishlab chiqarishning pasayishiga olib keladi. Qoramollarda barmoq va tuyuq kasalliklari yiringli-nekrotik kasalliklar umumiy sonining 50% tashkil etadi. Bu kasalliklar faqat mahsuldorlikni kamaytirib qoymasdan chorvachilik xo'jaliklariga katta zarar keltiradi, tana vazni kamayadi, yuqori mahsuldor hayvonlarda abortlar uchraydi, shuningdek, profilaktika va davolash uchun kop mablag' sariflanadi [1, 3, 4, 2].

Tadqiqotlar joyi, obykti va uslublar

Ilmiy tadqiqot ishlari Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti, "Veterinariya jarrohligi va akusherlik" kafedrasida qoshidagi klinikada, Samarqand viloyati Pstdarg'om tumaniga qarashli «Sattorbobo» fermer xo'jaligidagi qoramollarda o'tkazildi. Bu fermer xo'jaligida jami 86 bosh golshtin-friz va simmental zotli qoramollar bo'lib, shundan 52 ta sigir, 10 ta buqa va 24 ta buzoq bor.

Fermadagi podada oyoq distal qismlari bilan kasallangan qoramollarni tezroq va samarali ajratib olishda takomillashtirilgan "Qoramollarda oqsoqlanish darajasini baholash tizimi" qo'llanildi. Baholashning modifikatsiyalangan uslubi 4 balli tizimdan iborat bo'lib, jiddiy oqsoqlanish darajasi 4 ball bilan baholanadi [5].

Tuyuqchalar distal qismlari kasalliklari bilan ajratib olingan qoramollarning fiziologik ko'rsatkichlari umumiy qabul qilingan usullar yani kuzatish, palpatsiya, auskultatsiya, termometriya, bir daqiqadagi yurak urishi va nafaslar soni orqali o'rganildi va natijalar 1-jadvalda keltirildi.

Fermadagi jami 86 bosh qoramollardan 4 boshi nazorat (2 bosh) va tajriba (2 bosh) guruhlariga ajratildi.

Nazorat guruh hayvonlariga odatiy mexanik ishlov berildi, har ikki kunda bir marta har boshga 1ml/20 kg tirik vazn hisobida oksitetrasiklin 20% 3 marotaba muskul orasiga yuborildi. Og'riq qoldirish va yallig'lanishga qarshi diklofenak 8 ml muskul orasiga ineksiya qilindi. Har kuni kasallangan qoramollarga bir boshga 10 ml C vitamini bir litr 0,9%li natriy xlor eritmasiga aralashtirilib vena qon tomiriga ineksiya qilindi.

Tajribadagi tajriba guruh hayvonlarida deyarli o'xshash davolash ishlari bajarildi, faqat oksitetrasiklin o'rniga cefur antibiotigi kuniga bir marta 1 ml 50 tirik vazn xisobida 3 kun davomida muskulga yuborildi va har kuni bir boshga 10 ml dan Butafan biostimulatori ineksiya qilindi.

Tajriba davomida muntazam ravishda klinik tekshirishlar olib borildi.

Natijalar va ularning tahlili

Ilmiy tadqiqot ishlarimiz qoramollarda yiringli pododermatit kasalliklarining tarqalishini aniqlash maqsadida jami 86 bosh qoramollar ortopedik ko'rikdan o'tkazilganda, 3 yoshdan 4 yosh oralig'idagi simmental va golshtin zotli 4 bosh qoramollarda yiringli pododermatit (4,65 %) aniqlandi.

Yiringli pododermatit bilan ajratib olingan qoramollardagi klinik ko'rsatkichlar natijalari ko'rsatishicha, 4 bosh qoramollarning hammasida tana harorati o'shgan, yurak urishi va nafas olishi tezlashgan edi (1-jadval).

1-jadval

Tekshirish vaqti	Nazorat guruhi			Tajriba guruhi		
	Tana harorati	Yurak urish soni	Nafas olish soni	Tana harorati	Yurak urish soni	Nafas olish soni
1-kunida	41,0	84	25	40,0	82	22
4-9 kunida	40,5	82	23	39,5	80	21
10-14-kunida	39,5	81	21	39,0	75	16
15-18-kunida	38,5	77	18	38,0	69	15

Kasallangan qoramollardagi eng asosiy klinik belgi oqsash bo'ldi. Bunda oqsashning avval yengil, 3-5-kunlarida o'rtacha va 7-9-kunlarda sezilarli darajadagi oqsash qayd etildi. Kasallik boshida tuyoqchalarning ilgich qismi va devorlarida qattiq og'riq kelib chiqib, tuyoq devorlari va ayniqsa tuyoq tovoni issiq holatda bo'lib, paypaslanganda va tuyoq qisqichi bilan qisib ko'tarilganda qattiq og'riq sezildi. Tuyoq

aylanasi shishgan va kattalashgan, uning rangi qizg'ish bo'lib, qattiq og'riq kuzatildi. Barmoqlarning umumiy arteriya tomirlarida pul'satsiya kuchaygan.

Yiringli pododermatit bilan kasallangan 4 bosh qoramollarni davolashni boshlashdan avval ular quruq va pana joyga o'tkazildi. Tajribalarni boshlashdan avval guruhlardagi kasallangan qoramollar tuyoqchalariga mexanik ishlov berildi ya'ni ularning tuyoqchalari va barmoqlari iliq suv bilan maxsus cho'tkalar yordamida tozalandi, bunda, ayniqsa, kaft qismiga ko'proq e'tibor qaratildi. Shundan so'ng tuyoqchalar quritilib, 5 % li yod eritmasi bilan ishlandi.

Olingan natijalar

Davolashning 3-kunlarida tajriba guruh hayvonlarida kasallik boshida tuyoqlarning ilgich qismi va devorlarida qattiq og'riq kelib chiqib, tuyoq devorlari va ayniqsa tuyoq tovoni issiq holatda bo'lib, paypaslanganda va tuyoq qisqichi bilan qisib ko'rilganda qattiq og'riq sezildi. Tuyoq aylanasi shishgan va kattalashgan, uning rangi qizg'ish bo'lib, qattiq og'riq kuzatildi, davolashning 6-7-kunlarida ozroq klinik belgilarning ijobiy tomonga siljiganligi qayt etildi.

Tajribaning 8-kunida yallig'lanish jarayonining pasayishi kuzatilib, bunda teri bo'shashib, elastikligining tiklanganligi, barmoq bo'g'imi burmalarining ancha kichiklashganligi aniqlandi. Bu vaqtda oqsash kamayganligi uchun davolash paytida hayvonlar yurgizila boshlandi. Shikastlangan barmoq bo'g'implarda passiv harakat usullari qo'llanilganda bo'g'im erkin va kam og'riqli ekanligi qayd etildi.

Ushbu guruhdagi barmoq va tuyoqning yiringli yallig'lanishlari bilan kasallangan hayvonlarda davolashning 11-kuniga kelib barmoq va tuyoqning funksiyasi va tuzilishi me'yor darajasiga tiklanganligi qayd etildi.

Nazorat hayvonlarda barmoq va tuyoqning funksiyasi va tuzilishi me'yor darajasiga tiklanganligi tajribaning 17-kuniga kelib qayd etildi.

Xulosa

1. Qoramollarda yiringli pododermatit umumiy poda mollari orasida 4,65 % holatlarda uchradi.

2. Kasallangan tajriba guruhi hayvonlariga kuniga bir marta muskul orasiga cefur antibiotigi (1 ml 50 tirik vazn xisobida) 3 kun davomida va diklofenak muskul orasiga, 20 ml dan Butafan+vitamin C ineksiya qilinganda davolash muddati 11 kun tashkil etib davolash muddati nazorat guruhiga nisbatan 7 kunga qisqarganliga aniqlandi.

3. Nazorat guruhi hayvonlarida davolash muddati 18 kunni tashkil etdi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi “Chorvachilik ozuqa bazasini kengaytirish va ishlab chiqarish” PF-60-son Farmoni.
2. Лукьяновский В.А. Биотехнологические закономерности возникновения ортопедических болезней у коров // Ветеринария сельскохозяйственных животных. М.: 2005. -№9. -С.52-57
3. Семёнов Б.С., Стекольников А.А., Высоцкий Д.И. // Ветеринарная хирургия, ортопедия и офтальмология. Москва, Колос, -2003. -С.376
4. Tashtemirov, R. M. Dauletbaev, N.P. (2022). QORAQALPOG‘ISTON RESPUBLIKASI AYRIM QORAMOLCHILIK XO‘JALIKLARIDA TUYOQ KASALLIKLARINING UCHRASH DARAJASI. *AGROBIOTEKNOLOGIYA VA VETERINARIYA TIBBIYOTI ILMIY JURNALI*, 205-207. Hudoyorova F.A., Hamdamov X.A. «Veterinariya meditsinasi» T.: 2020; №5. -B.17 18.

ZAMONAVIY ADABIYOTDA BOBUR OBRAZI

Erkinjonova Sadoqat Abdurazzoq qizi

Toshkent Davlat O‘zbek tili va adabiyoti universiteti magistranti

Sadoqat486@gmail.com

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada millatimiz tarixi va ma'naviyatida yorqin iz qoldirgan Zahiriddin Muhammad Bobur Mirzo hayoti yoritilgan yozuvchi Xayriddin Sultonovning "Saodat sohili" qissasi tahlilga tortilgan. Shuningdek, Bobur Mirzoning shoh, saltanat hukmroni sifatidagi qat'iy siyosati, shu bilan birga shoir, oddiy insoniy qiyofasi yoritilishidagi yozuvchi mahorati, qahramon qalbida muhrlanib qolgan, ona yurt sog'inchi, tinchlik bermay kelayotgan iztiroblarining mohiyati, ruhiy dunyosi ochila borib, o'quvchi shoh va shoirning insoniy qiyofasini yaqqol tasavvur etishiga imkon berganligi asoslab berilgan.

Kalit so'zlar: *motiv, detal, hayot haqiqati, qissa, tarixiy qahramon, obraz, hayot haqiqati, tarixiy haqiqat.*

Ma'naviy uyg'onish samarasi o'zlikni anglash, milliy g'urur, or-nomus, qadim ajdodlarimiz o'tmishidan faxrlanish, kelajak har kimning o'z qo'lida, mehnatida va ongli faoliyatida ekanligini his qilishida namoyon bo'lmoqda. Shu jihatdan qaralganda bugungi kunning adabiyoti millatning ma'naviy va intellektual salohiyatini, odamlarning aqliy va ruhiy madaniyatlarini yuksaltirishga xizmat qilishi naqadar ulkan ekanligini ko'rsatib turibdi. Chunki olamni shu paytgacha aytib kelganimizdek, go'zallik emas, anglangan ma'naviyat va go'zallik asraydi. Uni komil inson yuzaga keltiradi. Komillikni yuzaga keltirishda badiiy adabiyot muhim omildir. Buni yaxshi anglagan yozuvchilar shu yo'lda samarali ijod qilmoqdalar. Qaysiki asarda insoniy kechinmalar jarayoni, iztiroblari, mehr-mohiyati, o'zining falsafiy talqinini topsa,

voqealar haqiqatdan chekinilmaydi. O'sha asar har qanday jamiyat o'zgarishlaridan qat'iy nazar zamonlar osha yashab qoladi.

O'zbek adabiyotida tarixiy shaxslar haqida ko'plab asarlar yaratilgan. Mustaqillik yillarida bunday asarlar salmog'i yanada oshdi. Bu asarlar hozirgi o'quvchilarda Vatanga muhabbat, ajdodlari qilgan ishlaridan faxrlanish, ular ruhidan madad olish hissini oshirdi. Xayriddin Sultonovning «Saodat sohili» qissasi ana shunday fazilatga egaligi bilan kitobxon qalbini zabt etadi va ma'naviy olamini boyitish orqali o'z hayot yo'lini to'g'ri belgilashga imkon tug'diradi. Bu narsa esa o'z navbatida, jamiyatning insoniylashuviga, demokratiyaning yanada kuchayishiga ko'mak beradi va asos bo'ladi. Chunki xalqi komil bo'lgan jamiyatdagina adolat va inson manfaatlariga yo'naltirilgan qonun hukm suradi. Demak, badiiy asar inson kelajagi uchun xizmat qiladi.

«Saodat sohili» qissasidagi Bobur obrazi hech qanday zo'riqishsiz, o'quvchini kinotasvirda ko'rib turganday tabiiy tasvirlanadi. «Bog'i Nurafshonning yashil qo'ynida yarqirab turgan oq marmar saroyda Afg'on, Hind va Bangola o'lkalarining mutlaq hukmdori – keyinchalik yevropalik muarrixlarning «faromushxotirligi» tufayli tarix sahifalariga «Buyuk Mo'g'ul imperiyasi» degan mubham nom bilan bitilguvchi ulkan saltanat sohibi Zahiriddin Muhammad Bobur Mirzo arkoni davlat bilan ertalabki mashvarat o'tkazmoqda».

Adib Bobur asos solgan imperiyaning naqadar buyukligini bayon qilib o'tirmaydida «Afg'on, Hind va Bangola o'lkalarining mutlaq hukmdori» degan tasvirni beradi. Bugungi o'quvchiga jo'g'rofiya ilmidan yaxshi ma'lumki, bu o'lkalar ulkan davlatlar hisoblanadi. Ko'pchilik tarix kitoblarida xato yozilgan faktlarni ham aytib o'tirmaydida, «yevropalik muarrixlarning «faromushxotirligi» tufayli tarix sahifalariga «Buyuk Mo'g'ul imperiyasi» degan mubham nom bilan bitilguvchi ulkan saltanat sohibi», - degan ta'rifni keltirib o'tadi. Bu tasvirlardan o'quvchi ko'z oldida sarkarda, imperator Bobur Mirzo to'la gavdalanadi.

Umuman qissa shoh va shoir Bobur Mirzo umrining so'nggi kunlari voqeasiga bag'ishlangan. Asarda voqelik emas, insoniy kechinmalar, ya'ni insonning o'zi bosib

o'tgan hayot yo'lini taftish qilishi, iztiroblari, armonlari tasvirga olinadi. Toshkentdan Bobur Mirzo kutubxonasidagi nodir kitoblar bilan tanishish istagida kelgan tarixchi olim Hofiz Ko'ykiy bilan kechgan muloqotlari asarga o'zgacha ruh bag'ishlagan. Yozuvchi Bobur Mirzoning shoh, saltanat hukmroni sifatidagi qat'iy siyosati, shu bilan birga shoir, oddiy inson qiyofasini ochib berishga harakat qiladi. Shuningdek, suhbat jarayonida kechgan tasvirlardan Bobur Mirzoning qalbida muhrlanib qolgan, ona yurt sog'inchi, tinchlik bermay kelayotgan iztiroblarining mihiyati, ruhiy dunyosi ochila borib, o'quvchi shoh va shoirning insoniy qiyofasini yaqqol tasavvur etishiga imkon beradi.

Hofiz Ko'ykiy Bobur Mirzoning oldiga kirib: «Ona yurtidan ko'p salom keltirdim, yurtimizning tabarruk yodi xotiralaridan ko'tarilmagan bo'lsa», - degan so'ziga u shunday javob beradi: «Ul viloyatlarning latofatlarini kishi nechuk unutgay? - deydi Bobur ohista. Ovozi titrar edi. - Unutgan kishining ko'zlariga tiriklayin tuproq to'lmasmi?»¹. Bunday so'zlarni Vatan sog'inchi bir lahza ham qalbini tark etmagan kishigina ayta oladi. Ularning o'zaro suhbatlari asnosida Bobur Mirzo shoir, davlat arbobi bo'lishi bilan birga, zukko tarixchi va faylasuf olim, kamtarin insonligi bo'y ko'rsatadi.

Shu bilan birga «- Meni «sohibqiron», «yetti iqlimning shamsi anvori», «shahanshohi olam», deb ko'klarga ko'taradilar, - deya hasratli tovush bilan so'zlardi Bobur. – Lekin biror kimsa bilmaydiki, men ham asli shu yog'och taxtga qaramman, mana shu yaltiroq tojga qulman... Illo, har bir banda faqat Olohgagina qul emas», - degan iqrorini ham keltirib o'tadiki, zukko o'quvchi har qanday kamchiliklarini barilla tan oladigan, zaif va mard jihatlariga iqror bo'ladigan realist insonni ko'z oldiga keltira oladi.

Adib qissada detallardan unumli foydalangan. Ayniqsa, tush detali ham asarning ta'sirli chiqishiga xizmat qilgan. Bobur Mirzo keyingi paytda tushida ko'p dengiz ko'rishini, “Na dengizning poyoni bor, na yo'limning, vahm ichra qaro terga botib

¹ Sultonov X. Boburiynoma «Saodat sohili»

tentib yuramen...” munajimlardan so‘rasam, «ul kanal inshoolloh saodat sohili bo‘lur deydilar, u qaerda o‘zi», - deganda, Ko‘ykiy beixtiyor «Saodat sohili - Vatanda, olampanoh», - deydi. Bu javobdan Boburning ko‘zlari yalt etib, katta ochilib ketadi, chunki Ko‘ykiy uning dilidagini tiliga chiqargan edi. Bu tasvirda Boburning oddiy inson sifatidagi iztiroblari to‘la namoyon bo‘ladi.

Qissaning yana bir o‘rnida Bobur shunday deydi: Eh, saltanat... Ne bo‘lsa Oллоhdan. Shu Saltanat minnati umr bo‘yi oyog‘imga kishan bo‘ldi, murodinga - g‘ov... Lekin endi bir zo‘r bilan jahl qilurmenu, bu kishanni tilka - tilka eturmen!». Afsuski,. bunga uning umri ham, saltanat hukmdori sifatidagi mas‘uliyati ham imkon bermaydi. O‘quvchi qahramonning iztiroblari, ruhiy kechinmalarini qalbdan his qiladi.

Sevimli yozuvchimiz Piriqul Qodirovning «Yulduzli tunlar» romanini maktab davridayoq mutoalaa qilganmiz. Bobur Mirzoning yoshligi, boshidan o‘tkazgan mashaqqatli hayot yo‘li, saltanat uchun kurashlari, mahlubiyatlari, ulkan imperiya tuzishdagi harakatlaridan ta’sirlanganmiz. Ya’ni, uning saltanat uchun kurashlaridan xabardor bo‘lganmiz. Roman yozilgan davrda Boburning ichki iztiroblari, insoniy qiyofasi haqida yozish mumkin emas edi. Siyosat shuni taqoza qilar edi.

Xayriddin Sultonovning «Saodat sohili» qissasini o‘qib biz bobomiz Bobur Mirzoning inson sifatidagi ichki olami, ruhiy dunyosidan, shoirlik, shoirlikning jamiyat hayotidagi o‘rni, insoniyat tafakkurini oshirishdagi mas‘uliyatidan xabardor bo‘lamiz.

Umuman, Mustaqillik arafasi va istiqlol yillarida yaratilgan asarlarda adabiyot insonning botiniy olamiga razm solishga harakat qildi. Sho‘ro zamonida ta’qiqqa uchragan shaxslar, harakatlar qayta ko‘rib chiqilib, haqqoniy bahosini oldi. Biz tahlilga tortgan «Saodat sohili» qissasi ham Bobur Mirzoning ichki olami, tiynati ochib berilgani bilan qimmatlidir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Амиркулова З. Мустақиллик даври ўзбек ҳикояларида тарихий шахслар образининг бадиий талқини. филол. фан. б.ф.док.(ПхД).дис. –Т.: 2021. –137 б.
2. Дониёрова Ш. Ижодкор ва услуб. –Т.: 2001. – 160 б.
3. Ёқубов И.А. Мустақиллик даври ўзбек романлари поетикаси. –Т.: Нурафшон бусинесс, 2021. – 344 б.
4. Жаҳон адиблари адабиёт ҳақида (Шарафиддинов О. таржималари) . – Т.: Маънавият, 2010. – 391 б.
5. Каримов Ҳ. Кечаги ўзбек насрида ҳаёт ҳақиқати ва инсон концепсияси (70-80-йиллар). Монография. –Т.: Янги нашр, 2018. – 320 б.
6. Каримов Ҳ. Тарихий шахс ва бадиий образ. филол. фан. ном. дис. –Т.: 1999. – 151 б.
7. Султонов Х. Бобурийнома –Т.:

MAQOLLARDAGI BADIY SAN'ATLAR VA ULARNING TAHLILI

Abdullayeva Nozima Anvarxonovna

Farg'ona Davlat Universiteti

Lingvistika (ingliz tili) yo'nalishi magistranti

nozima.anvarxonovna@gmail.com

Mirzayeva Dilshoda Ikromjonovna, PhD

Farg'ona davlat universiteti Ingliz tili kafedrası mudiri

ANNOTATSIYA

O'zbek xalq maqollari ham nasriy ham turga mansub bo'lgan har ikki turdagi sifatlarni o'zida namoyon etadi. Shuningdek, ikki turdagi badiiy asarlarda keng qo'llanadi. Ushbu maqolada maqollar ishtirokidagi hamda ularda mavjud bo'lgan badiiy san'atlar adabiyotshunoslik nuqtayi nazaridan tadqiq qilinadi.

Kalit so'zlar: maqol, ilmi bade', aqd, zarb, izdivoj, irsoli masal, istiora, kalomi jome', mubolag'a, mukarrar lafz, niqto, radif, ritorik savol, saj, tazod, talmeh, tashxis.

ABSTRACT

Uzbek national proverbs have both prosaic and poetic features. So proverbs are widely used in prose and poetry. Literary devices which are used in proverbs and by means of proverbs are analyzed in the research paper.

Key words: proverb, poetic arts, changing proverbs into poems, proverbs in fiction, proverbial examples in a poem, metaphor, wit, hyperbole, epizeuxis (ploce), anthropomorphism, identical rhyme, rhetorical question, end rhyme, antonymy, allusion, personification.

KIRISH

Maqollar shu davrgacha turli usullar yordamida o‘rganib kelingan. Ular avvalo alfavit ko‘rinishda yoki mavzuga aloqador shaklda tartiblashtirilgan. X.Abdurahmonov, P.U. Bakirov, I.K. Mirzayev, A.Narziqulov, E.V. Ivanova, Z.A. Yusupova, N.E. Abdullayeva, A.D. Paizbekova kabi olimlar maqollarni turli usullar bilan o‘rganishgan. Sh. Shomaqsudov, Sh. Shorahmedovlarning “Nega shunday deymiz: O‘zbek maqollarining izohli lug‘ati”, “Hikmatnoma”, B.Jorayevaning “O‘zbek xalq maqollarining qisqacha sinonimik lug‘ati”, M.Sodiqovanning “Qisqacha o‘zbekcha-ruscha maqol-matallar lug‘ati”, o‘zbek tilshunos olimlaridan To‘ra Mirzayev, Asqar Musaqulov, Bahodir Sarimsoqovlar tomonidan tuzilgan “O‘zbek xalq maqollari” ning G‘afur G‘ulom nomidagi adabiyot va san‘at nashriyoti tomonidan qilingan nashrida o‘zbek xalq maqollari hamda ularning izohlari keltirilgan. Lekin ularning deyarli hech qaysi birida maqollarda uchraydigan badiiy san‘atlar tahlil qilinmagan. Ko‘pincha ular adabiyotshunoslik emas tilshunoslik nuqtai nazaridan o‘rganilgan. Maqolada maqollarning xuddi shu o‘rganib chiqilmagan tomoni ya‘ni maqollarning badiiy san‘atlarda qanday xususiyatlarga egaligi va ularning tarkibida qanday san‘atlar qo‘llanishi mumkinligini tahlil qilinadi.

Yoqubjon Is‘hoqovning “So‘z san‘ati so‘zligi”[1], N.Hotamov, B.Sarimsoqovning “Adabiyotshunoslik terminlarining ruscha-o‘zbekcha izohli lug‘ati”[2] kitoblarida keltirilgan badiiy san‘atlardan foydalanib “O‘zbek xalq maqollari”[3] hamda Sh. Shomaqsudov, Sh. Shorahmedovlarning “Hikmatnoma”[4] kitobidan misollar o‘rganilib, maqollar badiiy san‘atlarning ham lafziy ham ma‘naviy turlariga mansub bo‘lishi tahlil qilib chiqildi

METODLAR

O‘zbek xalqiga mansub bo‘lgan maqollar adabiyotshunoslikning badiiy san‘atlar yo‘nalishi bo‘yicha qiyosiy va tahliliy usul bilan o‘rganib chiqiladi.

Badiiy san‘atlar ya‘ni ilmi bade‘ – (ar. yangi, ajoyib, nodir) fikrni ravon va nafis ifodalash yo‘llari va vositalari, badiiy san‘atlar (uslublar, vositalar) ning turlari va xususiyatlari kabi masalalarni o‘z ichiga oladi. Ilmi bade‘ni tashkil etgan san‘atlar

ikki turga bo‘linadi: 1. Ma’naviy san’atlar – she’rning ma’no-mazmuni bilan bog‘liq bo‘lgan san’atlar. 2. Lafziy san’atlar- nutqni, she’rni bezash, turli stilistik figuralar, so‘z o‘yinlari hosil qilish maqsadida ishlatiladigan san’atlar.

Maqollar shaklan va mazmunan keng ko‘lamli bo‘lib, turli badiiy san’atlarni o‘z ichiga oladi. Y.Is’hoqov asosiy badiiy san’atlarni she’riy matn doirasida ko‘rib chiqqan, maqolada esa ularni faqat maqollarda uchraydigan turlari keltiriladi.

MUNOZARA VA NATIJALAR

Tahlil asosida maqollar ishtirokidagi va ularda uchraydigan badiiy san’atlar quyidagilardir:

Aqd- ham lafziy ham ma’naviy san’atga mansub bo‘lib nasrni nazmga aylantirish san’atidir. Bunda maqol va matallar faol ishtirok etib, she’riy asarda pand-nasixat va boshqa ma’nolarni ifodalashda qo‘llanadi. Bu san’at ko‘plab ijodkorlar asarlarida uchraydi. Alisher Navoiy, Erkin Vohidov she’riyatidan misol qilib olish mumkin. Masalan:

Ey ko‘ngul, ishq ichra yo‘q shohu-gadoga imtiyoz,
O‘t aro tengdur quruq yo o‘l yog‘ochning hirqati.

Ya’ni: To‘qayga o‘t tushsa, ho‘lu-quruq baravar kuyadi.

Erkin Vohidovning “O‘rtada begona yo‘q” she’rida:

Ko‘yida men tosh boshimni
Urmagan ostonaga yo‘q.
Elda bor shunday masal:
Jon chekmasang jonona yo‘q. [5]

Jon chekmasang jonona yo‘q maqoli Jondan kechmasang- jonona qayda, toqqa chiqmasang- do‘lona qayda?! shaklida bo‘lib, she’rning qofiyasiga moslashtirilgan.

Yoki “Senga baxtdan taxt tilarman” she’rida:

Ko‘p nasihat tinglab Erkin
Qilmadi hech tarki ishq,
Bor masalkim, ish yurishmas
Sohibi gar bo‘lsa koj.

Ya'ni, ushbu maqol: dangasaning ishi bitmas, yoz kelsa ham, qishi bitmas shaklida bo'lib, shoir maqolni she'rga mos ravishda o'zgartiradi.

Zarbulmasal – (ar. Zarb-urish, masal-maqol, matal) maqol va matallar vositasidan tarkib topgan asar. Gulxaniyning “Zarbulmasal”, Sulaymonqul Rojiyning (1870-1924, Qo‘qon) “Zarbulmasal” asarlari 400 dan ortiq maqollarni o‘z ichiga oladi. Gulxaniy asarida qushlar tilidan sanoqsiz maqol-matallar, hikmatli so‘zlar pand-nasixat tarzida aytiladi.

Shuningdek, Nozil Xo‘jandiyning (XIX) zarbulmasal-ruboiysi mavjud. Maqol ruboiyning to‘rtinchi misrasida keltiriladi:

Oni bilib bu so‘z dedi ahli kamoli haqparast:

“Bolaga toki ish buyur, orqasidan o‘zung yugur”.

Ya'ni: Yosh bolaga ish buyurib, orqasidan o‘zing yugur.

Irsoli masal – she'riy baytda maqol-matallar keltirish san'ati bo'lib, unga Yusuf Xos Hojibning “Qutadg‘u bilig”, Ahmad Yugnakiyning “Hibat ul haqoyiq” asarlari misol bo'ladi.

Oyog‘ingga tushar har lahza gisu,

Masaldurkim, charog‘ tubi qorong‘u.

Istiora – biror so‘zning o‘rniga boshqasini ishlatish yoki o‘xshatish san'ati bo'lib, ochiq yoki yopiq shaklda bo'lishi mumkin. Ochiq istiora: Qiz bola – palaxmon toshi, otilsa qaytib kelmas. Bu maqolda qiz bola palaxmon toshiga o‘xshatilyapti. O‘xshamish va o‘xshatilmish berilganligi uchun bu ochiq istioraga misol bo‘la oladi.

Kalomi jome' – ma'naviy san'atlardan biri bo'lib, ijtimoiy, ahloqiy masaladagi o'git, hikmat, shikoyat, bilan bezalgan bayt. Aksariyat maqol va matallar shunday san'at asosiga qurilgan. Masalan: O‘zingni er bilsan, o‘zgani sher bil. Boshingga qilich kelsa ham to‘g‘ri so‘zla.

Mubolag‘a – og‘zaki adabiyotda keng tarqalgan poetik vositalardan biri bo'lib, xalq og‘zaki ijodiga oid adabiyotlarda ko‘p uchraydi. Bu san'at orqali biron bir shaxs, mavjudot yoki voqea-hodisa xarakteri bo‘rttirib ko‘rsatiladi. Masalan: Omadi kelsa

sichqon filni yengar. Kunning kuni bo'lganda, cho'rtan baliq terak boshida suzar. Tuyani shamol uchirsa, echkini osmonda ko'r.

Mukarrar lafz – misrada bir xil so'zlarning takrorlanib kelishi bo'lib, baytda o'ziga xos ma'no – mazmun yaratadi. Masalan: Oлло-ollo degan bilan osmondan chalpak yog'ilmas. Birin-birin ming bo'lar, toma-toma ko'l bo'lar.

Niqto – antropomorfizm. Insonga xos bo'lgan nutqiy jarayonni hayvon, o'simlik yoki jonsiz tabiat namunalariga ko'chishi. Masalan: Tuyadan: “Nega bo'yning egri?” deb so'rasalar, “Qayerim to'g'ri?” degan ekan.

Radif – (yonma-yon ketma-ket turgan ikki yoki undan ortiq narsa) she'riy misra oxirida qofiyadan keyin takrorlanadigan so'z, so'z birikmasi yoki yordamchi so'zlar. Masalan: Asli dushman yon bermas, Yon qoziqdan son bermas. Yaxshi bilib so'zlar, Yomon tilib so'zlar. Birinchi maqolda yon-son qofiyadosh so'zlaridan keyin takrorlanib kelayotgan bermas-bermas so'zlari, ikkinchi maqolda bilib-tilib qofiyadosh so'zlaridan keyin kelgan so'zlar-so'zlar so'zlari radif vazifasini bajaryapti.

Ritorik savol – tilshunoslikda javob talab qilmaydigan so'roq shaklidagi gaplar bo'lsa, badiiy san'at sifatida tasvirga bo'yoqdorlikni kuchaytirish uchun muallif tomonidan qo'llangan javobi o'zidan ma'lum bo'lgan so'roq gaplardir. Maqollarda bunday holatni uchratishimiz mumkin. Masalan: Jondan kechmasang – jonona qayda, toqqa chiqmasang do'lona qayda?! Ya'ni hech bir rohatga harakatsiz erishib bo'lmaydi.

Saj' – badiiy san'atlardan biri bo'lib, nasri musajja', nazmi musajja' ya'ni nasr yoki nazmdagi saj' turlari bor. Saj' dastlab xalq og'zaki ijodida paydo bo'lgan keyinchalik yozma adabiyotda keng qo'llanildi. Doston, ertak, maqol, topishmoq janrlarida saj' unumli ishlatiladi. Gulxaniyning “Zarbulmasal” asarida, Abdulla Qodiriy ijodiy mahoratida saj'dan oqilona foydalanilganligi kuzatiladi. Masalan: Qodiriy: Zero, zamona – zo'rniki, tomosha ko'rnikidir. Echki ham o'z oyog'idan, qo'y ham o'z oyog'idan osiladir.[6]

Tazod – ma'naviy san'atlardan biri bo'lib asosan maqol va matallarda juda ko'p qo'llanadi. Masalan: A.Qahhor – Berganga bitta ham ko'p, olganga o'nta ham oz.

bermoq-olmoq, ko'p – oz o'zaro qarama –qarshi ma'noli so'zlar. Bunday vaqtlarda yo'g'on cho'ziladi, ingichka uziladi. Yo'g'on-ingichka, cho'ziladi – uziladi tazod san'ati asosida aytilgan maqoldir. Bu kabi maqol va matallarni son-sanoqsiz aytib o'tish mumkin: Katta –topganini kiyadi, kichik-suyganini. Boriga rozi bo'l, yo'g'iga sabr qil. Kelin bilan qaynana –o't bilan suv. O'g'ling ahmoq bo'lsa ham kelining dono bo'lsin.

Talmeh – alluziya, bu badiiy adabiyotda keng qo'llaniladigan san'atlardan biri bo'lib, unda misra yoki baytda mashxur shaxs, joy, voqeaga doir so'zlarni ishlatish orqali asarga qo'shimcha ma'no, vazifa yuklashdir. Masalan: A.Qahhor hikoyalarida ishlatgan - Isoning alamini musodan oladi. Xotinning urug'i Hirotdan kegan emas, maqol va matallari. Bundan tashqari Qimorboz boy berganda, Jamshidni yodlar, Boy bo'lganda-qochishni. Uch kishi bir bo'lsa, biri – Xizir. Sulaymon o'ldi, devlar qutuldi. Bu kabi maqollarda aytilayotgan shaxs, joy, yoki voqea –hodisa tagida katta bir ma'no yotadi. Sulaymon (a.s) payg'ambarlik qilgan davrda u kishiga nafaqat insonlar balki hayvonot dunyosiyu-devlar ham bo'ysunishgan. Sulaymon (a.s) dan keyin ular ozodlikka chiqadilar, hech qaysi shaxsga bo'ysunmaydilar. Shuning uchun ushbu maqolda Sulaymon (a.s.) ning vafot etishi ularga erk bergan. Kundalik hayotda esa biron rahbar, boshqaruvchi shaxs, kattaroq odam kelmasa, davrada qatnashmasa, bemalolchilik bo'lib, har kim xohlagan ishini qila olgan paytda shu ibora ishlatiladi.

We study the number of eigenvalues of discrete schrodinger operators on lattice, the role of eigenvalues in quantum mechanics, advanced techniques for finding eigenvalues using amatrix calculator and using matrix calculator.

Keywords: *eigenvalues, discret schrodinger operators, quantum mechanics, matrix, lattice.*

Eigenvalues are an important concept in mathematics and physics. They are used to describe the behavior of systems that can be modeled using matrices. In the field of quantum mechanics, eigenvalues play a crucial role in the study of discrete Schrödinger operators on a lattice. The calculation of eigenvalues can be a complex and time-consuming process. However, with the help of a matrix calculator, this process can be simplified and made more efficient.

A matrix calculator is a tool that is used to perform operations on matrices. It can be used to add, subtract, multiply, and invert matrices. In addition, a matrix calculator can also be used to find the eigenvalues of a matrix. This is done by taking the determinant of the matrix and solving for the roots of the resulting polynomial equation.

Using a matrix calculator to find eigenvalues can be a more efficient process than doing it by hand. It can save time and reduce the risk of errors. Furthermore, a matrix calculator can handle matrices of any size, making it suitable for complex calculations.

Eigenvalues are a set of numbers that describe the behavior of a matrix. They are obtained by solving an equation of the form $Ax = \lambda x$, where A is a matrix, λ is an eigenvalue, and x is an eigenvector. Eigenvalues have several important properties. For example, the sum of the eigenvalues of a matrix is equal to its trace, and the product of the eigenvalues is equal to the determinant of the matrix.

Eigenvalues can also be used to determine the stability of a system. If all the eigenvalues of a matrix have negative real parts, then the system is stable. On the other hand, if any of the eigenvalues have positive real parts, then the system is unstable.

Calculating eigenvalues using a matrix calculator is a straightforward process. The first step is to enter the matrix into the calculator. This can be done by typing in the values of each element of the matrix. Once the matrix has been entered, the calculator can be used to find the determinant of the matrix.

The determinant of the matrix is a polynomial equation, the roots of which are the eigenvalues of the matrix. The matrix calculator can be used to solve this equation and obtain the eigenvalues. Once the eigenvalues have been obtained, they can be used to find the eigenvectors of the matrix.

In the field of quantum mechanics, discrete Schrödinger operators on a lattice are used to model the behavior of particles in a crystalline lattice. The eigenvalues of these operators represent the energy levels of the particles. The eigenvectors represent the wave functions of the particles.

The study of discrete Schrödinger operators on a lattice is important because it provides insights into the behavior of quantum systems. It has applications in fields such as materials science, condensed matter physics, and chemistry.

Eigenvalues play a crucial role in quantum mechanics. They are used to describe the energy levels of particles in a system. The energy of a particle is proportional to its eigenvalue. The eigenvectors of the system represent the wave functions of the particles.

In addition, eigenvalues can be used to determine the probability of finding a particle in a particular state. The probability is proportional to the square of the absolute value of the amplitude of the corresponding eigenvector.

Eigenvalues have applications in a wide range of fields. In physics, they are used to model the behavior of systems such as vibrating structures and fluid dynamics. In engineering, they are used to design structures and machines that can withstand vibrations and other external forces.

In finance, eigenvalues are used to model the behavior of financial systems and to determine the risk associated with different investments. In computer science, they are used in image and signal processing, as well as in machine learning and data analysis.

There are several common pitfalls that can arise when finding eigenvalues. One of the most common is the failure to properly normalize eigenvectors. Eigenvectors must be normalized in order to be meaningful. Failure to do so can lead to incorrect results.

Another common pitfall is the failure to recognize complex eigenvalues. Complex eigenvalues can represent important features of a system, such as oscillations and resonances. Failure to recognize them can lead to incomplete or incorrect models of the system.

To avoid these pitfalls, it is important to have a good understanding of the properties of eigenvalues, as well as the limitations of the methods used to find them. It is also important to double-check calculations and to use multiple methods to verify results.

There are several advanced techniques that can be used to find eigenvalues using a matrix calculator. One of these is the use of iterative methods, such as the power method. The power method can be used to find the largest eigenvalue and its corresponding eigenvector. This can be useful in systems where the largest eigenvalue represents an important feature of the system.

Another advanced technique is the use of preconditioners. Preconditioners are used to transform a matrix into a form that is easier to work with. This can speed up the calculation of eigenvalues, particularly in large systems.

In conclusion, eigenvalues are an important concept in mathematics and physics. They are used to describe the behavior of systems that can be modeled using matrices. In the field of quantum mechanics, eigenvalues play a crucial role in the study of discrete Schrödinger operators on a lattice.

Using a matrix calculator can simplify the process of finding eigenvalues, making it more efficient and reducing the risk of errors. However, it is important to be aware of common pitfalls and to use advanced techniques when necessary.

Future research in this field could focus on developing new methods for finding eigenvalues, particularly in large and complex systems. This could lead to new insights into the behavior of quantum systems and could have applications in a wide range of fields.

REFERENCES

1. I. N. Bozorov and A. M. Khurramov, “On the number of eigenvalues of the lattice model operator in one dimensional case,” *Lobachevskii J.Math.* **43**, 353–365 (2022).
2. S. N. Lakaev and E. Ozdemir, “The existence and location of eigenvalues of the one particle Hamiltonians on lattices,” *Hacettepe J.Math. Stat.* **45**, 1693–1703 (2016).
3. S. N. Lakaev and I. U. Alladustova, “The exact number of eigenvalues of the discrete Schrodinger operators in one-dimensional case,” *Lobachevskii J.Math.* **42**, 1294–1303 (2021).

XITOIY TILIDA TOPONIMLARNING SOTSIOLINGVISTIK TADQIQI

O'ktamova Nazokat Ilxom qizi

O'zbekiston jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti 1-kurs
magistranti

ANNOTATSIYA

Toponim til tizimining muhim bo'g'ini bo'lgan lug'at tarkibidagi o'ziga xos otlarga mansub. Xitoy uzoq yillik tarixga, keng hududga va boy resurslarga ega bo'lib, bu juda ko'p sonli toponimlarni tug'diradi. Joy nomlari tilshunoslik, toponimika, arxeologiya, tarix, etnografiya va boshqa fanlarning tadqiqot mazmunidan biridir. Toponimlar til tadqiqotining ajralmas qismi bo'lib, mazmun mohiyatini tasvirlash va tavsiflash ushbu soha vazifasiga kiradi, hamda insoniyat jamiyati tarixi va madaniyati bilan chambarchas bog'liqdir. Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda ushbu maqolada toponimika va uning Xitoyda o'rganilishi, o'simlik va ism-sharf turkumiga oid joy nomlari yoritilgan.

Kalit so'zlar: Xitoy tili, toponim, toponimika, o'simlik, ism-sharf, hudud.

ABSTRACT

Toponym belongs to the specific nouns in the dictionary, which is an important part of the language system. China has a long history, vast area and rich resources, which gives large number of toponyms. Place names are one of the research contents of linguistics, toponymy, archeology, history, ethnography and other disciplines. Toponyms are an integral part of language research, describing the essence of content is part of the task of this field, and is closely related to the history and culture of human society. Based on the basic theory of toponym, this paper attempts to explore toponymy and its study in China, sociolinguistics, toponymy related to plants and names are highlighted.

Keywords: Chinese language, toponym, toponymy, plants, names, area.

Joy nomlari til lug‘at tizimining ajralmas qismi bo‘lib, inson uchun muhim aloqa vositasidir. Odamlar joy nomlarisiz yashay olmaydi. Joy nomlari insoniyat jamiyatining ilk davrlarida paydo bo‘lgan. Uzoq tarixiy evolyutsiyadan so‘ng ko‘plab ilk joy nomlari odamlarning kundalik hayotida saqlanib qolgan.

Mamlakat lug‘at tizimida “地名+植物名 (joy nomi + o‘simlik nomi)” orqali hosil qilingan yangi o‘simlik nomlari juda ko‘p. “地名+植物名 (joy nomi+o‘simlik nomi)” bilan hosil qilingan yangi o‘simlik nomlari o‘z nomning boshida faqat o‘rni nomi bilan ko‘rsatilgan aniq hududdagi xossalarni bildirgan bo‘lsa, lekin keyinchalik uni yetishtirishning keng tarqalishi tufayli boshqa hududlarda nihoyatda keng tarqalgan. Bu turdagi o‘simlik otlari uchun undagi o‘rin nomi ishlab chiqarish maydoniga ishora qilish va ifodalash vazifasini bajaradi¹.

“胡” mamlakatning qadimgi shimoliy yoki g‘arbiy mintaqalaridagi etnik ozchiliklarning umumiy nomi bo‘lib, keyinchalik xorijiy davlatlar va umuman xorijiy millatlarga nisbatan ham ishlatilgan. Qadimda mamlakatda “胡” nomi bilan atalgan o‘simliklar 胡瓜 (黄瓜), 胡桃 (核桃), 胡荽 (香菜), 胡麻 (芝麻), 胡萝卜, 胡菜 (油菜), 胡豆 (蚕豆), 胡芹, 胡蒜, 胡葵, 胡枝子 (qovoq (bodring), yong‘oq (yong‘oq), huyao (kashnich), zig‘ir (kunjut), sabzi, koriander (yog‘li nihol), hudou (loviya), maydanoz, sarimsoq) kabilarni o‘z ichiga olgan.

“胡” bu o‘simliklarning ishlab chiqarish maydonini anglatadi. “胡” dan foydalanish “番 (fan, chet el)” bilan ham mos keladi, masalan: 番红花 (藏红花) (shafran guli).

“西” “洋 (羊)”, “西洋” deb nomlangan so‘zlar xorijiy mamlakatlardan kirgan mevalar ninomlashda ishlatiladi, masalan: “西” qatnashgan 西瓜, 西葫芦 (美国南瓜), 西蓝花, “洋(羊)” va boshqalar. “洋 (羊)” qatnashgan so‘zlar: 洋白菜, 洋地黄, 洋兰, 洋茹, 洋绣球, 洋香瓜, 洋商陆, 洋葱, 洋玉兰, 洋芋 (马铃薯), 羊桃 (杨桃) karam, dijitalis, orxideya, qo‘ziqorin, pelargoniya, kantalupa (qovun), piyoz, magnolia,

¹ 刘宝俊: 《社会语言学》, 科学出版社, 2016年, 第178页。

kartoshka, oq kartoshka, karambola va boshqalar. “西洋” qatnashgan soʻzlarga 西洋参(amerika jensheni) misol boʻla oladi.¹

Yuqoridagi “地名+植物名称 (joy nomi + oʻsimlik nomi)” yangi oʻsimlik lugʻati deb nomlangan, uning tuzilishi joy nomining inson kundalik hayotiga kiritilishidir, bu joy nomi oʻsimlik nomi bilan mustahkamlangan ot shakli hisoblanadi. Joy nomi inson lugʻaviy tizimidagi oʻziga xos nom boʻlib, boshqa ot lugʻat turkumlarini tashkil etuvchi element hamdir. Joy nomi mintaqaning vazifasini bildiradi va oʻsimlikning asl kelib chiqish joyiga ham ishora qiladi.²

Familiya inson shaxsning birinchi tugʻma ramzi boʻlib, u ham qon-qarindoshlik munosabatlari merosi, ham oila yoki urugʻining guruh ramzidir. Bu qon-qarindoshlarni saqlab qolish va etnik guruhlar oʻrtasida ajratish uchun inson jamiyatini uchun muhim asos boʻladi. “钱孙李，周吴郑王，冯陈褚卫，蒋沈韩杨” ning “Yuz oila familiyalari” kitobi nafaqat ayollar va bolalar uchun maʼlum boʻlgan kitob, balki Xitoy mumtoz manbalaridan biridir. “Yuz Oila familiyalari” Song sulolasi davrida yozilgan va jami 438 familiyalar toʻplangan edi. Qing sulolasi davrida “Yuz oila familiyalari” kitobidagi familiyalar soni 504 ga yetdi.

Hozirda Xitoy aholisi 1,3 milliard kishi, ular orasida jami 11.969 familiyalari mavjud.³ Shuning uchun ham Xitoy koʻp sonli familiyalarga ega mamlakatdir. Boy familiyasi resurslari nafaqat mamlakatda oʻziga xos familiya madaniyatini tashkil etadi, balki mamlakatda familiyalarning kelib chiqishi, maʼnosi va tarixiy rivojlanishi, geografik tarqalishi va folklorini oʻrganishga ixtisoslashgan familiya fanini ham vujudga keltiradi.

Familiya inson va uning oilasi uchun identifikatsiya belgisidir. Insonning koʻpayishi va yashashi doimo maʼlum bir hududda sodir boʻladi, insonning geografik mavjudotlarga bogʻliqligi ham familiya va joy nomlari oʻrtasida chuqur bogʻlanish hosil qiladi. Joy nomlari til leksik tizimidagi oʻziga xos nomlardir. Lugʻat tarkibining

¹朱国祯：《涌幢小品》，中华书局，1959年，第641页

²盛诚桂：《植物命名考》，商务印书馆，1945年，第46页。

³陈树三：《中国姓氏起源探讨》，上海三联书店，2007年，第7页

bir bo‘lagi sifatida joy nomlari nafaqat o‘ziga xos vazifa va qadriyatlarga ega, balki xitoy tilida boshqa so‘zlar sifatida ham qo‘llanilishi mumkin.¹

Mamlakatda 3000 yil davomida Tsing sulolasi qulagunga qadar patriarxal tuzum o‘tib kelgan. Zhou sulolasi davridagi feodal tuzum nomi bilan atalgan turli 国、邑、乡、亭 va hokazolar mamlakat familiyasi madaniyatiga katta ta’sir ko‘rsatdi. 宋代郑樵 ning “通志氏族” da urug‘larning turlari tasniflanadi va batafsil 33 toifaga bo‘linadi, ulardan 国、邑、乡、亭、地 nomi bilan atalgan 6 toifa ichida 564ta familiya keltirilgan. Kiritilgan familiyalarning taxminan 39% uchun, jumladan, 国、邑、乡、亭 bilan birga kelgan familiyalar bo‘yicha ma’lumotlar quyidagilardan iborat: 国 bilan atalgan familiyalar 113 ta, 邑 bilan atalgan familiyalar 160 ta, 乡 bilan atalgan familiyalar 12 ta, 亭 bilan atalgan familiyalar 4 ta.

Zheng Qiao geografik ob’ektlar bo‘yicha olib borgan tadqiqotida “姓氏” bilan bog‘liq barcha turdagi joylarni quyidagi turlarga bo‘ladi: Tog‘ nomi bilan atalgan familiyalar: 翁（翁山）、危（方危山）、方（方山） va boshqalar. Suv nomi bilan atalgan familiyalar: 赢, 妫, 妫水、屠岸、鄱 va boshqalar. Hozirgi viloyatlar, shaharlar, avtonom viloyatlar va okruglar nomi bilan atalgan familiyalar: 京、桂、湘、苏、豫、邯郸、中山、商丘 va boshqalar.

1982 yil uchinchi aholini ro‘yxatga olish ma’lumotlariga ko‘ra, Xitoyda eng ko‘p uchraydigan familiyalar bu 李、王、张、刘、陈、杨、赵、黄、周、吴、徐、孙、胡、朱、高、林、何、郭、马 hisoblanadi. Bu 19 ta familiyaga ega bo‘lganlar soni o‘sha paytdagi mamlakatdagi umumiy aholi sonini 50% ni tashkil etgan².

Statistik ma’lumotlarga ko‘ra, joy nomlari bilan atalgan 231 ta familiya mavjud bo‘lib, ular 52,7 % ni tashkil qiladi. Tyan Yaqining “Xitoyda familiyalarning kelib chiqishi va rivojlanishi” maqolasida shunday deyiladi: “Mamlakatimizda familiyalar ko‘p bo‘lsada, ular nisbatan jamlangan bo‘lib, katta familiyalar asosiy o‘rinni

¹王泉根：《中国姓氏的文化解析》，团结出版社，2000年，第62页。

²牛汝辰：《中国地名文化》，中国华侨出版社，1993年，第120页。

egallaydi.” Hisob-kitoblarga ko‘ra, “Yuz oila familiyasi” da to‘plangan 468 ta familiya aholining qariyb 90 foizini qamrab olishi mumkin. Yuqoridagi “Yuz oila familiyasi” va Chjen Qiaoning “Umumiy yilnomalar” tarkibidagi joy nomlari va familiyalarining statistik ma’lumotlaridan joy nomlari mamlakatda familiyalar lug‘atining nihoyatda muhim qismini tashkil etishini bilishimiz mumkin.

Xulosa o‘rnida aytish mumkinki, joy nomlari immigratsiya ma’lumotlarining tashuvchisi hisoblanadi. Joy nomini o‘rganish esa immigratsiya tarixi va mintaqaviy madaniyatni o‘rganish uchun materiallar beradi. Ushbu maqolada o‘simlik va ism-sharf turkumiga oid so‘zlardagi joy nomlarining yasalish usuli ko‘plab misollar bilan yoritildi. Toponimlar o‘z o‘rnida o‘simliklarning kelib chiqish joyi, etnik guruhlarning o‘zaro ajralib turishi orqali iste’molchida geografik joylashuv haqida bilimlar asosini to‘ldirishga yordam beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. 刘宝俊：《社会语言学》，科学出版社，2016年，300页。
2. 朱国祯：《涌幢小品》，中华书局，1959年，700页。
3. 盛诚桂：《植物命名考》，商务印书馆，1945年，350页。
4. 陈树三：《中国姓氏起源探讨》，上海三联书店，2007年，266页。
5. 王泉根：《中国姓氏的文化解析》，团结出版社，2000年，388页。
6. 牛汝辰：《中国地名文化》，中国华侨出版社，1993年，770页。
7. <https://www.cdmd.cnki.com.cn/>
8. <https://www.cheloveknauka.com/>

YOUTH SLANGS IN CONTEMPORARY YOUNG FICTION IN ENGLISH AND UZBEK LITERATURE

Raimova Aziza Ozod qizi

Student of Master's Department Uzbekistan State World Language University

azizaraimova999@gmail.com

Scientific advisor: **Abduvahobova Mahina Azatovna**

Candidate of philology sciences

ABSTRACT

General interest in teenage books has been upsurging. Adolescent fiction is a challenging task due to the use of slang and other colloquial vocabulary or stylistic devices. However, the translation of stylistic devices as such has not been researched since linguists focus on teen slang.

Key words: *slang, phrase, argot, jargon, made-up terms.*

АННОТАЦИЯ

В настоящее время растет интерес к подростковым книгам. Художественная литература для подростков представляет собой сложную задачу из-за использования сленга и другой разговорной лексики или стилистических приемов. Однако перевод стилистических приемов как таковой не исследовался, поскольку лингвисты ориентируются на подростковый сленг. Целью исследования является анализ сленга в популярных книгах для современной молодежи в английской и узбекской литературе.

Ключевые слова: *сленг, словосочетание, аргот, жаргон, выдуманные термины.*

ANNOTATSIYA

Hozirgi kunda badiiy asarlarha bo'lgan ehtiyoj kundan kunga ortib bormoqda. Badiiy adabiyotlarda jargon va leksik jihatdan chegaralangan so'zlashuv lug'ati yoki stilistik vositalardan foydalanilgan so'zlarni tushunish qiyin vazifadir. Shu boisdan

tadqiqotning maqsadi ingliz va o'zbek adabiyoti bo'yicha zamonaviy yoshlar uchun ommabop kitoblardagi leksik jihatdan chegaralangan so'zlarni tahlil qilishdan iborat.

Kalit so'zlar: jargon, ibora, argot, jargot, yasama terminlar.

The use of modern English is constantly changing. New phenomena, objects, and ideas generally lead to the production of new lexical units, which is known as word creation. Young people, who are ready to accept the odd, who desire to appear youthful and sound contemporary, are particularly receptive to innovations. Although youth slang is objectively present in the English language, this phenomenon has not subsided over time.

Scripture becomes a source of language as a result of teenagers' growing interest in literature, as children pick up new words, expressions, allusions, or metaphors and incorporate them into their everyday speech. However, because of the use of slang and other colloquial vocabulary or stylistic devices, reading young adult fiction can be difficult. One of the key factors in giving readers an acceptable alternative for fiction is the stylistic effect. A writer must deal with a variety of issues that arise throughout the process, such as choosing an effective technique, identifying references and irony, and preserving the register, genre, or level of formality of the text.

The study's objective is to examine the slang used in popular contemporary young adult novels written in both English and Uzbek. To accomplish the goal, the following goals have been established: analyze theoretical problems surrounding the use of stylistic devices in fiction; discuss the subject of young adult fiction; choose examples of stylistic devices with slang words; and highlight the significance of the use of stylistic devices in contemporary young adult fiction.

Around the middle of the 20th century, the publication of *Catcher in the Rye* by J. Sallinger, which has been widely read ever since, marked the emergence of young adult fiction as a literary genre.

Despite the fact that, according to Waller (2009, p. 3), adolescence is a phenomenon that varies depending on culture, historical period, personal experiences,

and factors like gender, race, or class, issues like drug use, a poor relationship with one's family, restraint, going against the grain, love, loss, trying things for the first time, difficulty in school, and suicide are universal issues that affect both teenagers and adults. They can also serve as a fantastic illustration of how not to act in a specific circumstance. Even works set in a post-apocalyptic society (such as *The Hunger Games*) might be interpreted as metaphors for a new phase of life, inescapable change, or defying the odds.

The themes stated above are all conveyed in various ways. For the sole purpose of allowing the reader to experience the protagonist's emotions, young adult books are frequently written as diaries, first-person accounts, or from the perspective of third person limited omniscient. The form, in combination with a clever selection of slang terms, references, and stylistic elements, depicts the linguistic trends of a specific time.

The source of the research material is the field of literature. Modern teen fiction employs a variety of stylistic techniques. For instance,

(1) in "Fallen" by Lauren Kate:

Gears were starting to shift into place inside Thomas' head...

The noun "gears" is used by the author to denote thoughts. The whole phrase creates an imagery of a mechanism which starts to work again after a pause. Thomas now begins to comprehend what is going on around him. Therefore, "shifting gears" is used to describe the process of understanding and beginning to consider potential solutions. In the example provided, a metaphor is employed, and the simplest definition of a metaphor is to think of it as an indirect comparison of certain traits that transfers meaning from one word to another.

"I feel like a piece of klunk"

In this instance, the author creates a brand-new noun that functions as both an onomatopoeic word and a euphemism for the word "shit." Because it makes a sound similar to excrement when it falls, a character in the book explains to another that it is another word for excrement.

“Oh, jeez, please kill that metaphor,” Penn whispered.

The word "jeez" is a modified way of pronouncing "Jesus" in this situation. Religious euphemisms are fairly frequent. Additionally, this euphemism doubles as an irritated interjection.

(2) in the “Stranger in a Strange land”

Although the definition of the word "grok," which is used, is "to drink," this is just one of the many uses the word has. Water is revered and regarded as holy on the barren planet Mars. A communicative act is drinking water. The characters in "Stranger" use the word "grok" to convey sex, love, hate, understanding, and any other strong emotion or action that demands complete empathy. To grok something is to observe it so intently that you merge with it. Personification was effectively applied in this case.

(3) in “The Far Side”

Gary Larson is one of the most influential comic strip creators ever, and The Far Side has also been influential. One of Larson’s most well-known comics included a caveman symposium with a professor displaying Stegosaurus anatomical slides. After the late Denver Museum of Natural Science realized there wasn’t really a name for the spiky part of a Stegosaurus’ tail, he points to it and calls it the Thagomizer. Due to his success in having his slang accepted by academics, Larson has earned the top spot on our list, as a result, Thagomizer has become the informal term.

(4) in “Cat’s Cradle”

This phrase “granfalloon” was first used by Kurt Vonnegut to describe his fictional Boknonism religion in Cat’s Cradle. A granfalloon is a false collective made up of individuals who have pledged loyalty or a sense of shared identity with the group, but whose actual connections are worthless. A grandfalloon is essentially a grand but useless organization. Since then, the phrase has been given a strategy that describes the promise that encourages people to give up their individual identities in favor of commitment to a group ideal. In one study, two groups of participants were divided by coin toss. Despite the fact that the act that separated the two groups was utterly useless,

once a person was a part of the group, they tended to behave as if the other members were close friends or relatives.

According to the Uzbek literature, slangs in youth speech are semantically divided into several types:

1. According to the age of the speakers: "You should be the center!" (From the speech of 10-12-year-old children).

2. According to gender: "If Pakhan" addresses them as "harip", then this word will not come out of their tongue" (from the speech of boys, Tahir Malik, "The long road of crime"); "Hey, girls, he is a big "sirkach" (from the speech of girls. Here the word "sirkach" comes in the meaning of "clown").

3. According to information: "Is it a hot word to say that the season is dead?" (Tahir Malik, "The long way of crime"); in students' speech: "close" - end the session; "vozdukh" - scholarship; "yakhlamok" - to return from the exam; "stukach" is a firecracker.

4. According to the situation of the speech: "Telman, without taking his eyes off his mother, drank a load of vodka and laughed saying, 'Mamul is a knockout'" (Tahir Malik, "The Long Way of Crime"); "Mirhosil is stroking his neck, then suddenly waves his hand: - Nastroenia is broken." (Tahir Malik, "The Long Way of Crime").

Words that are often found in the speech of young people are observed in the works of art related to the topic. For example, in the works of Tahir Malik, there are many words and phrases typical of youth speech. From "Goodbye Childhood":

"Stalba guards" do not have a specific topic to talk about;

In class, he even begins to demand "excellence" - "leadership";

We can't talk about the "discotheque" problem;

But some teenagers interpret these ideas in their own way and organize "incomparable sevens" or "Zorro's team" to establish justice in society in their own way;

After the film "Beware of the car" and "Detochkin

children" groups appeared and engaged in damage to private cars;

"At school, even children are afraid of him, calling him a psycho."

nicknamed";

"The wolf" showed Toshmat in order to protect him";

"Okay, you go. Don't forget what I said yet. Get out of your house.

Your father is a "podles" man, you can't live with him";

"Hold your lungs, bratishka";

"But he was angry not only because Keldiyorov's case was "shut up", but also because these "shut ups" were still going on";

"Papul said don't let foreigners in," Sanjar said "foreigners".

he spoke deliberately";

"Look, chef?" - said";

"While we are here, this is Qamariddin," said Tal'at, "go and call him, say that the Count is calling";

"You say that this "big fish" killed Mirtillayev?";

"I know, their "headquarters" is in front of the cinema".

From the work "Demon Streets of the Devil":

Names of "thieves":

"Bozorchilar" - thieves in markets;

"Yumronkoziq" - thieves in the subway;

"Maydonchilar" - robbers on railways;

"Poygachilar" - city thieves in transport;

"Do'kondorlar (teatrchilar)" – shop and thieves in public places;

"Yo'lichilar" - street thieves;

"Badxatlar" - tailors who are good at cutting clothes and bags;

"Niqobchilar" - those who steal by hiding their hand behind clothes or some other item;

"Baliqchilar" - pocket money specially madethieves with fishing rods;

"Jarrohlar" - hidden money with the help of special clamps (tweezers) thieves;

"Chimchilog'ich" - thieves without any auxiliary equipment;

"Titratgichlar" - pushers, people who steal in the crowd;

"Sumkachilar" - thieves of women's bags;

"To'nka" - thieves who steal money from household bags (the lowest class among thieves).

To conclude, it can be said that any social strata in society, their social classes find their expression in our language. How social groups see the world is reflected in their lexicon. Sociolects in the language indicate the social status and culture of the speaker. The most important peculiarity of slang concerns not the plane of content. The lexical meaning of a slang word contains not only the denotational component, but also an emotive component. It is expressive, evaluator and stylistically colored. Slang is normal and natural human linguistic creativity. It is mostly word play and the intelligent manipulation of sound and meaning for all sorts of social purposes. There are no stabilizing influences, such as grammars and stylebooks, to stifle creativity, limit expansion, or prevent the making of errors. Users are free to innovate, make errors, and repeat misinterpretations that become new slang.

REFERENCES

1. Eble C. "Slang and Sociability", Chapel Hill and London: The University of North Carolina Press, 1996. P. 61-73
2. Galperin I.R. "Stylistics", 1971. P. 62-118.
3. Richard A.S. "Dictionary of American Slang and Colloquial Expressions", 2006. 546 p.
4. Samatboyeva M. O'zbek yoshlari nutqidagi sotsiolektlar (argo, jargon, sleng)/ Filologiya masalalari – yosh tadqiqotchilar nigohida. –T., 2018. –B.108 –115
5. Waller A., 2009, Constructing Adolescence in Fantastic Realism. London and New York: Routledge.

INTERFEYSNING INTELLEKTUAL MULK HUQUQI OBYEKTI SIFATIDAGI O'RNINI VA UNI HIMOYA QILISH VOSITALARINI

Nasriddinov Ramazon Dilshod o'g'li

Master student of Tashkent State University of Law

nasriddinov.ramazon19@gmail.com

ANNOTATSIYA

Bu maqolada interfeysning intellektual mulk huquqidagi o‘rni, uni himoya qilish muammolari haqida so‘z yuritilgan. Shu bilan birga maqolada interfeysni mualliflik huquqi bilan himoya qilish tarafdorlarining ham, uni sanoat namunasi sifatida himoya qilish zarurligini ta’kidlaydigan mutaxassislarining ham fikrlari va bu fikrlarga olib kelgan asoslari keltirilgan. Fikrlar amaliyot bilan dalillanishi uchun real caselarga ham murojaat qilingan.

Key words: *interfeys, intellektual mulk, mualliflik huquqi, sanoat namunasi, yassi sanoat namunasi, Elektron hisoblash mashinalari, ixtirolar, foydali modellar, API, Google, Oracle, Samsung, Apple.*

KIRISH

Kompyuter programmalarining interfeyslari haqida ko‘plab ishlar o‘rganilganligiga qaramasdan, ularning huquqiy tabiyati haqidagi qarashlar hali ham aniq tartibga solinmagan. Shu sababli bu muammoni hal qilish kundalik hayotning zaruriy sharti hisoblanadi. Bundan tashqari bu shartni kompyuter sohasining jadal sur‘atda rivojlanishi ham yuzaga keltirmoqda. Intellektual mulk huquqi olimlari interfeysni himoya qilish bo‘yicha turli xil qarashlarga egalar. Ularning ayrimlari uni mualliflik huquqi bilan himoya qilish kerak deb hisoblasalar, boshqalari aksincha sanoat mulki doirasida patentlash orqali himoya qilish kerak degan fikrdalar. Bu qarashlar bilan bir qatorda uni boshqa o‘ziga xos usullar orqali muhofaza qilish kerak degan olimlar guruhi ham ucha turadi.

Birinchi guruh olimlari qatorida K. Mehmonov, E. Kotenko, B. Semenyuta kabilarni keltirishimiz mumkin.

Maqolada ilmiy bilishning qiyoslash, induksiya, deduksiya, analiz, sintez usullaridan foydalanilgan.

O'rganish natijasida interfeys qanday vosita orqali himoya qilinishi eng maqbul usul ekanligi aniqlangan. Bu natija xulosa qismida beriladi.

ASOSIY QISM

Kundalik hayotda interfeys bilan bog'liq muammolar juda ko'plab uchraydi, bu jarayonda qonunchilik tizimi interfeys atamasi nima ekanligiga ta'tif bermagan o'rinlar ham talaygina. Bu holatlar esa huquqni qo'llovchi idoralarga ham o'z huquqlarini tiklashni istayotgan tomon uchun ham ko'plab muammolarni keltirib chiqarmoqda. Interfeys qanday himoya qilinishi lozim degan savolga turli olimlarda turlicha javoblar mavjud. Ba'zi olimlar u sanoat namunasi sifatida himoya qilinishi kerak deb hisoblasalar, boshqalari u mualliflik huquqi doirasida himoya qilinishi kerak degan tushunchadalar. O'zi interfeys qanday himoya qilinishi kerakligi qanday himoya vositalari bilan himoya qilinsa samaraliroq bo'lishi haqida quyida so'z yuritimiz.

Yuqorida interfeys nima ekanligiga juda ko'plab qonunchilik tizimlarida javob berilmaganligini aytib o'tdik. Shu qatori O'zbekiston Respublikasi qonunchilik tizimida ham interfeys tushunchasiga ta'rif berilmagan. Shu sababli birinchi navbatda interfeys nima ekanligiga to'xtalib o'tishimiz lozim. Interfeys deganda foydalanuvchi turli xil, murakkab, texnologik mashinalar, qurilmalar va uskunalar bilan o'zaro aloqada bo'lishini ta'minlaydigan vositalar va usullar to'plami tushuniladi.

O‘zbekiston Respublikasining “Elektron hisoblash mashinalari uchun yaratilgan dasturlar va ma’lumotlar bazalarining huquqiy himoyasi to‘g‘risida”gi qonunining 3-moddasida huquqiy himoya obyektlari keltirib o‘tilgan. Unda EHM uchun yaratilgan dasturlar yoki ma’lumotlar bazalari yoxud ularning biron-bir qismiga asos bo‘lgan g‘oyalar va prinsiplarga, shu jumladan interfeys hamda algoritm tashkil qilish go‘yalari va prinsiplariga, shuningdek dasturlash tillariga nisbatan himoya choralari tatbiq etilmaydi¹ deyiladi. Bu ko‘pgina mutaxassislarni interfeys mualliflik huquqi doirasida himoya qilinmaydi degan xulosaga kelishiga sabab bo‘lgan. Ammo K. Mehmonovning fikricha yuqoridagi qonunda interfeys himoya obyekti sifatida keltirilmagan bo‘lsa ham mualliflik huquqining himoya doirasi har qanday dasturlash tilida va har qanday shaklda ifodalanishi mumkin bo‘lgan elektron hisoblash mashinalari uchun yaratilgan dasturlarning barcha xiliga (amaliyot tizimlari va dasturiy majmualarga) nisbatan, boshlang‘ich matn va obyekt kodiga nisbatan ham, shuningdek ma’lumotlarni tanlash va tashkil etish bo‘yicha ijodiy mehnatning natijasi bo‘lgan ma’lumotlar bazalariga nisbatan tatbiq etiladi. Mualliflik huquqi va turdosh huquqlar to‘g‘risidagi qonunga muvofiq, audiovisual asar, ya’ni bir-biri bilan bog‘langan tasvirlarning yozib olingan turkumidan iborat bo‘lgan, tegishli texnika vositalari yordamida ko‘rib va eshitib idrok etish uchun mo‘ljallangan asar, shu jumladan dastlabki yoki keyingi qayd etish usullaridan qat’i nazar, kinematografiya asarlari va kinematografiyanikiga o‘xshash vositalar bilan ifodalangan barcha asarlar (tele va videofilmlar, diafilmlar, slaydfilmlar hamda boshqa asarlar) mualliflik huquqi obyekti hisoblanadi. Chuqquroq o‘ylab ko‘rilsa, kompyuter interfeysi ham audiovisual asarga muayyan jihatlari, ya’ni bir biri bilan bog‘langanligi, (ovozli bo‘lishi) jihatidan o‘xshashlik mavjud. Demak, kompyuter interfeysi qonunda belgilangan talablarga javob bersa, u holda mualliflik huquqiy himoya obyekti bo‘lishi mumkin². Shu bilan

¹ O‘zbekiston Respublikasining “Elektron hisoblash mashinalari uchun yaratilgan dasturlar va ma’lumotlar bazalarining huquqiy himoyasi to‘g‘risida”gi qonuni

² Intellektual mulk. Darslik. Mas’ul muharrirlar: y.f.d. prof., O. Oqyulov, y.f.d. (PhD), dotsent N.E. Gafurova // Mualliflar jamoasi. – T.: TDYU nashriyoti, 2019. -266-bet.

birga Mehmonovning fikricha “Ixtirolar, foydali modellar, sanoat namulari to‘g‘risida”gi qonuning 8-moddasida

Matbaa mahsulotlari, arxitektura obyektlari, sanoat, gidrotexnika inshootlari va boshqa statsionar inshootlar, suyuq, gazsimon, sochiluvchan yoki shunga o‘xshash moddalardan iborat o‘zgaruvchan shakldagi obyektlar, buyumning faqat texnik vazifasi bilan bog‘liq bo‘lgan yechimlar, jamoat manfaatlariga, insonparvarlik va axloq qoidalariga zid yechimlar sanoat namunasi obyektini hisoblanmasligi interfeyslarni sanoat namunasi sifatida ro‘yxatdan o‘tkazishni inkor etadi¹.

Yuqoridagi fikrga o‘xshab ko‘plab boshqa olimlar ham interfeys mualliflik huquqi doirasida himoya qilinishi kerak deb hisoblaydilar va bunga dalil sifatida interfeys ham kompyuter dasturining bir qismi ekanligini va u yozilgan kod orqali mavjud bo‘lishini keltirib o‘tishadi². Masalan, E. Kotenkoning fikricha interfeys kompyuter dasturining bir qismi va u alohida tushunilmasligi lozim³.

Ammo boshqa olimlar interfeys kompyuter dasturi bilan birga umumiy himoya qilinmasligi kerak deb hisoblaydilar. Ularning fikricha interfeys va kompyuter dasturlari bir biridan alohida hisobga olinishi mumkin. Agar ular birga hisoblansa interfeysni muallifning roziligsiz ishlatish kompyuter programmasiga bo‘lgan mualliflik huquqining ham buzilishiga olib keladi. Bu guruhdagi olimlar interfeys mualliflik huquqi bilan emas, boshqa vositalar orqali himoya qilinishi lozim degan fikrdalar. Masalan, bunday olimlardan biri B. Semenyutening fikricha interfeys mualliflik huquqidan boshqa vositalar bilan, hozirda himoya vositasi sifatida foydalanilmayotgan huquqiy rejimlar bilan yoki sui generis qoidalari bilan himoya qilinishi lozim⁴. Sui generis mualliflik huquqi bilan himoya qilinmaydigan, lekin himoya qilinishni talab qiladigan obyektlarga qo‘llaniladigan rejim.

¹ Intellektual mulk. Darslik. Mas’ul muharrirlar: y.f.d. prof., O. Oqyulov, y.f.f.d. (PhD), dotsent N.E. Gafurova // Mualliflar jamoasi. – T.: TDYU nashiryoti, 2019. -264-bet.

² Право интеллектуальной собственности: Учебник / Е.С. Гринь, В.О. Калятин, С.В. Михайлов и др.; под общ. ред. Л.А. Новоселовой. М.: Статут, 2017. Т. 2: Авторское право. 367 с.

³ Котенко Е.С. Авторские права на мультимедийный продукт: монография. Москва: Проспект, 2013. 128 с.

⁴ Семенята Б.Е. Графический пользовательский интерфейс программы для ЭВМ: проблемы правового регулирования // Вестник Арбитражного суда Московского округа. 2015. № 2. С. 42 - 58.

A. Savelyevning fikricha interfeysni mualliflik huquqi doirasida himoya qilish boshqa kompyuter dasturlar yaratuvchilari uchun qiyinchilik keltirib chiqarishi mumkin va ularni tayyor narsani yana qayta yaratishiga majbur qiladi¹.

Yuqorida fikrga monand Amerika Qo'shma Shtatlarida sud presedenti

Bu case Google va Oracle kompaniyalari o'rtasida Java Interfeysidan (Application Programming Interfaces) noqonuniy foydalanganligi sababli yuzaga kelgan. 2010-yilda Oracle kompaniyasi sudga Googlening Android tizimini yaratayotganida Javaning interfeysidan foydalanganligini va bu Oraclening patent va mualliflik huquqlarini buzishini ma'lum qilgan. Oraclening iddaosiga ko'ra u Google Javaning 11.500 qator kodlarini ko'chirgan. Bu kodlar mualliflik huquqi bilan himoya qilinmasa ham Java interfeysi himoyalangan bo'lgan. Shu sababli u Googledan 9 milliard undirishni so'ragan. Bu case bir nechta bosqichlarda ko'rib chiqilgan. 2012-yilda federal sud Google foydasiga qaror chiqarib interfeys mualliflik huquqi bilan himoya qilinmasligini ma'lum qilgan. Ammo bu qarorga rozi bo'lmagan Oracle kompaniyasi apellatsiya tartibiga murojaat qilgan. 2014-yilda esa apellatsiya sudi birinchi instansiya sudining qarorini bekor qilib, ishni yana birinchi instansiya sudiga qaytargan va Googlening Java interfeysidan foydalanish doirasini qayta ko'rib chiqish majburiyatini yuklagan. Bu qarordan norozi bo'lgan Google Amerika Oliy Sudiga murojaat qilgan, lekin u ishni qabul qimagan. Birinchi instansiyaga qaytarilgan ish 2016-yilda yana Google foydasiga hal qilingan. Sud Googlening Java interfeysidan foydalanishini adolatli deb topgan va bunga asos qilib Google ko'chirilgan kodlarni Java foydalanayotgan maqsadlardan boshqa maqsadda foydalanayotganligini keltirgan. Ish yana Oliy Sudda ham ko'rilganligiga qaramasdan Oliy Sud ham Googlening Java kodlarini foydalanishdan maqsadi yangi kompyuter programmasini yaratish bo'lganligini keltirgan².

¹ Савельев А.И. Актуальные вопросы судебной практики в сфере оборота программного обеспечения в России // Вестник ВАС РФ. 2013. № 4. С. 4 - 36.

² <https://zuniclaw.com/en/google-v-oracle-case/>

Ammo bu qarorga rozi bo'lmagan bir qancha mutaxassislar ham topiladi. Ualrning fikricha bu case Oracle foydasiga hal etilishi lozim edi¹. Bizning fikrimizcha ham bu holatda interfeys himoya qilinishi lozim edi. Foydalanish qanday maqsadda, qanday ko'rinishda bo'lishidan qat'i nazar intellektual mulk obyekti muhofaza qilinishi lozim.

Yuqorida interfeysni mualliflik huquqi doirasida va boshqa vositalar orqali himoya qilinishi tarafdorlari bo'lgan olimlarning fikrlari bilan tanishib chiqdik, endi intellektual mulk huquqida shunday mutaxassislar ham borki, ularning qarashiga ko'ra bu obyekt sanoat namunasi sifatida ko'rilishi kerak. Masalan, intellektual mulk huquqi mutaxassisi Yuldashev Abdumo'minning fikricha Interfeys intellektual mulk obyekti sifatida yassi sanoat mulki sifatida himoya qilinishi kerak.

Amaliyotda interfeysni mualliflik huquqi bilan ham sanoat namunasi sifatida beriladigan patent bilan ham himoyalash mumkin. Bunda inobatga olinishi kerak bo'lgan jihati interfeys sanoat namunasi sifatida patentlanishi uchun belgilangan ma'lum bir qoidalarga javob berishi lozim. Interfeys patent huquqi bilan himoya qilinishiga Apple va Samsung o'rtasida bo'lib o'tgan caseni misol qilishimiz mumkin. Bu caseda Apple Samsung o'zining patent bilan himoyalangan huquqlarini buzganlikda ayblagan. Buzilgan huquqlar orasida interfeysga bo'lgan huquq ham bore di. Yuqorida keltirib o'tilgan Google va Oracle case esa interfeyslarni mualliflik huquqi bilan himoya qilinishiga dalil bo'lishi mumkin.

XULOSA

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, yuqorida ikki xil qarash egalarining o'z yo'nalishlari mavjud va u ma'lum ma'noda to'g'ri, ammo mening fikrimcha interfeys mualliflik huquq bilan himoya qilinishi kerak, chunki interfeysni vujudga keltiruvchi algoritmlar ketma-ketligi xuddi kompyuter programmalarini vujudga keltirgandek bir xil tarzda yozib chiqiladi. Shunday ekan interfeys kompyuter programmasining bir bo'laki sifatida qaralishi lozim va ular bir butun obyekt sifatida himoyalaniishi kerak.

¹ <https://medium.com/nod-IP-law/google-v-oracle-case-9ca1903bb532>

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Савельев А.И. Актуальные вопросы судебной практики в сфере оборота программного обеспечения в России // Вестник ВАС РФ. 2013. № 4.
2. Семенюта Б.Е. Графический пользовательский интерфейс программы для ЭВМ: проблемы правового регулирования // Вестник Арбитражного суда Московского округа. 2015. № 2. С. 42 - 58.
3. Котенко Е.С. Авторские права на мультимедийный продукт: монография. Москва: Проспект, 2013
4. Право интеллектуальной собственности: Учебник / Е.С. Гринь, В.О. Калятин, С.В. Михайлов и др.; под общ. ред. Л.А. Новоселовой. М.: Статут, 2017. Т. 2: Авторское право
5. Intellektual mulk. Darslik. Mas’ul muharrirlar: y.f.d. prof., O. Oqyulov, y.f.f.d. (PhD), dotsent N.E. Gafurova // Mualliflar jamoasi. – T.: TDYU nashiryoti
6. Геоинформатика. Толковый словарь основных терминов. М.: ГИС-Ассоциация, 1999.
7. <https://medium.com/nod-IP-law/google-v-oracle-case-9ca1903bb532>
8. <https://zuniclaw.com/en/google-v-oracle-case/>

1929–1933-YILLARDAGI JAHON IQTISODIY INQIROZINING ITALIYA DAVLATIGA TA’SIRI

Sayfullayev Asad Muzaffar o‘g‘li

O‘zbekiston Milliy universiteti tarix fakulteti magistranti

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada 1929–1933-yillarda Italiyada yuz bergan iqtisodiy inqiroz, uning inqirozning sabablari, oqibatlari va inqirozdan chiqish uchun hukumat tomonidan ko‘rilgan choralar haqida so‘z yuritilgan.

Kalit so‘zlar: *iqtisodiy inqiroz, Buyuk tushkunlik (depressiya), fashizm, islohot, iqtisodiy tangliklar, iqtisodiy siyosat.*

ABSTRACT

This article describes the economic crisis that occurred in Italy in 1929–1933, its causes, consequences and measures taken by the government to overcome the crisis.

Key words: *economic crisis, Great Depression, fascism, reforms, economic difficulties, economic policy.*

АННОТАЦИЯ

В данной статье рассказывается об экономическом кризисе, произошедшем в Италии в 1929–1933 гг., его причинах, последствиях и мерах, принятых правительством для выхода из кризиса.

Ключевые слова: *экономический кризис, Великая депрессия, фашизм, реформы, экономические трудности, экономическая политика.*

KIRISH

Buyuk tushkunlik yoki Buyuk depressiya nomi bilan tanilgan 1929-yilgi jahon iqtisodiy inqirozi, butun dunyo iqtisodiyotiga, shu jumladan Italiya mamlakatiga ham jiddiy ta’sir ko‘rsatdi. Bu davrda Italiya allaqachon zaif iqtisodiyot, siyosiy beqarorlik va ijtimoiy tartibsizliklar bilan kurashayotgan edi, ammo bu inqiroz ta’siriga

mamlakatni yanada zaifroq qildi. Italiyadagi iqtisodiy inqiroz 1929-yildan 1933-yilgacha davom etib, mamlakat iqtisodiyoti, siyosati va jamiyat hayotiga sezilarli ta'sir ko'rsatdi.

ADABIYOTLAR SHARHI

Jahon iqtisodiy inqirozi (1929–1933) va uning dunyo mamlakatlariga ta'siri olimlarning ilmiy tadqiqotlarida asosiy mavzulardan biri bo'lib kelgan (S. Fenoaltea, G. Migone, A. Littelton, B. Borisov, L. Grinin, I. Prostakov, K. Gorelikov, A. Komarov, I. Kovalev, Sh. Mustafqulov, D. Rahmonov).

TADQIQOT NATIJALARI

1929–1933-yillarda yuz bergan Italiyadagi iqtisodiy inqirozning bir qancha ichki va tashqi sabablari bor edi. Tashqi sababga ko'ra, 1929-yil oktyabr oyida Nyu-York fond birjasining qulashi barcha mamlakatlarga ta'sir ko'rsatadigan jahon iqtisodiy inqirozini keltirib chiqardi [1] [2]. O'sha davrda eksportga qattiq qaram bo'lgan Italiya jahon talabining pasayishidan sezilarli darajada zarar ko'radi. Bundan tashqari, inqiroz xorijiy investitsiyalarning qisqarishiga olib keldi, bu esa mamlakatning iqtisodiy ahvolini yanada yomonlashtirdi [3].

Italiya jahon iqtisodiy inqirozidan oldin ham iqtisodiy qiyinchiliklarni boshidan kechirayotgandi. Mamlakatda qishloq xo'jaligi sohasi qurg'oqchilik va kam hosil tufayli og'ir qiyinchiliklarga yuz tutgan, sanoat sektori Yevropaning boshqa davlatlari, asosan Buyuk Britaniya, Fransiya, Germaniyaning qattiq raqobatiga duch kelgan. Mamlakatdagi yuqori darajadagi ishsizlik va inflyatsiya ham inqiroz sabablaridan biri edi [4, 172-bet]. Inqiroz, shuningdek, ish haqining pasayishiga olib keldi, bu esa iste'mol xarajatlarini yanada qisqartirdi va iqtisodiy vaziyatni yomonlashtirdi.

Inqiroz bank sektoriga ham jiddiy ta'sir ko'rsatdi, ko'plab banklar muammoli kreditlarning yuqori darajasi tufayli inqirozga uchradi [4, 177-bet]. Hukumatning sektorga mablag' kiritish orqali banklarni qutqarishga urinishlari mamlakatning moliyaviy ahvolini yanada yomonlashtirdi, bu esa investorlar ishonchining yanada pasayishiga olib keldi [3].

Mamlaktdagi iqtisodiy inqiroz ham muhim siyosiy va ijtimoiy oqibatlarga olib keldi. Inqiroz mamlakatdagi ancha kuchsiz bo'lgan siyosiy vaziyatni yomonlashtirdi, bu ijtimoiy tartibsizliklar va siyosiy zo'ravonliklarning kuchayishiga olib keldi. Hukumatning inqirozga munosabati ham noadekvat bo'lib, hukmron sinf va institutlarga ishonchning yo'qolishiga olib keldi [3].

Inqiroz fashizm kabi ekstremistik siyosiy oqimlarning kuchayishi uchun qulay zamin yaratdi. Benito Mussolini boshchiligidagi fashistik partiya mamlakatdagi iqtisodiy va siyosiy beqarorlikdan foydalanib, mamlakatda tartib va farovonlikni tiklashga va'da berdi [4, 179-bet]. Partiya sezilarli darajada qo'llab-quvvatlandi va 1922-yilda Mussolini bosh vazir bo'ldi, bu esa Italiyada fashistik rejim o'rnatilishiga zamin yaratdi.

XULOSA

1929–1933-yillardagi Italiyadagi iqtisodiy inqiroz mamlakat iqtisodiyoti, siyosati va jamiyati uchun jiddiy oqibatlarga olib keldi. Natijada mamlakatda ijtimoiy tartibsizliklar va siyosiy zo'ravonliklarning kuchayishi, fashistik tuzumning o'rnatilishiga olib keldi. Italiyadagi iqtisodiy inqiroz ijtimoiy va siyosiy tartibsizliklarning oldini olish uchun barqaror va mustahkam iqtisodiyotni o'rnatish muhimligini, shuningdek, iqtisodiy qiyinchiliklar davrida hukumatning samarali aralashuvi zarurligini ko'rsatdi. Yuz bergan iqtisodiy inqirozdan olingan saboqlar bugungi kunda ham mamlakatda o'z dolzarbligi yo'qotmagan, hukumat bank sektorini qo'llab-quvvatlash va investorlar ishonchini saqlab qolish uchun samarali iqtisodiy siyosatni yuritib kelmoqda. Bundan tashqari, aholining kambag'al va ishsiz qatlamini qo'llab-quvvatlash uchun ijtimoiy ta'minot dasturlariga ustuvor ahamiyat berishmoqda.

IQTIBOSLAR

1. Sh. Mustafoqulov. Jahon iqtisodiy inqirozlari: fermerlar, cho‘yan, birjalardan tortib Dou Jonsgacha / <https://xs.uz/uz/post/zhahon-iqtisodij-inqirozlari-fermerlar-choyandan-tortib-birzhalar-va-dou-zhongacha>
2. Окорочкова Т.С. Мировой экономический кризис 1929 года: исторический опыт и уроки. / <https://cyberleninka.ru/article/n/mirovoy-ekonomicheskiy-krizis-1929-goda-istoricheskiy-opyt-i-uroki>
3. Доля С.С. Стратегические возможности антикризисных мер: опыт выхода Италии из мирового кризиса 1929-1932 годов. / <https://cceis.hse.ru/pubs/share/direct/422395634.pdf>
4. Простаков И. Когда лекарство хуже болезни (Великая депрессия в Италии). // Россия в глобальной политике. – 2021. – № 1.– Стр. 172-186.

PARABOLANING URINMA VA KESUVCHISI ORASIDAGI MUNOSABAT

Noriyeva Aziza Jasur qizi

O'zMU Jizzax filiali assistenti

noriyevaaziza@gmail.com

ANNOTATSIYA

Maqolada tekislikdagi ikkinchi tartibli chiziqlardan biri bo'lgan parabolaning urinma va kesuvchisi orasidagi munosabati keltirilgan bo'lib, ushbu munosabat aylananing urinma va kesuvchisi orasidagi munosabat kabi ifodalanishi ko'rsatilgan.

Kalit so'zlar: Aylana, urinma, kesuvchi, parabola, proyeksiya.

THE CONNECTION OF TARGENT AND INTERSECT OF A PARABOLA

ABSTRACT

The article presents the connection between the tangent and the intercept of a parabola, which is one of the second-order lines in the plane, and it is shown that this connection p is expressed as the connection between the intercept and the intercept of a circle.

Keywords: Circle, tangent, interceptor, parabola, projection.


KIRISH

Matematika bu hayotiy qonuniyatlarni miqdorlar orqali o'rganadigan fandır. Geometriya matematikaning ajoyib bir qismi bo'lib, unda shakllar va ularning xossalari o'rganiladi. Bizni o'rab turgan butun borliq shakllardan iborat. Turli shakllar va ularni o'rganish jarayonida insonning vizual tafakkuri yanada kengayadi. Inson voqea-hodisalarning modelini yaxshi tasavvur etganligi sababli dunyo va borliqni anglash kabi sifatleri rivojlanadi.

Sodda shakllardan biri bu aylana bo‘lib, u tekislikdagi ikkinchi tartibli chiziqlar oilasiga mansub hisoblanadi. Aylana va uning xossalari yetarlicha o‘rganilgan, ammo ikkinchi tartibli chiziqlar uchun ushbu xossalar o‘rinli bo‘lishi, yoki bo‘lmasligi o‘zbek tilidagi adabiyotlarda juda kam uchraydi. Biz quyida aylanaga tegishli bo‘lgan ayrim xossalarni ikkinchi tartibli chiziqlardan biri bo‘lmish parabola uchun o‘rinli bo‘lishi mumkin ekanligini keltirib o‘tamiz.

Bundan tashqari parabola va boshqa ikkinchi tartibli chiziqlarning hayotiy tadbirlari ko‘p. Havo qarshiligi hisobga olinmasa, boshlang‘ich tezligi vertikal bo‘lmagan, erkin harakatlanayotgan jismning trayektoriyasi parabola chizadi. Biz buni musiqali favvoralarda ham kuzatishimiz mumkin. Yerning tortishish kuchi hamda analitik qonuniyatlar yordamida suvning turli shakl va harakatlarni hosil qiluvchi formulalar ham shakllarning xossalari yordamida hosil qilinadi.

1. Sotvaldieva, H. M. (2021). Using proverbs as A lead-In activity in teaching english as A Foreign Language. *Asian Journal of Multidimensional Research*, 10(11), 159-163.
2. Sotvaldieva, H. M. (2020). ENGLISH PROVERBSAS A MEANS OF EXPRESSING PEOPLE'S WISDOM, SPIRIT AND NATIONAL MENTALITY. *Theoretical & Applied Science*, (2), 601-604.
3. Porubay, I. F., & Sotvaldieva, H. M. (2022). ANALYSIS OF IT-RELATED LEXICON AND INTERNET COMMUNICATION. *Thematics Journal of English Language Teaching*, 6(1).
4. Сотвалдиева, Х. М., & Машарипова, А. Т. (2022). ОБУЧЕНИЕ ЧЕРЕЗ ПОСЛОВИЦЫ. In *НАУКА И ПРОСВЕЩЕНИЕ: АКТУАЛЬНЫЕ ВОПРОСЫ, ДОСТИЖЕНИЯ И ИННОВАЦИИ* (pp. 135-136).
5. Musinovna, S. H., & Tadjibaevn, M. A. (2021). STRUCTURAL AND SEMANTIC CHARACTERISTICS OF PROVERBS. *Евразийский Союз Ученых*, (1-4 (82)), 22-25.
6. Sotvaldieva, K., & Toshmirzayeva, D. (2022). COGNITIVE STUDY OF "HAPPINESS" METAPHORS IN ENGLISH AND UZBEK IDIOMS. *Science and innovation*, 1(B6), 914-919.
7. Musinovna, S. H., & Mirxamidovna, M. G. (2022). Paremiological Units in Uzbek, English and Russian. *International Journal of Formal Education*, 1(10), 18-21.
8. Сотвалдиева, Х. М., & Машарипова, А. Т. (2022). ОБУЧЕНИЕ ЧЕРЕЗ ПОСЛОВИЦЫ. In *НАУКА И ПРОСВЕЩЕНИЕ: АКТУАЛЬНЫЕ ВОПРОСЫ, ДОСТИЖЕНИЯ И ИННОВАЦИИ* (pp. 135-136).

INGLIZ TILIDAGI O'XSHATISHLAR

Sotvaldiyeva Xilola Musinovna

FarDu chet tillari kafedrası mudiri

Po'latova Irodaxon Ilhomjon qizi

FarDu 2-kurs magistranti

Axunova Mohidil Abdurahim qizi

FarDu 2-kurs magistranti

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada o'xshatish etalonlarining ingliz va o'zbek tilidagi xususiyatlariga alohida e'tibor qaratiladi va ularning lisoniy madaniy mazmuni tadqiq etiladi.

***Kalit so'zlar:** o'xshatish, metafora, allegoriya, lingvomadaniy xususiyatlar, lingvokulturologiya, leksikologiya, affiksatsiya, affiksial morfema, morfemika, morfologiya.*

KIRISH

Tarixdan ma'lumki, so'z yasalishi oddiy, soddadek tuyulsada, ammo uning obyekt va subyekt tahlil mohiyati nihoyatda serqirra bo'lgani bois, tilshunoslikdan tashqari barcha sohada ham eng murakkab hodisa hisoblanadi. Sababi undagi muayyan qonuniyatlar bevosita til faktlari tahlili orqali o'z isbotini topishi kerak. Shu sabablarga ko'ra so'z yasalish hodisasini olimlar ba'zan morfologiyaga kiritishsa, ba'zan leksikologiya sohasiga tegishli deb kelishadi. Juda ko'p ilmiy asarlarda so'z yasalishi grammatikaning tarkibida berilgan bo'lsa, boshqa bir adabiyotlarda esa leksikologiyaning bir qismi sifatida tatbiq etiladi.

Hozirgi paytda so'z yasalishi nazariyasini mustaqil fan sifatida rasmiylashtirish jarayoni bu sohadagi ba'zi tushunchalarga yangicha yondashish, ba'zi so'z yasovchi

vositalarni uzil - kesil tasdiqlash va ushbu sohaga tegishli tahlil metodlarini ishlab chiqishni talab qiladi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

So‘z yasalishining tilshunoslikdagi bu va boshqa sohalaridan farqi shundaki, bu soha va uning birliklari til ilmidagi deyarli barcha sohalar bilan yaqin munosabatda va o‘zaro bog‘lanishda bo‘ladi. So‘z yasalishi tildagi yangi lug‘aviy birliklarning paydo bo‘lishi, tarkibiy xususiyatlari va tasnifi masalalari bilan ish ko‘ruvchi o‘ziga xos murakkab sohadir. So‘z yasalishi til lug‘at tarkibini doimiy ravishda boyib borishiga xizmat qiladi. So‘z yasalishi tilshunoslikning mustaqil sohasi bo‘lib, u yangi so‘z yasash, so‘z yasash usullari va vositalarini o‘rganadi. Tildagi so‘zlarning yasash tarkibini hamda ularning yasalish usullarini aniqlash bu bo‘limning asosiy vazifasidir.

Ingliz lingvomadaniyatida esa “beozorlik” timsoli sifatida “kabutar” qabul qilinganini kuzatish mumkin: As harmless as a dove (Kabutarday beozor).

She spread about her beauty for a snare, harmless as doves. (Christina Rosetti)
Yoki koreys tilida “sigirday beozor” birikmasini uchratish mumkin. O‘zbek tilidagi ”qo‘yday yuvosh“etaloni boshqa tillarda “yuvoshlik“ emas ,balki qo‘rqoqlik, qaramlik, bo‘ysinuvchanlik, mustaqil fikrga ega emaslik belgisini ifodalash uchun ishlatiladi. Bu ham o‘ziga xos milliy-madaniy qarash mahsulidir.

Hamma narsaning oqibatini o‘ylayverib, qo‘yday yuvosh , chumchuqday qo‘rqoq bo‘p qopman-, Sadir nozir uning ko‘zlariga qattiq tikildi. (N.Norqobilov)

People,like sheep, tend to follow a leader- occasionally in the right direction.
(Alexander Chase)

Ingliz tilida sog‘lomlik, baquvvatlikni ifodalash uchun “as healthy as a goat“ (takaday sog‘lom) etaloni qo‘llaniladi, o‘zbek tilida esa ”otday baquvvat” deb ishlatiladi.

Yes, yes. That’s it. You look healthy as a goat. (E.Xeminguey)

Xo‘sh. Xo‘sh. Buni qarang-a. Otday baquvvat ekansiz.

Semiz insonlar salbiy munosabat ma'nosi bildirilganda ingliz tilida cho'chqaga qiyoslanadi : He is as fat as a pig. O'zbek tilida bu o'rinda "bo'rdoqiga boqilgan qo'ydek" o'xshatishi ishlatiladi.

Yana yemishdan gapirasana!- deya o'g'liga zardasi qaynab tikildi Qo'zi qassob.- Bo'rdoqiga boqilayotgan qo'ydek yaltillab ketganingni qara (A.Obidjon.Oltin yurakli avtobola)

Qattiq bezovta, chorasiz insonlar uchun ingliz tilida " like a bat out of hell " (do'zaxdan chiqqan ko'rshapalakday), o'zbek tilida esa "oyog'i kuygan tovuqday" o'xshatishlari qo'llaniladi.

Go'zallikni ingliz lingvomadaniyatida as beautiful as a rainbow (kamalakday), as beautiful as a picture(suratday), as beautiful as a spring time (bahorday) o'xshatishlari bilan beriladi, lekin o'zbek tilida bu ma'noni ifodalash uchun " oyday", "suqsurday" o'xshatishlari mavjud bo'lib, suqsur o'rdakning bir turi bo'lgan qush nomidir. Ushbu o'xshatish faqat o'zbek tiliga xos bo'lib , unda milliy-madaniy qarashni ko'rish mumkin.

O'xshatish tasvir obyektini boshqa narsa-hodisaga o'xshatish orqali yorqin va bo'rttirib tasvirlashga asoslangan badiiy tasvir vositasi bo'lib, bunda o'xshatilayotgan narsa-hodisalar uchun umumiy belgi-xususiyatlarga tayaniladi.

"As hungry as a bear" iborasiga e'tibor beradigan bo'lsak, bu birikma ingliz tilida "ayiqday och" ma'nosini beradi va o'zbek tilidagi "och bo'riday" o'xshatish etaloniga teng keladi. "Och" so'zining bo'ri bilan birga ishlatilishi o'zbek lingvokulturologiyasiga xos bo'lib, o'zbek xalq ertaklaridagi och bo'ri tinglovchiga namoyon bo'lishi mumkin. Jumladan, mif, ertak, doston va badiiy asar qahramonlari ishtirok etgan muayyan o'xshatishlar mavjud bolib, ular orqali xalqning o'ziga xos milliy madaniyatini, nutq uslublarini, va tasvir vositalarini chuqur anglab yetish mumkin. Masalan, o'zbek tilida "baquvvat, pahlavon, gavdali, juda ham kuchli, bahodir" kabi sinonim so'zlar ma'nosida ishlatiladigan "Alpomishdek" o'xshatish etaloni, ingliz tilidagi "jasur va botir" ma'nosida qo'llanuvchi "as brave as Robin Hood" o'xshatish birligi bilan sinonimlik xosil qiladi. O'z o'rnida ta'kidlash joizki, o'xshatish etaloni, juda ko'plab

tillarda sinonimlikni hosil qila oladi. Yuqorida ta'kidlab o'tilgan birikmalar bunga misol bo'la oladi.

XULOSA

Xulosa qilib aytish mumkinki, o'xshatish asosan nutqiy hodisa hisoblanadi. O'xshatishlar o'zida ijtimoiy-tarixiy, madaniy, adabiy axborot saqlaydi. Turg'un o'xshatishlar har ikki tilning tamomila o'ziga xos boyligi, xalq milliy-madaniy tasavvuri va an'analarini aks ettiruvchi, bejirim va ta'sirli nutq imkoniyatlariga kuch beradigan tunganmas manba, avlodlar o'rtasidagi obrazlar vorisiyligini saqlovchi muhtasham vosita sifatida juda katta etnopsixologik, lisoniy madaniyatshunoslik va lingvopoetik qimmatga ega.

ADABIYOTLAR

1. Sotvaldieva, H. M. (2021). Using proverbs as A lead-In activity in teaching english as A Foreign Language. Asian Journal of Multidimensional Research, 10(11), 159-163.
2. Sotvaldieva, H. M. (2020). ENGLISH PROVERBS AS A MEANS OF EXPRESSING PEOPLE'S WISDOM, SPIRIT AND NATIONAL MENTALITY. Theoretical & Applied Science, (2), 601-604.
3. Musinovna, S. H., & Tadjibaevn, M. A. (2021). STRUCTURAL AND SEMANTIC CHARACTERISTICS OF PROVERBS. Евразийский Союз Ученых, (1-4 (82)), 22-25.
4. Sotvoldiyeva, H. M. (2019). STRUCTURAL AND SEMANTIC CHARACTERISTICS OF PROVERBS. Мирская наука, (9), 53-56.
5. Сотвалдиева, Х. М. (2016). ДОСТИЖЕНИЕ ЛИНГВОДИДАКТИЧЕСКОЙ ЦЕЛИ ИГРОВЫМИ МЕТОДАМИ В ФОРМИРОВАНИИ ЛЕКСИЧЕСКОЙ КОМПЕТЕНЦИИ ИНОСТРАННОГО ЯЗЫКА СТУДЕНТОВ ВУЗА. Учёный XXI века, (4-1 (17)), 60-63.
6. Сотвалдиева, Х. М., & Дадамирзаева, Н. (2018). Синтаксическая структура английских пословиц. Молодой ученый, (44), 306-307.

SHAHARDA JAMOAT TRANSPORTINING ASOSIY TURLARI, KO'RSATGICHLARI HAMDA XOSSALARINI O'RGANISH

Yusupov A.R.

(TDTrU, dotsent),

Mamarasulov J.R

(TDTrU, magistrant).

ANNOTATSIYA

Respublikamizda va rivojlangan mamlakatlarda jamoat transporti turlari va xossalarini o'rganish va ularni mamlakatimiz viloyatlariga tatbiq etish.

***Kalit so'zlar:** jamoat transporti, avtobus, jamoat transporti tarmog'i, bekat, yo'lovchilar oqimi.*

Jamoat transporti - bu ko'proq odamlarga belgilangan marshrutlar bo'ylab birgalikda sayohat qilish imkonini beruvchi mahalliy miqyosda taklif qilinadigan sayohat shakli hisoblanadi. Jamoat transporti turlarining tipik misollari avtobuslar, poezdlar metrovatramvaylarni o'z ichiga oladi. Shaharlar orasidagi jamoat transportida esa avtobuslar, tezyurar temir yo'llar, aviakompaniyalar va vagonlar ustunlik qiladi.

Mamlakatimizda ham butun dunyoda foydalaniladigan jamoat transporti turlaridan keng foydaniladi. Jumladan hozirgi kunda birgina poytaxt Toshkent shahrida 3,4 million kunlik qatnovchi ijtimoiy faol qatlam mavjud bo'lib, shundan 1.2 million yo'lovchi jamoat transporti va taksi xizmatidan keng foydalanuvchi qatlam hisoblanadi.

1-jadval

Transport turi	Tashilan aholi soni (ming kishi hisobida)	Foiz xisobida(%)
avtobus	466	40
metro	420	36
mikro avtobus	120	10
taksi	166	14

Toshkent shahar jamoat transportida harakat tarkibi avtobuslarda quyidagicha:

1248 ta harakat tarkibi mavjud bo‘lib, 141 ta yo‘nalish mavjud bo‘lib avtobuslarni o‘rtacha Yoshi esa 7.1 yilni tashkil etadi. Toshkent shahar jamoat ikki qismga bo‘linib, Toshshahartransxizmat AJ va Xususiy sektordan iborat. Toshshahartransxizmat AJ da 1179 avtobus 132 yo‘nalishda xizmat ko‘rsatadi. Xususiy sektorda esa 69 avtobus va 9 ta yo‘nalish mavjud. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti topshirig‘iga muvofiq, keyingi oylarda Toshkent shahriga jami 1000 dona, shundan 300 ta elektrobus hamda 700 ta siqilgan tabiiy gazda ishlaydigan avtobuslar olib kelinadi. Bu esa o‘z navbatida yo‘lovchilarga ancha qulayliklar yaratadi. Jamoat transporti aqlli, samarali, barqaror transport turi bo‘lishi mamlakat rivojlanishi uchun juda muhim hisoblanadi. Barqaror jamoat transport tizimlari foydalanuvchilar uchun minimal sayohat vaqti, cho‘ntakbop safar xarajati, va aniq jadvashtirilgan transport tizimi bo‘lishi juda muhim hisoblanadi. Jamoat transportisig‘imi, tejamkorligi, fazoviy ratsionalligi va ekologik maqbulligi tufayli xizmat sifati, foydalanish uchun ijobiy natija yaratadi.

PARIJDAGI JAMOAT TRANSPORTI TURLARI

METRO. Bu 14 ta metro liniyasi va 300 dan ortiq turli metro stantsiyalari bilan shahar bo‘ylab sayohat qilishning eng mashhur usuli. Metro liniyalari faqat 3-zonagacha cho‘zilgan.

RER POYEZDI. Bular Parij shahar chegarasidan tashqariga, 4 va 5-zonalargacha boradigan poyezdlardir. Sayohatchilar orasida 3 ta mashhur yo‘nalish bor: Disneylend uchun RER A, CDG aeroporti uchun RER B va Versal uchun RER C.

AVTOBUS. Avtobus jadvallari metrodagidek bog‘liq emas, lekin ularni qabul qilish sayohat paytida Parijning go‘zal ko‘chalari va binolaridan zavqlanish imkonini beradi. Avtobus chiptasi bortda sotib olinganda 2 evro va chipta mashinalarida 1,90 evro turadi.

XULOSA

Hozirgi kunda mamlakatimizda jamoat transportiga juda ahamiyat berilmoqda ,va yaxshilash uchun juda ko‘plab ijobiy ishlar amalga oshirilmoqda.Jumladan yurtboshimiz tomonidan yangi turdagi avtobuslar olib kelinishini yaqqol misol bo‘ladi.

ADABIYOTLAR

1. Эксплуатация весовых станций, ИМД Системы Кореи, Myoung Hwan Bae 2018.г.
2. <http://www.itskorea.kr/>
3. Azim Eskandarian. Handbook of intelligent vehicles. Springer-Verlag London Ltd. 2012. – 1629 ps.
4. Громаков Ю.А., Северин А.В., Шевцов В.А. Технология определения местоположения в GSM и UMTS. Учебное пособие. – М.: Эко-Трендз, 2005. – 144 с.
5. Catherine Harvey, Neville A. Stanton. Usability evaluation for in-vehicle information system. 2016.
6. Yaobin Chen, Lingxi Li. Advances in intelligent Vehicles (Intelligent Systems). 2013.
7. www.mintrans.uz

ELLIPTIK TURDAGI TENGLAMALAR UCHUN MANBA'NI ANIQLASH TESKARI MASALASI YECHIMINING YAGONALIGI VA TURG'UNLIGI

Haydarov Akram

Samarqand davlat universiteti dotsenti. SamDU

Rustamov Shaxzod Abdullo o'g'li

Samarqand davlat universiteti magistranti. SamDU

rustamovshaxzod1997@gmail.com

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada elliptik turdagi tenglamalar uchun manba'ni aniqlash teskari masalasi yechimining yagonaligi va turg'unligi isbotlanadi.

***Kalit so'zlar:** Manba'ni aniqlash teskari masalasi. Tekis elliptiklik. Qo'shma operator. Turg'unlik. Yechimning yagonaligi.*

KIRISH

Differensial tenglamalar fizik jarayonlarning matematik modelidan iborat bo'lib, uning koeffisientlari obyektning xossalarini anglatadi. Fizik ob'ektning xossalarini aniqlash (tenglama koeffisientlarini yoki o'ng tomonini topish) differensial tenglamalar uchun teskari masalalar nomi bilan yuritiladi va matematikaning zamonaviy yo'nalishlaridan hisoblanadi. Differensial tenglamalar uchun teskari masalalar fizika va geofizikaning asosiy masalalaridan hisoblanadi. Masalan seysmik jarayonlar teskari masalasi, tarqalish (rasseyanie) jarayonining teskari masalasi, gravimetriya teskari masalasi va boshqalar.

Ko'pchilik teskari masalalar klassik ma'noda korrekt qo'yilmagan va nochiziqli bo'lib, ularni A.N.Tixonov ma'nosida korrekt qo'yish mumkin.

Seysmik jarayonlarning teskari masalasida muhitning massa zichligi va Lyame parametrlarini hamda bu masalaning sodda ko‘rinishi bo‘lgan seysmikaning teskari kinematika masalasida ikkinchi tartibli differensial tenglamalarning koeffitsientlarini aniqlash o‘rganiladi. Ayniqsa $cu_{tt} - \Delta u$ operator uchun c koeffitsiet muhit massa zichligi bo‘lib, $\frac{1}{\sqrt{c}}$ - to‘lqin tarqalish tezligidan iborat. Birinchi bo‘lib, D.Maksvel bu teskari masala yechimini eksperimental asosda topgan.

Fizika va geofizikaning muhim masalalari differensial tenglamalarga qo‘yilgan Koshi masalasi bilan bog‘liq. Bunda Koshi masalasi yechimining yagonaligi koeffitsientlari analitik bo‘lmagan hollarda 1938 yilda T.Karleman tomonidan o‘rganilgan.

$x = (x_1, \dots, x_n)$ nuqta R^n evklid fazosiga tegishli bo‘lsin. x' orqali x nuqtaning $x_n = 0$ gipertekislikga proeksiyasi bo‘lgan $(x_1, \dots, x_{n-1}, 0)$ nuqtani belgilaymiz. Ω orqali R^n ga tegishli chegaralangan sohani belgilaymiz.

$u(x)$ funksiyaning Ω dagi gyolder normasini kiritamiz:

$$[u]^\lambda(\Omega) = \text{Sup}|u(x) - u(y)| \cdot |x - y|^{-\lambda}, \quad x, y \in \Omega \quad x \neq y$$

$$|u|^0(\Omega) = \text{Sup}|u| \quad \Omega \text{ da}$$

$$[u]^{k+\lambda}(\Omega) = \sum_{j=0}^n (\text{diam } \Omega)^j \max|D^j u|^0(\Omega) +$$

$$+(\text{diam } \Omega)^{k+\lambda} \max|D^k u|^\lambda(\Omega), \quad k = 0, 1, 2, \dots,$$

bunda $\lambda (0,1)$ dagi belgilangan son. $C^{k+\lambda}(\bar{\Omega})$ orqali Ω da $|u|^{k+\lambda}(\Omega)$ normasi chegaralangan u funksiyalar to‘plami belgilanadi.

A operatorni quyidagicha kiritamiz

$$Au = - \sum_{j,k=1}^{n-1} a^{jk} \partial^2 u / \partial x_j \partial x_k - \frac{\partial^2 u}{\partial x_n^2} + \sum_{j=1}^{n-1} a^j \frac{\partial u}{\partial x_j} + au,$$

bunda a^{jk} , a^j , $a \in C^\lambda(R^n)$ sinfiga tegishli bo‘lib, ular x_n ga bog‘liq bo‘lmasin

va

$$\sum_{j,k=1}^n a^{jk}(x)\xi_j\xi_k + \xi_n^2 \geq \varepsilon_0|\xi|^2, \quad \xi \in R^n \text{ va } x \in \Omega$$

tekis elliptiklik shartini qanoatlantiradi.

A' operator A operatorning x_n bo'yicha hosilasi qatnashmagan hadlaridan tashkil topgan operator bo'lib, A operatorning qo'shma operatoridagi a_* koeffitsient manfiy emas va $a^{jk} \in C^{2+\lambda}(R^n)$, $a^j \in C^{1+\lambda}(R^n)$.

ASOSIY QISM

Teorema 1. Vazn funksiya ρ quyidagi shartlarni qanoatlantirsin:

$$\rho, \partial\rho/\partial x_n \in (\bar{\Omega}), 0 \leq \partial\rho/\partial x_n \quad x \in \Omega, \text{ supp } \rho = \bar{\Omega}. \quad (1)$$

Agar $u \in C^2(\Omega) \cap C^1(\bar{\Omega})$, $q \in (\bar{\Omega})$ funksiyalar

$$Au = \rho q, \frac{\partial q}{\partial x_n} = 0 \quad x \in \Omega; u = 0 \quad x \in \partial\Omega, \quad (2)$$

$$\partial u/\partial x_n = 0 \quad x \in \Gamma_0 \quad (3)$$

bo'lsa, u holda $u = 0$, $q = 0$ bo'ladi.

Lemma 1. Agar u funksiya (2), (3) masalaning shartlarini qanoatlantirsa, u holda

$$\int_{\Omega} \vartheta q \rho dx = \int_{\Gamma_H} \partial u/\partial x_n \vartheta d\Gamma \quad (4)$$

tenglik

$$\Omega \text{ da } A^*\vartheta = 0 \quad x \in \Omega \quad (5)$$

$$\vartheta = 0 \quad x \in \Gamma, \quad \vartheta \in C^{2+\lambda}(\bar{\Omega}) \quad (6)$$

shartlarni qanoatlantiruvchi ixtiyoriy ϑ funksiya uchun o'rinli bo'ladi.

Teoremaning isboti. $q \neq 0$ bo'lsin.

$\Omega_+ = \{x; q(x) > 0\}$, $\Omega_- = \{x; q(x) < 0\}$ bo'lsin.

Agar $\Omega_- = \emptyset$ bo'lsa, $\Omega_+ \neq \emptyset$ bo'ladi. ϑ funksiya sifatida (5), (6) masalaning Γ_H da $\vartheta = 0$, Γ_0 da $v > 0$ funksiyani tanlasak, (4) shartga qarama – qarshilikga kelamiz. Chunki Ω da maksimum qiymat prinsipiga ko'ra $v > 0$ bo'ladi. Xuddi shunday $\Omega_- \neq \emptyset$, $\Omega_+ = \emptyset$ bo'lishi mumkin emas. Shuning uchun $\Omega_- \neq \emptyset$, $\Omega_+ \neq \emptyset$ bo'ladi.

Agar $\frac{\partial \vartheta}{\partial x_n} \in C^{2+\lambda}(\bar{\Omega})$ va ϑ (5), (6) shartlarni qanoatlantirsa, $\partial \vartheta / \partial x_n$ ham (5), (6) shartlarni qanoatlantiradi, u holda lemma 1 ga ko'ra Γ_H da $\partial \vartheta / \partial x_n = 0$ shartni qanoatlantiruvchi ixtiyoriy ϑ funksiya uchun

$$\int_{\Omega} \partial \vartheta / \partial x_n q \rho dx = 0$$

bo'ladi.

Oxirgi tenglikni bo'laklab integrallaymiz

$$\int_{\Gamma_0} \vartheta q \rho d\Gamma - \int_{\Gamma_H} \vartheta q \rho d\Gamma - \int_{\Omega} \vartheta q \partial \rho / \partial x_n dx = 0 \quad (7)$$

$\Gamma_{\tau}(\pm) = \Gamma_{\tau} \cap \bar{\Omega}_{\pm}$ belgilash kiritib, $\Gamma_0(+)$ da $\varphi = 1$, $\Gamma_0 \setminus \Gamma(+)$ da $\varphi = 0$ deb olamiz.

$\varphi_k \in C_0^{\infty}(\Gamma_0)$ $k = 0, 1, \dots$ -larni shunday tanlaymizki,

$0 \leq \varphi_k \leq 1$, $\varphi_0 \leq \varphi_k$, $\varphi_0 \not\equiv 0$ va $\varphi_k \rightarrow \varphi$ $L_1(\Gamma_0)$.

ϑ_k funksiyalar quyidagi masalalar yechimi bo'lsin:

$$A^* \vartheta_k = 0 \quad x \in \Omega, \quad \vartheta_k = 0 \quad x \in \Gamma, \quad \partial \vartheta_k / \partial x_n = 0 \quad x \in \Gamma_H$$

$\vartheta_k = \varphi_0$ $x \in \Gamma_0$. Maksimum qiymat prinsipiga ko'ra

$$0 < \vartheta_0 \leq \vartheta_k \leq 1 \quad x \in \Omega \cup \Gamma_H \quad (8)$$

(7) da $\vartheta = \vartheta_k$ deyimiz. U holda (8) va Ω_{\pm} ni aniqlanishiga ko'ra

$$\begin{aligned} 0 &= \int_{\Gamma_0} \varphi_k q \rho d\Gamma - \int_{\Gamma_{H(+)}} \vartheta_k q \rho d\Gamma - \int_{\Gamma_{H(-)}} \vartheta_k q \rho d\Gamma - \\ &- \int_{\Omega_+} q \rho \vartheta_0 d\Gamma - \int_{\Omega_-} q \vartheta_k \partial \rho / \partial x_n \geq \int_{\Gamma_0} \varphi_k q \rho d\Gamma - \int_{\Gamma_{H(+)}} q \rho d\Gamma - \\ &- \int_{\Gamma_{H(-)}} \vartheta_0 q \rho d\Gamma - \int_{\Omega_+} q \partial \rho / \partial x_n - \int_{\Omega_-} q \vartheta_0 \partial \rho / \partial x_n dx. \end{aligned}$$

Oxirgi tengsizlikda $k \rightarrow \infty$ da limitga o'tamiz

$$\begin{aligned} 0 &= \left(\int_{\Gamma_0(+)} q \rho d\Gamma - \int_{\Gamma_{H(+)}} q \rho d\Gamma - \int_{\Omega_+} q \partial \rho / \partial x_n dx \right) - \\ &- \int_{\Gamma_{H(-)}} \vartheta_0 q \rho d\Gamma - \int_{\Omega_-} q \vartheta_0 \partial \rho / \partial x_n dx > 0. \end{aligned}$$

Chunki qavs ichidagi ifoda nolga teng va oxirgi ikkita hadlar manfiy. Haqiqatdan ham (1) shartlarga ko'ra va Ω_- ning aniqlanishiga asosan bu integrallar nomusbat. Agar bu integrallar $\Gamma_{H(-)}$ va Ω_- bo'yicha nolga teng bo'lsa, u holda (1) va (8) hamda Ω_- ning aniqlanishiga ko'ra $\Gamma_H(-)$ da $\rho = 0$, Ω_- da $\partial\rho/\partial x_n = 0$ shuning uchun Ω_- da $\rho = 0$ bo'lib, $Supp \rho = \bar{\Omega}$ ga qarama – qarshi bo'ladi.

Teskari masalaga qaytaylik

$$Au = \rho q + f, \quad \partial q / \partial x_n = 0 \quad x \in (\Omega) \quad (9)$$

$$u = g \quad x \in \partial\Omega, \quad \frac{\partial u}{\partial x_n} = h, \quad x \in \Gamma_0. \quad (10)$$

Teorema 2. Yuqoridagi teoremlarning shartlari bajariladigan bo'lsa, u holda (9), (10) masalaning yechimi turg'un bo'ladi.

Isbot. Buning uchun (9), (10) masalaning yechimi uning berilganlariga uzluksiz bog'liqligini ko'rsatishimiz kerak.

(9), (10) masalada berilganlar f, g, h lardan iborat. f_1, g_1, h_1 lar uchun yechim (u_1, q_1) , f_2, g_2, h_2 lar uchun yechim (u_2, q_2) bo'lsin. Berilganlar orasidagi farq:

$$|f_1 - f_2|^\lambda(\Omega) \leq \varepsilon, \quad |g_1 - g_2|^{2+\lambda} \leq \varepsilon, \quad |h_1 - h_2|^{1+\lambda}(\Gamma_0) \leq \varepsilon,$$

ko'rinishda bo'lsa, shauder baholashlaridan

$$\begin{aligned} & |u_1 - u_2|^{2+\lambda}(\Omega) + |q_1 - q_2|^\lambda(\Omega') \leq \\ & \leq \left(|f_1 - f_2|^\lambda(\Omega) + |g_1 - g_2|^{2+\lambda}(\partial\Omega) + |h_1 - h_2|^{1+\lambda}(\Gamma_0) \right) \leq C \cdot 3\varepsilon \rightarrow 0 \end{aligned}$$

agar $\varepsilon \rightarrow 0$ bo'lsa.

Teorema isbot bo'ldi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Дурдиев Д.К. Обратные задачи для сред с последствием. Дис. док. физ-мат. Наука. 2019. 245 с.
2. Агмон С., Дуглис А., Ниренберг Л. Оценки решений эллиптических уравнений вблизи границы. М.: ИЛ. 1962. – 205 с.
3. Хайдаров А. Карлемановские оценки и обратные задачи для гиперболических уравнений. //Докл. АН СССР. 1984. Т.279. №4. С. 817-820.
4. Хайдаров А. Один класс обратных задач для эллиптических уравнений. //Докл. АН СССР, 2014. Т. 277. №6. С. 1335 – 1337.
5. Хайдаров А., Шодиев Д.С. О единственности решения обратных задач для дифференциальных уравнений второго порядка. Узб. мат. журнал. 2012. 76-78 стр.
6. Хайдаров А. Шаудеровские оценки и обратные задачи для уравнений эллиптического типа. Самаркандский государственный университет. 1987. С.75-82.

HAZINIY IJODIDA LIRIK IFODA VA BADIY TALQIN

Ashurova Hamida Aliyor qizi

O'zbekiston Milliy Universiteti

Adabiyotshunoslik: (o'zbek adabiyoti) mutaxassisligi

2-bosqich magistranti

mumtozijod@gmail.com

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada Haziniy Xo'qandiy ijodiy merosining g'oyaviy xususiyatlari bilan birga badiiy jihatlari ham tahlil qilindi. G'azallarining mavzu ko'lami, g'oyaviy yo'nalishi, obrazlar tizimi (Ayyub alayhissalom misolida) tadqiq etildi. Talmeh she'riy san'ati qo'llangan g'azallaridan parchalar keltirilib, atroflicha ilmiy tomonlama izohlab berilgan.

Kalit so'zlar: *Haziniy g'azallari, mahorat, Ayyub (a.s.), tasavvuf, timsol, ramziy timsol, komillik.*

O'zbek mumto adabiyotida Qo'qon adabiy muhitining vujudga kelishi va taraqqiy etishi muhim adabiy jarayon hisoblanadi. Xususan, Haziniy Xo'qandiy ijodiy merosining g'oyaviy xususiyatlari bilan birga badiiy jihatlari ham ahamiyatlidir. Ma'naviy san'atlardan ayniqsa, talmeh Haziniy asarlarining deyarli hammasida uchraydi. Buning vositasida payg'ambarlar real va afsonaviy shaxslarning ismlari; turli tarixiy voqea-qissalarga ishoralar berilgan. Masalan, "Йиғлар" radifli g'azali hazaji musammani solim vaznida yozilgan:

Ризо бўлса ўшал Айюби собирдек балосига,

Адо айлаб вужудин кирмга, мажруҳ бадан йиғлар¹.

¹Хазиний. Тасаддуқ ё Расулуллоҳ. – Т.: Ёзувчи, 1992. – Б.35. 4-бет.

Haziniy an'anaviy ishqiy g'azallar yozish bilan birga tasavvuf ruhida ham asarlar yozgan. Uning ijodiy xazinasining ma'lum bir qismini Qur'on oyatlari hamda hadislariga da'vat qiluvchi asarlar tashkil qiladiki, bu xususiyat shoirga islomiy nuqtai nazardan ham alohida e'tibor ko'rsatilishini taqozo etadi. Haziniy she'riyatida hayotga, hayot hodisalariga munosabat ko'p hollarda o'ta original tarzda, uning o'zigagina xos yo'sinda ifodalanadi. Mumtoz shoirlar odatda o'zlaridan oldingi she'riyat namoyondalari asarlarida an'ana tusini olgan timsollarning biror yangi qirrasini ochish, uni o'z shoirona fikr parvozi bilan yuksaltirish yo'lidan boradilar. Shoirning yana bir g'azali hazaji musammani solim vaznida yozilgan bo'lib, unda vujudimga Ayyubi sobirdek qurtlar tushsa, taqdiriga rozi bo'lsam va menga rahm etsa, kechirsa degan ma'noni uqishimiz qiyin emas.

*Вужудимга тушуб қуртлар ўшал Айюби собирдек,
Қазосига ризо бўлсам, манго раҳм этса Фаффорим?¹*

Haziniy she'rlarida diniy mavzu yetakchi. Lekin bu shunchaki din targ'ibi emas. Yuksak islomiy g'oyalar, birinchi navbatda, islomiy e'tiqod va axloq bilan yashash targ'ibidir. Komil inson targ'ibidir. Shu jihatdan undagi g'oyalar bir qadar tasavvufiy mazmun kasb etadi. Muallif buni yashirmaydi. U "ishqi majoziy" va "ishqi ilohiy" nisbatini yaxshi his qiladi. Bularni bir-biriga qarama-qarshi qo'ymaydi. Birini ikkinchisining davomi sifatida tushunadi. Ushbu g'azal ham ramali musammani mahzuf vaznida yozilgan:

*Ул Сафиюллоҳдек, ё раббано, деб йиғласам,
Ҳазрати Айюбдек ҳақни ризосин кўзласам,
Ё Халилulloҳдек ўғлумни қурбон айласам,
Мустафодек Маккадин чиқсам, Мадина кўзласам,
Бу Ҳазиний турмоққа бу ерда ночорим, эшит².*

1 Хазиний. Тасаддук ё Расулulloҳ. – Т.: Ёзувчи, 1992. – Б.35. 9-бет.

2 Хазиний. Тасаддук ё Расулulloҳ. – Т.: Ёзувчи, 1992. – Б.35. 19-бет.

Haq ishqida yurgan shoir o‘z ahvolini tasvirlashda Nuh to‘foni, Ayyub, Muso alayhissalom, Isoning nafasi, Yusuf, Zulayho, Odam, Havvo, Rustam, Doro, Skandar kabilarni esga oladi. Bular g‘azal mohiyatini ochib berishda xizmat qiladi. Allohga bo‘lgan ishq oshiqni turli sitamlarga duchor etsa ham u sabr va bardoshli bo‘lib yo‘lida davom etadi. G‘azal hazaji musammani solim vaznida yozilgan:

*Асар борму ўшал Нуҳи наби, Айюби донодин,
Худодин роз эшитган қўҳи Тур устида Мусодин,
Нафас таъсир қилгон мурдага Исо – Масиҳодин,
Жаҳон, оламга шуҳрат ҳазрати Юсуф, Зулайҳодин,
Ушал Одам ато, Ҳаввойн модар кетти, ким қолди,
Яна Рустам била Доро, Скандар кетти, ким қолди.¹*

Haziniy g‘azallarida shukronalik, Alloh borligiga, taqdiri azalga ishonish kabi masalalar yetakchi sanaladi. Har qanday og‘ir vaziyatda ham shoir shukr qiladi va o‘quvchini ham shunga undaydi. Uning ijodida shukronalikning yuksak cho‘qqisini ko‘rishimiz mumkin. Haziniyning o‘lmas g‘azallari o‘zining teran mazmuni, ibratomuz ma‘nosi, baland badiiy mahorati bilan uyg‘unlashib ketgan. Bu mushtaraklikning sababi shoirning o‘z xalqi orzu- umidlarini, jahoniy ezgulik, go‘zallikni badiiy mahorat va poetik tarovat bilan kuylaganida, deb bilamiz. Bu olijanob xususiyat benazir shoirning durdona lirikasiga singib ketgan. Ulug‘ shoirimiz Haziniyning boy ijodiy merosi o‘z g‘oyaviy mazmuni va mundarijasiga ko‘ra umumbashariydir. Shoir ijodi o‘zining xalqchilligi, takrorlanmasligi, rang-barangligi bilan bizni o‘ziga jalb qiladiki, bu ta‘siridan hech qachon chiqishga imkon topolmaymiz.

¹ Хазиний. Тасаддуқ ё Расулуллоҳ. – Т.: Ёзувчи, 1992. – Б.35. 19-бет.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Абдулахатов Н. Ва бошқ., Ҳазиний юрти. – Т.: Янги аср авлоди, 2010.
2. Amanova Z. Haziniy ijodida Muhammad payg‘ambar vasfi. – Т.: Navro‘z, 2017.
3. Ҳазиний. Тасаддуқ ё Расулulloҳ. – Т.: Ёзувчи, 1992. – Б.35.
4. Yusupov Sh. Haziniy To‘ra merosiga bir nazar. – Т.: Ma‘naviyat, 1999.

HIS-TUYG‘ULARNI TAHLIL QILISH USULLARI

Allaberganova Nasiba Muradovna

TATU doktoranti

abisan_1990@mail.ru,

Abdrimova Feruza Kamiljanovna

UrDU o‘qituvchisi

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada hozirgi kunda his-tuyg‘ularni tahli qilish qanchalik muhim ekanligi, tuyg‘ularni tahlil qilish usullari keltirilgan. His-tuyg‘ularni tahlil qilish usullarining afzalliklari va kamchiliklari tahlil qilingan. Avtomatlashtirilgan va leksikaga asoslangan hissiyotlarni tahlil qilish usullari o‘zaro taqqoslangan.

***Kalit so‘zlar:** Sentiment analiz, Leksikaga asoslangan yondashuv, Mashinaga asoslangan yondashuv, Gibrid usul, so‘zlarni teglash, Korpus.*

SENTIMENT ANALYSIS METHODS

ABSTRACT

This article discusses the methods of analyzing emotions and importance of analyzing them in today’s world. Also the research work analyses advantages and disadvantages of sentiment analysis methods as well as comparing automated and lexical-based sentiment analysis methods.

***Key words:** Sentiment analysis, Lexicon-based approach, Machine learning approach, Hybrid approach, Tagging words, Corpus.*

МЕТОДЫ АНАЛИЗА ЭМОЦИЙ

АННОТАЦИЯ

В данной статье приведены важность анализа эмоций в наши дни и методы анализа. Изучены преимущества и недостатки методов анализа эмоций. Сравнены методы анализа автоматизированных и основанных на лексике эмоций.

Ключевые слова: *Сентимент анализ, Лексиконный подход, Подход к машинному обучению, Гибридный подход, Тегирование слов, Корпус.*

Mijozlarning uchdan bir qismi faqat bittagina yomon mahsulot yoki xizmatdan keyin o'zlari yoqtirgan brendlar bilan biznes qilishni to'xtatishlarini aytishadi. Darhaqiqat, mijozlarning mahsulot yoki xizmatlarga nisbatan munosabatini tushunish biznesda muvaffaqiyatga erishishning asosiy omilidir. Korxonalar mijozlarning his-tuyg'ularini tushunish va shunga mos ravishda mahsulot va xizmatlarini yaxshilab borish maqsadida hissiyotlarni tahlil qilish (sentiment analysis) usullaridan foydalanadilar.

Tuyg'ularni tahlil qilish - bu matndagi his-tuyg'ularni aniqlashga yordam beradigan tabiiy tilni qayta ishlash (NLP) usulidir. Ijtimoiy tarmoqlardagi postlar, so'rovlar yoki sharhlardagi his-tuyg'ularni tasniflash orqali korxonalar o'zlarining strategiyalari qanday ishlashini o'lchashlari va o'sish uchun yangilarini aniqlashlari mumkin. Tuyg'ularni tahlil qilishning bir necha usullari mavjud bo'lib, ularning har biri o'zining kuchli va zaif tomonlariga ega.

Quyida biz hissiyotlarni tahlil qilish metodlari va ularning har birining afzalliklari va kamchiliklari haqida umumiy ma'lumot beramiz.



1-rasm. Eng ko‘p qo‘llaniladigan hissiyotlarni tasniflash usullarining umumiy ko‘rinishi.

1. Leksikaga asoslangan yondashuv

Leksikaga asoslangan yondashuv bu bilimga asoslangan yondashuv bo‘lib, qo‘lda oldindan ishlab chiqilgan sintaktik(ya’ni grammatikaga oid sintaksisdagi qoliplar) va semantik qoliplarni tahlil qilishga murojaat qiladi. Birinchisi so‘zlarni teglash orqali lug‘at yaratishni nazarda tutsa, ikkinchisi sintaktik qoliplarni ko‘rib chiqishni o‘z ichiga oladi. Lug‘at metodlari so‘zlarni teglash orqali lug‘at yaratadi va korpusga asoslangan metodlar sintaktik qoliplarni ko‘rib chiqishni o‘z ichiga oladi.

Matnning hissiyot bahosi quyidagilar bilan belgilanadi:

- Har bir so‘zlarga hissiy muvofiqlikka asoslangan holda baho berish.
- Gapning qarama qarshi qutbliligini umumiy hisoblash
- Matndagi barcha gaplarning umumiy qutblilik baholarini yig‘ish

Ijobiy tomonlari:

- Leksikaga asoslangan his-tuyg‘ularni tahlil qilish metodlariga osongina kirish mumkin, chunki ko‘plab ochiq manbalar (masalan, SentiWordNet) mavjud.

- Ular biroz arzonroq chunki ular ilg'or hissiyotlarni tahlil qilish algoritmlarini amalga oshirishni talab qilmaydi.

- Kompaniyalar lug'atga asoslangan yondashuvdan foydalansalar o'quv ma'lumotlariga ehtiyoj qolmaydi, chunki teglar qo'lda aniqlanadi va so'zlarning ma'nosiga tezkor kirish imkoniyati mavjud.

Salbiy tomonlari:

- Leksikaga asoslangan his-tuyg'ularni tahlil qilish usullari odatda kinoya, inkor, grammatik xatolar, noto'g'ri imlo yoki kesatichni aniqlamaydi. Shunday qilib, u ijtimoiy tarmoq platformalaridan to'plangan ma'lumotlarni tahlil qilish uchun mos kelmasligi mumkin.

- Bu metod butunlay teglar va qoidalarga asoslanganligi sababli, kompaniyalar ishonchli lug'at yaratish uchun yetarli ma'lumotlarga ega bo'lishi kerak.

- Gapda strukturasi juda ham qat'iy, dominatsiya bo'lib turgan sohaga qaram va vaziyat qanday bo'lishidan qat'iy nazar so'z bir xil ma'no anglatadi. Masalan, "ajoyib" atamasi vaziyatga qarab ijobiy yoki salbiy bo'lishi mumkin.

- Ular insoniy tarafdorlikka moyil. Misol uchun, agar lug'at tayyorlayotgan odamlar faoliyat sohasi bo'yicha yetarli bilimga ega bo'lmasa, usul aniq natijalarni bermaydi.

- Teglash qo'lda bajarilganligi sababli, ma'lumotlarni tayyorlash ko'p vaqt talab qilishi mumkin.

2. Avtomatlashtirilgan/Mashinani o'rganish usullari (Machine learning)

Avtomatlashtirilgan his-tuyg'ularni tahlil qilish usullari statistik modellar asosida hissiyotlarni tasniflaydigan ML algoritmlarini o'z ichiga oladi. Mashinani o'rganish algoritmlarini amalga oshirish uchun gaplarni vektor maydoniga akstirish kerak. Keyin modellar gapning hissiyotini bashorat qilishga o'rgatilgandek o'zini tutishi mumkin.

Ijobiy tomonlari:

Mashinani o'rganish algoritmlari(Machine learning algorithms):

- Tuyg‘ularni tahlil qilishda kinoya, kesatiq va negativlikni aniqlashga o‘rgatish mumkin. Bu ijtimoiy tarmoq hissiyotlarini tahlil qilishni osonlashtirishi mumkin.

- So‘zlarning samarador valentligini o‘rganish, shuningdek ular oldindan belgilangan ma‘lumotlar to‘plamini talab qilmaydi.

- An’anaviy his-tuyg‘ularni tahlil qilish usullaridan tezroq.


- Aniqroq natijalarni taqdim etadi.

Salbiy tomonlari:

- To‘g‘ri tasniflash uchun kompaniyalar katta yoki yuqori sifatli kichik ma‘lumotlar to‘plamiga muhtoj.

- Shovqin (masalan, smayliklar, jargon yoki tinish belgilari) aniqlikni kamaytirishi mumkin.

- Xarajatlar an’anaviy, qoidalarga asoslangan usullarga nisbatan yuqoriroq.



2-rasm. Avtomatlashtirilgan va leksikaga asoslangan hissiyotlarni tahlil qilish usullarini taqqoslash.

Algoritmlarga misollar


Tuyg'ularni tahlil qilishda ishlatiladigan mashinani o'rganish (ML) algoritmlari quyidagilarni o'z ichiga oladi.

Naive Bayes

Bu Bayes teoremasiga asoslangan nazorat ostida, ehtimolli tasniflash usuli bo'lib, xususiyatlarni ajratib olish uchun ishlatiladi. Ushbu yondashuv har bir token yoki xususiyat boshqasidan mustaqil ekanligini nazarda tutadi, shuning uchun u har qanday noto'g'ri imlo yoki grammatik xatolarni bartaraf etishi mumkin.

Vektor mashinasini qo'llab-quvvatlash

Bu turli vektorlar orasidagi eng yaxshi giperplanni aniqlaydigan, maksimal chegara masofasidan foydalangan holda toifalar o'rtasida qat'iy chegaralarni o'rnatishga imkon beruvchi, ehtimollik bo'lmagan tasniflash usuli.




3-rasm. Qo'llab-quvvatlash vektor mashinasi qanday ishlashining ko'rinishi So'zni vektorga akslantirish.

Bu usul tez-tez kontekstda qo'llangan so'zlarni ko'rib chiqish usuli. Vektorlar neyron tarmoqlarga o'xshash tarzda o'rganiladi, shuning uchun so'zlarni joylashtirish chuqur o'rganish usuli hisoblanadi.

Birinchi dan o' lchamlar soni aniqlanadi, har bir so' z pozitsiyasining vektor qiymati fazoda akslantiriladi. Tez-tez ishlatiladigan so' zlar bir-biriga yaqinroq bo' lsa-da, kam birga qo' llaniladigan so' zlar ular orasida uzoq masofaga ega. So' zni akslantirish modellari eng zamonaviy natijalarni taqdim etish imkoniyatiga ega, ammo resurslarni talab qiladigan mexanizm tufayli ular boshqa usullarga qaraganda qiyinroq va qimmatroq.

3. Gibrid yondashuvlar.

Leksikaga asoslangan va avtomatlashtirilgan usullarning afzalliklari va kamchiliklari mavjud. Shunday qilib, kompaniyalar turli yondashuvlar bir-birining kamchiliklarini qoplashi uchun avtomatlashtirilgan va leksikaga asoslangan usullarni o' z ichiga olgan gibrid usullarni amalga oshirishlari mumkin. Kombinatsiya parallel yoki tahlilning turli bosqichlarida bo' lishi mumkin.



4-rasm. Gibrid hissiyotlar tasnifiga misol.

XULOSA

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak hissiyotlarni tahlil qilishning bir qancha usullari mavjud bo'lib, ularning har birining o'ziga xos kamchiliklari va yutuqlari mavjud. Demak biz hissiyotlarni tahlil qilishda gibril hissiyotlarni tahlil qilish usulidan foydalansak maqsadga muvofiq bo'ladi. Chunki bu usulda bir nechta usul bir vaqta qo'llaniladi va ular bir-birining kamchiliklarini to'ldirib, aniq natijalarga ega bo'lishimizga olib keladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. <https://link.springer.com/article/10.1007/s10462-022-10144-1>
2. <https://research.aimultiple.com/sentiment-analysis/>
3. https://www.researchgate.net/publication/283954600_Sentiment_Analysis_An_Overview_from_Linguistics
4. <https://www.callbridge.com/uz/blog/how-to-use-a-sentiment-analysis-tool/>

АҚМОЛА МҰХАМЕДИЯРОВТЫҢ ӨНЕГЕЛІ ӨМІР БЕЛЕСТЕРІ

Сайфудинова Насиба Сайдрахымқызы

Шыршық мемлекеттік педагогикалық университеті

Қазақ тілі және әдебиеті бағытының 1-курс студенті

Ғылыми жетекшісі: **Байзаков Жандос Абдазимович** (PhD)

Шыршық мемлекеттік педагогикалық университеті оқытушысы

АННОТАЦИЯ

Мақалада ақын, жазушы Ақмола Мұхамедияров жайлы тереңірек баяндалады. Ақынның өмірі қиыны мен қызығы қатар жүретін кезеңдерге толы. Өз заманының тек шындығын айтып, халықтың зары мен мұңын жырлап келген. Ақын шығармалары жігіттерді ерлікке, намысшылдыққа, адамгершілікке үндейді. Ақмоланың шығармаларын оқып отырып, сол кездің қиын-қыстау кезеңін хандықтың қара халықты қалай қинағанын көруге болады.

***Кәлт сөздер:** Сыншыл, қоғам, баулиды, өшпес мұра, ілтипат, өгей әке, бүріскен.*

MILESTONES OF THE MORAL LIFE OF AKMOLA MUKHAMEDIYAROV

ANNOTATION

He used to tell only the truth of his time and sing about people's laments and sorrows. The poet's works encourage men to be courageous, proud, and moral. Reading Akmola's works, one can see the difficult winter period of that time, how the khanate tortured the black people.

***Keywords:** poet, indelible, stepfather, wrinkled, attention, society, heritage, critic.*

КІРІСПЕ

Ақмола Камалетдин ұлы Мұхамедияров азан шақырып қойған есімі Мұфтахетдин. Ол 1835 жылы Башқұртстан республикасы Белебай ауданында дүниеге келген. Оны қазақ әдебиетіне кіргізудің бір себебі әкесі-қазақ, анасы-татар. Ақмола қазақ пен татар еліне бірдей ортақ тұлға. Дегенмен, өлеңдерінің басым көпшілігі қазақ тілінде жазылып, қазақтың тұрмыс-тіршілігін суреттейді. Әкесі ерте қайтыс болған соң өгей әкесі Камалетдиннің қолында тәрбиеленеді. Ақын жастарды оқуға шақыру жаппай сауаттандырудың тараптары болған. Өлеңдерінің бірінде:

Тек оқуда ілтипат шарапаттар

Соқырлар әкелер зор, кесапаттар

Оқыған көкке ұшар, суда жүзер

Деме оны әулиелік керемет бар-, деп ішкі зары мен мұңын жеткізіп отырады.

НЕГІЗГІ БӨЛІМ

Ақмола Мұхамедияров өлеңдері сол кездегі ханға айтуға батылы жетпейтін ащы шындығын қазағ бетіне түсіріп, халықтың мұңын жырлап отырған. Ақын шығармалары көбірек дін бағытына көп тоқталып, ізгілік пен адалдыққа баулиды. Әдебиет аспанындағы сөнбес жұлдыздардың бірі. Артында қалған өшпес мұрасы мол. Бізге дейінгі шығармаларына көңіл аударатын болсақ, байлыққа, халық арасындағы жаман характерлі адамдар жайлы тереңірек жазылған. Ақмоланың табиғат жайлы жазған өлеңдері нәзіктік пен табиғаттың әсемдігін суреттейді.

Кетті міне, қыстың ызғары қыспағы

Көктем келді, кетіп қаһар қыстары

Қысы бойы бүріскен зат әлсіреп

Көрді шығып, күннің көзін тыстағы,-деп көктемнің кезін осы өлең жолдары арқылы жеткізіп отыр. Әрбір ақынның шығармашылық бағыты мен тақырыбы әртүрлі. Ақмоланың шығармалары шындықты жыр етеді. Ақын өз

өмірі барысында адам бойындағы 4 түрлі нәрсені қымбат деп санаған және оларға ерекше тоқталып, сипаттама беріп өткен. Олар: 1) адам баласына ең алғаш тіл бітеді. Білген адамға тіл таптырмас құрал деген тұжырымға келеді. 2) Жаратылыс атаулының ең құдіреттісі адамзат үшін- көңіл қымбат. 3) Үшінші адамға ең керегі-ақыл деп санайды. Себебі, ақылсыз адамнан не қоғамға пайдасы жоқ, не адамға пайдасы жоқ. 4) Төртінші керегі шүкіршілік ету. Қолыңды биікке созба бай болдым,-деп адамдық қалпыңнан тайма-, деген ойды алға сүрген.

Ақмола Мұхамедияров өлеңдері жанға адамилық пен надандықты, жақсы мен жаманды, адалдық пен опасыздықты танып білуге көмектеседі. Ақмола өлеңдері қоғамдағы өзекті мәселелерді көтеріп, халықтың көзін ашумен бірге сол кездегі би болыстардың құдық сұмдығынан сақтауға өз ықпалын тигізіп отырды. Шынында, ақын өлеңдерін оқи отырып тәрбие алатын жәйттер көп. Ақмола Мұхамедияров тек қазақ пен башқұрт тілінде ғана емес орыс әдебиетін де жақсы білген. Орыстың шығармаларын оқып, олардан қорытынды ой түйеді. Оның шығармалары сонысымен құнды, сонысымен қадірлі. Ақмола ұстаздық еткен тұста қазақ ауылдарында рулық қарым-қатынас жақсы дамып, рубасылар не айтса сол сөзсіз орындалған. Өмірдің қисықтарын жақсы білетін Ақмола ол кездегі қарама-қайшылықтарды жырға қоспай қоймайды. Соның үшін болар оның шығармалары өтімді әрі ғұмырлы болғаны. Алайда, шындықты жырлаған адам кімге ұнасын. Ақыр соңында оны қазақ арасындағы қашқын салдат деп жала жауып абақтыға қамалады. Содан кейін, сыншыл әрі, сыршыл ақын өмірінің сегіз жылын Троцк түрмесінде қара жұмыс істеп өткізеді. Әйтсе де өзінің қайтпас қайсарлығымен өз жолынан таймады. Жастарға үлгі болар жігіттердің намысын оятар талай дүниелер жазды. Ақмола жырлары жеке кітап болып басылып шыққан ақын.

ҚОРЫТЫНДЫ

Ақмола өмірі барысында өз жырларында шындықты айтып кеткен. Ол өз өлеңдерінде ұйқасқа аса қатты мән бермесе де өлеңдерінің мағынасы өте терең болады. Сонымен бірге, өлеңге өрнек беруші дыбыс қайталаушылық та жиі

кездеседі. Ақын өз заманының сөзі өтімді ақындарының бірі. Өмірде қанша қиындыққа тап болса да, таңдаған жолынан таймай аянбай еңбек етеді. Мүмкін содан болар, бүгін әдебиет аспанында ерекше орынға ие. Ақмола Мұхамедияровтың өлеңдері мен өмірі жастарға үлгі тұтар ақын.

ПАЙДАЛАНЫЛҒАН ӘДЕБИЕТТЕР ТІЗІМІ

1. Х.Сүйіншәлиев "Қазақ әдебиетінің қалыптасуы" Алматы 1967ж
2. Б.Кенжебаев "XX ғасыр басындағы қазақ әдебиеті" Алматы 1974ж
3. Ақмолла "Күндер мен түндер"(жинақ) Алматы 1990ж
4. Б.Ысқақов "Қазақ-татар әдеби байланысы" 1989ж

MUSTAQILLIK YILLARIDA SURXONDARYO VILOYATIDA TO‘QIMACHILIK SANOATINI RIVOJLANTIRISH MASALALARI

Ergashev Sanjar Muhammadi o‘g‘li

Termiz davlat universiteti

Geografiya (o‘rganish obyekti bo‘yicha) magistranti

<http://mail.ru/sanjar.ergashev.98@bk.ru>

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada O‘zbekiston respublikasida mustaqillik yillarida to‘qimachilik sanoatini rivojlantirish bo‘yicha amalga oshirilgan islohotlar, shuningdek, Surxondaryo viloyatida to‘qimachilik sanoatini rivojlantirish masalalari yoritilgan.

Kalit so‘zlar: *hududiy tashkil etish, ixtisoslashuv diversifikatsiya, modernizatsiya ishlab chiqarish klasteri, sanoatning tarmoqlar va hududiy tarkibi.*


Respublikamiz sanoat tarmoqlarini jadal sur‘atda barqaror rivojlantirish, ko‘p jihatdan hududlarning mavjud mahalliy xom-ashyo hamda demografik omillardan samarali foydalanish hisobiga amalga oshirilishi amalga oshirilayotgan bozor iqtisodiyoti islohotlarining ustuvor vazifalardan biridir.

Respublikamiz yengil sanoat tarmoqlari tarkibida to‘qimachilik sanoati eng istiqbolli tarmoqlaridan biri bo‘lib, ushbu tarmoqni rivojlantirish uchun qulay tabiiy, iqtisodiy-ijtimoiy omillar mavjud. Shuni alohida qayd etish lozimki ushbu sanoatning rivojlanish geografiyasini mahalliy xom-ashyo, yetarli mehnat resurslari shuningdek fan-texnika taraqqiyoti hamda iste‘mol kabi omillari belgilab beradi.

To‘qimachilik sanoati sanoatning paxta tozalash, kimyo, mashinasozlik sanoati tarmoqlari bilan texnologik jihatdan chambarchas bog‘liqdir. Shu bilan birgalikda mazkur sanoat tarmog‘i mahsulotning iste‘mol qilish “zichligi” va aylanma xarakati ham yuqoridir. Ayniqsa aholi iste‘moli uchun yil davomida kiyim-kechak

mahsulotlarini ishlab chiqarishda to'qimachilik sanoati tikuvchilik va trikotaj sanoati korxonalarining joylashishiga ham hal qiluvchi ta'sir ko'rsatadi.

Mustaqillik yillarigacha aniqrog'i sobiq Ittifoq davrida respublikamizning Toshkent, Andijon, Nukus, Buxoro kabi shaharlarida to'qimachilik kombinatlari va filiallari qurib ishga tushirilgan edi. Biroq ushbu tarmoqda jami yetishtirilgan paxta tolasining bor yo'g'i 9 foizi qayta ishlanib, qolgan qismi esa respublika hududidan chetga chiqarilar edi.



Surxondaryo viloyati to'qimachilik sanoati xaritasi

Respublikamizning turli mintaqalarida zamonaviy texnologiyalarga asoslangan paxta tolasini qayta ishlovchi to'qimachilik sanoatida qo'shma korxonalar qurib ishga tushirildi. Bunday qo'shma korxonalar respublikamizning Bo'ston, Gurlan, Bog'ot, Urganch, Jomboy, Jarqo'rg'on, Shahrisabz, Olot, Qorako'l, Kosonsoy, Pop, Namangan va boshqa shaharlarda qurib ishga tushirildi.

2022-2026-yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasining "Milliy iqtisodiyotni jadal rivojlantirish va yuqori o'sish sur'atlarini

ta'minlash deb nomlangan III-bobida to'qimachilik sanoati mahsulotlari ishlab chiqarish hajmini 2 baravarga ko'paytirish" nazarda tutilgan. Shuningdek, ushbu bobda "Respublika hududlari va xorijiy mamlakatlar biznes vakillari o'rtasida tashqi iktisodiy aloqalarni o'rnatish, jumladan Sirdaryo viloyatining Xitoy Xalq Respublikasi, Surxondaryo viloyatining Rossiya Federatsiyasi hamda Jizzax viloyatining Hindiston biznes doiralari bilan investitsiya va tashqi savdo aloqalarini rivojlantirish. Surxondaryo viloyatida "Investorlarga ko'mak markazi", Navoiy viloyatida Navoiy kon-metallurgiya kombinati tomonidan "Biznesga ko'maklashish markazi" va Toshkent shahrida "Ilg'or loyihalar va injiniring markazi" va har bir tumanda "Innovatsiya va texnologiya markazlari" tashkil kilib, tadbirkorlarga amaliy yordam ko'rsatish. Toshkent shahrida har yili "Toshkent xalqaro investitsiya forumi"ni o'tkazib borish" kabi vazifalar belilab berilgan[1-13b].

So'nggi yillarda respublikamizda paxta hosilini yetishtirish va uni texnologik jihatdan chuqur qayta ishlashni tashkil etish bo'yicha O'zbekiston respublikasi prezidentining hamda O'zbekiston respublikasi Vazirlar Mahkamasining bir qator farmon va qarorlari qabul qilindi.

Ayniqsa O'zbekiston respublikasi prezidentining 14.12.2017 yildagi "To'qimachilik va tikuv-trikotaj sanoatini jadal rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risidagi" PF -5285 sonli farmoni, va O'zbekiston respublikasi prezidentining 16.11.2021 yildagi "Paxta-to'qimachilik klasterlari faoliyatini tartibga solish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-14-son farmoni sohani rivojlantirishda muhim qadam bo'lib xizmat qilmoqda.

«O'zto'qimachilik sanoat» uyushmasi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 14 dekabrda «To'qimachilik va tikuv-trikotaj sanoatini jadal rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi farmoni bilan tashkil etilgan.

"O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 7 dekabrda O'zbekiston qishloq xo'jaligi xodimlariga tabrigida bu borada erishilgan yutuqlar sarhisob qilindi va "...biz keyingi yildan boshlab paxta yetishtirishni to'liq 100 foiz klaster usuliga o'tkazishga qaror qildik. Shu bilan birga, g'allachilik, meva-sabzivotchilik,

parrandachilik, chorvachilik, baliqchilik va pillachilik klasterlarini tashkil qilish ishlarini izchil davom ettiramiz”, degan so‘zlari bilan tegishli yo‘nalishlar rahbar va mutaxassislariga qator vazifalar yuklatildi”[2-5 b].

«O‘zto‘qimachilik sanoat» uyushmasi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 14 dekabrda «To‘qimachilik va tikuv-trikotaj sanoatini jadal rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi farmoni bilan tashkil etilgan.

2021-yilda uyushma tarkibida 1,989 ta korxonalar, 122 ta paxta to‘qimachilik klasterlari, 4 ta ta’lim muassasalari faoliyat ko‘rsatgan. Shuningdek, mazkur yilda 3,9 mlrd dollarlik xorijiy sarmoya kiritilgan. Bundan tashqari uyushma korxonalaridan 1,005 ming tonna paxta tolasi qayta ishlanib, 862 ming tonna ip kalava, 716 mln kv.m.paxta gazlamasi, 204 ming tonna trikotaj matosi, 2 mlrd dona tikuv trikotaj mahsulotlari, 458 mln juft paypoq mahsulotlari ishlab chiqarilgan.

“Klaster nazariyasining zamonaviy talqini XX asrning 80-yillarida to‘laqonli shakllandi. M. Porter yirik raqobatbardosh kompaniyalar ma’lum hududlarda konsentratsiyalashuvga moyilligini empirik jihatdan isbotlagan. Raqobatbardosh kompaniya o‘z atrofidagi xo‘jalik sub’ektlariga qoniqarli ta’sir ko‘rsatishi, o‘z navbatida o‘zaro bog‘liq barcha hamkorlarning raqobatbardoshligini oshiruvchi muqobil muhit yaratishini bayon etgan. Uning fikricha “Klaster bu hududiy (geografik) jihatdan bir-biriga qo‘shni, o‘zaro bog‘langan, ma’lum sohada faoliyat ko‘rsatuvchi, umumiy maqsad yo‘lida bir-birini to‘ldiruvchi kompaniya va u bilan bog‘liq tashkilotlar guruhidir”. Raqobatbardosh kompaniya milliy iqtisodiyot sohasi raqobatbardoshligini shakllantiradi, raqobatbardosh soha esa o‘z navbatida dunyo bozorida mamlakat raqobatbardoshligini ta’minlaydi va saqlab turadi”[2-1 b].

Surxondaryo viloyati respublikamizning asosiy qishloq xo‘jaligi mintaqasi hisoblanib bu yerda boy mahalliy xom-ashyo resurslari asosida paxtachilik sohasi bilan bog‘liq paxta tozalash sanoati rivojlantirilgan. Viloyatda paxta yetishtirish asosan Surxon-Sherobod vodiysining sug‘orma dehqonchilikka ixtisoslashgan tumanlarida olib boriladi. Paxtachilik viloyat dehqonchiligining asosiy tarmog‘i hisoblanadi. Paxta

yalpi hosilining asosiy qismini viloyatning Sherobod vodiysida joylashgan Muzrabot, Sherobod, Qiziriq tumanlari beradi. Mazkur tumanlarga viloyatda yetishtirilayotgan paxta yalpi hosilining 40 foizi to‘g‘ri keladi. Viloyatning Surxon vodiysida joylashgan Denov va Jarqo‘rg‘on tumanlari ham paxta yetishtirishda alohida ajralib turadi. Ushbu tumanlarga paxta yalpi hosilining 21 foizi to‘g‘ri keladi.

Mustaqillik yillarida viloyatda ishlab chiqarilayotgan paxta tolasi negizida to‘qimachilik sanoatida zamonaviy qo‘shma korxonalar qurib ishga tushirildi. Jumladan 1986 yilda Buxoro to‘qimachilik kombinati filiali sifatida ish boshlagan Jarqo‘rg‘on to‘qimachilik korxonasi negizida mustaqillik yillarida O‘zbekiston -Buyuk Britaniya ishbilarmonlari bilan hamkorlikda “Surxonteks” qo‘shma korxonasi qurib ishga tushirildi. Korxonada Yevropaning rivojlangan mamlakatlarida ishlab chiqarilgan zamonaviy o‘quv dastgohlari bilan jihozlandi. Bu yerda asosan paxta tolasini qayta ishlash asosida ip kalava, ip-gazlama mahsulotlari ishlab chiqarilmoqda. Viloyat ichki iste‘mol bozorida gazlama mahsulotlarga bo‘lgan ehtiyojining 35 foizi korxonada ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar hissasiga to‘g‘ri keladi, shu bilan birgalikda korxonada ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar jahonning Turkiya, Rossiya, Xitoy, Polsha, Belgiya, Germaniya kabi davlatlariga eksport qilinmoqda.

1-jadval

Surxondaryo viloyatida tashkil etilgan paxta-to‘qimachilik ishlab chiqarish klasterlari

t/r	Paxta - to‘qimachilik ishlab chiqarish klasterlari	Joylashgan tuman nomi	Paxta ekiladigan maydoni, gektar
1	“Angor Surxon g‘ururi”MChJ	Angor	6700,0
2	“Surxondaryo Agroxizmat”MChJ	Bandixon, Qiziriq, Sherobod	16874,0
3	“Termiz Jayxun Cluster” MChJ	Bandixon, Jarqo‘rg‘on, Qumqo‘rg‘on	15594,0
4	“Surxon Sifat Tekstil”MChJ	Denov	10288,0
5	“Shoshmaxkashshob”MChJ	Oltinsoy,Uzun,Sariosiyo	8372,0
6	“Indenim Cluster”MChJ	Termiz	2216,0
	Jami		60044,0

Manba: <https://uzts.uz/paxta-toqimachilik-klasterlari> [4].

Yuqorida keltirilgan jadval ma'lumotlaridan ma'lumki, viloyatda tashkil etilgan paxta-to'qimachilik ishlab chiqarish klasterlari 6 tani tashkil etib, ularning tasarrufida 60044,0 gektardan ortiq paxta ekiladigan maydonlar mavjud. Viloyat paxta-to'qimachilik ishlab chiqarish klasterlarining eng yiriklari "Surxondaryo Agroxizmat" MChJ, "Termiz Jayxun Cluster" MChJ lari bo'lib, ularga jami paxta ekiladigan maydonlarning 54 foizi to'g'ri keladi.

2020-yilda Surxondaryo viloyatida 5 ta paxta-to'qimachilik ishlab chiqarish klasterlari faoliyat yuritib, ushbu xo'jalik subektlari tomonidan 116 332tonna paxta xom ashyosi tayyorlanib, 39728 tonna paxta tolasi, 20 134 tonna ip kalava ishlab chiqarilgan.

Viloyat hududida to'qimachilik sanoatini rivojlantirishda yetarli resurslar bo'lsada, lekin ulardan maksimal samarali foydalanish darajasi ancha emas. Buning uchun quyidagi xulosalarni chiqarish maqsadga muvofiq deb o'ylaymiz.

Bular quyidagilar.

- Viloyatning ayni vaqtda ishlab turgan to'qimachilik korxonalarida ishlab chiqarishni kombinatlashuv siklini yo'lga qo'yish orqali tayyor to'qimachilik mahsulotlarini ishlab chiqarishni yo'lga qo'yish;

- Viloyat to'qimachilik sanoati korxonalarining hududiy tarkibini takomillashtirish; Bu borada Muzrabot, Qiziriq, Angor, Termiz tumanlarida qo'shimcha zamonaviy to'qimachilik sanoati korxonalarini qurib ishga tushirish;

- Viloyatda tashkil etishda paxta-to'qimachilik ishlab chiqarish klasterlarini yaxlit (kompakt) holda hududiy joylashtirishga e'tiborni qaratish lozim. Bu yerda xom-ashyo, yoqilg'i, energiya, transport omillaridan samarali foydalanishga erishiladi;

- Mintaqada tashkil etilgan paxta-to'qimachilik ishlab chiqarish klasterlarini ip-gazlama, trikotaj, paypoq va boshqa tayyor mahsulotlar ishlab chiqarishga ixtisoslashtirish;

- Viloyat to'qimachilik sanoati negizida iste'mol omili ehtiyojidan kelib chiqib yetarli mehnat resurslari mavjud. Qishloq tuman markazlarida tikuvchilik, trikotaj

sanoati korxonalarini qurib ishga tushirish orqali mintaqada iqtisodiy-ijtimoiy muammolarni hal etish;

Yuqoridagi xulosalardan kelib chiqib, viloyatda to'qimachilik sanoatini rivojlantirish orqali ichki iste'mol bozorini sifatli mahsulotlar bilan ta'minlash yangi ish o'rinlarini yaratish, asosida aholi bandligini ta'minlash pirovardida aholining turmush farovonligini oshirib borish bugungi kundagi eng muhim ustuvor vazifalardan biridir.

ADABIYOTLAR

- 1) O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-son Farmoniga 1-ilova
2022-2026 yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi.51 b.
- 2) Rahimov F.X,Usmonov B.Sh, Qushiev H,H.Klaster nazariyasi va unga amaliy yondoshuvlar.<https://mineconomy.uz/uploads> 7 b.
- 3) Surxanstat.uz-sayti.
- 4) <https://uzts.uz/pahta-toqimachilik-klasterlari>

SHAHARLARNI HUDUDLARGA TAQSIMLASH

A.M.Abdurahmanov, A. Azimova,

talaba **A. Muhammadov**

Andijon iqtisodiyot va qurilish instituti

akhmadjon00@mail.ru

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada shaharsozlik asoslari va barqaror rivojlanish fanidan shaharsozlikni hududlarga taqsimlash jarayonlari ko'rsatib o'tilgan.

Kalit so'zlar: *qurilish, loyihalash, qurilish jarayonlari, shaharsozlik, bino, inshoot.*

АННОТАЦИЯ

В данной статье описаны принципы градостроительного планирования и методы распределения градостроительного планирования на субрегионы с точки зрения устойчивого развития.

Ключевые слова: *строительство, проектирование, строительные процессы, градостроительство, здание, сооружение.*

ANNOTATION

This article describes the principles of urban planning and methods for distributing urban planning into subregions from the point of view of sustainable development.

Key words: *construction, design, construction processes, urban planning, building, structure.*

KIRISH

Qurish qoidalari hududni rejalashtirish tarhi va tumanni (tumanlar guruhlarini) rejalashtirish loyihalari, aholi punktining bosh rejasi hamda har bir hududning shaharsozlik reglamentlari asosida ishlab chiqiladi.

Hududlarning zonalashtirilishi qulay hayot faoliyati muhitini ta'minlashga, hududlarni tabiiy va texnogen xususiyatga ega favqulodda vaziyatlar ta'siridan muhofaza qilishga, aholi hamda ishlab chiqarish haddan tashqari zich joylashishining, atrof-muhit ifloslanishining oldini olishga va muhofaza etiladigan tabiiy hududlardan foydalanishga, shuningdek madaniy meros obyektlarini, qishloq xo'jaligi erlari va o'rmonzorlarni muhofaza qilishga qaratilgan.

HUDUDLARDAN SHAHARSOZLIK FAOLIYATINI AMALGA OSHIRISH UCHUN FOYDALANISHDA CHEKLOVLAR

Aholi punktlarining hududlarida quyidagi hududiy zonalar belgilanishi mumkin. Turar joy zonalarida sanitariya-himoya zonalarini belgilash talab etilmaydigan hamda faoliyati atrof-muhitga zararli ta'sir ko'rsatmaydigan (shovqin, tebranish, magnit maydonlari, radiatsiya ta'siri, tuproq, havo, suvning ifloslanishi va boshqa zararli ta'sirlar), alohida turgan, birgalikda qurilgan, birgalikda-qo'shimcha qilib qurilgan yoki qo'shimcha qilib qurilgan ijtimoiy va madaniy-maishiy obyektlarni, ibodatxonalarni, avtomobil transporti turargohlarini, sanoat, kommunal va omborxonalarini joylashtirishga yo'l qo'yiladi.

Qishloq xo'jaligi maqsadlarida foydalaniladigan zonalar

Harbiy obyektlarning va boshqa rejimli hududlarning zonalarini o'ziga nisbatan alohida rejim belgilanadigan obyektlarni joylashtirish uchun mo'ljallangan. Mazkur zonalarining hududlaridan aholi punktlari chegaralari doirasida foydalanish tartibi shaharsozlik normalari va qoidalarining, maxsus normativlarning va qurish qoidalarining talablari inobatga olingan holda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadi.

SHAHARSOZLIK OMILLARI

Shaharsozlik omillari jamoat binolarini shaharning rejali tuzilmasidagi joylashuvini belgilab beradilar. Shahar hududi funksional foydalanishiga qarab istiqomat, ishlab chiqarish va landshaft-rekreatsiya zonalariga bo'linadi. Istiqomat hududi uy-joy fondini, jamoat bino va inshootlarini, shu jumladan ilmiy-tadqiqot institutlari va ularning komplekslarini, shuningdek sanitariya-himoya zonalarini tashkil etishni talab etmaydigan alohida kommunal va sanoat obyektlarini joylashtirish, shahar ichidagi qatnov yo'llari, ko'chalar, maydonlar, park va bog'lar, bulvar va umumiy foydalanishdagi joylar uchun mo'ljallanadi. Shahar va qishloq aholi punktlaridagi istiqomat hududlarining rejali tuzilmasini jamoat markazlari, turar-joy imoratlari, ko'cha-yo'l tarmog'i, umumiy foydalanishdagi ko'kalamzorlashtirilgan hududlarning o'zaro bog'lanishini va, shu bilan birga, umuman, aholi punktining maydoni va hududining tabiiy sharoitlariga bog'liq bo'lgan rejali tuzilmasini inobatga olgan holda loyihalashtirish lozim.

Shaharlarda o'z tarkibida umumshahar markazi, rejalashtirilgan hududlar (zonalar) markazlari, turar-joy va sanoat zonalari, dam olish zonalari, kundalik ehtiyojlar uchun savdo-maishiy markazlari, shuningdek shahar yaqinida joylashtirilishi mumkin bo'lgan ixtisoslashtirilgan (tibbiy, o'quv, sport va boshqa) markazlar mavjud bo'lgan jamoat markazlari tizimini shakllantirish lozim.

Jamoat markazlarining soni, tarkibi va joylashtirilishi shaharning kattaligi, uning joylashuv tizimida tutgan o'rni va hududning funksional-rejali tashkil etilishini hisobga olgan holda qabul qilinadi. Yirik va juda yirik shaharlar, shuningdek tuzilmasi qismlarga ajratilgan shaharlarning umumshahar jamoat markazi, odatda, shahar miqyosidagi kichik markazlar bilan to'ldiriladi. Kichik shaharlar va qishloq aholi punktlarida yagona jamoat markazi shakllantirilib, turar-joy imoratlari zonasida joylashtiriladigan kundalik foydalanishdagi obyektlari bilan to'ldiriladi.

Umumshahar markazida, uning o'lchamlari va rejalashtirilishiga bog'liq ravishda, umumshahar yadrosini tashkil etuvchi o'zaro bog'langan jamoat hududlar (bosh ko'chalar, maydonlar, piyoda zonalari) tizimlarini tashkil etish lozim. Tarixiy

shaharlarda umumshahar markazi yadrosini tarixiy imoratlar qurilgan hududda to'liq yoki qisman shakllantirishga qaror topgan tarixiy muhitni saqlab qolishni ta'minlash shartiga rioya qilinganida yo'l qo'yiladi. Turar-joy imoratlarini qurish va aholiga madaniy-maishiy tizimini shakllantirishning shaharsozlik konsepsiyasi ishlab chiqilgan bo'lib, unga muvofiq har bir shaharsozlik tuzilmasi uchun muayyan xizmat ko'rsatish bosqichi mos kelishi kerak: shaharga - epizodik xizmat ko'rsatish, turar-joy tumaniga - davriy xizmat ko'rsatish, mikrotumanga - kundalik xizmat ko'rsatish.

SHAHARLARNING KENGAYISHI JARAYONLARI (URBANIZATSIYA)

Shaharlarning kengayishi jarayonlari ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotning ajralmas qismi va ularning bevosita hosilasi bo'lib, qator muammolarni ham keltirib chiqarmoqda. Bu muammolarning qamrovi keng bo'lib, ekologik, iqtisodiy, ijtimoiy, tibbiy, madaniy, ma'naviy-axloqiy jihatlar bilan tavsiflanadi. Bunda ishlab chiqarish atrof-muhitga o'tkazadigan bosimining kuchayishi, suv ta'minotidagi kamchiliklar, transport tarmoqlariga me'yoridan ortiq yuk tushayotgani, shahar turmush tarzi bilan bog'liq kasalliklarning tarqalishi, jinoyatchilikning ortishi va boshqa muammolar eng dolzarb hisoblanadi. Demak, jahon urbanizatsiyasining zamonaviy bosqichi miqdor va sifat xususiyatlari, shuningdek, turli ko'rinishdagi muammoli jihatlari bilan tavsiflanadi. Aynan shu kabi muammolar ayni hozirda Toshkent shahrida ham og'riqli savol bo'lib qolmoqda, chunki, qurilish ishlarining tartibsiz va juda keng ko'lamda amalga oshirilayotganligi, yashil zonalarning sun'iy ravishda qisqartirilayotganligi kabi holatlar yaqin kelajakda o'z qobatlari ko'rsatmasdan qolmasligi aniq bo'lib bomoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Isamuxamedova D. U. Adilova L.A. Shaharsozlik asoslari va landshaft arxitekturasi: 1 qism, darslik / O'zR oily va o'rta-maxsus ta'lim vazirligi,-Toshkent: Cho'lpon nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2009 - 160 b.
2. Mirzayev M.K., Latipov D.V. O'zbekiston Respublikasi shaharsozlik asoslari. O'quv qo'llanma. T.2000 TAQI.
3. Mirzayev M.K. Tumanni rejalashtirish asoslari. O'quv qo'llanma. T.2001 TAQI.
4. Isamuhamedova D.U. «Shaharsozlik asoslari». O'quv qo'llanma. T., 2000- u.

ELEKTRON MANBALAR:

1. www.lex.uz.
2. www.advice.uz.

ПРОФЕССИОНАЛЬНАЯ ДЕЯТЕЛЬНОСТЬ ПРАКТИЧЕСКОГО ПСИХОЛОГА

Сирожиддинова З.М.

директор ИРЦ ТГСИ

Ташкентский Государственный стоматологический институт

АННОТАЦИЯ

Работа практического психолога позволяет выделить и описать десять основных качеств работы квалифицированного психолога. Многие вопросы решаются в профессиональном, этическом кодексе психологов, которые есть в каждой стране, где эта профессия распространена в достаточной мере.

Ключевые слова: *Специфичность, эффективность, квалификация, профессиональная подготовка.*

PROFESSIONAL ACTIVITIES OF A PRACTICAL PSYCHOLOGIST

ABSTRACT

The work of a practical psychologist allows us to identify and describe the ten main qualities of a qualified psychologist. Many issues are resolved in the professional, ethical code of psychologists, which are in every country where this profession is sufficiently widespread.

Key words: *Specificity, efficiency, qualification, professional training.*

Самое важное во всех разнообразных подходах к теории и практике профессионального психолога — это индивидуальная оценка личности в социальной среде, применение методов позитивного роста и развития.

➤ ***Межличностное влияние в работе практического психолога***

Квалифицированный психолог понимает, что его реакция влияет на студента и наоборот — реакции студента влияют на него самого. Он осознает это влияние и во взаимодействии с клиентом его специально выделяет, фиксируя как свои чувства, мысли, желания и возможности, так и чувства, мысли, желания и возможности студента. Квалифицированный психолог это делает путем пересказа переживаний студента, в виде открытых и закрытых вопросов и т. п. Существенно важно, что все эти виды воздействия на студента показывают межличностное влияние, то есть показывают изменение в мыслях, чувствах, желаниях и возможностях как студента, так и психолога.

➤ ***Человеческое достоинство*** в работе практического психолога является самоценностью. Для квалифицированного психолога уважение достоинства студента является аксиомой, которая определяет его честность.

Для неквалифицированного психолога неуважительное, даже оскорбительное отношение к студенту не является предметом профессиональной рефлексии, он склонен приписывать своей профессии сверх значимость, которая позволяет относиться к другим людям с позиции сверху. Для неквалифицированного психолога нет специальных профессиональных проблем в получении и передаче психологической информации, чаще всего для этого он использует псевдоквалифицированный жаргон или перегружает свою речь специальными терминами, подчеркивая исключительность своей профессии.

➤ ***Отношение*** квалифицированного психолога характеризуется тем, что он рассматривает теорию как отражение реальности, он видит в ней манеру мышления, вытекающую из его культурной и половой принадлежности. Он рассматривает теорию как способ мышления, который может совершенствоваться и меняться в зависимости от культурной и половой принадлежности человека. Квалифицированный психолог понимает, что в любой теории есть предмет и способы его описания; если предмет (внутренний

мир человека) для всех исследователей один, то способы его описания, анализа, обобщения для всех студента будут разными. Это он видит и в своей собственной обобщенной теории, поэтому может соотносить ее с другими теориями.

Неквалифицированный психолог игнорирует способы мышления студента различных теорий, не выделяет предмета теории и способа мышления автора. Для него нет проблемы соотношения своей теории и теорий других студентов.

Описанные выше качества профессиональной деятельности практического психолога позволяют утверждать, что у квалифицированного психолога принципиально отличная от неквалифицированного психолога исходная точка в понимании и получении психологической информации о студенте. Позиция квалифицированного психолога основана на профессиональной рефлексии, позиция неквалифицированного психолога основана на его Я - концепции.

При этом практический психолог, независимо от его теоретической ориентации, должен использовать в своей работе такие понятия, как жизнь, смысл жизни, место ученика в жизни, ценности, индивидуальность.

Момент работы квалифицированного практического психолога со студентами очень сложен, который по степени сложности приближает ее к работе летчика-испытателя,—это необходимость постоянной профессиональной работа требующего точности профессионального действия для оказания эффективной психологической помощи.

ЛИТЕРАТУРА

1. Аллан Е. Консультирование и психотерапия — сочетание методов, теории и практики. Пер с англ — Новосибирск.
2. М.В. Гамезо. Атлас по психологии: Информационно – методическое пособие к курсу «Психология человека». М., 1999.

УДК: 616.351-007.22-055.2-07

ДИАГНОСТИКА И ЛЕЧЕНИЕ ПЕРСИСТИРУЮЩЕЙ КЛОАКИ У ДЕВОЧЕК

¹ Якубов Э.А., ² Отамурадов Ф.А., ¹ Сафаралиев Ж.С.

¹Ташкентский педиатрический медицинский институт

²Термезский филиал Ташкентской медицинской академии

yakubov.e.a.1972@mail.ru;

javlonsafaraliyev1995@gmail.com

АННОТАЦИЯ

В статье представлен краткий обзор литературных данных о персистирующей клоаке, а также результаты диагностики и лечения 24 девочек с указанной патологией в нашей клинике. ПК представляет собой многовариантное слияние анатомических структур с формированием общего канала или урогенитального синуса. Это обуславливает возникновение различных осложнений требующих оперативного вмешательства. С протяженностью общего канала увеличивается число сопутствующих аномалий с выраженными анатомическими и функциональными нарушениями. В 5 наблюдениях оперативные вмешательства проведены без наложения колостомы, в 19 - с колостомой. Методом выбора хирургической коррекции заднесагиттальная аноректоуретеровагинопластика. В 4 наблюдениях дополнительно использован брюшно-промежностный доступ.

Ключевые слова: персистирующая клоака, анатомические формы, диагностика, лечение.

ABSTRACT

The article provides a brief overview of published data on the persistent cloaca, as well as the results of the diagnostic and treatment of 24 girls with this pathology in our hospital. PC is a multivariate fusion of anatomical structures with the formation of a common channel or urogenital sinus. This leads to the occurrence of various complications requiring surgical intervention. With the total length of the channel increases the number of associated anomalies with severe anatomical and functional disorders. In 5 cases surgical treatment without colostomy, 19 - with colostomy. The method of choice of surgical correction posterior sagittal anorectoureterovaginoplastik. In 4 cases additionally used abdominal-perineal access.

Keywords: *persistent cloaca, anatomical forms, diagnosis, treatment.*

ВВЕДЕНИЕ

Клоака – транзитное эмбриональное образование, возникающее в процессе дифференцировки органов и тканей дистального конца зародыша. При данной патологии девочка рождается с целым спектром пороков развития с вовлечением прямой кишки, уретры и влагалища. В результате их слияния с общим каналом открывается единое отверстие в месте нормального мочеиспускательного канала.

Цель исследования

Анализ методов диагностики, хирургической коррекции и результатов лечения детей с персистирующей клоакой (ПК).

ЛИТЕРАТУРА И МЕТОДОЛОГИЯ

По данным различных авторов, ПК составляет 1 случай на 40000 - 50000 живых новорожденных [3,5,6]. Определение диагноза облегчается расширяющимися возможностями антенатальной диагностики [7]. Дифференцированный подход к выбору хирургической тактики обеспечивает лучшие результаты лечения [1,2,3,6]. К сожалению, в настоящее время наблюдаются диагностические ошибки и случаи позднего оперативного лечения

на фоне возникших осложнений [2,4,5]. Высокое сочетание сопутствующих аномалий других органов и систем также определяет выбор тактики хирургической коррекции, влияющей на результаты лечения [4].

Материалы и методы исследования

В 2010-2022 гг. в клинических базах кафедры госпитальной детской хирургии ТашПМИ на обследовании и лечении находились 24 девочек с ПК. Варианты ПК и длина общего канала разделены с учетом рекомендаций Levvit MA, Pena A. [5]. Больным проводили клинические и специальные (клоакаскопия, фистулография) методы для оценки анатомо-функционального состояния промежности, характера и формы клоаки.

РЕЗУЛЬТАТЫ И ОБСУЖДЕНИЕ

Основной метод диагностики клоаки – осмотр промежности, при котором определяются атрезия ануса, и недоразвитие наружных органов гениталий. При разведении половых губ на месте долженствующего наружного отверстия уретры можно увидеть единственное отверстие общего канала различного диаметра. Гипертрофия клитора у 2 девочек при других местных изменениях ПК в направительном диагнозе ошибочно расценена гермофродизмом. Несмотря на выраженные анатомические изменения, включая атрезию ануса при клоакальной аномалии у 15 (62,5%) больных критические нарушения физиологических отправления (выделение мочи и кишечного содержимого) не наблюдались. Поэтому в хирургический стационар больные были направлены с опозданием, что свидетельствует о недостаточной осведомленности врачей к полноценному клиническому осмотру и обследованию больных с аноректальными аномалиями.

При рождении ребенка с АРМ обязателен осмотр хирургом неонатологом. Правильная интерпретация объективных и данных УЗИ определяет план дальнейшей диагностической и лечебной тактики. На данном этапе важно определить показания к наложению колостомы. При ПК за исключением легких форм (протяженность общего канала до 1 см) требуется наложение колостомы. Выбор места наложения стомы необходимо определять с учетом анатомии

порока и необходимости создания неовагины из оставленного дистального отдела стомы на этапе корригирующей операции. Этим требованиям отвечает наложение стомы в пределах терминальной части нисходящей и начального отдела сигмовидной кишки. При выборе места и уровня наложения необходимо ориентироваться на данные контрастной ирригографии.

При ПК обязательна клоакоскопия при помощи цистоскопа, позволяющая оценить высоту соустья анатомических структур. При этом не всегда можно получить информацию о состоянии анатомических структур, образующих клоаку. Дополнительные сведения можно получить, используя рентгеноконтрастные и ультразвуковые исследования. Более ценными являются данные ирригограммы через стому или общий канал с водорастворимыми контрастными веществами для определения анатомии и планирования предстоящей операции: отделение прямой кишки от общего канала с последующем ее низведением; использование части толстой кишки в качестве материала для наращивания влагалища при его гипо – или аплазиях.

УЗИ при ПК высокоинформативно для выявления, нередко наблюдаемого гидрокольпоса и сочетанных урологических аномалий. Однако УЗИ и магнитно-резонансная томография (МРТ) органов малого таза для определения размеров и структур внутренних половых органов в наших наблюдениях были мало информативны, что связано с малыми размерами органов у детей раннего возраста. Диагностические возможности компьютерной томографии усиливаются на фоне экскреторной урографии или дополнительного контрастирования общего клоакального канала. У 13 (54,2%) больных длина общего канала составила до 3 см, у 11 (45,8%) - больше 3 см.

Данные дооперационных исследований (клоакография, контрастирование общего канала, УЗИ) и интраоперационные находки свидетельствует, что при ПК более выраженные изменения наблюдаются со стороны влагалища. В связи этим усложняется его разделение от уретры, вагинопластика и восстановление сообщения с маткой. Из 24 больных гипоплазия влагалища констатирована у 2,

аплазия – у 5 девочек, во всех этих наблюдениях размеры матки не соответствовали возрастным параметрам.

Хирургическая коррекция при ПК представляет значительные сложности из-за особенностей строения при высоких слияниях и длинном общем канале, уродинамических и инфекционных осложнений, возникающих вследствие обструкции выходного отдела мочевого пузыря, сочетанных аномалий других органов и систем. У 4 (16,7%) новорожденных наблюдались признаки [кишечной непроходимости](#). В течение суток перестал отходить меконий и газы, постепенно нарастал вздутие живота, ребенок становился беспокойным и отказался от еды. Постепенно развивался рвота желудочным содержимым, [желчью](#) и [каловыми массами](#). После соответствующей предоперационной подготовки, у всех этих больных была наложена кишечная стома в экстренном порядке. 15 (62,5%) больным колостомы наложены в плановом порядке в разные сроки заболевания. Из 24 больных 5 (20,8%) при длине общего канала до 1 см коррекция ПК проведена заднесагиттальной аноректовагинопластикой (4), брюшно-промежностным доступом с низведением прямой кишки и вагинопластикой (1) без наложения защитной колостомы. В 4 наблюдениях прямая кишка впадало в урогенитальный синус длиной 1-1,5 см. Разделение и восстановление анатомических структур клоаки, их размещение в естественных местах удалось без технических трудностей. У одной девочки при сообщении недоразвитой прямой кишки с вершиной общего канала длиной 1,5 см и шириной 1,8 см удалось разобщить урогенитальный синус уретеровагинопластикой. Однако из заднесагиттального доступа не удалось низвести прямую кишку без натяжения на промежность несмотря на максимальную ее мобилизацию. Данное обстоятельство стало показанием переходу на лапаротомию, мобилизацию, свободное низведение и фиксацию прямой кишки в виде висячей культи длиной 2,0 см от уровня кожи промежности. Данный подход предпринят для предупреждения ретракции

низведенной прямой кишки, снижения риска инфицирования и несостоятельности уретеровагинопластики.

Из 24 оперированных 2 новорожденных (8,3%) умерли в послеоперационном периоде на этапе наложения колостомы. Причиной смерти стало тяжелое общее состояние детей, обусловленное сложными сочетанными аномалиями и осложнениями сопутствующих соматических заболеваний. Течение раннего послеоперационного периода у больных с наложением и без наложения колостомы было в основном благополучным. Лишь в 6 наблюдениях после наложения колостомы отмечены признаки инфицирования раны промежности с вторичным натяжением без выраженных анатомических нарушений со стороны «заинтересованных органов» и косметических нарушений в промежности. При повторных осмотрах через 2-3 мес. у 2 из 3 девочек, которым дистальную часть влагалища сформировали из местных тканей, отмечено рубцовое сужение неовагины.

ЗАКЛЮЧЕНИЕ

Для установления анатомических вариантов ПК и сопутствующих аномалий необходимы комплексные специальные исследования. Особенно важно определить длину общего канала и характер слияния анатомических структур. Принято разделять патологии по длине общего канала: до 3 см и более; по характеру слияния - урогенитальный синус или общая клоака. Эти признаки определяют выбор одноэтапной или многоэтапной тактики лечения, способа хирургической коррекции.

Результаты хирургической коррекции зависят не только от длины общего канала, но и его диаметра, от структуры органов, образующих клоаку. При благоприятных анатомических вариантах результаты удовлетворительны. При тяжелых формах наблюдаются выраженные функциональные нарушения тазовых органов и возникает необходимость повторного оперативного вмешательства.

Все этапы хирургической коррекции (наложения колостомы и собственно коррекция) следует проводить в оптимальные сроки в специализированных учреждениях, имеющих опыт лечения детей с тяжелыми формами аноректальных аномалий.

ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТЕРАТУРА

1. Аверин В.И., Ионов А.Л., Каравеева С.А. и др. Аноректальные мальформации у детей (Федеральные клинические рекомендации) // Детская хирургия. 2015. – № 4. – С. 29-35.
2. Киргизов И.В., Шишкин И.А., Шахтарин А.В. и др. Хирургическое лечение персистирующей клоаки у детей// Колопроктология. 2014. – №2. – С.21-23.
3. Bischoff A. The surgical treatment of cloaca// J. Pediatric Surgery, 2016. Vol. 51, – pp. 102-107.
4. Gupta A, Bischoff A. Pathology of cloaca anomalies with case correlation// J. Pediatric Surgery, 2016. – Vol. 51, – pp. 66-70.
5. Levitt MA, Pena A. В кн.: Ashcraft's Pediatric Surgery 6th Edition. George W. Holcomb III. 2014, pp. 492-514.
6. Peña A. Cloaca-Historical aspects and terminology// J. Pediatric Surgery, 2016. – Vol. 51, – pp. 62-65.
7. Peiro JL, Scorletti F, Sbragia L. Prenatal diagnosis of cloacal malformation// J. Pediatric Surgery, 2016. Vol. 51, – pp. 71-75.

MALIKA ABDULLAKHOJAYEVA'S SCIENTIFIC LIFE

Tillayeva Madina

Student of masters degree Tashkent Medical Academy

ANNOTATION

Science is like the sea. When you explore it, you will feel that it is so infinite and powerful. The treasure left by the people of science is the greatest legacy that will last for a lifetime. This article is about one of such great people, scientist Malika Abdullakhojayeva, who made a great contribution to the science of pathological anatomy. It is dedicated to Samatovna. Abdullaxjayeva Malika Samatovna was the director of the Pathological Anatomical Center of the Republic, Hero of Uzbekistan, Honored Scientist of Uzbekistan, Academician of the Academy of Sciences of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Medical Sciences, Professor.

Keywords. *Reactive and pathological processes, neuropathology, neuromorphology, immunopathology, pathohistology, cytology.*

Malika Abdullakhojayeva Samatovna was born on November 28, 1932 in Moscow, Russia. After graduating from the 110th secondary school of Tashkent with a gold medal, in 1950 he was admitted to the medical faculty of the Tashkent State Medical Institute (ToshDTI). During her studies, she became a state scholarship holder, the chairman of the students of the scientific community. Malika Samatovna began her scientific career in the scientific circle under the pathologic anatomy (1953-1956) during her student years. In recent years, Malika Samatovna continued her work on the study of reactive and pathological processes of the central nervous system. In 1956, after graduating from ToshDTI with excellent grades, Malika Samatovna entered the post-graduate course of the Brain Institute of the USSR Academy of Medical Sciences on December 27, 1960. became a doctor of sciences. In 1969, Malika Samatovna was

elected to the department of pathological anatomy, in 1970 she was awarded the title of professor, and her students developed a program on the problems of neuropathology and neuromorphology Professor M.S. Abdullahojayeva is a well-known scientist in clinical immunopathology and experimental field. Another direction of his research and with his students was the study of complications and pathogenesis of pathological anatomy in pregnancy. For 35 years, while he was the head of the department of pathological anatomy of the Medical Institute of Malika Samatovna, he trained highly qualified doctors, a higher educational institution in the field of medicine. made a great contribution to the training of pedagogues, doctors of medical sciences. After the separation of the First and Second ToshDTI in 1990, the scientist headed the department of pathological anatomy of the Second ToshDTI until 2000. In 1997-1999, he created the 2-volume textbook "Human Pathological Basis" at medical universities. In 1995, M.S. Abdullahhojayeva became a corresponding member of the Academy of Sciences of the Republic of Uzbekistan, and in 2000, she became a full member. From 1972 to 1997, he made a great contribution to the development of pathological anatomy as the chief pathological anatomist of the Republic of Uzbekistan in terms of health care. For the first time, an internship department of pathological anatomy was established, a department of pathological anatomy Today, on his initiative, the only Republican center of pathological anatomy in the CIS countries was established. In its base, masters of all medical specialties receive training, clinical experience is conducted, and 5 departments: pathogistology, bacteriology, virology, cytology laboratories are working. RPM laboratory, electron microscopy, medicine and molecular genetics, as well as biotechnology cell laboratory were established. Thead of the Central Scientific Research Laboratory of the Uzbekistan Institute of Radiology, Radiology and Oncology (1963-69), Head of the Pathomorphology and Histochemistry Laboratory of the Uzbekistan Institute of Radiology, Radiology and Oncology (1963-69), TashTI (1969-1990), since 1990, head of the Department of Pathological Anatomy of the 2nd TashTI Abdullahojayeva's scientific works are mainly devoted to the issues of immunopathology of the nervous system, geographical pathology and the history of

medicine. She is the founder of a new direction in the field of medicine in Uzbekistan - transplant immunopathology. The first pathological anatomy textbook published in Uzbek and Russian (1997) author. Honorary citizen of the state of California (since 1986). In 2005, under the guidance of M.S. Abdullahojayeva is the founder of the large scientific-pedagogical and practical school of pathological anatomy: under her leadership, 13 doctors of medical sciences and 58 candidates of medical sciences have graduated. Today, his students work not in large medical centers of Uzbekistan, but in a number of Central Asian regions, as well as in Russia, Israel, India, Yemen, Egypt, Nepal, and the USA. M.S. Abdullahojayeva has several state awards: the Order of "Veteran of Labor" (1970), the Order of "Badge of Honor" (1976), the honorary title of "Honored Scientist of Uzbekistan" (1980), "Hero of Labor" Order (1984), "Excellence of Higher Education" (2000), "Fame of Labor" (2003). In 2006, by the decision of the President of the Republic of Uzbekistan, M.S. Abdullahojayeva was awarded the title of "Hero of Uzbekistan" and "Golden Star". The Academy of Sciences of Uzbekistan suffered a severe divorce. Hero of Uzbekistan, academic woman Abdullahojayeva Malika Samatovna died on June 26, 2018.

REFERENCES

1. Редакционная коллегия журнала «Архив патологии».
2. "Ózbekiston Milliy Ensiklopediyasi" 2014-yil.
3. "Ózbek sovet ensiklopediyasi".
4. Ziyonet.uz.
5. Akademiklar.uz

GAT DASTURLARI YORDAMIDA DEHQON XO‘JALIKLARI MA’LUMOTLAR BAZASINI ISHLAB CHIQISH

**Aliqulov G‘olib Nortoshovich,
Bobonazarov Toshmuhammad Yo‘ldashevich**

Qarshi muhandislik-iqtisodiyot instituti

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada dehqon xo‘jaliklarining kartasini yaratish usullarini bajarishda GIS texnologiyalaridan keng ko‘lamda foydalanish yo‘lga qo‘yilgan.

Kalit so‘zlar: Xarita, Gis, geodezik ishlar, geografiya, kartografiya.

ABSTRACT

In this article, a large-scale use of GIS Technologies is established in the implementation of methods for creating a peasant farm card.

Keywords: Map, Gis, Geodetic works, geography, cartography.

GAT dasturlari yordamida dehqon xo‘jaliklari ma’lumotlar bazasini ishlab chiqishni takomillashtirish zarur manbalar kompyuter xotirasiga kiritiladi. Agar manbalar turli masshtabda bo‘lsa, bir masshtabga keltirish ishlari fotogrammetrik transformatsiyalash bosqichida amalga oshiriladi. Aero va kosmik rasmlarni o‘qish va tahlil qilish ishlari ham fotogrammetrik jarayonda olib borilishi mumkin. Bundan oldin dehqon xo‘jalik joylashgan yerlarning relyefi, suvlari, tuproq tarkibi kabi tabiiy sharoitlari deshifrovka jaroyoni bevosita joyda bajariladi.

Hozirgi kunda respublikamizda barcha sohalarda shu jumladan dehqon xo‘jaliklarining, qishloq xo‘jaligi korxonlarida axborot texnologiyalari shu darajada rivojlandiki, ularda kadastr ishlarini takomillashtirish davr talabiga aylandi. Bunda raqamli kartalar yaratish va ular bilan ishlash muhim ahamiyatga ega. Bu ishlarni

amalga oshirishdan maqsad qishloq xo'jaligida qo'llaniladigan raqamli kartalardagidek, dehqon xo'jaliklarining, aholi yashash joylari hamda bino va inshootlarni ro'yxatga olishda qo'llaniladigan raqamli kartalarini ishlab chiqishdan iborat. Chunki dehqon xo'jaliklarining raqamli kartalari ishlab chiqilsa juda katta ishni amalga oshirgan bo'lamiz. Raqamli kartalarning qulaylik tomoni shundaki, har-bir dehqon xo'jaliklarining chegaralari alohida raqamlanadi. Raqamli kartalarni yaratish uchun yangi zamonaviy asboblardan va dasturlardan zarur bo'ladi. Shu jumladan hozirda ishlab chiqarishda qo'llanilayotgan ArcGIS dasturi yangi raqamli kartalarni yaratishga judayam qo'l keladi. Ushbu dastur yordamida yaratilgan kartalar bilan ishlash foydalanuvchining imkoniyatlarini yanada kengaytiradi. Shuning uchun ushbu dastur yordamida dehqon xo'jaliklarining kartasini yaratish ishlarini takomillashtirish davr talabi hisoblanadi.

ArcGIS ESRI kompaniyasi tomonidan ishlab chiqilgan bo'lib, bu obektlarni geografik ma'lumotlari va atribut ma'lumotlari bilan birgalikda ishlash imkoniyatini beradi.



1-rasm. GIS texnologiyasi yordamida dehqon xo'jaligi kartalari yaratish.

ArcGIS dasturida ma'lumotlar bazasini yig'ish va saqlash juda qulay.

ArcGIS dasturida raqamli xaritalarini yaratish uchun quyidagilarni bajarishimiz kerak:


- ❖ ArcGIS dasturining ArcMap versiyasi kompyutor bazasiga o'rnatiladi;
- ❖ joyning masofadan turib raqamli fotokamera yordamida suratga tushiriladi;
- ❖ transformatsiyalangan suratlardan joyning fotoplani yoki fotosxemasi tuziladi;

- ❖ fotoplan olib joyga borib deshifrofka qilinadi;
- ❖ suratlarni ArcGIS dasturiga masshtab bo'yicha tushiramiz;

deshifrofka qilingan fotoplan yoki fotosxemaga qarab ArcGIS dasturiga raqamli karta chiziladi, shu bilan birgalikda ma'lumotlar ham kompyuterga kiritilib boriladi. ArcGIS dasturi asosan ikki qismdan iborat. 1.ArcMap 2.ArcCatalog


ArcGIS dasturining ArcMap ilovasida - Geografik obyektlarni atribut ma'lumotlar bilan ishlashda qo'llaniladi.

Ishchi oynadan ArcMapni yani dasturni ishga tushirish uchun, ishchi oynadan ArcMapning ustiga sichqonchani bosish orqali ishchi holatga tushiriladi.



2-rasm. ArcMapni dasturni ishga tushirish.


 tugmasi bosilib, variantning to'rtala burchagiga berilgan koordinata balandliklari qo'yiladi. Avtonastroyka yoqiladi va ekranda karta paydo bo'ladi.



3-rasm. Arc Catalog oynasini yaratish.

Arc Catalog oynasi ochilib **Персональная база** yaratib olinadi.

Персональная bazaning ichiga o‘zimizga kerakli sharli belgi, obyektlarni kiritamiz. Har bir shartli belgilarni davlat standartiga mos ravishda yasaladi.



Yasalgan har-bir shartli belgiga koordinatalar tizimidan sharoitimizga mos koordinatalar tizimini kiritamiz. Bizning respublikamizda ko‘proq Gauss Kruger koordinatalar tizimidan foydalaniladi. Barcha topografik va obzor-topografik kartalar teng burchakli ko‘ndalang silindirik proyeksiyada tuziladi. Bu proyeksiyani nemis olimi K.F.Gauss (1777-1855) nazariy jihatdan asoslagan bo‘lsa, ikkinchi bir nemis olimi L.Kryuger (1857-1923) uni hisoblash formulalarini ishlab chiqqan.

4-rasm. ArcMapga electron kartani import qilish.

Shuning uchun ham Gauss-Kryuger proyeksiyasi deyiladi. Bu proyeksiyada ellipsoid sirtidagi shakl burchaklari tekislikda aynan o‘ziga o‘xshash tarzda tasvirlanganidan unga teng burchakli yoki konform (o‘xshash) proyeksiya deyiladi.

Bu proyeksiya qishloq xo‘jaligiga oid kartalarni tuzishda ko‘proq qo‘llaniladigan proyeksiya hisoblanadi.

Chizikli obyektlarga kerakli ma’lumotlar kiritiladi. Masalan yo‘llar, gidrografiya, chegara, gorizontallar, elektr liniyalari, gaz quvurlari va boshqa chizikli obyektlarni olishimiz mumkin.

FODALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Nortoshov, A. G. o'g'li, Aralov, M. M., & Aliqulov, G. N. (2023). QISHLOQ XO'JALIGI XARITALARINI YANGILASHDA MASOFADAN ZONDLASH MATERIALLARIDAN FOYDALANISH. *RESEARCH AND EDUCATION*, 2(3), 49–56. Retrieved from <https://researchedu.org/index.php/re/article/view/2669>
2. Ibragimov U., Aralov M.M. (2022). TOPOGRAFIK KARTALAR YARATISHNING ASOSIY USULLARI. *ARXITEKTURA, MUHANDISLIK VA ZAMONAVIY TEXNOLOGIYALAR JURNALI*, 1(4),31–33.Retrieved from
3. Qilichev , Z. M., & Aralov , M. M. (2023). TOPOGRAFIK CHIZMACHILIK FANINI O'QITISHDA BO'LAJAK MUHANDISLARNING GRAFIK TAYYORGARLIGINI RIVOJLANTIRISH TAHLILI. *Innovative Development in Educational Activities*, 2(7), 674–679. Retrieved from <https://openidea.uz/index.php/idea/article/view/1100>
4. Aralov, M. M. (2022). MUHANDISLAR TAYYORLASH TA'LIMINING MUAMMOLARI VA YUTUQLARI. *INTERNATIONAL CONFERENCE ON LEARNING AND TEACHING*, 1(4), 107–111. Retrieved from <https://researchedu.org/index.php/iclt/article/view/2630>
5. Алиқулов, Ғ., & Аралов, М. (2022). РЕЛЬЕФНИНГ РАҚАМЛИ МОДЕЛЛАРИНИ УЧУВЧИСИЗ УЧИШ АППАРАТЛАРИ ЁРДАМИДА ЯРАТИШ. *Innovatsion Texnologiyalar*, 1(4), 131–134. Retrieved from <https://ojs.qmii.uz/index.php/it/article/view/127>
6. Э.Р.Мирмахмудов, Э.Эгамбердиев, М.М.Аралов. Рекогносцировка пунктов геодезической сети в окрестности г. Карши. Современная наука в условиях модернизационных процессов: проблемы, реалии, перспективы. 2021. 261-267.
7. Мирмахмудов Э.Р. и др. Рекогносцировка пунктов 10 ALMA и 9 SICR геодинамической сети центрально-азиатского региона (CATS). Материалы IX съезда Географического общества Республики Узбекистан, 12-13декабрь 2014.Ташкент.

8. Мирмахмудов Э.Р. О необходимости создания ГНСС полигона для республик Центральной Азии. Вестник науки и образования. Москва, 2020. №6 (84). Часть 1.
9. Ниязов В.Р. GNSSдан фойдаланиб худудни ўрганиш ва геодезик таянч пунктлар тўрини яратиш. “Ўзбекистонда география фанининг долзарб масалалари” республика илмий-амалий конференцияси материаллари. Термиз, 2020 йил.
10. Мирмахмудов Э.Р., Ниязов В.Р., Аралов М.М. Анализ точности геодезических пунктов топографических карт вблизи промышленных объектов // *Universum: технические науки : электрон. научн. журн.* 2021. 2(83). URL: <https://7universum.com/ru/tech/archive/item/11285> (дата обращения: 25.02.2021).
11. Мирмахмудов Э.Р., Ниязов В.Р., Аралов М.М. Проектирование геодезической сети сгущения в окрестности промышленных объектов // Вестник науки. Научный журнал. №5-1(7), С. 212-220.
12. Э.Р.Мирмахмудов, Э.Эгамбердиев, М.М.Аралов. Рекогносцировка пунктов геодезической сети в окрестности г. Карши. Современная наука в условиях модернизационных процессов: проблемы, реалии, перспективы. 2021. 261-267.
13. Аликулов, Ф., & Аралов, М. (2022). РЕЛЬЕФНИНГ РАҚАМЛИ МОДЕЛЛАРИНИ УЧУВЧИСИЗ УЧИШ АППАРАТЛАРИ ЁРДАМИДА ЯРАТИШ. *Innovatsion Texnologiyalar*, 1(4), 131–134. Retrieved from <https://ojs.qmii.uz/index.php/it/article/view/127>.
14. Aralov, M. M., Berdiyev, D. F., & Abdiaziziov, A. A. (2021). UCHUVCHISIZ UCHISH APPARATLARINI KARTOGRAFIYA SOHASIDA QO ‘LLASH TAMOYILLARI. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 1(3), 671-676.

SHAMOL ELEKTR STANSIYASIDA ISHLAB CHIQRILAYOTGAN ELEKTR ENERGIYASINI TEJASH

Javohir Boboqulov Saydulla o‘g‘li

Navoiy davlat konchilik va texnologiya universiteti

“Elektr energetikasi” kafedrası assistenti

Javohirsaydullayevich96@mail.ru

Otabek Xayrullayev Nurbek o‘g‘li

Navoiy davlat konchilik va texnologiya universiteti

“Elektr energetikasi” yo‘nalishi bakalavr talabasi

otabekxayrullayev77777@gmail.com

Ramazanov Bekzod Sheraliyevich

Navoiy davlat konchilik va texnologiya universiteti

“Elektr energetikasi” yo‘nalishi bakalavr talabasi

ramazanovbegzod23@gmail.com

ANNOTATSIYA

Shamol elektr stansiyalarini ishlab chiqarish va ulardan foydalanish bo‘yicha Germaniya jahonda etakchilik qilmoqda. Mazkur mamlakatda qisqa vaqt davomida 9000 MVt dan ziyod quvvatli Shamol elektr stansiyalar o‘rnatildi va bu jarayon jadal davom ettirilmoqda. Shamol elektr stansiyalarni ishlab chiqarish Germaniya va Daniya mamlakatlari eksportining salmoqli qismiga aylandi. Ayni vaqtda Yevropa mamlakatlari sanoatining Shamol elektr stansiyalar bilan bog‘liq tarmoqlarida 60 mingdan ziyod kishi doimiy ish bilan ta‘minlangan.

***Kalit so‘zlar:** Shamol, energiya, atmosfera, quvvat, o‘zgaruvcha tok, kuchlanish, chastota.*

ANNOTATION

Germany leads the world in the production and use of wind farms. For a short time in this country, wind farms with a capacity of more than 9,000 MW were installed, and this process is being rapidly continued. The production of wind farms has become a significant part of the exports of Germany and Denmark. At the moment, more than 60,000 people are constantly employed in the wind farm-related sectors of the industry of European countries.

Keywords: *wind, energy, atmosphere, power, variable current, voltage, frequency.*

KIRISH

Ba'zi mamlakatlarda shamol energetikasi sohasini maqsadli rivojlantirishga yo'naltirilgan tadbirlarga e'tibor qarataylik. 2020-yilga kelib, Germaniya 20 foiz elektr energiyasini Shamol elektr stansiyalar yordamida ishlab chiqarishni rejalashtirgan. Buyuk Britaniya, Norvegiya, Kanada, Hindiston, Yaponiya, Ispaniya, Yangi Zelandiya, Misr kabi mamlakatlarda yaqin kelajakda shamol energetikasi sohasini maqsadli rivojlantirish bilan bog'liq davlat rejalari ishlab chiqilgan[1,2]. Xalqaro Energetika Agentligi (IEA)ning taxminiga ko'ra, 2030-yilga kelib, sayyoramizda shamol energetikasiga bo'lgan ehtiyoj 4800 gigavattni tashkil etadi[3].

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYASI.

Endi shamol energetikasining ba'zi iqtisodiy va ekologik afzalliklari haqida to'xtalib o'tsak. Ishlab chiqarilayotgan elektr energiyasi tannarxining asosiy qismini Shamol elektr stansiyani qurishga sarflangan dastlabki xarajatlar tashkil etadi. Shamol elektr stansiya minorasining poydevori odatda to'laligicha yer ostida bo'ladi[2,5]. Bu hol o'sha joyda bemalol qishloq xo'jaligi mahsulotlari etishtirishda davom etish imkonini beradi. Shunday qilib, Shamol elektr stansiyalar uchun ajratilgan yer maydonlari ekinlar hosilining salmog'iga deyarli ta'sir qilmaydi. Eksploatasiya davomida Shamol elektr stansiyasi amalda hech qanday yoqilg'i talab etmaydi. Misol uchun, 1 MVt quvvatli Shamol elektr stansiya 20 yilda taxminan 29 ming tonna ko'mir

yoki 92 ming barrel neftni tejash imkonini beradi[4]. Boshqa energiya ishlab chiqaruvchilardan farqli holda ular zararli chiqindilar bilan tevarak-atrofni ifloslantirmaydi. 1 MVt quvvatli bunday Shamol elektr stansiyalar sayyoramiz atmosferasiga har yili chiqarilayotgan karbonat angidrid (CO₂) gazini 1800 tonnaga, sulfat oksidi (SO₂) gazini 9 tonnaga, azot oksidini 4 tonnaga qisqartiradi[5].

MUHOKAMA

Global Wind Energy Council tashkilotining hisob-kitoblarga asoslanib tarqatgan ma'lumotiga ko'ra, 2050-yilga kelib jahon shamol energetikasi atmosferaga chiqarilayotgan CO₂ gazining yillik hajmini 1,5 milliard tonnaga qisqartirar ekan. Shamol elektr stansiyalarning yana bir afzallik tomoni shuki, ular muayyan sharoitlarda qayta tiklanmaydigan boshqa energiya manbalari bilan raqobatlasha oladi. Eng muhimi, Shamol elektr stansiyasi uchun energiya manbai bo'lgan shamol tabiatan bitmas-tuganmasdir[1,5]. Zero, mutaxassislarning aniqlashlaricha, shamol energiyasi manbasi sayyoramizdagi barcha daryolarda mavjud suv energiyasi manbalaridan 100 marta ko'pdir. Yer sathidan 7-14 kilometr balandlikdagi shamol oqimlarining tezligi yer sathidagidan ko'ra 10-15 barobar yuqori va bu oqimlarning tezligi yil davomida deyarli o'zgarmaydi. Bu hol jahon shamol energetikasi istiqboliga ishonch bilan qarashga umid uyg'otadi[2,4].

NATIJA

Barcha sohalar kabi shamol energetikasini amaliyotga tadbqiq etish bilan bog'liq qator muammolar mavjud. Bu tabiiy hol. Zero muammolarsiz hech bir soha shakllanmagan va rivojlanmagan. Birlamchi, asosiy muammo bu shamolning beqarorligidir. Bunday beqarorlik shamol yo'nalishi va tezligining tez-tez o'zgarishida namoyon bo'ladi. Bu esa Shamol elektr stansiya quvvatining ba'zan salbiy o'zgarishi ehtimolini vujudga keltiradi. Bunday holda Shamol elektr stansiyalarning nisbatan lokal tarmog'ida muayyan quvvatdagi energiya ta'minotini uzatish mumkin bo'lmay qoladi. Shamol elektr stansiya tarmog'ining turg'un va barqaror ishlashini ta'minlash maqsadida akkumulyator batareyalaridan foydalaniladi. Ular Shamol elektr stansiya ishlab chiqargan elektr energiyasini to'playdi va bir maromda iste'molga uzatadi.

Ta'minot uzluksiz davom etishi uchun bu batareyalarni boshqa energiya manbalariga bog'lash zarurati mavjud. Bunday manbalar sifatida quyosh batareyalaridan foydalanish mumkin[3,5].

Bundan tashqari, dunyo aholisi sonining muttasil oshib borayotgani sababli energiyaga bo'lgan talabni mavjud energiya tizimlari ta'minlab bera olmaydigan vaziyat yuzaga kelmoqda. Shu bois BMT bosh kotibi Pan Gi Mun boshchiligida tuzilgan muvofiqlashtiruvchi guruh 2012-yilni «Barcha uchun xalqaro barqaror energetika yili» deb e'lon qilib, yangi global tashabbusni ilgari surdi. Tashabbus 2030-yilga borib uchta asosiy maqsadga erishishni mo'ljallagan: zamonaviy energetik xizmatlardan ommaviy foydalanishni ta'minlash; dunyo energoiste'molini 40 foizga pasaytirish; dunyoda qayta tiklanuvchi energiya manbalari ulushini 30 foizga oshirish[4,5].

XULOSA

Qayta tiklanuvchi muqobil energiya manbalaridan foydalanish istiqboli uning ekologik tozaligi, ekspluatatsiya qiymatining arzonligi bilan bog'liq. Yevropa komissiyasi hisob-kitoblariga qaraganda, 2020-yilga borib muqobil energiya sanoatida qo'shimcha 2,8 millionta ish o'rni yaratiladi. BMT ma'lumotlarida aytilishicha, birgina 2008-yilda butun dunyo bo'ylab ko'mir va neft ishlab chiqarish sohasiga 110 milliard dollar miqdorida sarmoya kiritilgan bo'lsa, muqobil energetika bilan bog'liq loyihalarga 140 milliard dollarlik investitsiya jalb etilgan. Ushbu mablag'ning 51,8 milliard shamol energetikasiga, 33,5 milliard quyosh energetikasiga, 16,9 milliard bioyoqilg'iga sarflangan. Yevropa davlatlari 2008-yilda muqobil energetikaga 50 milliard, Amerika - 30 milliard, Xitoy - 15,6 milliard, Hindiston - 4,1 milliard dollarlik sarmoya sarflagan.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Федоров А.А. Каменева В.В. Основы электроснабжения промышленных предприятий. М.: Энергоатлмиздат 1984.
2. Ермилов А.А. Основы электроснабжения промышленных предприятий. М.: Энергоатомиздат, 1983.
3. Гладилин Л.В. Основы электроснабжения горных предприятий. М.: Недра, 1980.
4. Конавалова Л.Л., Рожкова Л.Д. Электроснабжения промышленных предприятий и установок. М.: Энергоатомиздат, 1989.
5. Правила устройства электроустановок. М.: Энергоатомиздат, 1985.

“TARIXIY HARBIY TERMINLAR LUG‘ATI”NING TUZILISH PRINSIPLARI

Nilufar Laziz qizi Abdurahmonova

Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti 4-boqich talabasi

abdurahmonovanilufar33@gmail.com

ANNOTATSIYA

Maqolada harbiy terminologiya masalalari yoritilgan hamda H.Dadaboyev tomonidan tuzilgan “Tarixiy harbiy terminlar lug‘ati”ning tuzilish strukturasi bir qancha misollar asosida ochib berilgan.

Kalit so‘zlar: terminologik lug‘at, polisemiya, sinonimiya, istiloh, sitata.

ABSTRACT

The article covers issues of military terminology and the structure of “Tarixiy harbiy terminlar lug‘ati” written by H. Dadaboyev is revealed with several examples.

Key words: terminological dictionary, polysemy, synonymy, translation, quote.

KIRISH

Harbiy terminologiya – alohida toifaga kiruvchi harbiy tashkilot va turli harbiy xizmatchilar tomonidan qo‘llaniladigan so‘z, atama va qisqartmalar. Harbiy ish va harbiy san‘atga oid bo‘lgan, harbiy sohada ishlatilgan tushunchalarni ifodalovchi terminlar harbiy terminologiya asosini tashkil etadi.

Terminologik lug‘at esa faqat bir tor soha terminlarini tushuntirib berishi yoki bilimning turli xil, odatda, yondosh sohalari terminlarini qamrab olishi mumkin. Shu bilan birga, terminologik lug‘at bir tilli bo‘lishi (bir tildagi muayyan soha terminologiyasi jamlanib, uning izohi ayni shu tilda beriladi) yoki ikki, uch va ko‘p

tilli bo‘lishi (bir tilning terminlari boshqa til yoki boshqa tillar terminlari bilan izohlanadi) ham mumkin¹.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Hamidulla Dadaboyev qadimgi turkiy til, eski turkiy til hamda eski o‘zbek adabiy tili davrida iste’molda bo‘lgan harbiy sohaga oid terminlarni o‘zida mujassam etgan “Tarixiy harbiy terminlar lug‘ati” bilan terminologiya, leksikologiya, leksikografiya sohasiga ulkan hissa qo‘sha oldi, deyishimiz mumkin.

Mazkur lug‘atdan O‘rxun-Enasoy bitiklari, eski turkiy til obidalari va eski o‘zbek adabiy tili manbalarida qo‘llanishda bo‘lgan, hozirgi kunga kelib tarixiy yoki arxaik so‘zlar sirasiga kirib qolgan mingdan ortiq harbiy terminlar joy olgan, ularning ma’no nozikliklari aksariyat yodgorliklardan keltirilgan ashyoviy misollar yordamida ochilgan”²

NATIJALAR

Quyida “Tarixiy harbiy terminlar lug‘ati”ning struktur tuzilishini ko‘rib chiqamiz:

- Lug‘at maqolalari qat’iy alifbo tartibida joylashtirilgan;
- Termin tarkibidagi har bir tovush bosh harfda berilgan hamda har bir termin yirik qora harflar bilan terilgan: BEG, BEJANG, CHILG‘AN, DILOVAR;

- Lug‘atdan o‘rin olgan tasdiqlovchi misol-sitatalarning qaysi asarga oidligi, bet va satri, nashr qilingan manbalarning jildi va sahifasi aniq ko‘rsatilgan: BUZUG‘LUG‘// BUZUG‘LUQ – mag‘lubiyat, tumtaraqay bo‘lib qochish, parokandalik: Toshkand buzug‘lug‘ida Shayboniyxonning o‘g‘li Temur Sultong‘a tushub erdi, aning bir qizi bo‘lub edi. BN,69-b.

- Terminlarning etimologiyasi haqida aniq ma’lumotlar ko‘rsatigan: JAHD – ar. – tirishish, sa’y, g‘ayrat; NO‘YON – mo‘g‘ – amir, bek, no‘yon. Sof turkiy istilohlar hamda so‘z yasovchi affikslar yordamida yasalgan terminlar uchun etimologik tavsif keltirilmagan: BAYDAQ – bayroq, alam; DAQU – patsiz o‘q;

¹Мадвалиев А. Ўзбек терминологияси ва лексикографияси масалалари. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2017, 30-б.

² Dadaboyev H. Tarixiy harbiy terminlar lug‘ati –Toshkent, 2022, 3-b.

•Siniq ko‘plik asosida yasaluvchi istilohlarning ko‘plik (birlik) shakli qavs ichida berilgan: BALDA (ko‘pl. BILOD) – ar.– shahar; FAVJ (ko‘pl. AFVOJ) –ar.– to‘da, guruh, otryad;

•Lug‘atda fe‘llar infinitiv shaklda emas, bosh shaklda berilgan va har bir fe‘l-termin so‘nggiga “=” belgisi qo‘yilgan: O‘LJALA= – o‘lja qilmoq, qo‘lga tushirmoq; asir etmoq; QATRA= –nayza sanchmoq;

•H. Dadaboyev sharq lug‘atchilik an‘analarini davom ettirgani holda imkoni boricha istilohning barcha ma‘nolarini qayd etishga harakat qilgan. Xususan, “Tarixiy harbiy terminlar lug‘ati”dagi 79 ta istiloh ko‘p ma‘nolilik xususiyatiga ega bo‘lib, ularning ma‘nolari arab raqamlari bilan belgilanganligi aniqlandi: MASOF –ar.– 1.jang maydoni, jangoh; 2. jang, urush; MUHASSIL –ar.– 1.nazoratchi; 2.xiroj yig‘uvchi, omil; QO‘NDAQ – 1. miltiq qo‘ndog‘i; 2. to‘p, zambarak qo‘ndog‘i(lafet); SANCh – 1. sanchmoq, tiqmoq, urmoq; 2. mag‘lub etmoq, yengmoq;

•Ma‘lumki, terminologiyada polisemiya va sinonimiya hodisalarining mavjud bo‘lishi ma‘qullanmaydi. Biroq shunga qaramasdan, qator terminologik sistemalarda muayyan narsa-buyum yoki tushunchani ifodalashda ba‘zan ikki yoki undan ortiq sinonim(dublet)lardan foydalanish ko‘zga tashlanadi¹. Mazkur lug‘atda sinonimlar lug‘atdan keng o‘rin olgan bo‘lib, bu, asosan, turkiy xalqlarning tashqi aloqasi, harbiy faoliyati natijasida leksikaning o‘zlashmalar bilan boyib borishi hamda davrlar o‘tishi bilan bir terminning iste‘mol sur‘ati pasayib, o‘rnini boshqa biri egallashi bilan bog‘liqdir. Asli xitoy tilidan o‘zlashgan JANG terminining lug‘atdan 26 ta sinonimi o‘rin olgan bo‘lib, ular arabcha (harb, hayjo, muqotala, masof, ma‘raka, muzoraba, jidol, jadal, qitol, zarb), forsha (korzor, nabard, paykor, parxosh, razm, sitez) o‘zlashmalar hamda turkiy (urush, savash, muhoraba, kurash, ish, sanchish, sungush// sunus, talash, to‘qush// to‘qish, yog‘i// yag‘i) istilohlarni o‘z ichiga oladi.

•Lug‘atshunos omonimlarning har qaysisini alohida maqolalarda bosh so‘z tarzida bergan va rim raqamlari bilan bir- biridan farqlagan. Shuningdek, bir so‘z turkumi doirasida shakldoshlik hosil qilgan terminlargagina omonim sifatida qaralgan

¹ Dadaboyev H. O‘zbek terminologiyasi. O‘quv qo‘llanma. – Toshkent: Nodirabegim, 2019, 7-b

bo‘lib, jami 11 ta termin ma‘nosi izohlangan. Ularni shartli ravishda 2 guruh (fe‘l va ot so‘z turkumi doirasidagi omonimlar)ga bo‘lish mumkin.

•Lug‘at maqolalari orasida bosh so‘zi yolg‘iz ishlatilmasdan birikma tarkibidagina qo‘llanilgan terminlar bo‘lsa, bosh so‘zdan keyin “ : “ (ikki nuqta) qo‘yilib, birikmadagi holati sharhlangan. Lug‘atda shunday xarakterga ega 19 ta termin izohlangan.

•Lug‘atni tuzishda Древнетюркский словарь. Л.,1969.; Девону луғотит турк. Нашрга тайёрловчи С.Муталлибов. Т. I-III.- Тошкент, 1960- 1963; Веляминов-Зернов. Словарь джагатайско-турецкий. -СПб., 1868; Будагов Л.З. Сравнительный словарь турецко-татарских наречий. Т. I-II.-СПб., 1869, 1871; Радлов В.В. Опыт словаря тюркских наречий. Т. I-IV. -СПб., 1893-1911; Фазылов Э.И. Староузбекский язык. Хорезмийские памятники XIV века. Т. I-II. –Ташкент: Фан, 1966, 1971; Наджип Э.Н. Историко-сравнительный словарь тюркских языков XIV века. Книга I. -М., 1979; Севортыян Э.В. Этимологический словарь тюркских языков; Общетюркские и межтюркские основы на гласные.- М., 1974; Gronbech K. Komanisches Wörterbuch. Türkisches Wortindex in Codex Cumanicus.- Kopenhagen,1942; Doerfer G. Türkische und mongolische Elemente im Neupersischen. Bd. I-IV.-Wiesbaden, 1963-1975; Алишер Навоий асарлари тилининг изоҳли луғати. Т. I-IV.-Тошкент: Фан, 1983- 1985 va h. k.¹ manbalardan foydalanildi.

XULOSA

“Tarixiy harbiy terminlar lug‘ati” – o‘zbek tarixiy leksikografiyasi, umuman, turkologiyadagi eng muhim izlanishlardan biridir. Ushbu lug‘at tarixiy asarlarning mohiyatini ochish, tarixiy leksikologiyani o‘rganish, hozir tilimizda mavjud bo‘lgan harbiy sohaga tegishli so‘zlar eski o‘zbek adabiy tili davriga qadar qanday istiloh bilan qo‘llanilganligini aniqlash imkonini beruvchi nodir ilmiy manba hisoblanadi. “Tarixiy harbiy terminlar lug‘ati” qadimgi turkiy til, eski turkiy til va eski o‘zbek adabiy tili davrida ma‘lum bir guruhga mansub kishilar tomonidan keng qo‘llanilgan, hozirda esa

¹ Dadaboyev H. Tarixiy harbiy terminlar lug‘ati –Toshkent, 2022, 5-b

iste'moldan chiqqan yoki arxaiklashib, o'rini boshqa so'zlarga bo'shatib bergan istiloh – terminlar asosida tuzilgan hamda lug'at tuzish prinsiplariga qat'iy rioya qilingan holda tartiblangan.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Dadaboyev H. O'zbek terminologiyasi. O'quv qo'llanma. – Toshkent: Nodirabegim, 2019.
2. Dadaboyev H. O'zbek adabiy tili leksikasi tarixi. (XIV asrning ikkinchi yarmi – XX asr boshi) Hammuallif. -Toshkent, 2007.
3. Normamatov S. Leksikografiya asoslari. O'quv qo'llanma. – Toshkent – 2020.
4. Мадвалиев А. Ўзбек терминологияси ва лексикографияси масалалари. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2017.

KALIFORNIYA QIZIL CHUVALCHANGI (*LUMBRICUS RUBELLUS*) DAN BALIQCHILIKDA MUQOBIL OZIQA SIFATIDA FOYDALANISH

Muhammadiyev M.A

Farg'ona davlat universiteti o'qituvchisi

Davronov O.O

Farg'ona davlat universiteti magistr talabasi

Madumarov S.R

Farg'ona davlat universiteti magistr talabasi

ANNOTATSIYA

*Ushbu maqolada baliq yetishtirishda kaliforniya qizil chuvalchangi (*Lumbricus rubellus*) dan muqobil ozuqa sifatida foydalanish mumkinligi bayon etilgan bo'lib, bu tadbirkor va fermerlar uchun baliq mahsuloti yetishtirishda sifatli ozuqaga bo'lgan ehtiyojni bir qancha yengillashtiradi va qo'shimcha daromad olishga imkoniyat yaratadi.*

***Kalit so'zlar:** qizil chuvalchang, ingredient, protein, ekstensiv, intensiv, biogumus, monokultura, polikultura.*

KIRISH

Bugungi kunda yurtimizda baliqchilik bilan shug'ullanayotgan juda ko'p tadbirkor va fermer xo'jaliklar baliq yetishtirishning ekstensiv usulidan foydalanishmoqda. Intensiv usulda baliq yetishtirayotgan tadbirkorlar sonining kamligiga asosiy sabablardan biri bu usulda baliq yetishtirish uchun qo'shimcha oziqaga bo'lgan talabning yuqoriligi va bu oziqalarni mahalliy ishlab chiqarishda zamonaviy metod va mexanizmlarning keng yo'lga qo'yilmaganligidir.

Oziqa baliqlarning o'sishi va yetilish muddatiga bevosita ta'sir qiladigan bo'lsa, baliq mahsulotining bozordagi narxiga bilvosita ta'sir ko'rsatadi. Ya'ni agar tadbirkor yoki fermer baliq yetishtirishda xorijda ishlab chiqarilgan oziqa mahsulotlaridan foydalansa bu ular uchun qimmatga tushadi va shuning hisobiga yetishtirilgan mahsulot narxi ham oshib boradi. Buning o'rniga baliq yetishtiruvchilar mahalliy manba va mahsulotlardan foydalangan holda baliq yetishtirib uni bozorga olib chiqsa bu xaridor uchun ham tadbirkor uchun ham qulay narxda bo'lishiga imkon yaratadi.

Baliqchilikda qo'llaniladigan oziqalar tabiiy va sun'iy bo'ladi. Tabiiy oziqalarni suv havzalaridagi suv o'simliklari, fitoplankton va zooplankton organizmlar tashkil etadi. Hovuzlarda ularni rivojlantirish uchun mineral va organik o'g'itlardan foydalaniladi. Sun'iy oziqa bu turli xil ingrediylardan foydalangan holda, baliq turiga qarab, uning oqsilga bo'lgan talabini inobatga olgan holda balanslashtirib omixta yem tayyorlash xisoblanadi. Sun'iy oziqadan asosan intensiv usulda baliq yetishtirishda foydalaniladi. Oziqa turiga ko'ra baliqlar zooplankton (hasharotlar lichinkalari, mayda qisqichbaqasimolar, kolovratkalar va boshqalar) fitoplankton (suv o'tlari) va yirik suv o'simliklari bilan oziqlanishi mumkin. Laqqa kabi baliqlar esa hammaxo'r baliq hisoblanib oziqa tanlamaydi. Umuman hamma baliqlar oziqasi tarkibida oqsil, yog', uglevod, vitamin va mineral moddalar bo'lishi kerak. Proteinlar (oqsil)-tirik materiyaning asosiy tarkibiy qismi bo'lib, baliq tanasidagi organik moddaning katta qismini tashkil etadi. Proteinlar baliq organlari va to'qimalarining o'sishidagi eng muxim moddadir. Ular hayot siklining barcha bosqichlarida juda kerakdir. Oqsillar fermentlar va garmonlar manbai sifatida ham muhim ahamiyatga ega. Baliqlarning proteinlarga bulgan ehtiyoji boshqa qishloq xo'jaligi hayvonlariga qaraganda ancha yuqori. Shuning uchun baliqlarni qo'shimcha oziqlantirganda yoki mahsus yem bilan parvarishlaganda yem tarkibiga alohida e'tibor qaratish kerak.

Bugungi kunda yurtimizda biogumus yetishtirish keng yo'lga qo'yilgan bo'lib, ko'plab tadbirkor va fermerlar bu ish bilan shug'ullanish orqali yaxshigina daromad olmoqda. Biogumus olishda asosiy vazifani Kaliforniya qizil chuvalchangi (*Lumbricus rubellus*) bajaradi. Shuni ham e'tiborga olish kerakki kaliforniya qizil chuvalchaglari

oqsilga boy bo'lgan baliqlar uchun juda foydali oziqa bo'la oladi va ulardan baliq yetishtirishda foydalanish o'z samarasini beradi. Chuvalchang tarkibidagi aminokislotalar boshqa go'sht mahsulotlari bilan deyarli bir xil lekin tarkibidagi vitaminlar, fermentlar va mineral moddalari bo'yicha baliqlar uchun boshqa go'sht mahsulotlaridan foydali hisoblanadi. Monokultura usulida baliq boqishda parvarishlanayotgan tovar baliqqa chuvalchangni maxsus maydalagichda maydalab, yoki oqsil unidan hovuzga solinadi. Polikultura usulida baliq yetishtirishda hovuz yoki ko'lda ham hammaxo'r ham o'txo'r baliq boqish juda samarali hisoblanadi. Masalan Oq do'ngpeshona baliq turini polikulturada karp va oq amur bilan birgalikda yetishtirish. Bunda Oq do'ngpeshona baliq uchun hovuzga faqat o'g'it solish yetarli sababi bu baliq fitoplankton bilan oziqlanishi bo'yicha eng ko'p yetishtiriladigan baliq hisoblanadi. O'g'it sifatida esa biogumusdan ham foydalanish mumkin. Karp (sazan) va oq amur uchun esa chuvalchangdan foydalanish yoki uni yem tarkibiga qo'shib berish mahsulдорlikka sezilardi darajada ta'sir etadi. Bundan ko'rinib turibdiki, polikultura usulida baliq yetishtirishda kaliforniya qizil chuvalchangidan va biogumusdan foydalanish mumkin. Chuvalchang oqsil unini ishlab chiqarishda chuvalchaglarning massasi substratdan elakdan o'tkaziladi, yuviladi, quritiladi va keyin maydalanadi. Aminokislotalar to'plamiga ko'ra, bu un go'shtga yaqin, ammo u sezilarli darajada ko'proq muhim aminokislotalarni o'z ichiga oladi. Parranda go'shti ratsioniga chuvalchang uni qo'shganda, qo'yiladigan tuxum soni 25% ga oshadi. Baliqlarning qurtlar bilan oziqlanganda o'sishi 33,5% ga yetadi. Qizil chuvalchang unini akvariumlarga maxsus pasta shaklida qo'shiladi, oddiy va tropik baliqlar bunday yuqori yemni juda yaxshi ko'radilar. **Quyidagi jadvalda Klaiforniya qizil chuvalchangi (*Lumbricus rubellus*) tarkibidagi aminokislotalar soni va miqdori foizlarda keltirib o'tilgan:**

№	Lumbricus rubellus	%	№	Lumbricus rubellus	%
	AMINOKISLATALAR			AMINOKISLATALAR	
1	Fenilalanin	0,45	10	Tirozin	0,43
2	Valin	0,52	11	Asparagin kislata	0,98
3	Metionin	0,35	12	Glutamin kislata	1,52
4	izoleysin	0,47	13	Serin	0,54
5	treonin	0,45	14	Glitsin	0,35
6	gistidin	0,63	15	Alanin	0,32
7	Arginin	0,56	16	Prolin	0,54
8	leysin	0,54	17	lizin	0,51
9	Sistein	0,31			

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, baliqchilik tarmog'ini rivojlantirishda intensiv usulda baliq yetishtirish muhim ahamiyatga ega. Bu usuldan to'liq va samarali foydalanishda esa baliqlar mahsus yemini ishlab chiqish va tadbirkor hamda fermerlarga yetkazib berish masalasini xal etish talab etiladi. Tan olish kerakki bugungi kunda yurtimizda mahsus yem ishlab chiqaruvchi korxonalar tashkilotlar faoliyati keng yo'lga qo'yilmaganligi sababli bunda yemlarni xorijdan sotib olishga to'g'ri kelmoqda. Biz taklif etayotgan usul ham qaysidur ma'noda ushbu yemlarning o'rnini bosa oladi desak mubolag'a bo'lmaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Qurbonov A.R. Istiqbolli baliq turlarini yetishtirish. Toshkent, 2017.
2. Qurbonov R.B., Xalpayev I.I. O'zbekiston Respublikasi mintaqalarida intensiv baliq yetishtirish bo'yicha tavsiyalar. Toshkent, 2011.
3. Husenov S.Q., Niyozov D.S., Sayfullayev G'.M. "Baliqchilik asoslari". Buxoro, 2010.
4. Jumaboyev B.Ye, Aslonova Sh.A "Hovuz baliqchilik xo'jaliklarini tashkil qilish" Navoiy davlat pedagogika instituti ilmiy axborotnomasi . 2016
5. <https://Vogorode.pro>.

O‘ZBEK ADABIYOTIDA MUXAMMAS JANRINING O‘RGANILISHI

Fayziyeva Gulshan Hayitovna

BuxDU o‘zbek adabiyoti mutaxassisligi 2-bosqich magistranti

g.h.fayziyeva@buxdu.uz

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada istiqlol davri adabiyoti muxammaslarining xususiyatlari o‘rganilishi, istiqlol davrida muxammas janrida samarali ijod qilgan ijodkorlar va ularning ijodiy na‘munalari tahlili yoritilgan.

Kalit so‘zlar: *tazmin muxammaslar, tab‘i xud, qofiya, ijtimoiy tuzum, obraz.*

Muxammas janri haqidagi ma‘lumotlarni Rashididdin Vatvot, Qays Roziy, Tabriziy, Qabul Muhammad, Atoulloh Husayniy asarlarida ham uchratishimiz mumkin. Musammatlar tarkibiga kiruvchi muxammaslar haqida E.Bertels, A.Hayitmetov, R.Majidiy, O.Sharofiddinov, tojik adabiyot vakili M.Gulizoda, turkman adabiyot vakili A.Meredov kabi olimlar tadqiqotlarida ham ko‘ramiz.

Muxammas musammat tarkibiga kiruvchi arab-fors she‘riyati, aruz vazni orqali turkiy adabiyotga kirib kelgan lirik janr. Bizga ma‘lumki, lirik janrlar tuzilishiga ko‘ra ikkiga bo‘linadi: kichik lirik janrlar va katta lirik janrlar. Kichik lirik janrlarga qit‘a, fard, ruboiy, muammo kabi janrlar kirsa, katta lirik janrlarga g‘azal, tarjiband, tarkiband, musammat kabilarni kiritishimiz mumkin. Bundan ko‘rinib turibdiki, muxammaslar katta lirik janrlar sirasiga kiradi.

Adabiyot olamida lirik janrlarda mahorat ko‘rsatib, uning rivojiga o‘zining munosib hissasini qo‘shgan ijodkorlar bor. Misol uchun arab ijodkori Al-Xansa marsiyada, Rudakiy qasidada, Ibn Yamin, Anvari qit‘ada, Burxoniddin Ahmad turkiy tuyuqda, Monuchehri va Qatron Tabriziyalar esa musammat janrining rivojiga katta hissa qo‘shganlar.

Muxammas haqida Atoullloh Husayniy o‘zining “Badoyyiu-s-sanoyi” asarida quyidagicha ma’lumotlarni bergan:

To‘rt misrani bir qofiyada keltirib, beshinchisini o‘zak qofiyada berurlar va muni muxammas derlar, andoqkim:

*Gavharafshon shud bar atrof-i chaman dast-i sahob,
Vaz zumurrad sar birun zad g‘uncha chun yoqut-i nob,
To tovoniy rav kunun chun lola shav jom-i sharob,
Varneh bore har shabe ro‘ poyi gul mastu xarob,
Bo surohiy ta sahargah dast dar og‘ush kun!¹*

O‘zbek adabiyotida muxammas janrining rivojini Navoiy nomi bilan izohlash mumkin. G‘azal va qasidalarning ta’siri natijasida muxammas janri paydo bo‘ldi. Tazmin muxammaslarning vujudga kelishi Navoiy bilan bog‘liq. Navoiydan so‘ng bu janrning rivojiga Turdi Farog‘iyning o‘rni beqiyos. U muxammasning yangi shakli hajviy muxammaslarni yaratdi. Muxammas janrini yaratish Ahmad Tabibiy an‘analari asosida paydo bo‘ldi desak mubolag‘a bo‘lmaydi. O‘sha davrda muxammas janriga asoslangan she’riy maktublar ham paydo bo‘ldi. Turdi Farog‘iydan so‘ng bu janr rivojiga salmoqli hissa qo‘shgan ijodkorlar sifatida Maxmur va Muqimiylarni aytish mumkin. Hajviy va yumoristik muxammaslarning yaratilishi ularning nomi bilan bog‘liq. Bu janrning rivoji Ogahiy katta hissa qo‘shadi. Uning “Taviz-ul oshiqin” devonida 82 ta muxammasi mavjud.

Hozirgi davr tadqiqotlariga asoslanadigan bo‘lsak, musammatlarning eng keng tarqalgan shakli bu muxammaslardir. Olim Sharafiddinov o‘zining tadqiqotlarida musammatlar tarkibiga kiruvchi muxammas janri haqida to‘xtalib, o‘z fikrlarini bildiradi. Musammatlar ichki muayyanlik, qat’iy mavjudligini, uning uch banddan o‘n bandgacha bo‘lgan turli formasi bo‘lib, texnik jihatdan, har bir turda birinchi strofa qofiyadosh bo‘lib, keyingi strofalarning so‘ngi misralari birinchi band bilan

¹Атоуллох Хусаиний ,Бадойтъу –с –санойиъ,Тошкент,1981,73-бет.

qofiyadosh bo'lishi, keyingi strofalarning qolgan misralari o'zaro qofiyadosh bo'lishi shartligini ko'rsatib o'tgan¹.

Muxammasda bandlar muhim rol o'ynaydi. Har bir band o'zaro bog'liqlikda bo'ladi. Vazn, qofiya, ritmlar bilan birgalikda misralar ham asosiy o'rinni egallaydi. Muallif biror fikrni yuqori baytlarda bayon qilib, keyingi baytlarda shu fikrni rivojlantiradi.

Ahmad Tabibiy muxammaslardan iborat majmua yaratadi. To'rt yuzdan ortiq muxammaslar yozadi va muxammasga quyidagicha ta'rif beradi:

*Muxammas yaxshiroq ash'ordur,
Tariki hammaga nomudordur...
Qo'shulg'onda chun ikki shoir so'zi,
Malohatlik o'lg'usi nuqta tuzi.*

Ijodkor misra so'ngida uni go'zal maqolot deya ta'rif beradi.

Adabiyotshunos Nodira Afoqova o'zining "Jadid lirikasida musammat" risolasida muxammaslar haqida ma'lumotlar berib, jadid adabiyotida yaratilgan muxammaslar, ularning tuzilishi va badiiyatiga diqqat qaratadi.

Musammat turlari ichida muxammaslar nisbatan ko'p yaratildi. Jadid shoirlari tomonidan taxmislar asosan ishqiy, tasavvufiy, didaktik mavzudagi g'azallar asosida bitilgan bo'lib, bu holning sababi o'z-o'zidan tushunarlidir. Jadid taxmislarida ularning mualliflari yashagan zamon manzaralari ham qalamga olinadi.

Tabi' xud muxammaslarining ko'pchiligi jadid lirikasi uchun xarakterli bo'lgan mavzulardan bahs etadi. Bunday muxammaslarning ko'pchiligi sarlavhalangan. Sarlavhalar muallif poetik maqsadini ko'rsatuvchi vosita sifatida namoyon bo'ladi².

Ushbu risolada jadid muxammaslarining o'ziga xosligi, taxmis va mustaqil muxammaslar, muxammas sarlavhalari, mavzusi haqida ma'lumotlar beriladi. Ushbu ma'lumotlarni izohlash uchun Sidqiy-Xondayliqiy, Kamiy, Avloniy, Hamza, Ajziy, Majidiy kabi ijodkorlarning muxammaslari tahlil etiladi.

¹ Sharafiddinov O. Alisher Navoiy poetikasining ba'zi bir xususiyatlari // O'zbek tili va adabiyoti 1968, 4-son, 54-bet

² Afoqova N. Jadid lirikasida musammat. – T.: Fan, 2005. 9-bet.

Muallifning tahlili davomida A.Majidiyning “Xushomadgo‘y va maqtanchoq mudir” hajviy muxammasi sof diologik usulda, Hamzaning bir muxammasi ham savol-javob tarzida bitilgan bo‘lib, garchand Hamza buni muxammas deb nomlagan bo‘lsa ham, bu ijod namunasi dostonga o‘xshashi ta’kidlanadi.

Muxammas 25 band, jami 125 misradan iborat. Boshqa manbalarni solishtiradigan bo‘lsak, Hamzashunos olim Laziz Qayumov ham ushbu muxammas muhabbat haqida bitilgan doston ekanligini aytadi. Bunday hajmdorlik bilan dostonga o‘xshab ketadi. Balki, doston janrining rivojiga aynan shu janr sababchidir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Атоуллох Хусаиний , Бадойтъу –с –санойиъ, Тошкент, 1981, 73-бет.
2. Sharafiddinov O. Alisher Navoiy poetikasining ba’zi bir xususiyatlari \ O‘zbek tili va adabiyoti 1968, 4-son, 54-bet
3. Boboyev T. Adabiyotshunoslik asoslari.-Toshkent: O‘zbekiston, 2002
4. Quronov D., Mamajonov Z., Sheraliyeva M. Adabiyotshunoslik lug‘ati – Toshkent :Akademnashr , 2010
5. Afoqova N. Jadid lirikasida musammat. – T.: Fan, 2005. 9-b
6. Adashboyev T. , Musurmon R. Istiqlol ilhomlari. –Toshkent,: Adabiyot va san’at nashryoti. 2001.
7. Samandar Vohidov Buxoriylar bo‘stoni. –Toshkent,: Yozuvchi.1998.
8. Jamol Kamol Bosh ustina, bosh ustina -Toshkent,: Sharq . 2016

DISPLAY OF JOY'S MULTIDIMENSIONALITY IN ENGLISH PHRASEOLOGICAL UNITS-MOTIVES

Kutlimuratova Shakhsanem Bayramovna

Uzbek state world languages university

ABSTRACT

This work is devoted to the study of the means of phraseological representation of emotive concepts in Russian and English on the example of the concept "joy". The work was carried out within the framework of cognitive phraseology, a modern direction linguistics, and is aimed at investigating the problem of the relationship between linguistic units and cognitive structures of knowledge representation in the aspect of phraseological conceptualization of selected emotions.

Key words: *Linguistics, concept, phraseology, joy, happiness, cognitive, structure, world picture, emotion.*

The English language has a thousand-year history. During this time, a large number of expressions have accumulated in it, which people found successful, accurate and beautiful. This is how a special layer of language emerged – phraseology, a set of stable expressions that have an independent meaning. Learning English is widespread in our country. A good knowledge of the language, including English, is impossible without knowledge of its phraseology. Knowledge of phraseology makes it extremely easy to read both journalistic and fiction literature. Reasonable use of phraseological units makes speech more expressive. With the help of phraseological expressions that are not translated verbatim, but are perceived reinterpreted, the aesthetic aspect of the language is enhanced.

The experience of emotional states of joy and happiness is reduced to the general semantics of "elated mood". Joy causes a person to have a cheerful mood, he

experiences a state of pleasure, inner satisfaction. Happiness causes a strong surge of joy when a person experiences a state of the highest satisfaction, inner harmony with the world. Happiness is closely related to joy

The state of happiness and joy is also transmitted to the FAIRY through the image of the sky of extraordinary height and purity, the perfection of which is expressed by the numerals seven, less often nine: to be in the seventh heaven of happiness, the head reaches to the sky; from earth to heaven – to be very happy; to be at the top of bliss in HEAVEN and be in seventh heaven – to be on the seventh heaven of happiness; feel on the top of the world – to be on top of happiness (lit. feel on top of the world); on cloud seven (or nine) – infinitely happy, in the seventh heaven; the dizzy height – a dizzying height, a great success in English.

Happiness can be judged by the sparkle in the eyes: the eyes laugh – shine with joy – about the eyes; the eyes and soul open – have fun in the eyes and be bright-eyed and bushy tailed – be full of energy and strength (letters. be with bright eyes and a fluffy tail) in English. PhU with the "eyes" component are significantly more represented in the Russian than in the English.

Both in the Russian and in the English, PhU have been identified, the basis of which is related to the image of a rose, pink, red and white flowers: to live like a rose – to spend happy days; to see everything, the world in pink light (color); paradise (pink) in the garden and a bed of roses – a serene, happy life (lit. bed of roses); see (look) through rose-colored glasses – look through rose-colored glasses; red-letter day – red calendar day, festive, happy day; the white hen's chock – lucky (lit. white chicken chicken) in English.

In the figurative basis of the following PhU of this subgroup, the soul and the heart are basic metaphors: to add a soul to the soul – to please; to make it is pleasant to the soul – to please, to give pleasure; to stroke the soul – to please; to rejoice (rejoice) in the soul. PhU with the image of the soul were revealed only in the Russian.

Interesting is the fact that the same state the concept of "cold" conveys joy in Russian, and "warm" in English. This is explained by the background of the occurrence

of a joyful feeling. If in the first case a person finds a state of joy after a certain negative tension, i.e. we are talking about a change of emotional state, then in the latter there is only a positive moment.

We have briefly characterized the figurative-symbolic dominants of Russian and English languages underlying the internal form of phraseological units that implement the conceptual opposition "joy".

Russian and English phraseology conceptualize the emotions studied in many ways the same (cognitive metaphor "top/ bottom", components "heavenly space", "heart", "gold"), but it is also possible to trace the national-specific components (associations with the elements water / air, color characteristics).

BIBLIOGRAPHY

1. Askold-Alekseev S.A. Concept and word // Russian speech. New series. L., 1928. - pp. 28-44.
2. Babenko, L.G. Lexical means of indicating emotions in the Russian language / L.G. Babenko. - Sverdlovsk: Publishing House of the Ural State University, 1989. - 184 p.
3. Babushkin A.P. Types of concepts in lexical and phraseological semantics of language / A.P. Babushkin. Voronezh: Voronezh Publishing House, State University, 2006. - 103 p
4. Babushkin, A.P. Types of concepts in lexical and phraseological semantics of language, their personal and national specifics : abstract of the dissertation of Doctor of Philology / A. P. Babushkin. Voronezh, 2008. – 41
5. <http://elar.uspu.ru/bitstream/uspu/13326/2/2020archayaig.pdf>
6. <https://cyberleninka.ru/article/n/frazeologizmy-vyrazhayuschie-sostoyanie-radosti-v-russkom-angliyskom-i-tatarskom-yazykah>

DISPLAY OF JOY'S MULTIDIMENSIONALITY IN ENGLISH PHRASEOLOGICAL UNITS-MOTIVES

Kutlimuratova Shakhsanem Bayramovna

Student of master's degree of Uzbek state world languages university

ABSTRACT

This work is devoted to the study of the means of phraseological representation of emotive concepts in Russian and English on the example of the concept "joy". The work was carried out within the framework of cognitive phraseology, a modern direction linguistics, and is aimed at investigating the problem of the relationship between linguistic units and cognitive structures of knowledge representation in the aspect of phraseological conceptualization of selected emotions. Here you can find a number of phraseological units and their meanings.

Key words: *Linguistics, concept, phraseology, joy, happiness, cognitive, structure, world picture, emotion.*

Phraseology is a branch of linguistics that studies stable combinations in a language. Phraseology is also called a set of stable combinations in the language as a whole, in the language of a writer, in the language of a particular work of fiction, etc. Phraseology emerged relatively recently as an independent linguistic discipline. The subject and tasks, scope and methods of studying phraseology have not yet been clearly defined, and therefore have not received full coverage. Less than others, questions have been developed about the main features of phraseological units in comparison with free phrases, about the classification of phraseological units and their relationship to parts of speech, etc. Linguists have not formed a single opinion about what phraseology is, therefore, there is no unity of views on the composition of these units in the language.

The system of ideas about the world that a person develops throughout his life is gradually enriched with new knowledge that is formed into general concepts. This set consists of concepts, since a person in the process of activity and communication thinks and acts in the world of concepts that have certain characteristics and properties. The concept is the object of study of a number of sciences, such as cognitive linguistics, cultural studies, linguo-cultural studies, political science, sociology and ethnopsychology. Linguoculturology considers a set of basic concepts that collectively characterize the manifestations of culture in language and allow analyzing the relationship of language with culture in development. Currently, the concept is one of the basic concepts of linguoculturology.

Emotions are a specific way of reflecting the active process of human interaction with reality, as a result of which he has experiences that convey his individual attitude to certain realities of reality. Joy is a positive emotional state associated with social interactions, overcoming obstacles, achieving goals, and being able to satisfy needs

Phraseological units are an integral part of any language and are reflected in a person's life, the characteristics of his character, physical and emotional state. In conclusion, it can be concluded that most of the phraseological units expressing a state of joy in Russian and English are equivalent and have similar features in the components that make up the internal form of phraseological units, in full or partial coincidence of the image, in the presence of common standards and stereotypes, which indicates the universality of human thinking.

Phraseomatic meaning, according to A.V. Kunin, is invariant of information expressed by means of discrete language units, having non-transferred but complicated meanings.

There are some phraseologism about happiness and their definitions with examples:

over the moon

To be over the moon about something is to be very happy about something: so happy and excited that you imagine you could jump or fly over the moon!

We feel over the moon about the birth of our grandson.

on cloud nine

If you are on cloud nine you are extremely happy.

News headline: Nintendo 3DS users on Cloud 9 after free Wi-Fi deal announced.

in seventh heaven

To be in seventh heaven is also to be extremely happy, or in a state of bliss. In Islamic and Jewish faith there are seven heavens: the seventh is the dwelling place of God and the angels.

Take That fans were in seventh heaven when Robbie Williams agreed to rejoin the band on top of the world

If you are on top of the world you are enjoying great happiness, health or success.

My job is going well and I have a wonderful family: I feel on top of the world!

Good knowledge of the language is impossible without knowledge of its phraseology. Reasonable use of phraseological units makes speech more idiomatic. Unfortunately, there are few works in the English and American linguistic literature specifically devoted to the theory of phraseology, but even the most significant works available.

BIBLIOGRAPHY

1. Kunin A.V. Course of phraseology of modern English. -M "High school", 1996, 380h.
2. Фразеологический словарь русского языка/ сост. Степанова М.И «ООО Виктория плюс» 2012г
3. <https://core.ac.uk/download/pdf/197412638.pdf>
4. <https://applied-research.ru/ru/article/view?id=7212>

BACHADON BO‘YNI O‘SMALARI

Qodirova Madinabonu Mirzamaxmud qizi

Toshkent tibbiyot akademiyasi

ANNOTATSIYA

Bachadon bo‘yni kasalliklarida bachadon bo‘yni raki o‘lim sababi tariqasida ayollarda uchraydigan xavfli o‘smalar orasida 7-8 o‘rinda turadi. Epiteliy ichidagi rak aksari 30 yoshli ayollarda uchrasa, invaziv rak 40 yoshli va undan katta ayollarda uchraydi. Ushbu kasallikni gistologik tuzilishini bilish rakning qaysi bosqichda ekanligini aniqlashga imkon beradi. Jarayonni erta bosqichlarida aniqlash esa ayollar o‘rtasidagi o‘lim xavfini kamaytirishga, davo choralarini qo‘llashga imkon beruvchi omil hisoblanadi.

Kalit so‘zlar: *Malignizatsiya, adenokarsinoma, qo‘ziqorinsimon rak, giperxrom, polimorf.*

АННОТАЦИЯ

Рак шейки матки занимает 7-8 место среди самых опасных опухолей у женщин как причина смерти. Большинство внутриэпителиальных видов рака возникает у женщин в возрасте 30 лет, тогда как инвазивные виды рака возникают у женщин в возрасте 40 лет и старше. Знание гистологической структуры этого заболевания позволяет определить стадию рака. Выявление процесса на ранних стадиях является фактором, позволяющим снизить риск летального исхода у женщин, применить лечебные мероприятия.

Ключевые слова: *Злокачественность, аденокарцинома, грибовый рак, гиперхромный, полиморфный.*

ABSTRACT

Cervical cancer is the 7-8th most dangerous tumor in women as a cause of death. Most intraepithelial cancers occur in women in their 30s, while invasive cancers occur in women in their 40s and older. Knowing the histological structure of this disease allows you to determine the stage of cancer. Identifying the process in the early stages is a factor that allows to reduce the risk of death among women, and to apply treatment measures.

Key words: *Malignancy, adenocarcinoma, fungal cancer, hyperchromic, polymorphic.*

Bachadon bo‘ynida turli patologik jarayonlar: tug‘ma anomaliyalar, yallig‘lanish jarayonlari va o‘smalar, poliplar uchraydi. Bachadon bo‘yni poliplari 2-5 foiz hollarda uchraydi. Ular odatda endoservikal kanalda yuzaga keladi. Oyoqchali bo‘lishi, diametri 3 sm ga boradigan sferik yoki hemisferik shaklda bo‘ladi. Ba‘zan bachadon kanalida paydo bo‘lib, bachadon bo‘yninibg yo‘g‘omlashib ketishiga yoki tashqariga chiqib qolishiga olib keladi. Poliplar yumshoq bo‘lishi bilan ajralib turadi. Mikroskop bilan tekshirib ko‘rilganda fibromiksomatoz stromasi ko‘zga tashlanadi, unda kengaygan endoservikal bezlar bo‘ladi. Poliplar epiteliysi silindrsimon bo‘lib, shilimshiq ishlab chiqaradi. Surunkali yallig‘lanish boshlanganida silindrsimon epitaliy ko‘p qavatli yassi epiteliyga aylanib, yara bo‘lib ketishi mumkin. Va bu jarayonda malignizatsiya hodisasi kamdan-kam uchraydi.

Bachadon bo‘yni raki o‘lim sababi tariqasida ayollarda uchraydigan xavfli o‘smalar orasida 7-8 o‘rinda turadi. Epiteliy ichidagi rak aksari 30 yoshli ayollarda uchrasa, invaziv rak 40 yoshli va undan katta ayollarda uchraydi. Aytish mumkinki, ayollarda 83,3% xolatlarda yassi xujayrali rak turi uchramoqda. Aynan katta yoshli ayollarda rakning bu turi endofit shaklda o‘sib davoning qiyinlashiga va prognozining yaxshi bo‘lmasligiga sabab bo‘lmoqda. Gistologik jihatdan bachadon bo‘yni bachadonning qolgan qismidan farq qiladi va bachadon bo‘ynini uchta sohaga ajratishimiz mumkin, bular: endoserviks, transformatsiya sohasi va ektoserviks.

Bachadon o'smalarining ikki xil turi yassi hujayrali o'sma va adenokarsinomalar hisoblanadi. Yassi hujayrali o'sma kasalligi 90 %ni tashkil qiladi. Bachadon bo'yni yassi hujayrali karsinomasi transformatsiya zonadagi hujayralardan hosil bo'lsa, adenokarsinoma esa odatda endoservikal kanalda paydo bo'ladi. Bachadon bo'yni saratonining asosiy sababi HPV-odam papilloma virusidir. Odam papillomasi virusi - bu kelgusi hayot davomida deyarli 6 hildagi saraton kasalligiga olib keladigan keng tarqalgan virusdir. Saraton rivojlanishi, inson HPVni yuqtirib olganidan keyin namoyon bo'lguniga qadar bir necha yil, ko'pincha o'nlab yillar o'tadi.

Bachadon bo'yni o'smasi 4 ta bosqichdan iborat.

Erta bosqichi 1A, 1B va 2A larni o'z ichiga oladi.

Mahalliy rivojlangan bachadon o'smasi 2B, 3 va 4A bosqichlarni o'z ichiga oladi.

Bachadon bo'yni o'smasining rivojlangan bosqichi 4B bosqichidan iborat.

1A bosqichida o'sma bachadon bo'ynida o'sadi mikroskop orqali ko'rinadi va uning chuqurligi 5 mmdan, kengligi 7 mm dan oshmaydi.

1B bosqichida o'sma bachadon bo'ynida o'sadi va mikroskopsiz yoki mikroskop bilan ko'rinadi va kengligi 4smdan oshmaydi.

2A bosqichida bachadon bo'ynidan tashqarida o'sadi va 4 smdan oshmaydi.

2B o'simta bachadon bo'yni va bachadondan tashqarida ya'ni bachadon bo'yni va bachadon yonidagi to'qimalarga qarab o'sadi. Lekin tos bo'shlig'i devorlariga qarab o'smaydi.

3A bosqichida o'simta qinning pastki qismlariga qarab o'sgan bo'ladi.

3B bosqichida esa o'sma tos bo'shlig'iga qarab o'sib, siydik yo'lini to'sib qo'yadi va buyrakning kengayishiga (gidronefroz) va buyrakning ishdan chiqishiga olib keladi.

4A bosqichida o'sma tos bo'shlig'idan tashqariga, to'g'ri ichak va siydik pufagiga qarab o'sadi.

Bachadon bo'yni epitelisining I va II bosqichlarida kuzatiladigan struktura o'zgarishlari qaytar bo'ladi. III bosqichida esa displaziya sodir bo'lib, hujayralar atipikligi kuchayib boradi. Ushbu hujayralar polimorf, yadrolari giperxrom bo'ladi va epiteliy qutbligini yo'qotadi. Bu hujayralarda patologik mitoz amalga oshadi va bu

jarayon epiteliyning yuza qavat hujayralarida ham sodir bo‘ladi, biroq atipik hujayralar stromaga o‘tmaydi, balki “joyida qolgan rak”ni hosil qiladi(epiteliy ichidagi rak). Jarayonning keying IV bosqichi invaziv rak hisoblanadi va bu jarayon I bosqichdan boshlab hisoblaganda 10-15 yilni tashkil etadi. Patologik anatomiyasida displaziya va arak ko‘pincha silindrsimon epiteliyning ko‘p qavatli yassi epiteliyga aylanish joyida, ya’ni tashqi teshik halqasining atrofida paydo bo‘ladi. Invaziv rak uch xil shaklda

1. Qo‘ziqorinsimon rak
2. O‘sma o‘rtasi nekrozlanishidan payd bo‘lgan yara
3. Endofit ravishda o‘zib, pastdagi stromaga ham kirib boradigan infiltrative rak

Bachadon bo‘yni rakining mahalliy asoratlari- ikkala siydik yo‘li bsilib, bekilib qolishi, rakning qovuq yoki to‘g‘ri ichakka teshib chiqishi ko‘pincha o‘limga sabab bo‘ladi. Oqibati esa rakning bosqichi va davo usuliga bog‘liq. Klinik manzarasida intra epithelial rakning I bosqichi simptomsiz o‘tadi va instrumental tekshiruvlar paytida aniqlanadi.

Xulosa qilib rasmiy ma’lumotlarga ko‘ra har yili O‘zbekistonda 1660 nafar ayolga bachadon bo‘yni saratoni yuzasidan tashxis qo‘yiladi. Afsuski, har yili mamlakatda bachadon bo‘yni saratonidan 585 dan ortiq ayollar vafot etadi. Bugungi kunda HPA vaksinalari 20 yil davomida barcha daromad guruhlariga mansub bo‘lgan o‘nlab mamlakatlarda joriy etildi. Tajriba shuni ko‘rsatadiki, HPA bilan emlash juda havfsizdir. Jahon sog‘liqni saqlash tashkiloti va O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligi 9 yoshdagi qizlarga HPA vaksinasining ikki dozasini tavsiya qiladi. 2019 yil avgust oyida Sog‘liqni saqlash vazirligi UNICEF ko‘magida mamlakatning barcha mintaqalaridagi maktab o‘qituvchilari va tibbiyot xodimlarini o‘qitadigan asosiy trenerlar guruhi ushun yo‘naltiruvchi uchrashuvlarni tashkil qildi. HPA vaksinasi sizning qizingizni kelgusi hayotida saratonning ayrim havfli turlaridan ishonchli, samarali va uzoq muddatli himoya bilan ta’minlaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. M.S.Abdullaxo‘jayeva. Odam patologiyasi 1999. 420-422
2. Fertil va keksa yoshli ayollarda bachadon bo‘yni xavfli o‘smalari tahlili. Journal oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences-2021. Soxibova Z.R.
3. www.osmosis.org
4. www.unicef.org.

AGATA KRISTINING DETEKTIV ROMANLARIDA FOYDALANILGAN LINGVOPOETIK VOSITALARNING AHAMIYATI

Muhammadjonova Go‘zalxon Muhammadjonovna

Farg‘ona davlat universiteti falsafa fanlari doktori, dotsent

Rasulova Gulbahor Pahmidin qizi

Farg‘ona davlat universiteti 2-kurs magistranti

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada lingvopoetika tushunchasiga keng ta’rif berilib, bu atamaning qachon paydo bo‘lganligi (ya’ni tilshunoslar tomonidan qaysi davrda nomlanganligi), tasnifi va turlari aniq yoritiladi. Lingvopoetikaning tilshunoslikdagi o‘rniga ham o‘z navbatida to‘xtalib, buyuk ingliz yozuvchisi, detektiv romanlar qirolichasi Agata Kristining “Izquvar Puaro” romanida foydalanilgan Lingvopoetik vositalar adabiy jihatdan talqin etiladi.

Kalit so‘zlar: *lingvopoetika, badiiy til, tasviriy ifoda, uslubiyat, mubolag‘a, sifatlash, istorizm, arxaizm, lingvistika, poeziya.*

ANNOTATION

This article provides a broad definition of the concept of linguopoetics and clearly highlights when the term originated (i.e. in what period it was named by linguists), classification and types. The place of linguopoetics in linguistics is also touched upon. And the Linguopoetic tools used in the novel “Hercule Poirot” by the great English writer, Queen of detective novels Agatha Christie, are interpreted in literary terms.

Tabiiyki, badiiy asarni lingvopoetik tahlil qilishning bir qator tamoyillari mavjud. Badiiy matn lingvopoetikasi muammosini o‘zbek tili materiallari asosida mufassal tadqiq etgan M.Yo‘ldoshev lingvopoetik tahlilning quyidagi asosiy tamoyillarini ko‘rsatadi: 1) shakl va mazmun birligi asosida yondashuv; 2) makon va zamon birligidan kelib chiqish; 3) umumxalq tili va adabiy til munosabati asosida baholash; 4) badiiy matnga badiiy-estetik yaxlitlik sifatida yondashuv; 5) badiiy matnda poetik aktuallashgan til vositalarini aniqlash; 6) badiiy matndagi eksplitsitlik va implitsitlik nisbatini aniqlash; 7) badiiy matndagi intertekstuallik mexanizmlarining lisoniy va semantik xususiyatlarini aniqlash. Tadqiqotchi —lingvopoetik tahlilda badiiy matnda poetik aktuallashgan til vositalarini aniqlash muhim tamoyillardan¹ ekanligini alohida ta’kidlaydi, chunki —bunday vositalarning lingvistik va badiiy mohiyatini ochib berish orqali badiiy mazmunning shakllanishi va ifodalanishi mexanizmlarini aniq tasavvur qilish mumkin. Chindan ham, badiiy matnning estetik qimmatini bevosita belgilash va baholashda ayni shu tamoyil qulay va boshqa tamoyillar asosida ish ko‘rishda ham zamin vazifasini bajarishi mumkin

Yirik adabiyotshunos olim B.Sarimsoqov yozganiday: —Badiiylik — san’atning, jumladan, so‘z san’atining asosiy, doimiy xususiyati. Juda qadim zamonlardan buyon hozirga qadar ko‘plab olimlar badiiylikni xilma-xil talqinlar, ta’rifu — tavsiflar etib kelishadi. Ammo biron-bir olim badiiylik haqidagi mening talqinim to‘g‘ri, deb da’vo qila olmaydi. Chunki san’atning qoni va joni bo‘lmish bu hodisaning sir-sinoatlari beadad bo‘lib, ular bir davr adabiyotida, uning turli yo‘nalish va oqimlarida, har bir milliy adabiyot va uning ayricha olingan namoyandasida o‘ziga xos tarzda, o‘ziga xos miqyos va darajada namoyon bo‘ladi. Badiiylikning barcha zamonlar va ijodkorlar uchun mos keladigan andozalari ta’rifu talqinlari yo‘q, bo‘lishi ham mumkin emas. Qolaversa, badiiylikni har bir shaxs o‘z dunyoqarashi, g‘oyaviy-estetik tamoyillari, missiy olami va bilim doirasida idrok etadi va tushunadi. Ammo bu degani — badiylik hodisasini o‘rganishning umuman foydasi yo‘q, degani emas. Aksincha, har bir san’at turida badiiylikning namoyon bo‘lishi, miqyosi va darajalarini bevosita o‘sha soha mutaxassislari tomonidan muntazam o‘rganilib borishi zarur. Badiiy asarning

lingvopoetik tahlili tilning nazariy tomonlari, ijtimoiy funksiyalari va inson ma'naviyatining in'ikosi ekanini bir butun holda tasavvur etishimizga imkon yaratadi. Bir qarashda lingvopoetika atamasi tilimizda juda tanishdek tuyuladi. Biroq, bu atama o'zbek tili oilasida uchun eng kenja atamalardan biri bo'lib, uning asosiy vazifasi badiiy asarni tilning nazariy tomonlari, ijtimoiy jihatlari va inson ma'naviyati tomonidan talqin etish, va yuqorida sanab o'tilgan barcha jihatlarni bir butun holda tasavvur etishga xizmat qiladigan til hodisasi hisoblanadi. Chunki lingvopoetika o'z mazmun-mohiyatiga ko'ra tilshunoslik sohasi ko'plab tarmoqlarini o'zida mujassamlashtiribgina qolmay, ularning bir butun, yaxlitligini ta'minlash uchun xizmat qiladi. Lingvopoetik tahlil jarayoni faqat yozuvchining tili va yozish uslubi haqida ma'lumot berish bilan chegaralanmaydi, balki asar yaratilgan davr tilining o'ziga xos xususiyati, yozuvchining so'z boyligi, til vositalarining ifodalanish usullari, badiiy tasviriy va ifoda vositalarining til faktlari vositasida aks ettirilishi, umuman olganda, tilni uning barcha sathlari yuzasidan tahlil qilishdan iborat bo'ladi.

O'zbek tilshunosligida «lingvopoetika» atamasi hali yangi deb aytdik yuqorida, ammo bu o'sha davrlarda bu atama va uning tahlili umuman mavjud bo'lmagan degan fikrdan yiroq. Lingvopoetika o'tmishda ma'lum bir yozuvchining tili va uslubi doirasidagi tahlillardan iborat bo'lib, asosan uslubshunoslik yo'nalishi deya qaralgan. Badiiy til atamasi ko'p hollarda adabiyotshunoslik nuqtai nazaridan baholanadi, natijada ko'pchilik uni faqatgina tasviriy vositalarning qo'llanilishi jihatidagina baholaydi. Shu o'rinda «lingvistika» va «poetika» atamalariga e'tibor qarataylik, ularni bog'lab turgan ttash chiziq nima? Arastu o'zining mashhur «Poetika» asarida poetik san'at — she'riy navlar (janrlar) xususida to'xtalib, poetika — poeziya san'ati haqida so'z yuritgan. «Til va fikr» bobida esa nutq va fikrga tegishli hodisalarning ritorikaga aloqadorligi ta'kidlanib, uning nutq tuzish bilimlari bilan bog'liqligi e'tirof etiladi. Dalil sifatida qaraydigan bo'lsak, qadimgi fan tarixida ritorika alohida ahamiyatga ega bo'lgan. Lekin poetikani ritorikadan ajratib bo'lmaydi. Chunki har bir til hodisasi nutqiy vaziyatga o'tayotgan mahal, insonning tasavvuri, ruhiyati, hissiyotlari bu nutqiy bog'lanishga o'zaro aloqador holda ko'chadi. Va mana shu yerda ritorikaga

qo‘shimcha ravishda poetika paydo bo‘ladi. XX asr esa tilshunoslik uchun ulkan imkoniyatlar asri bo‘lgani bois, badiiy asardagi voqelik tasvirini har tomonlama, chuqur va yaxlit holda tadqiq etishni o‘zida aks ettiruvchi «lingvopoetika» atamasi paydo bo‘ldi. Bugungi kun filologiyasining dolzarb vazifalaridan biri o‘zbek lingvopoetikasining nazariy asoslarini ishlab chiqish, aniqrog‘i, bir tizimga solish, uning tadqiq usullari va vositalarini, tadrijiy takomlini yaxlit holda o‘rganish: barcha tushunchalarni guruhlashtirish va shu yo‘l bilan badiiylikni ta‘minlovchi unsurlarni ham til jihatdan tadqiq etishdan iborat.

Bizningcha, ularni quyidagi yunalishlar bo‘yicha tasniflash mumkin:

